

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA
INSTITUTI**

«JISMONIY TARBIYA VA SPORT» KAFEDRASI

«PSIXOLOGIYA»

fanidan

MA'RUZALAR MATNI

(2 – QISM)

NAMANGAN - 2017

Ushbu ma'ruza matni barcha bakalavriat ta'lim yo'nalishidagi talabalar uchun mo'ljallangan. Matn o'z ichiga mazkur o'quv yili uchun tasdiqlangan ishchi o'quv dasturi asosida foydalanish uchun tayyorlangan.

Ma'ruzalar matnining qayta nashri «Jismoniy tarbiya va sport» kafedrasining 2017 yil 29 dekabrda 5- sonli majlisida muhokama qilingan va ma'qullangan.

Ma'ruzalar matni institut Ilmiy - uslubiy kengashining 20__ yil _____ № -sonli yig'ilishida muhokama qilinib tasdiqlangan va chop etishga tavsiya qilingan.

T u z u v c h i:

Mullaboyeva N – katta o'qituvchi

Mas'ul muharrir:

Mullaboyeva N – katta o'qituvchi

T a q r i z c h i:

Maxsudova M. - psixologiya fanlari nomzodi, NamDU dotsenti.

KIRISH

Respublikada qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturida” yosh avlodni har tomonlama komil inson bo'lib yetishishida xizmat qiluvchi asosiy ilmiy asoslangan metodik poydevor hisoblanadi.

Mustaqillikning o'tgan yigirma uch yildan ortiq davri mobaynida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida tub ijobiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangilanish, mamlakat siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishini yanada yorqinlashtirish jarayoni barcha sohalar kabi psixologiya fanini o'qitish, ularning mazmun-mohiyatini davr talablari asosida qaytadan o'zgartirish vazifasini qo'ydi. Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi hamda Senatining qo'shma majlisida so'zlagan nutqida ta'kidlab o'tganidek, **“Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi, bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyati qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay izchil va qat'iyat bilan borishdir”**

Fan masalalarining dolzarbligi. Talabalarning olam, jamiyat va insonning o'rganishi psixologik bilimlarga zaruratining mavjudligi, ularning dunyoqarashini boyitish va rivojlantirishda psixologik qonuniyatlarni o'rganish ehtiyojining mavjudligi, inson psixologiyasining umumiy psixologik qonuniyatlarini, shaxs va voqelik, shaxs va jamiyat, shaxs va predmetlar olami o'rtasidagi munosabat, voqelikni anglashi, olamni psixologik tahlili, psixologik hodisalarning kechishi, psixologiyaning tarixiy va nazariy rolini jamiyatda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi xarakterlaydi.

Fanni o'qitishning maqsadi – talabalarda umumiy psixologik bilimlarni shakllantirish, voqelik va jamiyatdagi voqea-hodisalarning, shaxsni o'zida kechadigan jarayon va ijtimoiy psixologik bilimlarni shakllantirish, ularni jamiyat hayotida umumiy psixologik hodisalar, holatlar va jarayonlarning mohiyatini tahlil etishga, shaxsning kamoloti va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, uning individual psixologik xususiyatlari, emotsional va irodaviy sifatlarini tahlil etishga o'rgatishdan iborat.

Fanni o'qitishning vazifalari:

- inson ruhiyatini psixologik tahlil etish;
- umumiy psixologiya fanining jamiyat va shaxs kamolotidagi o'rnini talabalarga tushuntirish;
- voqea va hodisalarni psixologik nuqtai nazardan tahlil va tadqiq etish malakasini hosil etish;
- inson psixologiyasini umumiy ilmiy asoslarini o'rgatishni;
- jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatning psixologik qonuniyatlari asosida rivojlantirishni.

Fanlararo bog'liqlik – fizika, biologiya, oliy nerv tizimi fizilogiyasi va anatomiyasi, matematika va matematik modellashda o'rganiladigan muammolarning umumiyliigi bilan bir-biriga bog'langan.

Fanni o'qitish turlari – dasturda ko'rsatilgan mavzular ma'ruza, seminar shaklida olib boriladi, shuningdek, fanning dolzarb masalalari talabalarga mustaqil ish sifatida o'zlashtirish uchun beriladi. Fan bo'yicha mashg'ulotlar zamonaviy ta'lim texnologiyaning «Muammoli ma'ruza», «Klaster», «Birgalikda o'qiymiz», «Aqliy

hujum» singari metodlari orqali hamda slaydlar, multimediali elektron darslik namoyishlari bilan o'tkaziladi.

Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmaga qo'yiladigan talablar – voqelikni psixologik mushohada etish, narsa-hodisalarni ilmiylik va mantiiqiylik asosida o'rganish, ilmiy tafakkur va psixologik tasavvurning uyg'unligini ta'minlash, mustaqil va zamonaviy fikrlash, kundalik faoliyatdan umumiy psixologik bilimlarni va qoidalarni qo'llay olishdan iborat.

¹ Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. –T.: "O'zbekiston", 2005, 34 – b.

1-mavzu: Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanning ilmiy-tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Psixologiya fanining predmeti.
2. Psixologiya ijtimoiy fan sifatida
3. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'ri.
4. Psixologiya tabiiy va ijtimoiy fan sifatida.
5. Psixik aks ettirish shakllari.
6. Psixikaning asosiy funktsiyalari.
7. I.P.Pavlovning ikki signallar sistemasi haqidagi ta'limoti.
8. Psixologiyaning asosiy metodlari.
9. Psixologik metodlarning vazifalari.
10. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari.

Tayanch iboralar:

Animizm (lot. anima - jon) – odam, hayvonot, o'simlik, predmetlarda mustaqil jon borligi haqidagi tasavvur tizimi.

Assotsiatsiya – psixik hodisalar o'rtasidagi aloqa bo'lib, u aniq qonunlar asosida shakllanadi.

Ong – psixikaning eng yuksak darajasi bo'lib u faqat insongagina xosdir. Ong ijtimoiy – tarixiy sharoitda odam mehnat faoliyatining tarkib topishida til yordamida boshqa kishilar bilan doimiy munosabatda bo'lish natijasidir.

Ongsizlik – bu shunday psixik jarayonlar va hodisalar yig'indisiki, unda inson o'z xatti-harakatlariga javob bermaydi. Bunga tush ko'rish, ba'zi patologik hodisalar, alahlash gallyutinatsiya kabilar.

Ong osti holatlari – aktual ravishda anglab olinmaydigan psixik jarayonlar va psixik holatlar yig'indisi. Odamning xatti-harakatlari va uning mazmuniga ta'sir etishga qodir.

Psixika (yunon. psyuhikos-ruhiy) – yuksak darajada tashkil topgan materiya-miyaning funktsiyasi. Uning mohiyati tuyg'ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko'rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixologiya (yunon. Psyuxe – ruh, logos - bilim) – odamning ob'yektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg'u-hissiyot va boshqa psixik holatlar orqali aks ettirish jarayonini o'rganadigan fan.

Psixologiya asosan psixikani keng doirada tadqiq qiladi. Shunga ko'ra psixikaning yuzaga keltiruvchi asosiy psixik faoliyatlari ko'rsatilgan. Aynan psixik faoliyatlar quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi:

bilish faoliyatlari: diqqat, nutq, faoliyat;

bilish jarayonlari: sezgi, idrok, xotira, xayol, tafakkur;

shaxsning hissiy-irodaviy sifatlari: hissiyot, iroda;

shaxsning individual-psixologik xususiyatlari: temperament, xarakter, qobiliyat;

Psixologiyaning predmeti. “Psixologiya” so'zi ikkita grek so'zlaridan - “psyuxe” - jon, ruh va “logos”- ta'limot, ilm so'zlaridan iborat bo'lib, an'anaviy ma'noda inson ruhiy dunyosiga aloqador barcha hodisalar va jarayonlar uning predmetini tashkil etadi. Boshqacha qilib aytganda, psixologiyaning predmeti har birimizning tashqi olamni va o'z-o'zimizni bilishimizning asosida yotgan jarayonlar,

hodisalar, holatlar va shakllangan hislatlar tashkil etadi. Psixologiya bo'yicha adabiyotlarda uning predmetini qisqacha qilib, **psixikadir**, deb ta'rif berishadi. **Psixika** - bu inson ruhiyatining shunday holatiki, u tashqi olamni (ichki ruhiy olamni ham) ongli tarzda aks ettirishimizni, ya'ni bilishimiz, anglashimizni ta'minlaydi. Lekin bu qisqa ta'riflardan psixikaga aloqador jarayonlar ongning aks ettirish shakllari ekan, degan yuzaki xulosaga kelish noto'g'ri bo'ladi. Chunki inson psixikasi va uning ruhiy olamiga aloqador hodisalar va jarayonlar shu qadar murakkab va xilma-xilki, biz ba'zan o'z-o'zimizni ham tushunmay qolamiz. Shuning uchun ham odamlarning bilimdonligi nafaqat tashqi olamda ro'y berayotgan ob'yektiv hodisalar mohiyatiga aloqador bilimlar majmuiga ega bo'lish bilan, balki hayotda munosib o'rin egallash, o'z ichki imkoniyatlari va salohiyatidan samarali foydalangan holda faoliyatini oqilona tashkil etishning barcha sirlaridan boxabar bo'lish, o'ziga va o'zgalarga ta'sir ko'rsatishning usullarini bilish va ulardan o'z o'rnida unumli foydalanishni nazarda tutadi. Psixologik bilimdonlikning murakkabligi aynan shundaki, atrofimizdagi narsalar va hodisalarning mohiyatini bevosita his qilib bilishimiz mumkin, lekin psixik hayotga aloqador bo'lgan jarayonlarni, o'zimizda, miyamiz, ongimizda ro'y berayotgan narsalarning mohiyatini bilvosita bilamiz. Masalan, o'rtoqlarimizdan biri bizga yoqadi, doimo bizda yaxshi, ijobiy taassurot qoldira oladi, lekin uning u yoki bu xatti - harakatlarini bevosita ko'rib, baholab, tahlil qilolsak-da, unga nisbatan his qilayotgan mehrimizni, uzoq ko'rishmay qolganimizda uni sog'inayotganligimiz bilan bog'liq hisni bevosita ko'rib, idrok qilish imkoniyatiga ega emasmiz. Aynan shunga o'xshash holatlar psixologiya o'rganadigan hodisalar va holatlarning o'ziga xos tabiati va murakkabligidan darak beradi va ularni boshqa turli hodisalardan farq qiladi.

Shunday qilib, psixologiya fani o'rganadigan jarayonlar va hodisalar murakkab va xilma-xil. Ularni o'rganishning ikki jihati bor: bir tomondan, ularni o'rganish qiyin, ikkinchi tomondan oson ham. Yana bir jihati xususida shuni aytish mumkinki, bu hodisalar bevosita bizning o'zimizda berilgan, ularni uzoqdan qidirish, mavhum analogiyalar qilish shart emas, boshqa tomondan, ular o'zaro bir-birlari bilan bog'liq va umumiy qonuniyatlar va prinsiplarga bo'ysunadi. 1 - jadvalda psixik jarayonlarning namoyon bo'lish shakllari, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aks ettirilgan.

1 - jadval

PSIXIKANING NAMOYON BO'LIH SHAKLLARI VA ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGI
--

PSIXIK JARAYONLAR	PSIXOLOGIK HOLATLAR	SHAXSNING XUSUSIYATLARI
----------------------	------------------------	----------------------------

BILISH JARAYONI	HISSIY IRODAVIY	INDIVIDUALLIK
Sezgilar	Emotsiyalar	Yo'nalishlar
Idrok	E'tiqodlilik	Temperament

Xotira	Bardamlik	Xarakter
Tafakkur	Tetiklik	Qobiliyat
Xayol	Apatiya	Iqtidor
Nutq	Qiziquvchanlik	Aqliy salohiyat
Diqqat	Hayratlanish	Xulq motivatsiyasi
	Ishonchlilik	Ish uslubi
	Ijodiy ruhlanish	Mas'uliyat

Demak, qisqa qilib, psixologiyaning predmeti konkret shaxs, uning jamiyatdagi xulq - atvori va turli faoliyatlarining o'ziga xos tomonlaridir, deb ta'riflash mumkin.

Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'rni. Psixologiya yaxlit va mustaqil fan sifatida

odamlarda gumanistik mentalitetning shakllanishiga xizmat qilib, inson omiliga aloqadorligi uning shu yo'nalishdagi muammolarni ma'lum ma'noda o'rganadigan barcha fanlar bilan bevosita aloqasini taqozo etadi. Bular birinchi navbatda ijtimoiy-gumanitar fan sohalari bo'lib, psixologiyaning ular orasidagi mavqei o'ziga xos va yetakchidir.

Falsafa va uning oxirgi paytlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan ijtimoiy falsafa qismi bilan bo'lgan aloqa bu ikkala fanning inson va uning hayoti mohiyatini to'la anglash va uning rivojlanib tendensiyalarini belgilashdagi o'rni va ahamiyatidan kelib chiqadi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlanishiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'lishiga yordam beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, mustaqillik mafkurasi va milliy ongning shakllanishiga taalluqli umumiy ilmiy qonuniyatlarni izlashda ham yurtimiz sharoitida bu ikkala fan - falsafa va psixologiyaning hamkorligi bevosita sezilmoqda. Bu bog'liqlik avvalo yangicha tafakkur va dunyoqarashni shakllantirish muammosi ko'ndalang turgan tarixiy davrda milliy mafkura va milliy g'oyani shakllantirish kabi dolzarb vazifani bajarishga xizmat qilmoqda.

Sotsiologiya fani ham yangicha ijtimoiy munosabatlar sharoitida o'z taraqqiyotining muhim bosqichiga o'tgan ekan, psixologiya ushbu fan erishgan yutuqlardan ham foydalanadi, ham ularning ko'лами kengayishiga baholiqudrat xizmat qiladi. Ayniqsa, psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan, bugungi taraqqiyot davrimizda alohida ahamiyat kasb etgan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo'lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta'minlash ishiga xizmat qiladilar. qolaversa, xuquqiy, demokratik davlat qurish ishini sobitqadamlik bilan amalga oshirayotgan O'zbekiston aholisining huquqiy madaniyatini va demokratik o'zgarishlarga psixologik jihatdan tayyorligini amalda ta'minlash, bu sohada muntazam tarzda ijtimoiy fikr va insonlar fikr va qarashlaridagi o'zgarishlarni o'z vaqtida o'rganish, bashorat qilish va taraqqiyot mezonlarini ishlab chiqishda ikkala fanlar metodologiyasi va metodlarini birlashtirish tadbiquy ahamiyat kasb etadi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o'zaro hamkorligi va aloqasi an'anaviy va azaliy bo'lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli

va nufuzi o'ziga xosdir. Respublikamizda amalga oshirilayotgan yangi "Ta'lim to'g'risidagi" qonun hamda "Kadrlar tayyorlashning milliy Dasturi"ni amalga oshirish ham ikki fan hamkorligi va o'zaro aloqasini harqachongidan ham dolzarb qilib qo'ydi. Milliy dasturda e'tirof etilgan yangicha modeldagi shaxsni kamol toptirish, uning chuqur bilimlar sohibi bo'lib yetishishi, barkamolligini kafolatlovchi shart - sharoitlar orasida yangi pedagogik texnologiyalarini ta'lim va tarbiya jarayonlariga tadbiq etishda pedagogikaning o'z uslub va qoidalari yetarli bo'lmaydi. Shuning uchun ham psixologiya u bilan hamkorlikda yosh avlod ongining ta'lim olish davrlaridagi rivojlanish tendensiyalaridan tortib, toki yangicha o'qitish texnologiyalarini bola tomonidan o'zlashtirilishi va undagi aqliy hamda intellektual qobiliyatlarga nechog'lik ta'sir ko'rsatayotganligini o'rganish va shu asosda ishni tashkil etish psixologiyadagi metodlarni didaktik metodlar bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Ayniqsa, ma'naviy barkamollik tamoyillarini maktabda va yangi tipdagi ta'lim muassasalarida joriy etish ham shaxs psixologiyasini teran bilgan holda o'qitishning eng ilg'or va zamonaviy shakllarini amaliyotga tadbiq etishni nazarda tutadi.

Iqtisodiyot bilan psixologiyaning o'zaro aloqasi va hamkorligi ham yangilik bo'lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o'tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlarini o'rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi. O'zbekiston Prezidenti I. Karimov mustaqillikning dastlabki yillaridayoq fuqarolarda, birinchi navbatda, yoshlarda yangicha iqtisodiy tafakkur shakllanishining jamiyat iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyatiga e'tiborni qaratgan edilar. Demak, yangi davr shaxsini tarbiyalash va uning jamiyatgi moslashuvi masalasida psixologiya iqtisodiyot fanida qo'lga kiritgan yutuqlar, yangiliklar va iqtisodiy samaraga erishish omillarini hisobga olsa, iqtisodiyot o'z navbatida iqtisodiy islohotlarning ob'yekti hamda sub'yekti bo'lmish inson omilidagi barcha psixologik o'zgarishlarni aniqlash, tahxli qilish va shu asnoda bashorat qilish vazifasini yechishi kerak.

Yuqorida ta'kidlangan fan tarmoqlari psixologiya bevosita uzviy aloqada rivojlanadigan fanlarning asosiy qismi xolos. Bugungi kunda har bir fan rivoji uchun inson omilini hisobga olish zarur ekan, psixologiya o'sha barcha fanlar bilan aloqada va hamkorlikda rivojlanadi.

Yuqoridagi fikrlar va psixologiya bevosita aloqador bo'lgan fanlarning xarakteriga bog'liq tarzda bugungi kunda psixologiyadan nisbatan alohida bo'lib ajralib chiqqan tarmoqlar to'g'risida ham fikr yuritish mumkin.

Psixologiyaning tarmoqlari. Psixologiyaning alohida tarmoqlarini differensiasiya qilish eng avvalo ishlab chiqarishdagi inson faoliyati kechadigan sohalar va ularning vazifalaridan kelib chiqadi. hozirgi davrga kelib psixologiyani inson shaxsi haqidagi eng muhim fanlardan biri sifatidagi ahamiyatini hamma tan olmoqda. Inson shaxsning esa bevosita kirib bormagan sohasini topish qiyin. Psixologiya iqtisod, pedagogika, falsafa, mantiq, sosiologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqador fan hisoblanadi. Chunki hamma sohada inson shaxsi faoliyat ko'rsatar ekan, har bir sohada ishni samarali tashkil etish, olib borish uchun kishilar psixologiyasini, shaxslararo munosabatlar psixologiyasini, odamlarning turli vaziyatlardagi xulq-atvor normalarini bilish va shunga ko'ra ish olib borish muhimdir. Shuning uchun hozirgi davr mutaxassisleri psixologik bilimlardan boxabar bo'lishlari lozimdir.

Hozirgi zamon psixologiya sohalari bugungi kunga kelib 300dan ortiqni tashkil etadi. Bu sohalar o'ziga xos ob'yektga ega bo'lib, bir-biridan farq qiladi. Shu bois fan sohalarini o'rganish qulay bo'lishi uchun taqmoqlarni ma'lum tizimga keltirish maqsadida ma'lu guruhlarga tasniflash joriy qilingan. Bu borada professor A.V.Petrovskiy psixologiya fan sohalarini quyidagicha tasniflashni ilgari suradi:

- **Aniq faoliyat turlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari:**

- mehnat psixologiyasi; muhandislik psixologiyasi, aviatsiya psixologiyasi, kosmik psixologiya,

- pedagogic-psixologiya; ta'lim psixologiyasi, tarbiya psixologiyasi, o'qituvchi psixologiyasi

- tibbiyot psixologiyasi; neyropsixologiya, psixofarmakologiya, psixoterapiya,

- yuridik psixologiya; sud psixologiyasi, criminal psixologiya,

- Harbiy psixologiya;

- Sport psixologiyasi;

- Savdo psixologiyasi;

- San'at psixologiyasi;

- Ilmiy ijodiyot psixologiyasi.

- **Rivojlanishning yosh xususiyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohalari:**

- yosh psixologiyasi; patopsixologiya;

- oligofrenopsixologiya, surdopsixologiya, tiflopsixologiya;

- Qiyosiy psixologiya;

- Akmeologiya;

- **Shaxs va jamiyatga bo'lgan munosabatni o'rganuvchi psixologiya sohalari:**

- Ijtimoiy psixologiya;

- Differensial psixologiya;

- Din psixologiyasi;

- Etnopsixologiya;

- Boshqaruv psixologiyasi;

- Marketing psixologiyasi,

Shu bilan birga psixologiyaning bir qator tadbqiqiy sohalari ham mavjud.

- Eksperimental psixologiya;

- Ekstremal psixologiya;

- Psixofiziologiya;

- Siyosiy psixologiya;

- Oila psixologiyasi;

- Parapsixologiya.

- **umumiy psixologiya** - psixologiyaning barcha masalalarining o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus sohasi;

- **pedagogik psixologiya** - kishiga ta'lim va tarbiya berishni psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;

- **yosh davrlari psixologiyasi** - turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayonini, shaxsning shakllanishi va o'zaro munosabatlari qonuniyatlarini o'rganadi;

- **ijtimoiy psixologiya** - odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;
- **mehnat psixologiyasi** - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- **muhandislik psixologiyasi** - avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorning faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;
- **yuridik psixologiya** - huquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;
- **harbiy psixologiya** - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, boshliqlar bilan ijro etuvchilar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;
- **savdo psixologiyasi** - jamiyatda tijoratning psixologik sharoitlari, ehtiyojning individual, yoshga oid, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi, modalar psixologiyasi kabi masalalarini ko'radi;
- **tibbiyot psixologiyasi** - shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Shuningdek psixologiyada etnopsixologiya, oilaviy hayot psixologiyasi, boshqaruv psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, rahbar psixologiyasi, psixodiagnostika va boshqa ko'plab sohaları mavjud.

Psixika - bu yuksak darajada tashkil topgan materiyaning sistemali xossasi (xususiyati), sub'yekt tomonidan ob'yektiv borliqni faol aks ettirish, mazkur borliq manzalarini sub'yekt o'zidan uzoqlashtirmay ifodalash, xuddi shu asnoda o'z xulqini va faoliyatini shaxsan boshqarishdir. Psixikada o'tmishning, hozirgi davr va kelasi zamonning hodisalari ifodalangan tartibga solingandir. Inson psixikasida ham anglanilmagan, ham anglangan xususiyatga ega bo'lib, anglanilmagan psixika o'z navbatida hayvon psixikasidan sifat jihatidan keskin tafovutga va ustuvorlikka ega.

Psixikaning reflektiv tabiati, xususiyati to'g'risida mulohaza yuritilganda rus olimi I.M.Sechenov va uning shogirdlari tomonidan to'plangan materiallar tasavvur etiladi. I.M.Sechenovning **“Bosh miya reflekslari”** nomli asarida qat'iy ravishda fikr bildirishicha, **“ong va ongsiz hayotning barcha harakatlari ro'y berish usuliga ko'ra reflekslardan iboratdir”**. Psixik hodisa sifatida ongning harakati tanasiz ruhning xususiyatiga emas, balki tadqiqotchining mulohazasiga qaraganda, ro'y berish, vujudga kelish usuliga, tuzilishiga binoan refleksga o'xshash hislatga ega bo'lgan jarayondir. Shundan kelib chiqqan holda fikr yanada rivojlantirilsa psixik hodisa insonning shaxsiy g'oyalarini, hissiy kechinmalarini, sezgi va idrok jarayonlarini o'zi kuzatish jarayonida aks etuvchi voqelikdangina iborat emas, balki u refleks singari tashqi qo'zg'atuvchilarning ta'sirini va unga javoban bildiriladigan harakat reaksiyasini ham o'zida mujassamlashtiriladi. Ma'lumki, I.M.Sechenovgacha bo'lgan psixologik, fiziologik nazariyalarda insonning ongida obrazlar, tasavvurlar, mulohazalar, g'oyalar tarzida in'ikos (aks) ettiriluvchi hodisalarni psixologiya fanining predmeti sifatida tan olinar edi. Lekin bu psixologik voqelik Sechenov tomonidan organizmning muhit bilan o'zaro ta'sir harakatining alohida shaklidan iborat ekanligi, psixologik yaxlit jarayonining ayrim holatlari, uning lahzalari tariqasi tushuntiriladi. Psixologiyada tan

olib kelinayotgan psixik jarayonlar ongning ichida tug'iladi va uning ichida yakunlanadi, degan g'oya I.M.Sechenov tomonidan inkor qilinadi, asossiz davol ekanligi ta'kidlanadi.

I.M.Sechenovning fikricha, psixik hodisa bus-butun reflektor harakat tufayli yuzaga keluvchi va uning mahsuli bo'lishi bilan birga ham vujudga kelmagan, lekin ta'sir o'tkazish ehtimoli mavjud, kutilmagan, boxabar qiluvchi omil funksiyasini ham bajaradi, ya'ni ilgari lab ketuvchi bashorat vazifasini bajaradi. Bunday dadil ilmiy mushohadalar psixik jarayonlar umuman qanday rol o'ynashi mumkinligi, ularning o'rni to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi moddiy negizni vujudga keltiradi. Psixik jarayonlar organizmda signal va boshqaruv funksiyasini ijro etib, o'zgaruvchan shart-sharoitlarga harakatni moslashtiradi, shuningdek, mazkur daqiqada yuqori samaraga erishishni ta'minlaydi. Psixik jarayon miyaning bo'linmalari (tarkibiy qismlari) funksiyasi tariqasida tashqi olam (borliq) to'g'risidagi axborotning qabul qilinishi, saqlanishi, qayta ishlanishini o'zida mujassamlashtiruvchi javob faoliyatining idora qiluvchisi hisoblanadi. Shuning uchun odamlarning bilimlari borliq to'g'risidagi tasavvurlar, shaxsning shaxsiy tajribalarning yig'indisi reflektor harakat tarkibiga kiradi. Shunday qilib, psixik hodisalar deganda miyaning tashqi (qurshab turgan olam) va ichki (fiziologik tizimdagi organizmning holati) ta'sirlarga javobini tushunmoq kerak. Boshqacha so'z bilan aytganda, psixik hodisalar: **birinchidan**, bu faoliyatning favqulodda ta'sir etayotgan (sezgilar, idrok), **ikkinchidan**, o'tmish tajribada (xotira) aks etgan qo'zg'atuvchiga javob tarzida ro'yobga chiqadigan, mazkur ta'sirni umumlashtiradigan, **uchinchidan**, pirovard natijalarni (tafakkur, xayol) oldindan payqashga yordam beradigan, **to'rtinchidan**, monoton taassurotlar oqibatida faoliyatni (his-tuyg'u, iroda) kuchaytiradigan yoki susaytiradigan, **beshinchidan**, umuman faollashtirib yuboradigan o'zgacha taassurotlar natijasida uni tormozlaydigan, **oltinchidan**, shaxs xulq-atvoridagi (temperament, xarakter va hokazolar) tafovutlarni aniqlaydigan doimiy reguliyatorlari (idora qiluvchilari)dir.

Nerv sistemasining asosiy unsurlari nerv hujayralari (neyronlar) hisoblanib, ularning funksiyasi qo'zg'atishdir. Neyron hujayra tanachasidan dendritdan, aksondan tashkil topadi. Markaziy nerv sistemasi bosh miya va orqa miyadan iborat, hozirgi zamon fanining ko'rsatishicha, orqa miya va miya naychasi reflektor faoliyatining tug'ma (shartsiz reflekslar) hisoblangan shakllarni amalga oshiradi, katta yarim sharlarning qobig'i esa hayotda orttirilgan, psixika yordami bilan boshhariladigan xulq-atvor shakllarining organi sanaladi.

Miya katta yarim sharlari faoliyatining umumiy qonuniyatlari I.P.Pavlov tomonidan kashf etilgan. hozirgi zamon fiziologiyasi ma'lumotiga qaraganda, miyada hosil bo'ladigan to'lqinlar turli chastotadagi elektromagnit tebranishlarga o'xshab ketadi. Miya elektroensefologramma ko'rinishdagi kuchaytirgich yordamida yozib olish mumkin bo'lgan elektr toklari paydo bo'lishining kashf etilishi muhim ahamiyatga ega. Chunki kosmonavt miyasining biotoklari yozuvi uning markaziy nerv sistemasida yuz beradigan o'zgarishlar ko'rsatgichi bo'lib xizmat qiladi. Odamning psixik hayotida katta yarim sharlar qobig'i sirtining peshona qismlari alohida rol o'ynaydi. Psixik funksiyalar muayyan tarzda chap va o'ng yarim sharlar o'rtasida taqsimlanishi chuqur o'rganilgan. Ma'lumki, psixikaning mazmuni tirik mavjudot o'zaro munosabatda bo'ladigan tashqi olam bilan belgilanadi. Shuning uchun tashqi olam inson miyasi

uchun shunchaki oddiy biologik muhit emas, balki odamlar tomonidan ularning ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida yaratilgan hodisalar olami hamdir.

Psixik va nerv-fiziologik jarayonlarning o'zaro munosabati masalasi murakkab muammolardan hisoblanadi. Psixikaning o'ziga xos xususiyatlari nerv-fiziologik xususiyatlaridan qanday muhim belgilari bilan farqlanishini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Agarda mazkur o'ziga xoslik mavjud bo'lmaganida edi, u holda psixologiya mustaqil bilim sohasi sifatida tadqiq etilishi ham mumkin emasdi. Psixik jarayonlar o'zida ichki, fiziologik jarayonlarni emas, balki ob'yektlarning tavsifining mujassamlashtiradi.

Psixik hodisalar deganda bilish jarayonlari, psixologik holatlar va shaxsning individual psixologik xususiyatlari tushuniladi. Shunday savol tug'iladi: Psixologiya psixika xususiyatlarini o'rganar ekan, psixikaning o'zi nima, moddiy asosi mavjudmi?

Psixika albatta moddiy asosga ega. Uning moddiy asosi bosh miya yarim sharlari va nerv sistemasi faoliyatidan iborat. Psixikaning ta'rifi: **Psixika** - bu ob'yektiv reallikni sub'yektiv tarzda aks ettirishdan iborat bo'lgan murakkab psixofiziologik jarayondir. Psixika bu tor ma'noda psixik hayotning kechishi, o'ziga xosligini o'zida mujassamlashtirgan tushunchadir. Psixika bu aks ettirishdir. Bunda oddiy sezgilar orqali aks ettirishdan tortib, tafakkur, hissiyot va boshqa yuksak funktsiyalar orqali aks ettirish mujassamlashadi. Masalan: sezgilar orqali aks ettirish deganda qo'lni issiq suvga tegishi.

Psixika ikki funktsiyani bajaradi:

Aks ettirish, ya'ni psixika yordamida tashqi ta'sirlar inson miyasida aks etadi va u yoki bu usullar yordamida ta'sirlarga nisbatan javob qaytaradi, xatti-harakatni va faoliyatni boshqarish. Bunda psixika individning har bir xsatti-harakatini va faoliyatini kechishini ta'minlaydi, nazorat qiladi va boshqaradi.

Aks ettirishda va boshqarishda inson psixikasi bilan hayvon psixikasi o'rtasida farqlar mavjud. Mashhur rus fiziologi I.P.Pavlov ana shunday farqlarni o'zining **"Ikki signallar sistemasi"** haqidagi ta'limoti asoslab berdi. hayvonlar va odamlar har ikkalasida ham ularning tashqi muhit bilan o'zaro harakatlari miya tomonidan boshqarilishi qonuniyatini I.P.Pavlov kashf etdi. Unga ko'ra hissiy organlar orqali qabul qilinadigan voqeliklar haqidagi ma'lumotlar birinchi signal sistemasi hisoblanadi va ular bosh miya yarim sharlarining chap qismi faoliyati bilan amalga oshiriladi. Bu signal sistema ma'lumotlarni (axborotlarni) qabul qilishning birinchi kanali hissiy organlar orqali amalga oshiriluvchi kanal hisoblanadi. Masalan: narsalarning timsollari (ko'rinishi, eshutilishi, hid tarqatilishi) hayvonlar uchun shartsiz qo'zg'atuvchi signal bo'lib xizmat qiladi va shular asosida hayvon muhitda mo'ljal oladi. xatto birinchi signal sistemasi faoliyati hayvonlarning hayotini belgilovchi manba hisoblanadi. hayvonlarning butun psixik faoliyati birinchi signal sistemasi doirasida yuz beradi. Odamlarda ham birinchi signal sistemasi signallari uning xulq-atvorini boshqarish va yo'naltirishda muhim rol o'ynaydi. Masalan: svetofoarning qizil chiroqi qaydovchi uchun signal qo'zqatuvchi bo'lib qator harakatlantiruvchi jarayonlarni hosil qiladi. Natijada haydovchi tormozni bosib mashinani to'xtadi. Lekin hayvonlardan farqli insonlarda ma'lumotlarni qabul qilishning ikkinchi signali ham mavjud. Uni I.P.Pavlov ikkinchi signal sistemasi deb nomlagan. Bunda odam uchun so'z har qanday

qo'zg'atuvchining o'rmini bosa olish xususiyatiga ega ekanligini ta'kidlaydi. I.P.Pavlov so'zi bilan aytganda: «**So'z bu signallarning signalidir**». Inson asosan ikkinchi signal sistemasi faoliyati doirasida o'z hayot faoliyatini amalga oshiradi. Ma'lumotlarni qabul qiladi va o'ziga xos tarzda javob qaytaradi.

I.M.Sechenov psixikaning reflektorligi va faoliyatning psixik jihatdan boshqarilishi ta'limotini xaspo'shlab berdi. Bu ilg'or g'oya, ta'limot, nazariya rus olimi I.P.Pavlov (1849-1936) tomonidan eksperimental tasdiqlandi va xususiy holatlarda keng ko'lamda yaqqollashtirildi. I.P.Pavlov ham odamlarning, ham hayvonlarning tashqi muhit bilan o'zaro harakati miya bilan boshqarilishi qonuniyatini ochgandi. Uning mazkur qonuniyatlarga taalluqli qarashlari yig'indisi birinchi va ikkinchi signallar tizimi to'g'risidagi ta'limot tariqasida fan olamida arzigulik mavqe egalladi.

Tevarak-atrof muhitidagi narsa va hodisalarning ko'rinishi, eshitilishi, hid tarqalishi, tovlanashi, yengil va og'irligi, qattiq yoki yumshoqligi kabilar hayvonlar uchun shartsiz qo'zg'atuvchi signal bo'lib xizmat qiladi, keyinchalik ular shartli refleksga aylanishi mumkin. hayvonlar o'z xatti-harakatlarida I.P.Pavlov ta'biri bilan aytganda, birinchi signal sistemasining signallariga rioya etadilar. Binobarin, ularning psixik faoliyati birinchi signallar sistemasi bosqichida amalga oshadi va unga uzluksiz ravishda amal qiladi. Inson faoliyati va xulq-atvori uchun ham birinchi signal sistemasining signallari (yaqqol, tasavvurlar, timsollar, obrazlar)ni boshqarishi, yo'naltirishi, harakatlantirilishi faollashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, (yo'l, ko'cha) qoidalar avtomobil, elektrovoz signallari, xavf-xatar belgilari shaxs uchun muhim rol o'ynaydi. Shuni unutmaslik kerakki, insonning xulq-atvorini signal qo'zg'atuvchilar mexanik ravishda bosharmaydi, balki mazkur qo'zg'atuvchilarning miyaga o'rnashib qolgan timsollari, ya'ni signallari boshqarib turadi. Muayyan timsolga ega bo'lgan timsollar narsa va hodisalar to'g'risida signal jo'natadi. Buning natijasida insonning xatti-harakatini boshqarib turadi. Odamlarda hayvonlardan farqli o'laroq, **birinchi signallar** sistemasini bilan bir qatorda ikkinchi signallar sistemasi ham mavjuddir. **Ikkinchi signallar** sistemasining signallari odamlar tomonidan talaffuz etilgan, qabul qilingan, eshitilgan, o'qilgan, tushunchalar va so'zlardan tashkil topadi. Odamda birinchi signallar sistemasining signallari timsoliy signallar, o'z navbatida so'zlar bilan almashtiriladi, uzatiladi. So'z birinchi signallar sistemasi signallari o'rmini bosishi, umumlashtirishi va ular vujudga keltiradigan jamiki xatti-harakatlarni amalga oshirishi mumkin. Signalning kuzatuvchilar bilan ularning miyada so'zlarning mazmuni, mohiyati, ma'nosi tarzida mujassamlashuvini o'zaro tafovutlash maqsadga muvofiq. Mabodo so'zning ma'nosi shaxsga tanish bo'lsa, u holda uning xulq-atvorini boshqara oladi, tabiiy yoki ijtimoiy muhitga moslashuvini ta'minlashga yordam ko'rsatadi. Agarda so'zning ma'nosi notanish bo'lsa, u odamga faqat birinchi signallar sistemasining signallari tarzida ta'sir o'tkazadi yoki shaxs uchun ahamiyatsiz narsaga aylanib qoladi. Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, psixika ob'yektiv borliqning sub'yektiv obrazining voqelik tarzida miyada aks etishi deb baholash mumkin.

Psixik faoliyatni ong nuqtai-nazaridan ikkiga ajratiladi:

Ongsiz psixik xususiyatlar. Ongli psixik xususiyatlar.

Ong insonda ijtimoiy muhit tomonidan orttirilgan xususiyat hisoblanadi. Onglilik individning o'z-o'ziga, predmetlarga, narsa va hodisalarga munosabatlarda

ifodalanadi. har bir individ psixikaga ega, lekin insonga psixikaning yuksak shakli bo'lgan ong ham xosdir. Psixikaning yuksak shakli deyishimizning sababi ong tufayli inson ijtimoiy tajribalarni o'zlashtiradi. Jamiyatda muayyan mavqeni egallaydi. O'zlashtirgan tajribalarni rivojlantiradi va uni o'zidan keyingi avlodlarga uzatadi. Psixika bu tabiiy voqelik hisoblanadi, ya'ni tabiiy xususiyat. Ong esa faqat insonlarga xos bo'lgan ijtimoiy xususiyat hisoblanadi. Evolyutsion taraqqiyot jarayonida psixika bir nechta bosqichlarda taraqqiy etishi namoyon bo'ladi. Ya'ni **psixika** taraqqiyotining **uchta bosqichi** mavjud:

1. Sensor bosqich. Bu bosqichda turuvchi hayvonlarga bir hujayrali amyobalar, tufelkalar va hokazolar kiritiladi. Ularga psixikaning faqat bitta xususiyati-sezgirlik, seskanuvchanlik xususiyati xosdir. har qanday ta'sirga ular seskanish bilan javob beradi. Bu bosqich elementar sezgirlik bosqichi deyiladi. har bir bosqich hayvonning nerv sistemasi tuzilishi bilan bog'liq (sensor-his qilish, sezish ma'nosini bildiradi).

2. Pertseptiv bosqich. Bu bosqichda turuvchilarga murakkab tuzilishga ega bo'lgan sut emizuvchilar, umurtqali hayvonlar kiradi. Perseptiv-idrok qilish ma'nosini anglatadi. Nerv sistemasi, organizm tuzilishi qanchalik murakkab bo'lsa, psixika ham murakkablashib boraveradi. Masalan: sut emizuvchilar voqea hodisalarni idrok qila olish, tushunish qobiliyatiga ega. Bu bosqichda turuvchi hayvonlarning yashash sharoiti ham ularning psixikasining taraqqiyotiga ham ta'sir ko'rsatadi.

3. Intellektual bosqich. Bu bosqichga yuksak taraqqiyot etgan hayvonlar kiritiladi. Masalan maymunlar. Ularga psixikaning murakkab aks ettirish xususiyati xos bo'lib, vaziyat talab qilganda elementar fikr yuritish operatsiyalarining mavjudligini namoyon etadi. Ya'ni bular ham elementar tafakkur qilish xususiyatiga ega. Lekin bu xususiyat vaqtinchalik bo'lib, faqat vaziyat taqozosi tufayli yuzaga keladi. Masalan: maymun ustida o'tkazilgan tajriba.

Psixologiyada **onglilik** va **ongsizlik** masalasi mutaxassislar tomonidan juda ko'p o'rganilgan. Masalan: avstraliyalik psixiatur psixoanaliz maktabining asoschisi Zigmund Freyd fikriga ko'ra kishining ongsiz harakatlari ongli harakatlarni boshqaradi. Kishi jamiyatda yashab, jamiyat talablari asosida o'zida jamiyatga xos bo'lgan xulq-atvor xususiyatlarini shakllantiradi. Nima mumkinu, nima mumkin emas? har bir ongli harakatning asosida insonning ma'lum ehtiyojlarini qondirish uchun harakat ifodalanadi. Ma'lumki, insonda moddiy va ma'naviy ehtiyojlar mavjud. Ongli inson jamiyatda yashab faoliyatni bajarish va hayot kechirishi uchun doimiy ravishda tabiiy ehtiyojlarga ijtimoiylashgan tarzda qondirib boradi. Ijtimoiylashgan tarzda ongli jamiyat a'zosi bo'lgan insonga xos ma'naviy ehtiyojlardan biri doimiy ravishda o'z **“men”**ini boshqalar tomonidan tan olishiga erishish va boshqalar ko'z o'ngida ijobiy shaxs sifatida o'zini namoyon qilishdan iborat. Aynan shu ehtiyojni kishini o'ziga nisbatan, narsa hodisalarga nisbatan kishilarga nisbatan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishini ta'minlaydi va aynan shu ehtiyojlarni qondirish asosida ijtimoiy xulq normalariga qat'iy rioya qilishga harakat qiladi.

Ongsizlikning onglilikdan farqi shuki, uning tomonidan aks ettiriluvchi voqelik sub'yektning kechinmalari bilan, uning borliqqa munosabati bilan qo'shilib, aralashib ketadi. Shuning uchun ongsizlikda sub'yekt tomonidan amalga oshiriluvchi xatti-harakatlar natijasini ixtiyoriy ravishda nazorat qilish va baholash imkoniyati mavjud

emas. Ongsizlikda voqelik sub'yektning o'xshashlik, ayniyat singari mantiqiy shakllariga asoslanib aks ettiriladi.

Psixologiyaning asosiy metodlari. Aniq izlanish predmetiga ega bo'lgan har qanday fan o'sha predmetining mohiyatini yoritish va materiallar to'plash uchun maxsus usullar va vositalardan foydalanadi va ular fanning metodlari deb yuritiladi. Fanning salohiyati va obro'si ham birinchi navbatda o'sha metodlar yordamida to'plangan ma'lumotlarning ishonchliligi va validliligiga bog'liq bo'ladi. Bu fikrlar bevosita psixologiyaga ham aloqador bo'lib, metodlar masalasi bu fanda juda katta ahamiyatga molik masala sifatida haraladi. Chunki yuqorida ta'kidlaganimizdek, psixik hodisalarni bevosita qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ilg'ab, quloq bilan sezish qiyin. Lekin juda ko'plab fanlar bilan faol hamkorlik shunga olib kelganki, psixologiyaning har bir tarmog'i o'z vazifalarini yechish va ma'lumotlarga ega bo'lish uchun ko'plab metodlarni sinovlardan o'tkazib, eng ishonchli va mukammallarini saqlab qolgan.

Matematik statistika va ehtimollar nazariyasining psixologiya sohasida qo'llanilishi va unda erishilgan muvaffaqiyatlar avvalo har bir metodning ishonchlilik darajasini aniqlash, qolaversa, to'plangan ma'lumotlarning qay darajada asosli va valid ekanligini isbotlashga yordam beradi.

2 - jadvalda asosiy psixologik metodlar va ularni qo'llash shakllari keltirilgan.

Jadvalda keltirilgan metodlar yordamida tadqiqotchi yoki qiziqqan shaxs u yoki bu psixik jarayon, holat yoki shaxs xususiyatlari to'g'risida birlamchi ma'lumotlar to'playdi, to'plangan ma'lumot yana taxlil qilinadi va maxsus tarzda ishlatilishi mumkin.

Kuzatish metodi tabiiy metodlar jumlasiga kiradi. Tashqi kuzatuv mohiyatan kuzatiluvchi xulq - atvorini bevosita tashqaridan turib, kuzatish orqali ma'lumotlar to'plash usulidir. O'z - o'zini kuzatish esa odam o'zida kechayotgan biror o'zgarish yoki hodisani o'zi o'rganish maqsadida ma'lumotlar to'plash va qayd etish usulidir.

Erkin kuzatuv ko'pincha biror ijtimoiy hodisa yoki jarayonni o'rganish maqsad qilib qo'yilganda qo'llaniladi. Masalan, bayram arafasida aholining kayfiyatini bilish maqsadida kuzatuv tashkil qilinsa, oldindan maxsus reja yoki dastur bo'lmaydi, kuzatuv ob'yekti ham qat'iy bo'lishi shart emas. Yoki dars jarayonida bolalarning u yoki bu mavzu yuzasidan umumiy munosabatlarini bilish uchun ham ba'zan erkin kuzatish tashkil etilishi mumkin. **Standartlashtirilgan kuzatuv** esa, buning aksi bo'lib, nimani, qachon, kim va kimni kuzatish qat'iy belgilab olinadi va maxsus dastur doirasidan chiqmasdan, kuzatuv olib boriladi.

Tadqiqot metodlarini ilmiy jihatdan tahlil qilgan rus psixologi **Boris Gerasimovich Anan'ev (01.08.1907-18.05.1972)** mazkur metodlarni xususiyatlariga qarab klassifikatsiya qilgan va psixikani o'rganish metodlarini quyidagi guruhlariga ajratib o'rgangan:

1. **tashkiliy guruh** – qiyoslash, longityud, kompleks metodlari;
2. **emperik guruh** – kuzatish, eksperiment, suhbat, so'rovnoma, test, faoliyat mahsulini o'rganish metodi, biografiya, sotsiometriya;
3. **natijalarni qayta ishlash yoki statistic metodlar**;
4. **sharhlash guruhiga** – genetik va donalash metodlari kiradi.

Qiyoslash metodidan umumiy psixologiya, ijtimoiy psixologiyada katta yoki kichik guruhlarini hamda ularning har xil toifalarini o'zaro taqqoslash uchun, tibbiyot

psixologiyasida – sog'lom va bemor kishilarning psixik xususiyatlarini qiyoslash maqsadida, sport psixologiyasida sportchilarning holati, o'quvligi va ishchanligini o'zaro taqqoslash maqsadida foydalaniladi.

Longityud metodining boshqa metodlardan farqi bir yoki bir nechta sinaluvchilar uzoq muddat, hatto o'n yillab tekshiriladilar. Mazkur metod orqali bir xil jinsli, Hasan-Husan, Fotima-Zuhra yoki aralash jinsli Hasan –Zuhra, Fotima- Husan egizaklar kuzatilgan. Longityud metodi yordamida sub'yektiv omillarning o'ziga xosligi, ob'yektiv shart-sharoitlari va ijtimoiy muhitning sinaluvchiga ta'siri o'rganiladi.

Kompleks metodi yordamida o'rganilgan ob'yektdagi o'zgarishlar turli nuqtai-nazardan tahlil qilinadi yoki ularga har xil yondashiladi.

Tajriba yoki eksperiment metodi – o'z navbatida tabiiy va laboratoriya metodlariga ajratiladi. **Tabiiy tajriba** metodlarining ilmiy asoslarini **1910 yilda** rus psixologi **A.F.Lazurskiy** tomonidan ishlab chiqilgan. U kichik maktab yoshidagi bola shaxsining shakllanishini o'rganish maqsadida ushbu metodni qo'llagan.

Laboratoriya (klinika) eksperimenti metodining (1879 yili Vilgelm Vund tomonidan kiritilgan) asosiy xususiyati shundan iboratki, bunda o'rganilishi lozim bo'lgan psixik jarayonlarning (diqqat, idrok, xotira, sezgi, tafakkur, xayol) qanday sharoitda qachon yuz berishini kutib o'tirmasdan tekshiruvchi kishi (eksperimentator) sinalayotgan odamda shu jarayonlarni maxsus tarzda ishga solinadi. Bundan tashqari Laboratoriya eksperimenti sharoitida eksperimentator o'rganayotgan har bir psixik jarayonni xohlagan marta, takror-takror yaxshilab sinab ko'rish mumkin.

Ilmiy tadqiqot metodlarining uchinchi guruhi **natijalarni qayta ishlash** bo'lib **statistic** (miqdor) va **psixologik** (sifat) tahlili turlariga bo'linadi.

Genetik metod bilan tadqiqot davomida tugallangan ma'lumotlar yaxlit holda, maqsadga muvofiq tarzda sharhlanadi. Bu metoddan foydalanishning asosiy maqsadi sinaluvchida vujudga kelayotgan ichki, jamiki obrazlarning rivojlanishi, faoliyat va bilish jarayonlarining o'zgarishiga, tajriba natijasiga suyanib tavsif berishdir.

Donalash metodida tadqiqot ob'yektiga kirgan shaxs psixikasidagi barcha o'zgarishlarning o'ziga xosligi, o'zaro aloqa, o'zaro ta'sir va uyg'unlikning o'zaro bog'lanishlari o'rganiladi. Jumladan, inson xulqini idrok qilish uchun sezgi, idrok, xotira, tafakkur jarayonlarining bir paytda, birgalikda tadqiq qilinishi bunga yorqin misoldir.

Jadval - 2.

PSIXOLOGIYANING ASOSIY METODLARI

Asosiy metodlar	Asosiy metodlarning variantlari
KUZATISH METODI	Tashqi (ob'yektiv kuzatish) Ichki (sub'yektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
SO'ROQ METODI	Og'zaki so'rov Yozma so'rov Erkin so'rov (suhbat) Standartlashtirilgan so'rov

TESTLAR METODI	Test – so'rov Test - topshiriq Proyektiv test Sotsiometrik test
EKSPERIMENT	Tabiiy eksperiment Laboratoriya eksperiment
MODELLASHTIRISH	Matematik modellashtirish Mantiqiy modellashtirish Texnik modellashtirish Kibernetik modellashtirish

Ijtimoiy hamda pedagogik psixologiyada guruhij jarayonlarning shaxs xulq - atvoriga ta'sirini o'rganish maqsadida bevosita ichkaridan kuzatuv tashkil qilinadi, bunda kuzatuvchi shaxs o'sha guruh yoki oila hayotiga tabiiy ravishda qo'shiladi va zimdan kuzatish ishlarini olib boradi. Bu bir qarashda kontrrazvedkachilarning faoliyatini ham eslatadi. Shu yo'l bilan olingan ma'lumotlar bir tomondan tabiiyligi va mufassalligi bilan qimmatli bo'lsa, ikkinchi tomondan, agar kuzatuvchida konformizm hislati kuchli bo'lsa, o'zi ham guruh hayotiga juda kirishib ketib, undagi ayrim hodisalarni sub'yektiv ravishda qayd etadigan bo'lib qolishi ham mumkin. Guruhij fenomenlarni tashqaridan kuzatish buning aksi - ya'ni kuzatuvchi guruhga yoki kuzatilayotgan jarayonga nisbatan chetda bo'ladi va faqat bevosita ko'zi bilan ko'rgan va eshitganlari asosida xulosalar chiqaradi. Umuman, **kuzatish metodining** ijtimoiy hayot, professional ko'rsatgichlarni qayd qilishda so'zsiz afzalliklari bor, lekin shu bilan birga kuzatuvchining professional mahorati, kuzatuvchanligi, sabr -qanoatiga bog'liq bo'lgan jihatlar, yana to'plangan ma'lumotlarni sub'yektiv ravishda tahlil qilish xavfi bo'lgani uchun ham biroz noqulayliklari ham bor, shuning uchun ham u boshqa metodlar bilan birgalikda ishlatiladi.

So'rov metodi ham psixologiyaning barcha tarmoqlarida birlamchi ma'lumotlar to'plashning an'anaviy usullaridan hisoblanadi. Unda tekshiriluvchi tekshiruvchi tomonidan qo'yilgan qator savollarga muxtasar javob qaytarishi kerak bo'ladi.

Og'zaki so'roqni yoki ba'zan uni oddiygina qilib, suhbat metodi deb ataladi, o'tkazadigan shaxs unga ma'lum darajada tayyorgarlik ko'rgach so'roq o'tkazadi. Agar mabodo uning professional mahorati yoki tajribasi bunga yetarli bo'lmasa, so'rov o'z natijalarini bermasligi mumkin. Lekin mahoratli so'rovchi ushbu metod yordamida inson ruhiy kechinmalariga aloqador bo'lgan noyob ma'lumotlarni to'plash imkoniga ega bo'ladi.

Yozma so'roq yoki anketaning afzalligi shundaki, uning yordamida bir vaqtning o'zida ko'pgina odamlar fikrini o'rganish mumkin bo'ladi. Unga kiritilgan savollar, ulardan kutiladigan javoblar (yopiq anketa), yoki erkin o'z fikrini bayon etish imkoniyatini beruvchi (ochiq anketa) so'rovnomalar aniq va ravon tilda javob beruvchilar tushunish darajasiga monand tuzilgan bo'lsa, shubxasiz, qimmatli birlamchi materiallar to'planadi.

So'roqning ham erkin va standartlashtirilgan shakllari mavjud bo'lib, birinchisida oldindan nimalar so'ralishi qat'iy belgilab olinmaydi, ikkinchi shaklida esa, xattoki,

komp'yuterda dasturi ishlab chiqilib, minglab odamlarda bir xil talablar doirasida so'roq o'tkazilishi nazarda tutiladi.

Testlar oxirgi paytda hayotimizga dadil kirib kelgan tekshiruv usullari sirasiga kiradi. Ular yordamida biror o'rganilayotgan hodisa xususida ham sifat, ham miqdor xarakteristikalarini olish, ularni ko'pchilikda qayta -qayta sinash va ma'lumotlarni korrelyatsion analiz orqali ishonchlilikka tekshirish mumkin bo'ladi. Ayni testga qo'yilgan talab hech qachon o'zgarmaydi, xattoki, shunday testlar borki, ular turli millat va elat vakillarida, turli davrlarda ham o'zgarmagan qolda ishlatilaveradi. Masalan, Ravenning aqliy intellektni o'lchash, Kettelning va Ayzenkning shaxs testlari shular jumlasidandir. Test - so'rov oldindan qat'iy tarzda qabul qilingan savollarga beriladigan javoblarni taqozo etadi. Masalan, Ayzenkning 57 ta savoldan iborat testi shaxsdagi introversiya - ekstroversiyani o'lchaydi, savollarga "qa" yoki "yo'q" tarzida javob berish so'raladi.

Test - topshiriq odam xulqi va holatini amalga oshirgan ishlari asosida baholashni nazarda tutadi. Masalan, shaxs tafakkuridagi kreativlikni aniqlash uchun ko'pincha bir qarashda oddiygina topshiriq beriladi: berilgan 20 ta doira shaklidagi shakllardan o'zi xohlagancha rasmlar chizish imkoniyati beriladi. Ma'lum vaqt va tezlikda bajarilish sur'ati, rasmlarning o'ziga xos va betakrorligiga qarab shaxs fikrlashi jarayonining naqadar nostandart, ijodiy va kreativligiga baho berilib, miqdoriy ko'rsatgich aniqlanadi. Bu metodlarning umumiy afzalligi ularni turli yosh, jins va kasb egalariga nisbatan qo'llashning qulayligi, bir guruhda natija bermasa, boshqa guruhda yana qayta tekshiruv o'tkazish imkoniyatining borligi bo'lsa, kamchiligi - ba'zan tekshiriluvchi agar testning mohiyatini yoki kalitini bilib qolsa, sun'iy tarzda uning kechishiga ta'sir ko'rsatishi, faktlarni falsifikasiya qilishi mumkinligidir.

Testlar ichida **proektiv testlar** deb nomlanuvchi testlar ham borki, testning asl maqsadi tekshiriluvchiga sir bo'ladi. Ya'ni shunday topshiriq beriladiki, tekshiriluvchi topshiriqni bajarayotib, nimani aniqlashi mumkinligini bilmaydi. Masalan, mashhur Rorshaxning "**siyoh dog'lari**" testi, yoki **TAT**(tematik appertsepsion test), **tugallanmagan hikoyalar** kabi testlarda bir narsaning proektsiyasidan go'yoki ikkinchi bir narsaning mohiyati aniqlanadi. O'sha **1921** yilda kashf etilgan "**siyoh dog'lari**" va ularga qarab tekshiriluvchining nimalarni eslayotganligi, dog'lar nimalarga o'xshayotganligiga qarab, uning shaxs sifatidagi yo'nalishlari, hayotiy tamoyillari, qadriyatlariga munosabati, ishni bajarish paytidagi emotsional holatlari aniqlanadi. Bu testlar juda noyob, qimmatli, lekin uni faqat professional psixologgina qo'llashi va natijalarni mohirona tahlil qilishi talab qilinadi.

Psixologik eksperimentning mohiyati shundaki, unda ataylab shunday sun'iy bir vaziyat shakllantiriladi va tashkil etiladiki, aynan shu vaziyatda qiziqtirayotgan psixik jarayon yoki hodisa ajratiladi, o'rganiladi, ta'sir ko'rsatiladi va baholanadi. Agar tabiiy eksperiment o'sha qiziqtirayotgan fenomen tekshiriluvchi uchun tabiiy hisoblangan sharoitlarda (masalan, mehnat jarayonida, kanikulda yozgi lagerda, litsey auditoriyasida va shunga o'xshash) maqsadli tashkil etilib, o'rganilsa, **laboratoriya eksperimenti** maxsus joylarda, maxsus asbob - uskunalar vositasida ataylab o'rganiladi. Masalan, diqqatingizning xususiyatlarini bilish kerak bo'lsa, psixologiya laboratoriyasida maxsus **tahistoskop** deb atalgan moslama yordamida yoki "**Landolt xalqachalari**" deb nomlangan jadvallar yordamida o'rganish mumkin bo'ladi.

Xattoki, ijtimoiy munosabatlar borasida ham o'zaro hamjihatlik, liderlik va konformlilik hodisalarini tekshirish uchun gruppaviy integratorlar va gomeostat deb nomlanuvchi moslamalar yaratilgan va ular yordamida guruhdagi turli xil hodisalar o'lchangan.

Modellashtirish metodi kuzatish, so'roq, eksperiment yoki boshqa usullar yordamida o'rganilayotgan hodisaning tub mohiyati ochilmagan sharoitlarda qo'llaniladi. Bunda o'sha hodisaning umumiy xossasi yoki asosiy parametrlari modellashtirilib, o'sha model asosida tadqiqotchini qiziqtirgan jihat o'rganiladi va xulosalar chiqariladi.

Modellar texnik, mantiqiy, matematik yoki kibernetik bo'lishi mumkin. Matematik model asosida o'rganilgan hodisaga mashhur tadqiqotchilar **Veber - Fexner**larning sezgirlikning quyi va yuqori chegarasini aniqlashga qaratilgan **matematik formulasi** va shu asosda to'plangan ma'lumotlar tahlilini misol qilish mumkin. **Mantiqiy modellar** yordamida ko'pincha inson aqli va tafakkuri jarayonlari va qonunlarini hisoblash mashinalari ish printsiplari bilan qiyoslash orqali tuzilgan g'oyalar va simvollar ishlatiladi. **Kibernetik modellashtirishda** esa g'oyalar psixologiyasini EHM dagi matematik programmalashtirish tamoyillariga moslashtirish nazarda tutiladi. hozir ko'pgina murakkab shaxs xususiyatlari ham programmalashtirilgan bo'lib, ular algoritmlar asosda qisqa fursatda ko'pgina sifatlarni ko'plab parametrlar nuqtai nazaridan hisoblab natijalarni umumlashtirishga imkon bermoqda. Ko'pincha matematik o'yinlar g'oyasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sohasini o'rganishda ham qo'llanilmoqda. Ma'lum bo'lishicha, odamning fikrlash operatsiyalari bilan EHMlarning ishlash printsiplari o'rtasida ma'lum uyg'unlik bor ekan, bu esa murakkab psixik jarayonlarni modellashtirish orqali inson aqlu - zakovati chegarasini yanada kengaytirish istiqbolini beradi.

Umuman psixologiyaning va uning har bir alohida tarmoqlarining o'ziga xos metodlari bor. Ular ijtimoiy xulq va alohida individ ichki dunyosini kompleks tarzda o'rganish imkonini beradi. Gap shundaki, ularni o'z vaqtida va professional tarzda qo'llay bilish va olingan natijalardan to'g'ri xulosalar chiqara olishdir.

Psixologiyaning **tadbiqiy va amaliy sohalar**i. Hozirgi zamon ilm – fanining qadri va ahamiyati uning nechog'li amaliyotga kirib borib, tadbiqiy salohiyati ortib borishi bilan baholanadi. Psixologiyaning oxirgi yillardagi taraqqiyoti ham aynan ana shu mezon talablariga javob berishi bilan xarakterlanadi.

Amaliy hamda tadbiqiy psixologiya sohalarining o'ziga xos jihatlari avvalo shundan iboratki, ular jamiyatning bevosita bugungi kundagi talablari va buyurtmalariga ko'ra ish yuritadi. Jamiyatimizda esa psixologik bilimlarni bevosita amaliyotga tadbiq etishga ehtiyoj katta. Birgina O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturini oladigan bo'lsak, uning bajarilishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun psixologiyaning aralashuvi zarur. Joylarda tashkil etilgan **Tashhis markazlarida** faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislar o'quvchilardagi rivojlanish tendensiyalari, aqliy o'sish omillari va iqtidoriga qarab ta'lim - tarbiyani tashkil etishlari uchun qator diagnostik tadbirlarni o'tkazishlari zarurki, bu tadbirlar oxir - oqibat real samara berishi lozim. Ta'kidlash zarurki, tadbiqiy psixologiyadagi **“samara”**ni o'lchash mezonlari bilan nazariy psixologiyadagi samara tushunchalari biroz farq qiladi. Ya'ni, bu yerda bevosita buyurtmaning bajarilishi sifatiga

buyurtmachining o'zi baho beradi. Shuning uchun ham amaliy psixologiyaning alohida tarmog'i bo'lmish sotsial psixologiya bilimlarga amaldagi ehtiyojni uch asosiy sabab bilan tushuntirishi mumkin: a) kichik korxona yoki yirik firmalardan tortib, toki hukumat darajasidagi idoralar ham o'z faoliyati samaradorligini oshirish uchun tobora insonlar faoliyati va ulardagi rezervlardan omilkorona foydalanishning psixologik manbalarini qidirish lozimligini tushunib etmoqdalar; b) professional psixologlarning o'zi ham o'z ishlaridan keladigan obro' - e'tiborning amaliy sohalarida ishlay olish qobiliyatlariga bog'liq ekanligini tushunib yetmoqdalar; v) amaliyotda ishlayotgan boshqa soha vakillari ham agar psixologik tayyorgarlikdan o'tgan bo'lsalar, ishni tashkil qilishga uquvlari yaxshiroq va ishlari unumliroq bo'lishini tushunib yetmoqdalar. Shuning uchun ham ko'plab yangi turdagi markaz va firmalar, qo'shma korxonalarda amaliyotchi psixologlar ishlamoqdalar.

Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Sanoat va mahsulotlar ishlab chiqarish sohasida tadbqiq ishlar birinchi navbatda konkret tashkilotda kadrlar zaxirasini to'g'ri va oqilona tashkillashdan tortib, xodimlar ish sharoitlari va mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleksini ilmiy ravishda o'rganib, hayotda natija olishga qaratilgan harakatlar majmuidir. hozirgi bozor munosabatlari sharoitida ushbu yo'nalishdagi tadbqiq ishlarning ikki sohasini ajratish mumkin: marketing xizmatlari xodimlar (personal) bilan ishlash.

Birinchi eng zamonaviy va muhim ish bo'lib, bu yerda psixologning vazifasi **“Nimani?”** va **“Kim?”** xarid qilib olishga ehtiyoji borligini o'rganishga ko'maklashishdir. Chunki, talab bilan ehtiyoj bevosita shaxsga va uning psixologik munosabatlari tizimiga aloqador kategoriyalar bo'lib, bozor va raqobat sharoitida korxona yoki tashkilotlarning samarali ishlab ketishi eng avvalo xaridorgir tovar mahsulotlarni ajratib, ularning odamlar talab – ehtiyojiga qanchalik mosligini aniq tahlil qilishdan boshlanadi. Marketing munosabatlari aslida odamlar o'rtasidagi sof psixologik munosabatlar bo'lib, uning negizida odamlar o'rtasidagi jonli muloqot, ta'b va didlar tarbiyasi yotadi. Shuning uchun biz bugun odamlarda to'g'ri marketing tafakkurini shakllantirish vositalarini qidirishimiz va talab - taklif munosabatlarini real ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirishda inson psixologiyasi xususiyatlarini inobatga olib ishlashga o'rganishimiz kerak. Masalan, shunday **“Case Study”**ni olaylik: Psixologiyani qanday qilib sotish mumkin (ya'ni, Psixologik ma'lumotlar va bilimlarni)? Biz aniq va to'g'ri javoblar olishimiz kerak bo'lgan savollar quyidagilar bo'ladi:

Nima sotiladi? - Test natijalari

Nima uchun? - nima qilib bo'lsa ham, pul ishlash, o'z imkoniyatlarni tekshirish, shaxsiy ish ochish;

Kim? - firma yoki konkret kishilar;

Nima? - xilma - xil testlar batareyasi;

Kimga? - turli kasb egalari, o'quvchilarga, xodimlarga;

Qaerda? Qachon? - zarurat bo'lgan har qanday joyda;

Qanday qilib? - minimal vaqt sarflab, tez va soz;

Qancha? - test o'tkazuvchilarning soni va imkoniyatiga qarab;

Kim bilan? - shu firma xodimlari bilan

Demak, marketing xizmatida javob berilishi zarur bo'lgan savollardan ko'rinib turibdiki, har bir savolga beriladigan javobning orqasida konkret odamlar, ularning qobiliyatlari, manfaatlari va ish unumi yotadi. Shuning uchun bu sohada psixologik xizmat zarur.

Ikkinchi soha - kadrlar va ular bilan bevosita ishlash sohasi. Bu kadrlarni ishga jalb etishda bilish zarur bo'lgan qobiliyatlar va shaxsiy fazilatlardan tortib, ularni to'g'ri yo'naltirish, o'z joyiga qo'yish, tashkilot doirasida guruhlarni shakllantirish, xodimlarga ma'lumotlarni o'z vaqtida yetkazish bilan bog'liq kadrlar siyosatini olib borishga aloqador xizmatdir. Psixolog bu o'rinda asosan maslahatchi - konsultant va ekspert sifatida rol o'ynaydi.

Siyosat sohasidagi psixologiya. har bir davr o'z kishilari ongida beixtiyor siyosiy ongni shakllantiradi va odamlar uning tamoyillariga bo'ysunadilar. Siyosat borasidagi psixologik masalalarga psixolog aralashuvining zarurati har doim bo'lmasa - da, ayrim paytlarda - yirik islohotlar boshlanishi arafasida, saylov oldi kompaniyalarda, yangi siyosiy liderlarning xalq tomonidan qabul qilinishi jarayonlari, ko'pchilik auditoriyaga zarur ma'lumotlarni yetkazish, ijtimoiy ustunovkalarni o'zgartirish, siyosiy arboblarning imidjini omma ongiga singdirish paytlarida psixologik ta'sir vositalaridan o'rinli foydalanish, maslahatlar berish va ayrim guruhlar e'tiqodiga ta'sir etish kerak bo'lganda kerak bo'ladi. Siyosiy sohada ishlayotgan psixolog ishining o'ziga xos jihatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

- a) siyosatda psixolog aralashuvi ko'pchilik ommaga bevosita aloqador bo'lmaydi;
- b) zarurat tug'ilganda, psixolog shunday tez va ishonchli o'lchaydigan metodikalarni ishlatadiki, ularning natijalari sir saqlanib, o'sha buyurtmachi - siyosatchining talabiga ko'ra izlanishlar olib boriladi;
- v) psixolog har bir siyosatchi uchun shunday ishonchli shaxs bo'lishi lozimki, undan odamlarning kayfiyatlarini, reaksiyalari, his - kechinmalari xususida aniq ma'lumotlar so'raladi;
- g) o'ziga xos qiyinchilik shundan iboratki, jamoatchilik psixolog qiyofasida ko'pincha liderning bevosita "odamini" ko'rishga moyil bo'lib, liderning o'zi ham ba'zan o'ta professional psixologdan xadiksirab qolishi mumkin.

Shuning uchun, yuqorida ta'kidlaganimizdek, zarur paytlarda siyosiy arboblarning psixolog xizmatiga murojaat qilishlari va undan asosan biror jiddiy ijtimoiy projeklarni qabul qilish jarayonida yordam berishini so'rash mumkin. Buning uchun psixologdan jamoatchilik fikrini psixologik tahlil qilib berish, va shu asosda fuqarolarning ustunovkalari va kayfiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni birgalikda ajratish vazifasini hal qilishlari mumkin. Saylov oldi kompaniyalarda esa, psixologning asosiy vazifasi odamlarning kayfiyatini o'rgangan holda da'vogar imidjini shakllantirishga, odamlarga yoqtirishga sabab bo'ladigan shaxsiy fazilatlar algoritmini tuzish, omma oldiga chiqishga psixologik tayyorlash, raqiblarning baxslashish madaniyati va etikasi borasida psixologik yo'l - yo'riq va usullar borasida ma'lumotlar almashinish kerak bo'ladi.

O'zbekiston sharoitida siyosiy psixologiyaning o'zi juda zaif rivojlangan tarmoq bo'lgani sababli ham uni rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda rivojlantirish davr talablaridan biridir.

Oila va nikoh borasidagi tadbqiqiy ishlar O'zbekistonda endi shakllanayotgan, lekin nazariy nuqtai nazardan ma'lum an'analarga ega bo'lgan sohadir. 1998 yilning Prezidentimiz tomonidan **“Oila yili”** deb e'lon qilinishi joylarda psixologik xizmat o'choqlarining paydo bo'lishiga va u yerlarda psixologik xizmatidan foydalanishni anglashga turtki bo'ldi. Psixolog bu yerlarda yoshlardagi oila va nikoh borasidagi tasavvurlarning to'g'ri shakllanishidan tortib, toki muammoli, xattoki, ajrim bo'lgan oila a'zolariga psixologik maslahatlar berish, “ishonch telefonlari” orqali maslahatlar uyushtirishni o'z zimmasiga oladi.

Maorif sohasidagi amaliy ishlar boshqa sohalarga nisbatan anchagina yaxshi tajribaga ega. Ayniqsa, O'zbekistonda kadrlar tayyorlashning milliy dasturi qabul qilingandan so'ng tashkil qilingan yangi tipdagi ta'lim muassasalari - akademik liseylar va kasb - hunar kolledjlariga bir nechtdan psixologlar shtati kiritilgan va ular aynan tadbqiqiy muammolar - bolaning o'quv jarayoniga psixologik jihatdan tayyorligini diagnostika qilishdan tortib, professional va kasb mahoratini rivojlantirishgacha bo'lgan barcha muammolarni hal qilishga “aralashadi”.

Huquqbuzarlikning oldini olish va qonunga zid harakat qilganlarni psixologik reabilitatsiya qilish muammosi har doim ham psixolog aralashuvini talab qilib kelgan. Chunki jinoyatchi yoki huquqbuzar shaxsi o'z - o'zidan shakllanib qolmaydi, uni shakllantiruvchi omillar, motivlar va bolani qayta tarbiyalash va reabilitatsiya masalalari ijtimoiy psixologik jarayonlar mohiyatini bilish va ularga faol ta'sir ko'rsatish talab qiladi. Shuning uchun ham mamlakatimizda yoshlar o'rtasida huquqiy ma'rifat va huquqiy madaniyatni shakllantirishga juda katta e'tibor qaratilgan va bu ishda amaliyotchi xodim - psixologning o'рни va roli katta bo'ladi.

Yuqorida e'tirof etilgan psixologiyaning tadbqiqiy sohalari uchun umumiy narsa shuki, bu sohalarda ishlaganlar avvalo yaxshi psixodiagnostika, ya'ni psixologiya metodlarini o'z o'rnida samarali ishlatishni bilishi va yaxshigina psixoterapevt va psixokorrektor - ya'ni, aniqlangan muammo yoki “kasallikni” tuzatuvchi mohir professional bo'lishi kerakligini taqozo etadi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Psixologiya fani nimani o'rganadi?
 - a) psixologiya jon haqidagi fan;
 - b) psixologiya ong haqidagi fan;
 - v) psixologiya xulq - atvor haqidagi fan;
 - g) psixologiya psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlar haqidagi fan.
2. Jon aql - idrok, jasorat va orzu - istak kabi qismlardan iborat bo'lib, ular tananing turli qismlariga (bosh, ko'krak, qorin bo'shlig'i) joylashgan. Bu fikr quyidagi faylasuflarning qaysi biriga taalluqli?
 - a) Geraklit; b) Demokrit;
 - v) Aflotun; g) Arastu;

Nazorat uchun savollar:

1. Psixika nima?
2. Psixika qanday vazifani bajarishini aytib bering?
3. Rus olimi I.P.Pavlov ta'limoti nima?
4. Psixika taraqqiyotining asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
5. Xulq-atvorning ongsiz shakllari.

6. Ong va faoliyat tushunchalarini yoritib bering?
7. Inson va hayvon psixikasidagi asosiy tafovutlar nimalardan iborat?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida... –T., 1998.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T., 1997.
3. Gamezo M.V, Domashenko I.A. "Atlas po psixologii".–M.,1986.
4. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. –M., 1996.
5. Davletshin M.G, To'ychieva M. Umumiy psixologiya. –T., 2002.
6. Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2000.
7. Nemov R.S. Psixologiya. –M., Prosveshenie. 2004.
8. Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahriri ostida. –T.1992.

Psixika taraqqiyoti

Reja:

1. Psixika materiya evolyutsiyasining natijasi ekanligi.
2. Psixikaning taraqqiyot bosqichlari.
3. Hayvonlarning instinktlari, o'rgangan va «aqliy» xatti-harakatlari.
4. Odam psixikasi va ongning filogenez va ontogenezdagi taraqqiyoti.

Tayanch iboralar:

Psixik jarayonlar – u yoki bu psixik mahsulot va natijalarni (psixik obrazlar, holatlar, tushunchalar, hissiyot va h) hosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Instinkt (lot.instinstus- uyg'onish) – murakkab shartsiz refleks, u xulq-atvorning tug'ma yig'indisi, tashqi yoki ichki ta'sirlarga javoban hosil bo'ladi.

Ontogenez (yunon.ontos – asl, tub, genesis – tug'ilish, paydo bo'lish) – organizmning individual rivojlanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lgan davridan umrining oxirigacha bo'lgan davrdagi o'zgarishlar majmui.

Seskanuvchanlik – tirik organizmlarning ta'sirlarga biologik ahamiyatga ega javob qaytarish qobiliyati.

Tropizm (taksislar) – biologik ahamiyatga ega bo'lgan omillarga maxsus harakatlar bilan reaksiya qilish usullari.

Tropizm turlari:

A) Fototropizm – bu tirik organizmning yorug'lik ta'sirida harakatga kelishidir.

B) Termotropizm – tirik organizmning issiqlik ta'siri ostida harakat qilishga moyilligidir.

V) Xemotropizm – tirik organizmning fizik-ximiyaviy muhitini tanlab olishga bo'lgan moyilligidir.

G) Topotropizm – tirik organizmlarning mexanik qo'zg'atuvchilar ta'siri ostida harakat qilishga moyilligi.

D) Gemotropizm – tirik organizmning quyosh nuri ta'siri ostida harakat qilishga moyilligi.

E) Varotropizm – tirik organizmning havo bosimi ostida harakat qilishga moyilligi.

J) Gidrotropizm – tirik organizmning namlik suv ta'siri ostida harakat qilishga moyilligi.

Inson psixikasining paydo bo'lishi va rivojlanishi masalasi tadqiqotchilar oldida turgan eng dolzarb va murakkab masalalardan biridir. Ilmiy-materialistik ta'limotga ko'ra psixikaning paydo bo'lishi materiyaning uzoq rivojlanishi natijasidir.

Organik va anorganik materiya doimo harakatda, o'zgarishda va rivojlanishda bo'ladi.

Hayvonlar psixikasining taraqqiyoti masalasi bilan atoqli rus psixologi A.I.Leontev, zoopsixologlar K.E.Fabri va A.I.Seversov shug'ullanganlar. K.E.Fabri eng sodda hayvonlar psixikasi taraqqiyotini ikki bosqichga –quyi va yuqori bosqichga bo'ladi. Psixik taraqqiyotning quyi bosqichi bir hujayrali, qisman ko'p hujayrali hayvonlarga xos bo'lib, bu bosqichda psixika primitiv holatda bo'ladi va hayvon tashqi ta'sirlarga seskanuvchanlik bilangina javob beradi. O'simlik va hayvon shaklidagi barcha tirik organizmlar o'z evolyusiyasining hamma bosqichlarida aks ettirishning biologik shakli seskanuvchanlikka ega bo'ladi. Seskanuvchanlik tirik organizmning biologik ta'sirlarga javob berish qobiliyatidir.

Oddiy seskanuvchanlikni bir hujayrali hayvonlarda ham ko'rish mumkin. Ular muhitning ta'siriga harakatlanish bilan javob beradilar. Biologik ta'sirlarga organizmning o'ziga xos harakatlari bilan javob berish usuliga **tropizm yoki taksis** deyiladi.

Ko'p hujayrali hayvonlarda qo'zg'aluvchanlikning yangi shakli – sezuvchanlik mavjuddir. A.A.Leontevning gipotezasiga ko'ra, sezuvchanlik genetik jihatdan olganda seskanuvchanlikning o'zidir. U ham muhitning tashqi ta'sirlariga javob berish asosida vujudga keladi. Faqat sezuvchanlik seskanuvchanlikka nisbatan yuqoriroq bosqichdir. K.E.Fabri fikricha, psixik taraqqiyotning ikkinchi bosqichi ko'p hujayrali hayvonlarga xosdir. Ko'p hujayrali hayvonlarda aks ettirish bir muncha yuqori bo'ladi. Bunday hayvonlarga kavakichlilar (gidra, meduza)ni kiritish mumkin. Ular ham bir hujayrali hayvonlar kabi suvda yashaydi. Lekin kavakichlilar o'zining tuzilishi jihatdan bir hujayrali hayvonlardan ancha murakkabdir. Ularning murakkabligi hujayralarning bir-biridan farq qilganligidadir: tanasining tashqi qismidagi hujayralar qoplagich, ichki hujayralar esa xazm qiluvchi bo'ladi. Evolyutsiya zanjirining yuqoriroq pog'onasida turgan ko'p hujayrali hayvonlarda tana tuzulishi ham ancha murakkablashadi, yer sharoitiga mos o'zgarishlar yuz beradi, turli taassurotlarni aks ettiradigan sezgi organlari vujudga keladi, aks ettirish ham murakkablashadi. Tugunli nerv sistemasiga ega bo'lgan hayvonlarda aks ettirish faqat shartsiz reflekslar orqaligina bo'lmaydi, balki hayot davomida ta'sirlanishning tug'ma turiga nisbatan ancha yangi, serharakat shakli – shartli reflekslar hosil bo'ladi.

Tugunsimon nerv sistemasining murakkabrok shakllari atrofni aks ettirish imkoniyatini oshiradi. Ancha murakkab tugunsimon nerv sistemasiga ega bo'lganlardan o'rgimchaksimonlar va hashoratlarni olish mumkin. Ularning organizmi ancha murakkab tuzilishga ega. hayvonlarning evolyutsiyasi natijasida ularning retseptorida **ajralish (spetsializatsiya)** yuz bera boshlaydi. Masalan, qisqichbaqaning uzun mo'ylovi – tuyg'u organi, kaltalari hid biluvchi organlardir.

Asalarida yana ham murakkabroq instinktlarni ko'ramiz. Ma'lumki bir asalari uyasida tuxum qo'yadigan katta ona ari, bir nechta erkak ari va juda ko'p ishchi arilar bo'ladi. Eng murakkab qiliqlar ishchi arilarda bo'ladi. Ular yoshi o'zgara borishi bilan oilada turli ishlarni bajaradi: uy tozalaydi, lichinkalarni ovqatlantiradi, uy quradi, ovqat yig'adi, eshik oldida qorovullik qiladi.

Yosh hayvonlar instinktiv harakatlarini kuzatganimizda ularning xatti-harakatlari hech qanday o'rgarishsiz yuz berishini, ya'ni ota-bobolarining harakatlarini o'z-o'zidan takrorlab ketaverishini ko'ramiz. Lekin yoshlarning harakatlari kattalarinikiga nisbatan bir muncha yomonroq bo'ladi. Nasldan o'tgan harakatlar programmasini aniq bajarish asosida va tajribaning ortishi tufayli instinktlar o'sib boradi, harakatlarning instinktiv shakli faqat bug'imoyoqlilarda emas, balki barcha umirtqali hayvonlarda (baliq, anfibiya, qush va hashoratlarda) ko'rish mumkin. Ularda jinsiy, ovqatlanish, himoyalaniş instinktlari ko'plab uchraydi.

Shunday qilib hayvonlarning instinktiv harakatlarini **4 guruhga** bo'lish mumkin:

Ovqatlanish instinkti – hayvonlarning o'z va bolasi uchun ovqat qidirib topish, ovqat g'amlash harakatlari.

Himoyalaniş instinkti - hayvonning o'z hayotini va omonligini saqlash harakatlarida ifodalanib, u ikki ko'rinishda sodir bo'lishi mumkin. Birinchisi, dushmanga hujum qilish, ikkinchisi, o'zini himoya qilish. har bir hayvon o'zini dushmanidan saqlash uchun biror organidan (shoxlari, tuyoqlari, tish-tirnoqlari, tikonlari kabi) yoki zaxarli suyuqlikdan foydalanadi. Masalan, afrika kobrasi o'z zaharini 3,5 m masofaga ota oladi.

Nasl qoldirish instinkti. Bu ota-onalik instinkti sifatida ko'rinib nasl-avlod uchun g'amxo'rlik qilish, uni ma'lum vaqtgacha ovqat bilan ta'min etish, xavf-xatardan saqlash, o'z bolalarini parvarish qilish tug'ma mahoratiga ega bo'lib, o'z naslining kelajagi haqida g'amxo'rlik qiladi.

To'da bo'lib yashash instinkti. Bu instinkt hayvonlarining turli usullar bilan o'zaro aloqa qilishida, xilma-xil shaklda birgalashib, to'dalashib, poda bo'lib, gala bo'lib yashashlarida zohir bo'ladi.

Yuqori darajadagi hayvonlarda birinchi o'rinda yangi, bir muncha plastik, ya'ni sharoitga qarab o'zgara oladigan xatti-harakatlar chiqadi. Ular olamni ancha keng aks ettirish imkoniyatini beradi. hayvonlar taraqqiyotining qanchalik yuqori bosqichida tursa ular turli muvvaqat bog'lanishlarni shunchalik tez hosil qiladilar. Olamni aks ettirishning bundan keyingi bosqichi individual hayot tajribalari asosida hosil qilingan bir muncha murakkab, shu bilan birga, plastik harakatlar tufayli bo'ladi. Individual plastik harakatlar uchun muhitni, shu paytdagi sharoitni analiz va sintez qilish xosdir. Ayniqsa, sut emizuvchilar sharoitni ancha yaxshi tahlil qila oladilar va o'zgargan muhitga o'z harakatlarini moslashtira oladilar. Yuqori darajadagi hayvonlarda instinktiv harakat bilan bir qatorda tez o'zgaruvchan individual harakatlar – malakalar va fahm bilan aloqador harakatlar ham mavjud bo'ladi. B.Keller maymunning harakatlarini batafsil kuzatib «**Yuqori darajada tashkil topgan hayvonlar sharoitni analiz qilish asosida fahm bilan aloqador harakatlar qila oladi**» degan xulosaga kelgan. Keyinchalik amerika psixologi Ierks, avstriya psixologi K.Byuler, gollandiyalik psixolog Boytendayk ham maymunlar bilan tajribalar o'tkazib yuqoridagi fikrni tasdiqladilar. Hayvonlardagi fahm bilan aloqador harakatlarni o'rganish masalasi bilan rus olimlari xam shug'ullangan. Bu ishni dastlab zoopsixolog-darvinist olim V.A.Vagner boshlab bergan edi. Keyinchalik esa I.P.Pavlov, N.N.Ladigina-Kots, N.Yu.Voytonis, G.Z.Roginskiy, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev kabi olimlar bu ishni davom ettirdilar. Ayniqsa, Ladigina-Kotsning shimpanze bolasi bilan psixikasining rivojlanishi ustida o'tkazgan tadqiqotlari butun jahonga mashhurdir.

Rus olimlarining kalamushlar, tovuqlar, qarg'a, it va maymunlar ustida olib borgan tadqiqotlari hayvonlarda psixikaning rivojlanish bosqichlari, ularda ko'nikmalar hosil bo'lishi va fahm bilan aloqador harakatlar qila olishini bilishda juda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Odamsimon maymunlar ko'plab fahm bilan aloqador harakatlarqila olishda boshqa hayvonlar ichida alohida o'rinda turadi. Masalan, odamsimon maymunlarning bir turi primatlar boshqa sut emizuvchi hayvonlarga qaraganda faqat ovqat manbalarinigina emas, balki hamma turdagi narsalarni timirskilab, tekshirib ko'rishga juda ustadir. Bunday qiziqishni I.P.Pavlov «sabotli», «beg'araz qiziquvchanlik», «sinchkovlik impulsi» deb atagan edi. Maymundagi ana shu xususiyat, buning ustiga ularda kuzning yuksak darajada taraqqiy qilganligi ularning idrok doiralarini beqiyos ravishda kengaytiradi, tajriba boyliklarini nihoyatda oshirib yuboradi va ko'nikmalarning tarkib topishida, murakkab harakat shakllarining vujudga kelishida boshqa hayvonlarga qaraganda unga keng imkoniyatlar yaratadi. Boshqa hayvonlarga qaraganda maymunlarda tekshirish refleksining kuchliligi ulardagi qo'l tipidagi oyoqning mavjudligidir. Chunki ular «qo'l» yordamida tevarak-atrofdagi narsalar bilan juda murakkab munosabatlarga kirishish imkoniyatiga egadir. Shuning uchun ularda boshqa hayvonlarda bo'lmagan vaqtli bog'lanishlar ko'plab hosil bo'ladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, psixikaning taraqqiyoti nerv sistemasining taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq ekan. Odamning nerv sistemasi esa bosh miya va uning qobiq qismi shakllanganligi bilan belgilanadi va unda psixikaning eng yuksak ko'rinishi – ongning paydo bo'lganligini ko'rsatadi.

Inson psixikasi hayvon psixikasidan o'zining quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi: Inson o'zi anglagan zaruratga ko'ra ongli xatti-harakat qilish qobiliyatiga ega. Odamning hayvondan ikkinchi farqi uning qurollarni yaratishga va saqlashga layoqatli ekanligidir, hayvonlar ham qurol yasashi mumkin, lekin ular qurolni odamlar singari birgalashib, jamoa bo'lib yasamaydi. Inson psixik faoliyatining ajralib turadigan uchinchi belgisi ijtimoiy tajribaning biridan ikkinchisiga o'tkazilib turishidir. His-tuyg'ulardagi tafovut hayvon bilan inson o'rtasidagi to'rtinchi juda muhim tafovut bo'lib hisoblanadi. His-tuyg'u ikkisida ham bor. Faqat inson boshqa kishining g'am-g'ussasini va quvonchini birgalikda baham ko'ra oladi, faqat odamgina tabiat manzaralaridan zavqlanadi. Inson psixikasining hayvon psixikasidan eng muhim farqi, ularning rivojlanish shart-sharoitlarida ko'rinadi. Agar hayvonlar psixikasining o'sishi biologik qonunlar asosida ruy bersa. Inson tajribani o'zlashtirmasdan, o'ziga o'xshaganlar bilan muloqotda bo'lmasdan turib uning ongi rivojlanmaydi. Masalan, Amola va Kamola. Shunday ekan, inson ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Bolalarning ruxiy jihatdan rivojlanish qonuniyatlarini psixologiya fanining qaysi tarmog'i o'rganadi?

a) pedagogik psixologiya; v) ijtimoiy psixologiya; b) mehnat psixologiyasi; g) yosh psixologiyasi;

2. Psixika faoliyat samarasi va rivojlanish mahsuli sifatida qaraladigan bo'lsagina, u to'g'ri tushunilishi va aynan bir xil tarzda izohlab berilishi mumkin. Yuqoridagi fikr psixologiyaning qaysi tamoyili mohiyatini ochib beradi?

a) reallik; v) ong va faoliyat birligi; b) determinizm; g) psixika va ongning faoliyatda rivojlanishi;

3. Shisha banka ichiga solib qo'yilgan o'rgimchak och bo'lishiga qaramay, shu bankadagi pashshani emaydi, odatda u ataylab to'r yasab, o'nga ilingan pashshalarni tutib eydi. O'rgimchakning bu xatti -harakati psixiki taraqqiyotining qaysi bosqichiga to'g'ri keladi?

a) sensor bosqich; b) idrok; v) aql; g) ong.

4. Asalari va chumolilarning murakkab xatti -harakatlarini nima deb atash mumkni?

a) aqliy harakatlar; b) ko'nikmalar; v) instinktiv harakatlar; g) mehnat.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Psixologiyaning fanlar tizimi tutgan o'rni qanday?

2. A.V.Petrovskiy psixologiya sohalarini qanday tasnif qilgan?

3. Psixologiyaning asosiy tamoyillarini izohlang?

4. Empirik uslublarni tasniflab bering?

Adabiyotlar ro'yxati:

1.Karimov I.A. O'zbekiston XX1 asr bo'sag'asida... –T., 1998.

2.Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.,1997.

3.Gamezo M.V, Domashenko I.A. "Atlas po psixologii".–M.,1986.

4.Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs lektsiy. –M., 1996.

5.Davletshin M.G, To'ychieva M. Umumiy psixologiya. –T., 2002.

6.Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2000.

7.Nemov R.S. Psixologiya. –M., Prosveshenie. 2004.

2-MAVZU: PSIXOLOGIYA TARIXI

REJA:

1. Psixologiya tarixini davrlarga bo'lish.

2. Tarixiy psixologik jarayon qonuniyatlari.

3. Psixologik g'oyalar tarixiy taraqqiyotini harakatga keltiruvchi kuchlari va sabablari.

4. Tarixiy psixologik tahlil printsiplari.

5. Psixologiya tarixi metodlari.

6. Psixologiya tarixi manbalari.

7. Psixologik sistemalar «superteoriya» sifatida.

8. Qadimgi sharq mamlakatlarida jon haqidagi ta'limotlar.

9. Muqaddas kitoblarda jon haqidagi ta'limotlar.

10.Hind va Xitoy tabiblari temperament haqida.

11.Buyuk allomalarni (Aristotel, Kimma, Galey, Lukretsiy, Geraltit) antik psixologiyaga qo'shgan hissalar.

12.G'arb allomalarining faqat kishilarga tegishli bo'lgan qalb tushunchasiga bergan fikrlari.

13.Sechenovning psixologiyaga qo'shgan hissasi.

14.Sechenovning miya ustida olib borgan eksperimentlari.

15.Sechenov g'oyalariga professor yurist K.D.Kavelinning qarshi chiqishi.

16.Ilmiy psixologiyaining asosiy vazifasi nimalardan iborat.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar:

Assotsiativ psixologiya – XVII-XIX asrlarda maydonga kelgan psixologiyaning yoʻnalishi boʻlib, koʻproq Angliyada tarqalgan. Uning asoschisi David Yum (1711-1776) taʼlimotiga koʻra, ongning barcha murakkab hodisa va mahsullari oʻzining “men” ekanligini anglash, oʻzaro tashqi bogʻlanishlar – “assotsiatsiyalar” bogʻlangan “tasavvur birikmalari”dir.

Bixeviorizm (Xulq psixologiyasi) – XX –asr boshlarida AQShda maydonga kelgan psixologiyaning mexanik yoʻnalishi boʻlib, uning asoschilari, odamning tashqi taʼsirlar natijasida paydo boʻlgan xatti-harakatlari, xulq-atvorini oʻrganish mumkin deb hisoblaydilar. D.Uotson (1878-1958), E.Torndayk (1874-1949).

Vyurtsburg maktabi – XX asr boshlaridagi nemis psixologlari birlashmasi boʻlib, ular birinchi boʻlib maxsus eksperimental tadqiqotning predmeti qilib tafakkurni oʻrganganlar. uning asoschilari O.Kyulpe (1862-1915), K.Byuller (1879-1922).

Geshtaltpsixologiya (struktura, yaxlit) – hozirgi zamon chet el psixologiya maktablaridan biri boʻlib, XX asrning 30-yillarida Germaniyada paydo boʻlgan. Bular murakkab psixik hodisalarni tushuntirish uchun hodisalarning bir butunligi printsiptan foydalanadilar. Asoschilari X.Erenfels (1859-1932), N.Koffka (1886-1941).

Freydizm (psixanaliz) - XX asrda paydo boʻlgan, asoschisi avstriyalik psixiatr Z.Freyd. Predmeti instinktiv mayllar. Ongning rolini inkor qiladi.

Funksional psixologiya - psixika va shaxsni alohida psixik funktsiya sifatida oʻrgangan yoʻnalish.

Psixologiya tarixi fani psixologiya predmeti va metodlaridan farq qilib, psixologiya tarixi psixik voqelikni emas, uning haqidagi tasavvurlarning aniqlanish boqsichlarni oʻrganadi.

Psixologiya tarixining vazifasi psixika haqidagi ilmiy bilimlarning paydo boʻlishi va keyingi taraqqiyotini tahlil qilishdan iboratdir.

Psixologiya bilimlar taraqqiyotining butun tarixida psixologiya predmetining uchta taʼrifi mavjud; **ruh** (jon) haqidagi fan, **ong** haqidagi fan va **xulq** haqidagi fan. Psixologiyani ruh haqidagi fan sifatida talqin qilish, ruhni izohiy printsiptan deb, uning faoliyat doirasini nihoyatda cheklab qoʻygan. Ongni psixologiyaning predmeti sifatida talqin qilish va psixikaning ongli qismini tadqiqot obʼyektiga aylantirib, bir vaqtning oʻzida ong, ong ham predmet, ham izohiy printsiptan boʻlib xizmat qilgan. Psixologiya predmeti sifatida xulqning tanlanishi ong psixologiyasi subʼyekt tizimini yengib, psixologiyani obʼyektiv tadqiqot yoʻliga olib chiqdi. Lekin ayni paytda psixologiya psixika va ongni oʻz tadqiqot predmeti sifatida yoʻqotdi. Keyingi taraqqiyot ong va xulq (faoliyat) birligi printsiptan asosida ong va faoliyatning tarixiy buzilgan aloqasi tiklanmoqda. har qanday boshqa fanda boʻlganidek psixologiya ham murakkab, qarama-qarshiliklarga toʻla, baʼzan, turgʻunlik, baʼzan voz kechilgan fikrlarga qaytish kabi bosqichlarni bosib oʻtgan.

Psixologiya haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlar eramizgacha VI asrlarda paydo boʻlgan. Taraqqiyotning shu katta davrini oʻrganish uchun qismlarga ajratish, bosqichlarga boʻlish va har bir davrning mazmunini belgilash kerak boʻladi.

Psixologiya tarixida ikkita katta davr ajratiladi. **Birinchi** - psixologiyaning falsafa, boshqa tibbiy, ilmiy fanlar tarkibidagi taraqqiyoti, **ikkinchi** - taraqqiyoti psixologiyani ilmiy asoslarini psixologiyaning mustaqil fan sifatidagi vaqt boʻyicha

olganda birinchisi eramizgacha VI asrdan eramizning XIX asrining o'rtalarigacha davom etib 2,5 ming yildan ortiq vaqtni o'z ichiga olsa, ikkinchi davr 1,5 asr mobaynida davom etib kelmoqda. har ikkala katta davrning xaqiqatga yaqin ekanligiga shubha qilmagan holda, har bir davrni yana mayda davrlarga bo'lib chiqish mumkin. Xronologiyaga ko'ra XVIII asr, XIX asr va XX asrlar psixologiyasi, geografik joy o'rniga ko'ra Masalan: Meksika, Angliya, Frantsiya psixologiyalari kabi.

Boshqa fanlarda ham bo'lganidek psixologiya tarixi fanlari ham shartli bo'lib, u ba'zan o'rganilayotgan muammoga, tadqiqotchining shaxsiy yondoshishiga va hokazo sabablarga bog'liq bo'lgan. Shartli ravishda psixologiya tarixining quyidagi davrlarini belgilash mumkin:

Psixologiyaning falsafa tarkibidagi taraqqiyoti:

> Eramizgacha VI asrdan eramizning V asrigacha. Psixika haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarining paydo bo'lishi va ularning dastlabki taraqqiyoti.

> V-VIII asrlar, Ruh(jon) haqidagi ta'limotning falsafiy ta'limotlar va tibbiy bilimlar bazasida rivojlanishi.

> XIV-XVI asrlar. Ruh(jon) haqidagi ta'limotning anatomo-fiziologik bilimlar va XIV-XVI asrlardagi buyuk kashfiyotlar ta'sirida rivojlanishi.

> XVII-XIX asrlar o'rtalarida ongning psixologiya predmeti sifatida ajratilishi, psixologiya nazariy asoslarini shakllanishi. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida taraqqiyoti.

> XIX asrning boshidan XIX asrning 60-yillarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida tabiiy shakllanishi.

> XIX asrning 60-yillaridan XIX asrning oxirlarigacha. Psixologiyaning mustaqil fan sifatida paydo bo'lishi va dastlabki taraqqiyoti.

> XX asrning 10 va 30-yillari o'rtalarida. Psixologiyada ochiq krizis.

> XX asrning 20 - 30 yillari. Sobiq sovet psixologiyasining shakllanishi.

> 30-yillar oxiri 50-yillar. Psixologiyada krizisning pasayishi. Sobiq sovet psixologiyasi nazariy sohasi taraqqiyoti. O'zbekistonda psixologiya fanining shakllanishi.

> 60-yillardan shu davrgacha psixologiyada yangi nazariy yondoshishlarni qidirish davri.

Ilmiy psixologik bilimlar taraqqiyotining umumiy va asosiy qonuniyati bu g'oyalar kurashidir. Bu kurash uzoq vaqt materializm va idealizm o'rtasidagi kurash ko'rinishida talqin qilinib kelindi.

Psixologiya fani taraqqiyotning muhim qonuniyati uning yagona nazariyani ishlab chiqishiga yo'nalganligidir. Bu tendentsiya psixologiyadagi ochiq krizis davrida yanada yaqqol ko'zga tashlandi. Chunki bu davrda psixologiya uchun yagona izohiy printsiplarning topilishi uning fan sifatida saqlanib qolishini ta'minlar edi. Shu davrda paydo bo'lgan barcha maktablar: psixoxanaliz, geshtalt psixologiya, bixeviorizm va boshqalar hammasi ana shu yagona nazariya o'rniga davogarlik qildilar. L.S.Vigotskiy bu holatni shunday ta'riflaydi: «Aniq sohalardagi xususiy kashfiyotlardan umumiy printsiplarning paydo bo'lishiga va ularning butun psixologiyaga yoyilishiga va nihoyat falsafiy sistemaga, xatto dunyoqarashga aylanishga da'vo qilingan bu g'oyalar psixologiyada yagona nazariya maqomiga juda mos kelmaydi. **Psixologik g'oyalar** tarixiy taraqqiyotni harakatga keltiruvchi **kuchlari** va **sabablari**. Hozirgi paytda ilmiy

g'oyalar u yoki bu fan taraqqiyotini belgilovchi omillar, ilmiy bilimlar determinatsiyasi haqida juda ko'p munozaralar mavjud.

I.Lakotos fanining «ichki» va «tashqi» tarixi atamasini qo'llashni taklif qilgan. Bunga ko'ra fan faqat o'zining ichki standartlari, ilmiylik mezonlari asosida rivojlanib boradi. Boshqacha aytganda fanning rivojlanishiga faqat kognetiv faktorlarga ta'sir ko'rsata oladi. Bunday internalistik yondoshishga eksternalistik - yondoshish qarama - qarshi qo'yilib, unga ko'ra fan tarixini ijtimoiy faktorlarsiz o'rganib bo'lmaydi, ijtimoiy faktorlar fan tarixini nazariy qayta tiklashda foydalanilishi lozim. Shunga ko'ra psixologik bilimlar taraqqiyoti tarixini tahlil qilish birinchidan tarixiy fan - holatni yaxshi bilishni, ikkinchidan - o'rganilayotgan davrda fandagi alohida holatni hisobga olishni talab qiladi. Boshqa fanlar; matematika, fizika, astronomiya, tilshunoslik, fiziologiya, biologiya, etnografiya, logikaning psixologiya taraqqiyotiga ta'siri turlicha. **Birinchidan** shu fanlar doirasida psixik hodisalar haqidagi bilimlar to'plangan, **ikkinchidan** psixologiyada shu fanlarning metodlaridan foydalaniladi. **Uchinchidan** ilmiy metodologiyadan ham foydalanish xollari bo'ladi. Psixologiyaning boshqa fanlar bilan bunday aloqasi psixologiya xech qachon to'la ajralgan holda rivojlana olmasligini ko'rsatadi. Lekin ayni paytda J.Piaje aytganidek, «psixologiyaning kelajagi birinchi navbatda uning o'z taraqqiyotiga bog'liqdir».

Tarixiy psixologik tadqiqotning bitta vazifasi dialektik bilan to'la bo'lmagan bilimni to'la bilimga aylanish jarayonini ochib berishdan iboratdir. M.T.Yaroshevskiy tarixiy psixologik metod sifatida kategorial yondoshish printsipini ishlab chiqdi. U fanda uch qator kontseptual birlik - empirik ma'lumotlar (faktlar), nazariy va amaliy kategoriyalarni farqlab psixik voqealikning har xil tomonlarini qayta tiklaydigan konkret - ilmiy kategoriyalarni ajratadi. Bular; obraz, harakat, motiv, ruhiy-ijtimoiy munosabat, shaxs. Shu kategoriyalar majmuining transformatsiya qilishini, psixologik bilimlar bosqichma - bosqich taraqqiyotni aks ettiradi.

TARIXIY PSIXOLOGIK TAHLIL PRINTSIPLARI.

Tarixiy tadqiqotlardagi eng muhim printsip - tarixiylik printsipidir. Bu printsip tadqiqotchidan o'rganilayotgan hodisaning shu davrning hamma o'ziga xosliklari, ijtimoiy madaniy aloqalari, uning butun konkret mazmuni bilan birga o'rganib, o'rganiladigan hodisaning qaytarilmasligi va noyobligini ko'rsata olishni talab qiladi.

Tarixiylik printsipining tuzilishi **prezentizm** va **antikvarizm**da ko'rinadi. **Prezentizm** - tarixiy tadqiqotni o'rganilayotgan davrdan faqatgina hozirgi zamon tasavvurlariga mos bo'lgan ko'rinishlarigina ajratib olib o'rganish bilan cheklab qo'yiladi. **Antikvarizm** - aksincha tarixiy o'tmishni hozirgi zamon talablariga bog'liq bo'lmagan, qotib qolgan hodisa sifatida o'rganadi. O'tmish hodisalarni tasvirlashdagi har qanday bir yoqlamalik, **sxematizm** tarixiylik printsipidan chekinishdir. Shu bilan tarixiy tadqiqotlar o'rganilayotgan hodisalarning umumiy qonuniyatlarini topishni talab qiladi. Bu talabni bajarishni asosan mantiqiylik va tarixiylikning birligiga tayanish ta'minlaydi. Bu printsipga ko'ra tarixchi o'tmish hodisasini shunchaki tasvirlab qo'ymay, balki uni nazariy jihatdan tasavvur eta olishi kerak, ya'ni bu hodisalarda qandaydir doimiylikni topa olishi kerak. Tarixiy psixologik g'oyalarni ijtimoiy, siyosiy yo'nalishni g'oyaviy mohiyatini aniqlashni talab qiladi. Bunday yondoshish ilmiy kontseptsiyalarning jamiyatdagi ijtimoiy roldan ajratib o'rganuvchi ob'yektivizm va sub'yektivizmdan farq qiladi.

Tarixiy psixologik tadqiqotlarda M.G.Yaroshevskiy ta'kidlaganidek **determinizm** - sababiylik printsipi katta ahamiyatga ega. Tarixda uning fikricha determinizmning ko'plab turlari paydo bo'lgan. Mexanikadan oldin, **mexanik, biodeterminizm, psixodeterminizm, sotsiodeterminizm**. Bularning har biri psixik hodisalar o'z - o'zidan paydo bo'ladi deb talqin qiluvchi indeterminizmga qarshi turadi.

PSIXOLOGIYA TARIXINING METODLARI.

Psixologiya tarixidagi eng katta xavf bu tarixiy materialni tasvirlash bilan cheklanadigan **empirizmdir**. Tarixdagi empirizm faktorlarga murojaat qilinganligi bilan emas, balki faktlar oldida o'zlik qilib, ularni sistemaga sololmaganligi, tushuntira olmaganligi, tekshira olmaganligi tufayli ularning o'z sifati, ilmiy qiymatini yo'qotib qo'yishi bilan xavflidir. Tarixiy tadqiqot metod va metodikalarining asosiy vazifasi manbalari qidirib topish, tadqiqot mazmunini belgilash, fakt, nazariya, qonun tushunchalaridan iborat o'rganilayotgan materiallarni sistemalashtirishdan iboratdir.

Psixologiya tarixining asosiy metodi o'tmish ilmiy sistemalarini tasvirlar va ularni tahlil qiluvchi nazariy rekonstruktsiya metodidir. Nazariy rekonstruktsiya ilmiy kontseptsiyalar, muammolar, tadqiqot metodlarini predmet mantiqiga mos ravishda tarixiy ketma-ketlikda retrospektiv qayta tiklash imkonini beradi. Tarixiy tadqiqot yo'nalishining bitta turi ilmiy maktablar hisoblanadi. Arxiv materiallarini o'rganish, izlanish, sharxlash, izoh berish, yo'naltirishni talab qiladi.

Psixologiya tarixida intervyu metodidan foydalaniladi. Biografik va avtobiografik metodlar ham psixologiya tarixida ko'p qo'llaniladi. Ilmiy ishlardan sitatalar keltirish chastotasini tahlil qilish ham tarixiy psixologik metodlardan hisoblanadi. Tarixiy psixologik faktorga munosabatini aniqlash va ularga baho berish uchun anketa metodidan foydalaniladi.

PSIXOLOGIYA TARIXINING MANBAALARI.

Psixologik bilimlar to'planishini tarixiy jarayonini o'zida aks ettirgan har qanday material psixologiya tarixi manbai bo'la oladi. Bular o'tmish faylasuflari va psixologlarining ilmiy ishlari bo'lishi mumkin. Psixologiya tarixining muhim manbai ijtimoiy praktika, ya'ni tibbiyot, ta'lim va tarbiya, huquqiy praktika, moddiy ishlab chiqarish va hokazo hisoblanadi. Yana bir manbaa boshqa fanlar tabiatshunoslik, tilshunoslik, etnografiya, antropologiya va boshqalar hisoblanadi. Bundan tashqari xalq og'zaki ijodi, yozma adabiyot, diniy falsafiy oqim va maktablar ham tarixiy psixologik faktorlarni aniqlashda, psixologik bilimlar tarixiy taraqqiyotini qayta tiklashda manbaa bo'lib xizmat qila oladi. Psixologik ta'limot insonga o'xshab qadimdan ma'lum. Inson o'z yaqinlarining xarakter va xulqiga moslashmay yashay olmas edi. Empirik anglashdan teoretik anglashga o'tish tabiiy sabablarga hamma nazorat qilingan holatlar tobeligi bilan bog'langan. Bu printsip determinizm deb ataladi va psixikani tushuntirishda ilmiy xarakter bergan. Psixologik tushunchalarni birinchi sistemasi Aristotelni «**Qalb to'g'risida**» degan traktatida tasvirlangan. Ammo mustaqil fan bo'lib psixologiya yuz yil ilgari shakllandi, ilgari **psixologiya** fani **filosofiya** deb o'rganilar edi. Unga boshqa nomlar ham berilgan:

A) mental filosofiya

B) pnevmatologiya

Psixologiya o'tmishni faqat bu nomlar ostidagi kitoblarda, ya'ni filosofiyadan axtarish xatodir, chunki psixologiya bilimi konsentratsiyasi insoniyatning aqliy

ishlarini ko'p uchastkalarida uchratish mumkin edi. Shuning uchun psixologiya tarixi (mustaqil fan bo'lgunga qadar bo'lgan davr) qalb to'g'risidagi falsafa ilmiga mos kelmaydi.

Psixologiyani o'tmishi to'g'risidagi ma'lumotni faqat bir-biri bilan almashgan falsafa sistemasini saqlab qolmay, uni tabiiy fanlar ayniqsa biologiya meditsina, pedagogika, sotsiologiya kabi fanlar ham saqlab qolgan.

XX asrda psixologiyani o'tmishiga bir necha bor qiziqish kuchaydi. XIX asrning oxiri, XX asrning boshida, qiziqish kuchaydi. Bu yillar psixologiyani uyg'onish davri deb hisoblanadi.

XX asr 10-yillarda psixologiyani o'sha paytda xukmron bo'lgan metod va fan sifatida o'rganish sistemasi qattiq tanqid qilingan. Bu fanning predmeti bo'lib fenomenlar yoki ong aktlari metodi esa o'z-o'zini eksperimental nazorat qilish to'g'risidagi tushunchadan iborat. XX asrning 30-yillari boshida psixologiya kapitalistik mamlakatlarda yana krizisga uchradi. Bundan oldingi davrni asosiy maktablari tarqaldi. Ammo, u maktabning siniq parchalarida ko'plab yangilari paydo bo'ldi. Psixologik o'rganishni metodologik muammolariga qiziqish kuchaydi va bir necha yirik tarixiy psixologik ishlar paydo bo'ldi. Sobiq sovet psixologlarini ishlarida psixologik fikrni o'sishi amerikalik va boshqa chet el tarixchilariga qaraganda boshqa g'oyaviy - teoretik pozitsiyada ko'rigan.

TARIXIYLIK PRINTSIPI.

1. **Marksizm** tomonidan jamoat hayotini tarixiy-materialistik tushunchasi ishlab chiqilgan, unda odamlarni ishlab chiqarish faoliyati fikrlashga qaraganda birinchi o'rinda.

2. **Aks etish printsiplari.** Marksizm - fikrlash, aks etish tabiatidan kelib chiqadi deb o'rgatadi. qalb funktsiyasi - ongli, ongsiz funktsiyalar. Bu asosan aqliy metodlardir.

3. **Praktika roli.** Fikrlash manbai praktikaga tobe emasligini tan olish, bilimni tushunchadan, tushunchaga harakat, deb tasdiqlash asossiz ekanligini bildiradi.

Ob'yekt bilan o'zaro harakat bu harakatni muhim sharti. Marksizm ob'yektning o'zi boshqacha burchakdan baholanadi, oldingi materialistik sistemalardan boshqacharoq. xaqiqatni aniflashni toza fikrlash yaratmaydi, uni ijtimoiy mavjudodlar aniqlaydi, chunki ular dunyoni yaratishga o'zgartirishga qodir. Psixik xolatlar haqida tushunchalar jamoat praktikasida tug'iladi va undan tashqari holatda tushuntirib bo'lmaydi. Psixologiyani muvaffaqiyati hamma vaqt praktikani extiyojiga bog'liq edi, birinchi o'rinda meditsina va pedagogikaga bog'liq. U mustaqil fan sifatida kapitalistik ishlab chiqarish praktikasiga kerak bo'lganidan shakllangan.

4. Materializm va idealizm kurashi.

Marksistik ta'limotiga ko'ra, sotsial kolliziyalar ikki dunyoqarash materialistik va idealistik dunyoqarashlar to'qnashuviga ta'sir etadi. Psixologiya ijtimoiy fanlar va tabiatshunoslik fani to'qnashuviga ekan, unda ana shu to'qnashuv aniq ko'rinadi. Ijtimoiy rivojlanishni bir davrda odamlar reflekslarigiyaga ega bo'lishdi, o'z xulqini analiz qila olgach, idealizm fikrini maxsus, birlamchi, xaqiqat deb qabul qildi. Psixika xususiyatlarini idealizm boshlang'ich, hech nima bilan aniqlanmaydigan, boshqa hamma narsani tushuntira oladigan deb qabul qildi. Materializm ong va ob'yektiv xaqiqat o'rtasida umumiylikni axtarib, ongni ob'yektiv xaqiqatdan chiqqan deb o'rgatadi.

5. **Dialektika.** xaqiqatni o'rganish qiyin va qarama-qarshi xarakterga ega. O'rganish dialektikasining ko'rinishlaridan biri krizis xolati va ilmdagi revolyutsiyadir. Psixologiya ham shu krizis va revolyutsiyalardan o'tdi.

Uzoq vaqt burjuaziya tarixshunoslarida ikki xil yondoshish xukmronlik qilgan: **«personalistik» va «kontekstik».**

Personalistik yondoshish.

Ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, adashishlar o'z avtorlariga ega, ularning nomlarini tarix saqlab qoladi, shuning uchun faktning rivojlanishi oxirgi nuqtasi ayrim shaxslarni aql idrokiga bog'liq, degan fikr paydo bo'ldi.

Kontekstik yondoshish.

Ko'p faktlar shuni bildiradiki, ilmiy g'oyalarning yunalishi ob'yektiv qonunga tobe, yakka omil - o'z zamonini namoyondasi, u o'z zamonini intellektual iqlimida chegaralanib qolgan. Kashfiyot - uni tayyorlovchi g'oyalarsiz bo'lmaydi.

Kontekstik yondoshishni tarafdorlaridan ko'zga ko'ringan amerikalik psixolog E.Borin, ilm-fan tarixi L.Tolstoyning «Urush va tinchlik» asarida ulug' kishilarni: «tarix qullari» deganini qo'llab-quvvatlaydi. Ularni nomlari davrni, maktablarni, oqimlarni, muhim tarixiy epizodlarni farqlashda ishlatilgan tamg'alardir. Yana bir amerikalik psixolog «personalistik» va «kontekstik» yondoshishlar bir-birini to'ldiradi, deb hisoblaydi. Tarixda ulug' kishilar bor, ammo ulug' voqealar ham bor. Ikkovlon bir-biri bilan chambarchas bo'lib, bir-birini to'ldiradi. Ammo zamon ruhini roli katta, chunki inson qanchalik ulug' bo'lmasin, zamon iqlimidan uzoqroq bo'lsa, nom-nishonsiz yo'q bo'ladi. **«Kontekst»** kontseptsiyasi uning asosiy tushunchasini noaniqligidan muhim tushuntirish ahamiyatiga ega emas: **«Intellektual iqlim»**, **«Zamon ruhi»**, **«Sotsial madaniy atmosfera»**, bunday noaniq determinantlarga murojaat qilish bizni na ilmiy fikr rivojlantirishni harakatini va na ob'yektiv tarixiy logikani tushuntirishda olg'a siljitadi. Bir konteksni ikkinchisi bilan almashtirish ilmiy natijani yo'q qilib, «Kontekst» yondoshishdan qoniqmaslik psixologik o'rganish tarixini boshqa usullar bilan axtarishni majbur qiladi.

«Juftlarni qarama-qarshiligi» printsiplari.

Psixologik g'oyalar harakatini umumiy chiziqlarini aniqlashda sxemalar chizildi, bunga asoslanib harakat qarama-qarshilikka ega deyiladi. Buni amerikalik tarixshunos «qarama-qarshilik jufti» deb atadi. Bir necha nazariyalar taklif qilindi. G.Merfi psixologik o'rganishlarni XX asrni 10-20-yillarda umumiy xolini to'rt «qarama-qarshilik jufti» larga bo'ldi:

1. **«struktura - funktsiya»**
2. **«qisman butun»**
3. **«sifat - son»**
4. **«eksperimental - statistik»**

XX asr 10-yillarida birinchi xukmronlik qilgan, 20-yillarda ikkinchisi deb hisoblangan. Amerika psixologiya jurnalini 50 yil davomida bosilib chiqqanini analiz qilib D.Bruner va G.Olbert nazariyalarini umumlashtirib:

1. **«ratsional - empirik»**
2. **«teologik- mexanik»**
3. **«sifat - son»** deb ajratdilar. Ular har juftni ikkinchi qismini vazni bosib chiqishini xulosa qildilar. Keyinchalik G.Olbert nazariyalarni ikki guruhga ajratdi:

- a) determinizm printsipiga amal qiluvchilar;
- b) shaxsni kelajagiga orientatsiya qilishga aktsentratsiya qilganlar.

Brunevik sxemasi.

Ba'zi psixologik sistemalarda «kontseptsiyal fokus» degan fikrda Etan Brunevik «organizm va uni muhiti » umumiy sxemasidan chiqib kelib asosiy psixologik kontseptsiyalarni klassifikatsiya qilishni taklif qildi. Bu sxemani asosiy komponentlari shundan iborat:

- A- organizmning uzoq o'tmishi;
- V- organizm atrofidagi fizik moddalar;
- S- prokimal stimullar;
- D- organizm;
- E- to'qimalar harakati;
- J- organizmning muhitini o'zgartirishi;
- Z- faoliyatni uzoq, keyinchalik faoliyati;

Bu umumiy sxemani Brunevik alohida tarixiy shakllangan yo'nalishlar bilan moslashtiradi, **Strukturalizm** (psixologiyaniing vazifasini, ongniing asosiy elementlarini tanib, ularning orasidagi bog'lanish strukturasi aniqlash kontseptsiyasi) va **geshtaltizm** (ongni butun «dalalar» o'zgarishini tushuntiruvchi kontseptsiya) proksimal stimullar - organizm munosabatlari bilan chegaralanib koladilar.

Klassik bixeviorizm (psixologiya predmetini stimullarga harakat reaksiyasi deb hisoblovchi) «**proeksimal stimullar - proksimal reaksiyalar**» bog'lanish bilan chegaralanadi (a-A). **Freydizm** **organizmni** uzoq o'tmishga bog'liqligi bilan chegaralanadi. (S-0) **funksionalizm** muhit ob'yektlarini ular bilan operatsiya qilish munosabatini nazarga oladi (v-A). Bu sxemani e'tiborga olib Brunevik har bir sanalgan nazariya butun jarayonni bir fragmenti deb hisoblaydi, ammo psixologiya tarixini anglash uchun Brunevik sxemasi yaramaydi: genetik sababi va teoriyalar buzilishini tushuntirib bermaydi.

«**Sistematologiya**» Daniya olimi K.Madsen fanni o'zining ilmiy analiz qilish kerakligini gapirib psixologik teoriyalarini solishtirib o'rganish kerakligini, uni «sistematologiya» qilishni taklif qildi. Nazariya deb - u shved filosofi G.Gernebodan so'ng «ilmiy tekst» yoki fikrlash (yozma, og'zaki), metoteoriya deb - shu tekstni teoritik analizini tushunamiz. Tekstni yaratganda bir necha darajani taklif qiladi:

- a) diskriptiv (tasvirllovchi);
- b) gipotetik (tushuntiruvchi);

v) metastrata, bunda tekstni avtori bilim, xaqiqat, metod, model to'g'risida o'z fikrini bildiradi.

«Sistematologiya» asosiga Madsen «fikrlash ekonomikasini» qo'ydi. Bu adashtiruvchi ishonch, chunki ko'z bilan ko'rilgan xaqiqatni bildiradi, xaqiqat ilmiy bilimni mazmunini tashkil qiladi deb adashtiradi. Materialistik dialektikasi pozitsiyasidan psixologik o'rganishni ilmiy kategorial analiz qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Kategoriyalar - fikrni eng umumiy buzilmas, o'zaro bog'langan ish tashkilotchilari hisoblanadi. Ular xaqiqatni aktiv tasvirlanishidir. Falsafiy kategoriyalar ilmi (forma va mazmun, son, sifat va boshqalar) grammatik kategoriyalarga o'xshab uzoq tarixga ega.

Fan kategoriyasi (xuddi tilnikidek) tarixiy natijadir. Ularni mazmuni asrdan asrga o'zgaradi. Kategorial qurilish o'z rivojlanishida qator davrlarni o'tadi. Davrlarni o'zgarishi revolyutsion xarakterga ega. Ammo bu o'zgarishlar shu vaqtgacha bo'lgan yutuqlar yo'qqa chiqarilgan emas. O'rganishni rivojlanishida har bir davrda kategoriyalar moslashtirilib invariant va variantini birligi deb bilamiz. Ularni munosabati «invariant-variant» mazmunini oladi. Ilmiy g'oyalarni rivojlantirishda aktual va tarixiylikni ochib kategorial analiz «**antikvarizm - prezentizm**» anatomiyasini yangi pozitsiyadan hal qiladi. «**Prezentizm**» uchun shu narsa xarakterliki, ilm fanning o'tmishini hozirgi zamon tushunchasi tomonidan o'rganib hamma noilmiy, ularga to'g'ri kelmaydigan qismidan voz kechiladi. **Antikvarizm** esa teskarisiga, butunlay xozirgi dunyoqarashdan oldingi davrni tushunish uchun voz kechish kerak deb biladi. Ikkala tendentsiya ilmiy g'oyani xarakatini o'xshash xolatini ko'rishda to'sqinlik qiladi. Antikvarizm davrlarni jonli bog'lanishini kesib tashlaydi. har bir asr o'z qobig'i ichida qoladi, uni o'rganish hozirgi zamon fani uchun foydasiz bo'ladi. Prezentizm ham uni ruhlantirib jonlantira olmaydi. Kategoriyalardagi invariantlik uzoq tarixiy davr davomida o'tmishda, kelajakda va hozirgi zamonda harakat qilishda sharoit yaratadi. Shunday qilib tarixiy o'rganishlar «antikvar» o'rniga aktual ahamiyatga ega bo'ladi, bu bilan psixologga o'z fikrini boshqa davr va kelajakdagi fikrlar bilan ichki bog'lanish borligini tushunishga yordam beradi. Psixologik o'rganish tarixiga kategorial yondashish uni muhim savollarini yangicha yoritishga, shu qatori psixologiyaga mustaqil fan statusi berilishiga sharoit yaratib berganini yoritadi. Ularga eksperiment qo'llanishi, maxsus laboratoriya paydo bo'lishini, matbuotda yoritilishini va xokazoni kiritish mumkin.

Boshqa muhim masala psixologiyani maktablarga va sistemalarga bo'linishiga qarashlidir. Bunday bo'linish shunday sharoitda bo'ldiki; kategorial apparatni bir bloki kuch bilan eksperimental teoritik ishlarga e'tibor berdi. Kategoriyalar birlashmani emas, balki sistemani tashkil qiladi. Shuning uchun konkret ilmiy ob'yekt haqida «bir kategoriyada» deb fikrlash mumkin emas. Bu sistemani tarixiy darajali tabiatida uni zvenolari har xil darajada harakat qilishi mumkin ya'ni har xil davrni ilmiy o'rganishni rivojlantirishdir.

Kategorial analiz uchun ob'yekt bo'lib fanni rivojlanishi formalari xizmat qiladi. U jamoat - tarixiy praktikadan kelib chiqdi. Ilmiy o'rganish tarixini burilish punktlarida psixologik o'rganishlar sotsial - ideologik stimulyatorlarga bog'liqligi yanada yaqqol ko'rinadi. Bu kitob avtoriga jo'nash nuqtasi bo'lib determinizm g'oyasi sabab bo'ldi. Ilmiy o'rganish deterministikadir.

Ruh haqidagi g'oyalar qadimdayoq Suqrot, Platon, Arastularning falsafiy qarashlarida shakllangan. Demak, birlamchi psixologik qarashlar falsafa negizida paydo bo'lgan edi. Buyuk allomalar asarlarida jon va ruh haqidagi qarashlardan ta'sirlangan boshqa olimlar, birinchi navbatda, faylasuf olimlar tabiat jamiyat va inson tafakkuri xususida asarlar yaratganda, inson ruhiyatiga ham e'tibor qaratilishini o'zlariga odat qilib oladilar. Shu bois ham psixologiyani haqli ravishda falsafa negizida shakllangan fan deyish mumkin.

Keyinchalik boshqa fan sohalari, ayniqsa, tibbiy-biologik izlanishlarda inson va uning murakkab tuzilishi, ruhiy hayotga qiziqishi ortib borgan sari sekin-asta psixik jarayonlarning ham yaxlit bir tizimi bo'lishi va uni ham fanning yutuqlaridan

foydalangan holda o'rganish mumkinligi g'oyasi paydo bo'ladi. qolaversa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, inson ruhiyati to'g'risidagi psixologik hamda falsafiy qarashlar bilan tabiiy-ilmiy (anatolik, fiziologik, bioligik, bioximik va boshqalar) qarashlar o'rtasida tafovutlar chiqqani sari uning alohida fan sifatida shakllanishi zaruriyati ortib bordi va uni o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ldi. XIX asr oxirlarida, aniqrog'i, 1879 yilda nemis olimi Vilgelm Vund Leybnits universitetida dunyoda birinchi eksperimental psixologik laboratoriyaga asos soldi, unda o'tkazilgan yuzlab tajribalar va eksperimentlar psixologiyaning ham alohida fan sifatida o'zini ko'rsatishga haqli ekanligini isbotladi.

Chunki Vundt tibbiyot fani bo'yicha ham mukammal bilimlarga ega bo'ladi keyin fiziologiya sohasida muvoffaqiyatli ishladi, so'ngra falsafaga berilib ketdi. Balki, aynan bir qator fanlarni ham gumanitar ham tabiiy fanlar asoslarini yaxshi bilganligi ob'yektiv sabab bo'lgandirki, olim odam psixologiyasi unda ro'y bergan jarayonlar oddiy sezishdan tortib, mavhum tafakkurga bo'lgan jarayonlarni hissiy holatlarni amaliy tarzda eksperimentlarda o'rgana boshladi.

Uning maqsadi - eng avvalo inson ongini tashkil etuvchi sof elementlarni ajratib olishdan iborat edi. Shuning uchun ham psixologiyada u asos solgan yo'nalish **strukturalizm** deb nomlanadi. Psixologiya fan sifatida shakllanib, unda olimlar qarashlari, shakllanib borgan sari ruhiy kechinmalar tabiatini ich-ichidan o'rganishga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Klassik psixoanalizmning asoschilaridan bo'lgan avstriyalik olim **Zigmund Freyd** psixologiya nafaqat ong sohasini, ya'ni bevosita ongsizlikka aloqador hodisalarni, ya'ni real etolmaydigan hodisalarga tabiatini ham o'rganishi lozim degan g'oyani ilgari surgan Freyd ikkita asosiy narsaga e'tiborini qaratdi.

Birinchidan, har qanday psixik jarayon yoki holat ongli, g'oyada va ongsiz bosqichlarda yoki holatlarda ro'y beradi. Shaxs tizimida ham bu uchala bosqichning o'zni bo'lib undagi jarayonlar inson tomonidan anglamaydi, lekin ongli hayotga ularning ta'siri katta Ego-tashqi olam bilan bog'langan, uning ta'sirlariga beriluvchan shaxs xususiyatlarini o'zida mujassam etadi. Insonda yuqoridagilarning qay biri kundalik xulq me'yorlarida ustivor bo'lishga qarab, uning jamiyatdagi o'zni belgilanadi.

Ikkinchidan, Inson xulq-atvorini va uning amallarini boshqarib turadigan psixik energiya borki, u shaxsning qiyofasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, ehtiyojlarni qondirishga undovchi kuchlar energiyasi hamda agressiv energiyalar mavjuddir. Bu kuchlar shaxsning ma'naviy va aqliy salohiyatini taqsimlash maqsadida psixik quvvatni taqsimlovchi mexanizm rolini o'ynaydi.

QADIMGI SHARQ MAMLAKATLARIDA PSIXOLOGIK FIKRLAR

Eramizgacha bir necha ming yillar oldin Sharqda Misr, Xindiston, Xitoy kabi buyuk sivilizatsiyalar paydo bo'ldi va aynan shu yerlarda boshlangan g'oyalar taraqqiyoti, hozirgi zamon ilmiy tizimining shakllanishiga olib keldi. Aynan shu mamlakatlarda jonning o'lmasligi, vujudni tashlab xohlagan tomonga yo'l olishi haqidagi dastlabki tasavvurlar vujudga keldi.

Dastavval vujudga kelgan ruh haqidagi tasavvurlardan biri tirik vujud tashqi muhitga bog'liqdir, jonning faoliyati esa o'z navbatida vujudning hayoti bilan bog'liq degan tasavvurlar edi. Eramizgacha IV ming yillikning oxirida Misrda yaratilgan "Memfis

teologiyasi yodgorliklari"da psixik faoliyat mexanizmlari quyidagicha tasvirlanadi. Butun dunyoning yaratuvchisi xudo PTAH odamlar nimani o'ylashmasin va nimani so'zlashmasin, ularning yuraklari va tillarini u idora qiladi. Lekin U bunday boshqarishni vujudagi organlar tizimi orqali amalga oshiradi. Sezgi organlarining ahamiyati shuki "Xudolar ko'zning ko'rishini, quloqning eshitishini, burunning nafas olishini yurakka xabar yuborishlari uchun yaratishgan". Yurak esa ongning har qanday turini paydo qiladi. Boshqacha aytganda aynan shu davrdan boshlab ongli faoliyatning markazi yurak degan dastlabki tasavvurlar paydo bo'la boshladi.

Odamlarning bilish faoliyati markazini aniqlash uchun yuqori darajadagi empirik tadqiqotlar kerak bo'lgan. Shu bilan birga "Yodgorliklar"da so'z haqida aytilgan fikrlar ham diqqatga sazovordir. Ma'lumki, qadimda so'z buyumning egizagi sifatida tasavvur qilingan, so'zga ega bo'lish, buyumga ega bo'lish bilan tenglashtirilgan, so'zning ilohiy qudrati borligi haqida tasavvurlar mavjud bo'lgan.

Lekin "Yodgorliklar..."da "til - yurak o'ylagan narsani takrorlaydi" deyiladi. Bundan shunday mazmun chiqadiki, til so'z orqali yurakka xabar beradi, yurakning o'ylagan narsasini takrorlaydi. Bunday sababiy bog'lanish "periferik-markaz" tushunchasini aslida organizmning ichki tuzilishi bilangina izohlaydi. Izohlashning ushbu shakli esa qadimgi sharq meditsinasi yutuqlari bilan bog'liqdir.

Ozgina oldinga ketib, shuni aytamizki, so'zning ilohiy qudrati haqidagi fikrlar keyinchalik turli diniy tasavvurlar doirasida yanada kengaydi. Masalan; nasroniylarning muqaddas kitobi "Injil", musulmonlarning muqaddas kitobi "Qur'oni Karimda" Tariq surasining 13-oyatida. "Shak-shubhasiz u (Qur'on haq bilan botilni) ajratuvchi so'zdir" deyiladi. hech kimga sir emaski, ijtimoiy muhitning shakllanayotgan inson shaxsiga ta'siri, tashkillashgan ta'lim-tarbiya tizimi ham asosan so'z yordamida amalga oshiriladi. Hamma qadimgi Sharq mamlakatlarida, keyinchalik qadimgi Gretsiyada ham xatto faoliyatining asosi sifatida qon aylanishi va ongdagi havo tarkibiga alohida e'tibor berilgan. qadimgi Misr meditsinasida odam jon ato qiluvchi pnevmadan quvvat oluvchi jonzot deb ta'riflanadi.

Xitoy meditsinasining manbai hisoblanadigan "Ichki a'zolar haqida" deb nomlanuvchi kitobda aytiladiki, vujudning hokimi mutlaq yurak bo'lib, hayot faoliyatini, shuningdek psixik faoliyatni ham ta'minlovchi quvvat havosimon birikma SI hisoblanadi. SI insonga o'ylash qobiliyatini va hisiyotni ato qiladi. O'ylash yurak funktsiyasi, hissiyot esa jigarda joylashgandir.

Hind va Xitoy tabiblari temperamentni uchta asosga ko'ra farqlaganlar: havosimon birikma (pnevma yoki SI), safro (ba'zan qon) va shilliq modda. Xitoy meditsinasida shunga ko'ra uchta tipdagi odamlarni ajratishgan:

Safro yoki qoni ko'p odamlar - kuchli va jasur. TsI ko'p odamlar-xarakatchan, tez yig'lab, tez kuladigan o'zini tuta olmaydigan, xulq chegarasi bo'yicha maymunga o'xshaydigan. Shilliq moddasi ko'p odamlar - kam harakatli, jur'atsiz.

Hindiston va Xitoyda falsafiy yo'nalishlar eramizgacha birinchi ming yillikning o'rtalarida paydo bo'la boshlagan. Hindiston uchun falsafiy fikrlarning asosi sifatida Vedalar xizmat qildi. Vedalarda jon muammosi birinchi navbatda axloq nuqtai-nazaridan muhokama qilinadi. Insonning o'z-o'zini kamolotga yetkazib, to'g'ri xulq orqali komillikka yetishishi jon muammosining asosiy mag'zini tashkil qiladi. Jonning ko'chishi haqida Vedalarda atroflicha fikr yuritiladi.

Hindistonda Jaynizm va Buddizm kabi diniy ta'limotlar shu yo'sinda shakllandi. Jaynizm vujudni jon erksizligining manbai deb bilsa, Buddizm jonni alohida mavjudlik deb tan olmaydi. Ularning ta'limotiga ko'ra psixik holat bu, bir-birini takrorlamaydigan daqiqalar oqimi, bir-birini almashtiruvchi holatlardan iboratdir. Keyinchalik paydo bo'lgan Sankxaya, Vedanta, Yoga, Mimansa, Vaysheshika kabi falsafiy maktablarda ham jonni o'rganish asosan metafizik - axloqiy masalalarga bog'lanadi.

Vedanta ta'limoti bo'yicha "men"- alohida intuitiv ongdir, unda ob'yekt va sub'yekt yo'q, u cheksiz kosmik ong, dunyoning asosidir.

Yoga maktabi esa ilohiyot bilan bevosita muloqotda bo'lish uchun psixik faoliyatning hamma shakllaridan foydalanish kerak deb ta'lim beradi. Yoga ichki psixik aktlarni va vujud funktsiyasi (vujudning fazodagi holati, nafas va boshqalarni) boshqarishni o'z ichiga oluvchi usullar tizimini ishlab chiqdi.

Psixik faoliyatni talqin qilishdagi axloqiy yo'nalish Xitoy falsafiy maktablari: Daosizm asoschisi Lao-tszi (eramizgacha asr) va Konfutsiychilik asoschisi Konfutsiy (era-mizgacha 451-479 y.) maktablarida ham yaqqol ko'rinadi.

Daosizm inson o'z xulq atvorini dao postulatlarida asosida ko'rishi kerak deb ta'lim bersa, Konfutsiychilik - urf-odat, an'ana, axloqiy tushunchalarga e'tibor beradi. Konfutsiy birinchi marta inson psixologiyasidagi tug'ma va o'zlashtirilgan xususiyatlar muammosini ko'tardi. Uning fikricha bilim va psixik sifatlar tug'ma bo'ladi. Inson o'z tabiatiga ko'ra mehr - shafqatli, uni tashqi muhit buzadi. Demak muhitning zararli ta'sirini yo'qotish uchun inson fikrini o'ziga qaratishi, o'z-o'zini takomillashtirishi kerak. Shu fikrni Konfutsiyning izdoshi Min-Tszi (eramizgacha 372-289Y.) ham himoya qilgan. Lekin keyinchalik boshqa shu yo'nalish vakili Sun-Tszi (eramizgacha 298-238 y.) kamtarlik mehr-shafqatlilik kabi ijobiy axloqiy sifatlarning tug'maligini rad etib, inson o'z tabiatiga ko'ra shafqatsiz, faqat tarbiyagina uni mehr-shafqatli qila oladi deydi. Uning fikricha, agar inson tabiatan xushfe'l bo'lsa, unda tarbiyaning nima keragi bor.

Axloqiy masalalardan tashqari Hind va Xitoy falsafiy ta'limotlarida bilish faoliyati haqida ham e'tiborga sazovor fikrlar shakllangan.

Hind falsafiy adabiyotida idrokning noaniq (narvikalpa) va aniq (savikalpa) turlari ajratiladi. Birinchisi predmetning organga bevosita tegishi natijasida yuzaga keladigan sensor-idrok bo'lsa, ikkinchisi so'zda ifodalangan, bo'laklarga bo'lingan idrokdir.

Buddistlar aniq idrok aql ta'siri bilan buzilganligi, substantsiya, tur kategoriyalariga amaliy maqsad ko'zlab kiritilganligi tufayli ham endi idrok bo'lmay qoladi, deb hisoblashgan.

Hind psixologik ta'limotlarida idrok illyuziyasi, gallyutsinatsiyalar, tush ko'rish, shuningdek alohida, yuqori sezuvchi idrok masalalari alohida o'rin egallagan. Mimansa maktabining vakili Bxatta ta'limoticha, obraz realligi va illyuziyasi tashqi ob'yekt bilan sezgi organi o'rtasidagi munosabatlar xarakteridan kelib chiqadi. Agar munosabat buzilsa illyuziya paydo bo'ladi. Buzilish periferik (sezgi organida) bo'lsa illyuziya, markaziy (manas) bo'lsa, gallyutsinatsiya paydo bo'ladi. Tush esa ong ostidagi xotiralarning jonlanishidir.

Qadim zamonlardan beri turli madaniyatlar o'rtasida g'oyalar ayirboshlash mavjud bo'lgan, shuning uchun u yoki bu ilmiy tasavvur aynan qaysi xalq tomonidan

yaratilganini aniq tasavvur etish qiyin. Psixologik g'oyalar taraqqiyoti qonuniyatlari Sharqda ham, G'arbda ham bir xil. Hamma yerda ilmiy tasavvurlarning tug'ilishi va evolyutsiyasi organizmni tabiatning bir bo'lagi sifatida, tajriba yo'li bilan o'rganishdan boshlangan. hamma yerda bu tasavvurlar g'oyaviy kurashning qiyin bosqichlarini bosib o'tgan.

ANTIK PSIXOLOGIYA

Qadimdan madaniy fikr va ruhiyatlar bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan va rivojlangan. Shuning uchun qadimiy grek-rimliklar rivojlanishini Sharq xalqlaridan ajratib alohida o'rganib bo'lmaydi. Inson ongi rivojlana borgan sari turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Sekin-asta ishlab chiqarish revalyutsiyasi bo'ladi. Sekin-asta shahar qishloqdan, xunarmandlar qishloq xo'jaligidan ajray boshlaydilar. Insonni hayot tarzi o'zgarishi, qullarni ko'payishi, daryo yo'llarini ochilishi qadimiy greklar ongini bir necha barobar o'stiradi. qadimiy afsonalarga ishonish, bir necha tabiiy fanlar (matematika, geografiya, astronomiya, tibbiyot) bilan tanishishi ularni ongini o'stirishga, fikr yuritishga undadi.

Materialistik fikrlash orqali bir necha filosoflar va olimlar chiqdi. Bularga Demokrit, Gippokrat Anaksimandir ularni izlanishlari katta ahamiyatga egadir.

Eramizdan avvalgi V asrda falsafiy fikrlar markazidan biri Afina edi. Shu vaqtlarda donishmandlikka o'rgatuvchi o'qituvchilar sofistlar yo'nalishi rivojlandi. Turli muassasalarda sofistlar odamlarni donolikka, bilimdonlikka, o'z so'zlarini o'tkazishga o'rgatishar edi. Ular o'z darslarida insonni psixologik syujetlarni, insonni boshqa insonlarga munosabatlarini muhokama qilar edi. Ular fikrga qarshi Suqrot o'z fikri bilan chiqdi. Eramizdan avvalgi IV asrda Platon va Aristotel ilmiy asarlarida falsafiy psixologik fikrlar sistemasi inson fikrini o'sishiga katta ta'sir qiladi.

Platon Evropa idealizimini boshlovchisi ham hisoblanadi.

Aristotel falsafasidagi psixologik fikrlarida biologik yo'nalishlar bor edi. Aristotel dunyoni aqliy fikrlari alohida, konkretinsonlarda yer yuzida bo'ladigan emperik hodisalarda yuzaga keladi deb tasdiqlaydi.

Ellinistik yo'nalishi grek madaniyati bilan Sharq xalqlari madaniyatini yaqinlashtiradi. Ellinistik yo'nalishi falsafasiga ko'ra jamiyat turmush tarzini o'zgartirib, yuboradi. Inson o'zini shaxsiy o'rnini jamiyatda topib oladi. Bir necha madaniyat markazlari yuzaga keldi. Fanlarni rivojlanishi, texnikani, tibbiyotni rivoji psixologiyani fan sifatida rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. Lukritsiy va Galey buyuk allomalarni ta'siri katta bo'ldi. Keyinchalik buyuk imperiyada qullar va grajdanlar urushida tabiatni o'rganish tajribasi qarama-qarshi materiallarga tayangan. Tarixda paydo bo'lgan xrestian dini insonlarni ilmiy qarashlariga qarshi chiqishda ekspuluator sinfga katta qurol vazifasini bajargan. Psixologik fikrlar qadimda falsafiy fikrlarni rivojlanishiga jamiyat taraqqiyotida yaqqol ko'ringan.

Psixik tabiatga qarashlari.

Ruh haqida afsonaviy tushunchalar xukmronlik qilgan. har bir konkret narsalar 2 tadan yoki undan ortiq ruhi bor deb tushunar edi. Insonni atrofidagi olam shu ruhlar bilan bog'liq edi. Ruh haqidagi fikrlar psixologik tarixga emas, balki, butun tabiatga qarashlar bilan bog'liqdir. Sekin-asta tabiatga ilmiy qarashlar orqali psixologik fikrlar ham o'zgardi va rivojlandi. Insonlar dunyoni tushunishda afsonalardan voz kecha boshladi.

Eramizdan avvalgi VI asrga kelib tabiat va insonni tushunish tarixiga psixologik faoliyatda katta burilish yasadi. qalb haqidagi greklar ta'limoti va psixologik qarashlar va ular haqidagi bilimlar juda qiziharli edi. Qadimgi filosoflar ruh haqidagi afsonalarga boshqacha yo'l bilan tayanishar edi.

Vundt va Kimma fikricha ilmiy psixologik bilimlar metafizik ko'rsatmalaridan boshlanadi va qalb tushunchasini psixik faktlarga tayanib tushuntirib beradi.

Geraklit qalbini ta'riflashi bo'yicha: havodagi namlik xuddi ichgan odamni qalbiga o'xshatadi. Qanchalik qalbi quruq bo'lsa, u kuchlidir va aqllidir. Geraklit birinchi bo'lib psixologiya tarixida organizimdagi ruhiy holatni o'zgarishini aniqlab beradi. Ruhiy holat o'zida ichki tushunishi va o'ylash, shu bilan birgalikda tushunish chegarasini, haqiqiy hayotini tushunishini belgilab beradi.

Geraklit izlanishlari yangi hayot mazmunini, balki insonni rivojini tushuntirib beradi. Anaksagor (500-428 Er.Av) olamni bir necha sifatli har xil qismlardan tartibga solinadi deb hisoblar edi va bular ongi tomonidan tartibga solinadi deb ta'kidlar edi. U boshlanishida inson va tabiatni o'z o'zini boshqarishga e'tibor beradi.

Anaksagor ongni, aqlni narsalardan tashqari yoki komosdan tashqari harakat qiladi deb ta'kidlardir. Lekin bunga Platon qarshi chiqdi. U - «Anaksagor ong haqida gapirganda boshqa yo'lga kirib qolyapti» der edi. Lekin Anaksagorni ilmiy asarlarida bunday chekinishlar yo'q. Tabiatni ongliligi inson tanasi va harakatida ko'rinib turadi. Ong-ularni tashkil qilardi. Anaksagor shunday hisoblar edi: qanchalik inson tanasi rivojlangan, to'liq bo'lsa shu organizmda aql ong mukammal bo'ladi.

«Inson jonotlar ichida eng aqlli hisoblanishiga sabab uni 2ta qo'li borligidadir» deb Anaksagor aytib o'tgan. Lekin bu ta'limotga Aristotel qarshi chiqqan Anaksagor fikricha ongdan, aqldan tashkil topgan, lekin «aql», «ong» o'zida tanani ko'rsatadi. Shuning uchun qalb materialistik tomondan ikkinchidir. Anaksagor determenizm printsipini to'liqroq tushuntirib berdi.

Demokrit (460-370 Er.Av.Asr) Levkipdan keyin olamni atomistik metalni yaratdi. Butun koinotda, kenglikda, butun olamda o'zgarimas qonunlarga binoan sharsimon bo'linmas o't atomalari harakatdadir, qaysiki ular qalbni yaratadi. Shunday qilib qalb moddalari ichida uni bir turidir.

Tarqalish, yo'qolish, haqidagi fizik qonun tanaga tegishlidir, shunga ko'ra Demokrit qalbni barhayotligini tan olmaydi. qadimiy greklar materialistlarga qalbini tushuntirib berdi katta muvoffaqiyatga erishdi.

Geraklitni zarurlik, keraklik Anaksagorni tartiblilik. Demokritni sababiylik fizik tabiatda emas balki psixologik faoliyatda tasdiqini topdi. Inson olamni bir qismi ya'ni shu olamni tabiat qonunlariga bo'ysunib yashaydigan organizm deb hisoblaydi.

Bu yo'nalishlarga qarshi qalbni barhayotligini yoki boshqa qalbg aylanishini afsonaviylikka yaqinligini yoqlab bir necha maktablar chiqdi. qadimgi Rimda ikki maktab Pifagor va Platon maktablari. Bu maktablar qalbni doim barhayotligini, doimo aylanib yurishini, ya'ni diniy tomondan ham ta'kidlashar edi. Bularni fikricha qalb tanaga bir jazo sifatida mahkamlab qo'yilgan. Olamni yaratilishi Pifagorlar tomonidan shunday ta'riflanadi: olam narsalardan emas, balki arifmetik-geometrik strukturaga ega. Yer yuzida barcha narsalar harakatdagi narsalarni hammasi rahamli holatlarni, qiyofani ko'rsatadi. qalb ham-garmoniya-tanacha qarama-qarshilik garmoniyasidir. Pifagorlar maktabi 200 yil yashadi. Bu maktab fikirlovchilari son yoki rahamni

narsalardan ajralmas deb hisoblar edilar. Lekin sonlar narsalardan alohida ajraldi. Platon maktabi Afinada sotsial-siyosat krizisiga uchragan. harbiy kuchlar mag'lubiyatga uchragan va harakatda yuzaga keldi. Sofistlar ta'limotiga ko'ra inson xarakteri, tushunchasi haqida anarhistika va sub'yektiv qarash kelib chiqadi. Insonni o'rganishga qiziqqan sofistlar insonni yashash hayotini turli tomondan axloqiy va intellektual o'rganishga jalb qildi.

Suqrot (470-399 er. av. as) u ko'chadami, bozordami qanaqa vaqt bo'lishiga qaramay insonlarni qiziqtirgan savollariga javob berardi. Suqrot boshqa falsafachilardan farq qilib, bergan maslahatiga pul olmas edi. Va uni muxlislari turli kasb egalari boy yoki kambag'al sinfidan edi. Suqrot faoliyatida suhbatdoshiga o'zi tanlagan bir necha savollar bilan murojaat qilar edi va savollarga aniq to'g'ri javob berishga yordam berar edi.

Suqrotni shiori shunday «O'zingni o'zing o'rgan, bil» edi, lekin bu fikri bilan Suqrot psixologiyada birinchi bo'lib tan olish metodikasiga tayangan emas. O'z ta'limotiga ko'ra Suqrot, o'z ichki his-tuyg'ularni bilishga emas, balki inson o'z qilmishlarini o'z yurish-turushini analiz qilishni tushunturib berishni tushungan edi. Suqrot fikriga ko'ra insonni o'z-o'ziga munosabati intellektual axloqiy sifatlarni namoyon qiladi.

Platon (428-348 er.av.asr) qalbni yangicha talqini keltirib chiqardi. Platon Antik tarixda juda qiyinchiliklar va urushlarga bo'lgan bir vaqtda o'z falsafiy fikrlari bilan qatnashdi. Platon materializmga qarashlari falsafiy qarashlarida siyosiy tus olgan. Yoshlar materializmdan xudosizlikka yo'liqdi. Va jamiyat darz ketadi deb ta'kidlar edi. Platon haqidagi bir necha asarlar to'liqligicha yetib kelmagan. Demokritdek alloma asarlari ham Platon asarlarida alohida psixologik savollarga qarashli asar yo'q edi. Lekin bu psixologik savollar bir necha suhbatlarda o'z aksini topgan, bular: «Fedon», «Timee», «Fedre», «Gorgin» va boshqalar. Platon asos solgan falsafiy g'oya boshqa zaminda rivojlandi.

Platon akademiyasiga kirishga shunday so'zlar yozilgan edi. «Geometriyani bilmaydigan bu yerga kirmaydi». Geometrik figuralar bir tomonda seziladi, his qilinadi va ko'riladi. Pifagorlar tushunchasi bo'yicha matematikadan boshqacha tushunchalar edi. Platon o'z ustozu Suqrot o'limidan keyin Suqrot yurtiga Janubiy Italiyaga sayohat qildi. Suqrot maktablarida bo'lib dialektik metod suhbat qilishni o'rgandi.

G'oyalar birinchi, qaysiki inson yashayotgan voqealikda, ikkinchidan, real emas. G'oya-inson aql zakovati mevasi emas, balki aql zakovati g'oyaga taqlit qiladi. Platon fikricha: g'oyalar, fikirlar kosmik ongga qarashlidir, qalb olami esa bularni hammasini g'oyalar va materiyalarni birlashtiradi.

Aristotel (384-322 er.av.asr) Platon bilan juda yaxshi qalin edi, keyinchalik u Platondan ajradi. U kichik Osiyo shaharlarida ilmiy ishlar va o'qitish bilan shug'ullanadi u A.Makedonskiy tarbiyachisi edi. Aristotel biologiya bilan shug'ullanar edi. U organizmga biologik, genetik, ekologiya yondashdi va tabiatni psixik tomonidan tushundi. Aristotel «qalb» haqida shunday fikrga keldi: qalb tirik jonzodlarning boshlanishi, tanani hayotga tayyorligini belgilaydi». Uni talqini bo'yicha «qalbni tanadan ajratib bo'lmaydi». «qalb-bu to'liq ishlovchi organizmdir». Aroistotel «Qalb haqida», «Hayvonlar qismi haqida» asarlarida va kichik psixologik insholarda «Xotira haqida», «Tush ko'rish haqida» o'zini psixologik tushunchalarini

yo'zib ko'rsatdi. Uni fikricha, qalb hayot printsipli sifatida birinchi o'rinda turadi. qalb orqali boshqariladigan organik hodisalar, noorganik dunyoga qarama-qarshi qo'yilardi. Boshqa qutbda esa, qaysiki hodisalar ulkan qobiliyat, ya'ni idrok aqlga qarama-qarshi qo'yilgan edi. Bu ikki yo'nalishni birligini tiklamoq uchun Aristotel izdoshlari perepatiklar, epikurchilar va stoikchiklar kurashishdi. Bu yo'nalishlar, izlanishlari qadimgi Rimda falsafiy-psixologik ta'limotlarda katta ishlar qilinishiga sabab bo'ldi. Eng katta yutuqlardan biri psixologik hodisalarni tushuntirishda Aristotel biopsixologiyasi katta yutuqqa egadir, qaysiki u o'zida uchta yo'nalishni birlashtirdi: Geraklitniki, Demokritniki, Anaksagorniki. Aristotel jonli tabiatni «Organizmni turli darajada rivojlanishiga o'xshatdi». Ilmiy ishlarni rivojlanishi Aristotel keltirib chiqargan hayot darmonlaridan biri qalb terminini boshqacha talqin qilishga u shogirdi Stratonni majbur qildi. Demokritni shogirdi, izdoshi Epikur Demokritga tushuncha, qalbn, umumbiologik xodisadan psixologik hodisalarni bir-biridan ajratib berdi. qalb 4 elementdan tashkil topgan. Ularni har birini o'z vazifasi bor.

- a) Olov-issiq manbai
- b) Bug'lanish-harakat
- c) Shamol-sovuqqonlik
- d) Nomsiz element-qalb

Bular hammasi psixologik faoliyatni namoyon qiladi. Epikur shogirdi Lukretsiy nomsiz materiyani nomlash uchun termin topdi. Bu - ruh qalbdan farq qiladi. Bu tushunchani Lukretsiy «**Ayollar tabiati haqida**» asarida harakat turini, farqini bir butun «atomli» dunyoda tushuntirib berdi. «qalb» Lukretsiy ta'rifi bo'yicha: aktiv faoliyatli tanani o'ziga bo'ysundira oladi uning bundan idrok kelib chiqardi.

Keyingi qadamlardan biri bu «Ong» tushunchasini kelib chiqishi. Rimlik vrach Galen ong tushunchasini har tomonlama tushuntirib berishga harakat qildi. Nerv-psixik faoliyatni analizida bizga tanish «pnevma» bo'ladi. Stoiklar (ta'sirida tarbiyalangan Galen) pnevmani ikkiga ajratishar edi «Psixik» va «o'suvchi» sezgi organlariga ta'sir organidagi «psixologik pnevmani» holatini o'zgartiradi, lekin bu shaxsni o'z-o'ziga hisob berishga kamlik qiladi. qalb yuqoriga xudoga, yoki pastga material dunyodagi yo'nalmaydi, balki o'ziga-o'zi, o'z qobiliyat faoliyatini qabul qiladi, deb ta'kidlagan edi Platon.

Avgustin fikri ham Platon fikriga yaqin turadi. Uni fikricha, Platon fikriga yaqin ollohda yashaydi harakat qiladi. Qalbn mustaqil harakati badandan tashqari, lekin uni quroli sifatida qo'llanilishi psixik tana bo'lishidir. qadimgi vaqtda qalb haqida bir necha katta izlanishlar bo'ldi. Qalb - bu olov, havo raqam harakatlanuvchi. Qalb deganda inson yashash uchun kerakli narsalar emas, balki butun tirikchilik, hayot tushuntirilgan. hozirgi zamon tili bilan gapirganda psixologiya fizikani bir qismi deb tushunilgan. Insonni kosmos bilan uzluksiz bog'liqligi quyidagi tushunchani aniqlar edi.

Psixika-ong-idrok.

Xotira zehn emas, bu estaliklar xolos, balki qalbn oldingi o'zini harakatlarini eslashdir. Lekin qalb bajargan harakatlarni eslashga ega emas. qalbg hozir bajariladigan vazifalar, sezish va intellektual harakatlar ham xosdir. Shu bilan birga Platonning fikricha afsonalar biz uchun qimmatlidir.

PSIXOLOGIYA – PSIXIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISHI HAQIDAGI TA'LIMOT SIFATIDA

Qadimiy tarixiy qo'lyozmada shunday misrallarni o'qiymiz. 1874 yilda yosh yangi yo'nalish tarafdori bo'lgan tadqiqotchi 2 ta alternativa bilan to'qnashadi. Bularning biri Brentanoning «Psixologiya nuqtai nazaridan» degan alternativasi edi. Yana bir alternativa mavjud ediki, bu tarixchilarga ayon emas edi. 1873 yili Sechenovning psixologiyani qayta ishlab o'rganishni yangi planini ob'yektiv fan sifatida taklif etadigan «Psixologik etyudlar» asari nashr qilindi. Bu asarning asosida materialistik metodologiya yotar edi. Sechenov pomeshiklar oilasida katta bo'ldi. U Peterburgdagi harbiy injenerlar bilim yurtini tamomlab, oliy texnika injeneri ma'lumotini olgandan so'ng Moskva universitetining meditsina fakultetiga o'qishga kirdi. III kursdan boshlab filosofiya fanining tarkibi bo'lgan psixologiya bilan shaug'ullana boshladi. Uning ta'biricha «filosofiyaga moskvachasiga ishtiyoq» uning (ta'biricha) ijodida keyinchalik muhim rol o'ynaydi. Universitetni tamomlab Germaniyadagi Gelmgolts Lyudovig Dyubua-Fedyman laboratoriyasiga o'rganish maqsadida bordi.

1860 yilda Germaniyadan vataniga qaytgan Sechenov Peterburgda medika-xirurgik akademiyasining 1-rus fiziologik maktabini tashkil qildi. Bu maktab fizika-ximiyaviy yo'nalishda edi. Bu davrga kelib Rossiyada eski iqtisodiy taraqqiyot yemirilayotgan, sinflar orasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar rivojlanayotgan edi. Bu ziddiyatlar bilan bir paytda odam tanasining tuzilishi, uning organizimi va psixik funktsiyaning o'zgarish masalasi ham mavjud edi. Sechenov va Chernishevaniyning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan P.D.Yurkevich shunday yozgan edi: Xozirgi zamonda fiziologik kundalik xayotidagi o'zgarishlarni hamda bu o'zgarishlarni paydo bo'lishi va sabablarni ortiqcha o'rganmoqda. (3912) P.D.Yurkevich va uning tarafdorlari fikrini «Sovremennik» jurnali xodimlari qoralashib chiqdilar. Ular fiziologik va psixologik hodisalarning materialistik dunyoqarashi nuqtai-nazaridan yoqlab chiqdilar. I.M.Sechenov revolyutsion-demokratik intelegentsiya bilan yaqin aloqada bo'lib «Nima qilmoq kerak» asarining avtori bo'lgan hamda Petrovolsk qal'asiga hamalgan Chernishevskiy bilan do'st edi.

Jon haqidagi baxslar keskinlashgan paytda Sechenov miya ustida olib borgan ekperimentlarida tormoz markazlari, ya'ni harakat aktivligini ushlab turadigan qo'zg'alish, «lakolizatsiya» qilingan Galomistik oblastidagi nerv markazlarini ochib beradi. Bu buyuk kashfiyot edi.

Bu bilan u, nafaqat bosh miya fiziologiyasida yangi bo'lim ochdi, balki bu organizmning funktsiyalari haqidagi tasavvurlarni umuman o'zgartirib yuboradi. Bu kashfiyot fiziologik ongga tormozlanish haqida yangi tushuncha olib kiradi (ilgari nerv fiziologiyasi faqat bitta jarayon qo'zg'alishi bo'lar edi xolos) u bilan esa tormozlanish va qo'zg'alish o'rtasidagi o'zaro munosabatga aloqador bo'lgan neyrodinamik muammolarning keng kompleksini olib kiradi. Lekin bu keyinroq sodir bo'lgan edi. O'sha vaqtda Sechenov uchun muhim narsa shu ediki, u tajriba yo'li bilan miya moddasini kichkina bir bo'lagidan chiqayotgan iroda asrlar bo'yi yurakdan chiqadi deb hisoblanib kelinayotganligi noto'g'ri ekanligini isbotlab berish kerak edi. Ya'ni inson irodasi faqat ruhga emas, balki inson organizmining bir bo'lagi hisoblangan miya faoliyatini bo'ysunishi isbotlash edi. Axir iroda fe'l-atvorning eng ishonchli belgisi-qo'zg'ovchilari qarshi tura olishni bilish, shartsiz impulslarini ushlab qolish edi. Bu

belgilarni hammasi eksperiment guvohlik bergani kabi markazdan miyaga tortiladi. Bu kashfiyotdan foydalanib, Sechenov 1863 yil «Sovremennik» jurnaliga o'zining «Inson miyasining revlekslari» deb nomlangan birinchi psixofiziologik traktatini yozadi. Sechenov maqolasidagi g'oyalar rus zamini bo'ylab uzoqlarga tarqaldi. Xatto Krasnoyarsda oddiy sotuvchi ayol surgun qilingan Pantileevdan so'rabdi: «Peterburgdagi professor Sechenov insonning ruhi faqat reflekslarda degani rostmi yoki ruh yo'qmi?» O'sha davrlarda «refleks» so'zi faqat bir ma'noni berar edi. Baqa oyog'ini harakatini kislota bilan qo'zg'algani kabi mexanik reaksiya odamni joni va erkin irodasini shu baqaga insonni tenglashtirish insonni tahqirlashdek bo'lib tuyuladi.

Sechenov 1866 yilda «Nerv sistemasining fiziologiyasi» 1867 yilda «Sezgi organining fiziologiyasi» nomli asarini yozdi. Sezgi organining fiziologiyasi ustida ish olib borish jarayonida Sechenov psixologiyaga ham to'xtalib o'tdi.

Kavelining asariga javobida hamda «Kim va qanday psixologiyani o'rganadi?» (1872) nomli maqolasida Sechenov psixologiyaning maxsus fan sifatida (Sechenov psixologiyaning maxsus fan sifatida) tan oladi. Uning fikricha psixologiyaning fiziologlar yaxshi o'rgana oladilar.

70-yillarning boshlarida hali psixologiya fan sifatida tan olinmagan edi, shuning uchun uni filosoflarga tushunadigan g'oyalar yurar edi. Inson psixikasi haqida Sechenovga Leybnits, Gerbert, Shopengauer, Gelmgolts va boshqalar o'z fikrlarini bildirgan edilar.

Sechenov ta'limotiga binoan, **psixika** - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning xususiyati yoki miyaning mahsulidir. Odatda psixik tashqi dunyoning sezgi organlari orqali insonning miyasini bevosita ta'sir etish asosida vujudga kelib, bilish jarayonlarida shaxsning xususiyatlari va holatlarida diqqati, his-tuyg'usi va xarakter hislatlarida qiziqish va ehtiyojlarida o'z ifodasini topadi.

Psixikaning negizida miyaning reflektor faoliyati yotadi. Tashqi dunyodan kirib keladigan qo'zg'atuvchilarga ichki yoki tashqi biologik organlar javob reaksiyasini bildiradi. Bosh miya katta yarim sharlarida vujudga keladigan muvafaqqat bog'lanishlarni psixik hodisalarining fiziologik asoslari hisolbalanadi va ular tashqi ta'sirining natijasida hosil bo'ladi. Muvafaqqat nerv bog'lanishlari nerv jarayonlarining irradiatsiyasi, kontsentratsiyasi hamda o'zaro induktsiyasi qonunlari zahirida ro'y beradi. Bu qonunlar yig'indisidagi muvafaqqat bog'lanishlar assotsiasialari qanday yuz berayotganini qanday shart-sharoitda tormozlanishi muvafaqqat bog'lanishlarning yo'qolayotganini yoki paydo bo'layotganini tushuntirish imkonini beradi.

Psixofiziologik qonuniyatlariga binoan miyaning funktsiyasi muvafaqqat nerv bog'lanishlarining birlashishi mexanizmi hamda analizatorlar faoliyati mexanizmlari ta'sirida hosil bo'ladi. Psixikani tadqiq etish insonning bitun ongli faoliyatini uning ham nazariy ham amaliy hayot faoliyatini o'rganishdir.

Ob'yektiv psixologiyaning yaratilish haqida amerikalik tarixchi Boring shunday yozadi: "Sechenov refleksologiya sohasida 1-rus pioneridir. Shuni ta'kidlashimiz lozimki, u harbiy Evropaliklarning bu haqidagi fikridan ancha oldinga ketgan", «xaqiqatdan ajablanarli»-deb yozgandi qolgan amerikalik tarixchilar, Sechenovning falsofiya asoslari va metodologik pozitsiyasi ob'yektivligi bilan Uotsonnikiga o'xshab ketadi.

1879 yilda Leypsigda psixologiya laboratoriyasi ish boshlaydi. 1889 yilda Parijda 1-xalqaro psixologlar kongressi bo'lib o'tdi. Sechenovning psixologiya programmasi «Fiziologiyani otasi» sifatida Bexterev va Pavlovlarning nazariyasi asosida vujudga keladi. Fikrimni xulosa qilib, men ham Chernishevskiy va rus fiziologi Sechenovlarning fikriga qo'shilaman, Chernishevskiyning aytishicha, dunyo va xayotning negizida bitta materiya yotadi. Psixika inson ongi rivojlanayotgan materianing mahsulidir, deydi.

Sechenov ham o'zining bosh miya reflekslari asaridi o'sha zamon fiziologiyasining ilg'or yutuqlariga va shaxsiy tekshirishlariga asoslanib turib, odamning psixik faoliyati qandaydir moddiy bo'lmagan ruhning namoyon bo'lishi emas, balki faqat miyaning faoliyatidir, xolos deb dadillik bilan aytadi. Sechenov psixik protsesslarning asosi bosh miya reflekslaridir, degan ta'limot ilgari suradi. «Ongli va ongsiz psixikaning barcha harakatlari» deb yozadi u, o'zining kelib chiqishi jihatidan reflekslardir. Shuni isbotlashni o'zini vazifasi deb biladi. U ilmiy psixologiyani asosiy vazifasi bosh miya funktsiyalari bo'lgan psixik protsesslarning kelib chiqishini o'rganishdan iborat deb hisoblaydi. U yana shunday deydi: «Psixik hodisalarning ilmiy jihatdan haqiqiy analiz qilib berishning kaliti fiziologiyani qo'lidadir.»

Sechenovning psixik jarayonlarni mohiyatini tushuntirib beradigan asosiy qonun qoidalari mana shulardan iborat deb hisoblayman.

O'ZBEKISTONDA PSIXOLOGIYA FANINING QISQACHA TARIXIY TARAQQIYOTI.

O'rta Osiyo xalqlari uzoq o'tmishga, ko'p asrlik tarixga, boy madaniy merosga egadir. O'rta Osiyaning markazida joylashgan O'zbekiston Sharqning eng qadimiy madaniy o'choqlaridan biri bo'lib, u jahon fani tarixiga munosib hissa qo'shdi.

O'rta asrlarda “faylasuflar mirzosi” deb nom qozongan Buxorolik mutafakkir, atoqli olim Abu Ali Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari XVII asrda G'arbiy Yevropa tabiblarining asosiy qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Shuningdek, Ibn Sino ijodida materiyaning doim vujudga kelishimumkin bo'lgan narsalardan avval mavjud bo'lishi mumkinligi haqidagi fikrlari psixologiya fanida muhim ahamiyat kasb etadi.

Beruniy va Forobiy singari fan arboblari faoliyatining ahamiyati beqiyosdir. Beruniy matematika, astronomiya, fizika, botanika, geografiya, umumiy geologiya, etnografiya, tarix va xronologiyasohalarioda ish olib bordi. Abu Rayhon Beruniy ijodida “Tana va Ruh”ga oid hodisalar talqin qilindi. Abu Rayhon Beruniy 973-yilda Xorazmning Kot, hozirgi Beruniy shahrida tavallud topgan. Abu Rayhon Beruniyning ijtimoiy falsafiy qarashlaridagi a'zolarining bir-biriga zidligi, ularda bir-biridan farq qiluvchi turli-tuman xatti-harakatlar va fe'i-atvor mavjudligi asoslangan. “Odam – deydi Beruniy, tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega va uning holati o'z fe'l-atvoriga ko'ra xilma-xil bo'ladi”. Beruniyning fikricha, odamlarning qiyofasi bir-biriga o'xshamasada, ular ayni chog'da bir-biridan farq qiladi. Bu farq ularning mijozi, fe'l-atvori va tabiiy xususiyatlarida bo'ladi.

Uning zamondoshi Abu Nasr Forobiy (Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Tarxon ibn O'zliq Sirdaryo sohilidagi Forob shahridan) hayot vaqtidayoq “ikkinchi muallim” nomini olgan edi. U keng ma'nodagi inson ruhiy jarayonlari va ta'lim-tarbiya haqida o'z zamonasi uchun ilg'or fikrlarni ilgari surdi. Forobiyni ruhiy

jarayonlar haqidagi ta'limoti, bevosita fiziologik jarayonlar bilan psixik jarayonlar orasidagi bog'liqlik haqidagi, dunyoni bilish haqidagi ta'limoti psixologiya fanining taraqqiy etishida muhim rol o'ynadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin O'zbekistonda psixologiya fanining rivojida keskin burilish yuz berdi. Hozirgi kunda ko'plab fan nomzodlari bilan birga fan doktorlari, professorlar faollik ko'rsata boshladilar.

Jumladan, G'.Shoumarov (1990-yilda fan doktori, 1993-yilda professor) differensial psixologiya, ijtimoiy psixologiya, etnopsixologiya, oila psixologiyasi, shaxs psixologiyasi, psixodiagnostika, o'zbek oilasining ijtimoiy psixologik, etnopsixologik xususiyatlari masalasini o'rganishga katta e'tibor berdi. Respublikada psixologik xizmatni tashkil qilish, yosh va pedagogic psixologiya, boshqaruv psixologiyasini yoritishga oid darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ilmiy-amaliy maqolalar yaratdi. Jumladan: "Vozmojnosti primeneniya adaptirovannogo variant metodiki Vekslera dlya diagnostiki zaderjki psixicheskogo razvitiya" (Sb. Nauchnix trudov NII Psixotrii MZ. RSFSR. M., 1978), "O problemax sovershestvovaniya psixologicheskoy diagnostiki v shkole" (V kn.: psixologicheskaya slujba v shkole. Taili, 1983), "Vliyaniye psixologicheskix osobennosti uzbekskoy semi na vospitaniye molodyoji" 1986, "Muhabbat va oila" (T., Ibn Sino, 1994), "Realizatsiya Natsionalnoy programme po podgotovke kadrov v Uzbekistane", "Sito", (Tokio, 1998), "Oila psixologiyasi" Akademik litsey va ksb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. (Toshkent, Sharq. 2000), "1001 savolga psixologning 1001 javobi" (T., Mehnat. 2000) va boshqalar.

E.G'oziyev (1992-yilda psixologiya fanlari doktori, 1994-yilda professor), ta'lim jarayonida o'quvchilar tafakkurining o'sishi, o'quvchilarni umumlashtirish usullariga o'rgatish va ularning aqliy taraqqiyoti, o'quv faoliyatini boshqarish, tafakkur, xotira, shaxs psixologiyasi masalalari, bilish nazariyasining psixologik muammolari, komil insonni tarbiyalashning psixologik asoslari kabi masalalarni yoritishga e'tibor berdi. Uning "O'quvchilar o'quv faoliyatini boshqarish" (1988), "Oila etikasi va psixologiyasi" (1992), "Psixologiya" (1999), "Tafakkur", "Xotira", "Shaxs", "Umumiy psixologiya" (psixologiya muraxassisligi uchun darslik. I-II kitob. T., 2002), "Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi" (2003), "Psixologiyada mukammal lug'at tuzish xususiyatlari" (2005) nomli qo'llanmalari ko'p sonli talabalarning asosiy qo'llanmasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Shuningdek, psixologiya fanlari doktorlari R.Z.Gaynutdinov, B.R.Qodirov, Q.Turg'unov, M.V.Vohidov, M.G.Davletshin, P.I.Ivanovlarning ham alohida o'rni bor.

O'zbek xalqining xotin-qizlari ichida birinchi marta psixologiya fanlari doktori (1994) ilmiy darajasini olgan farg'onalik ayol V.Karimova ham O'zbekistonda psixologiya fanining ravnaqiga katta hissa qo'shmoqda. Uning ilmiy-tadqiqot yo'nalishida etnopsixologik g'oyalar katta o'rin oldi. U o'zbek xalqining milliy an'analri, qadriyatlari, rasm-rusumlari psixologiyasi, o'zbek ayolining ijtimoiy mavqeini oshirish, ularni keng xalq ommasiga singdirish bo'yicha ilmiy ishlarni amalga oshirmoqda.

Olimaning qatorida psixologiya fani rivoji uchun o'z hissasini qo'shgan o'zbek professor ayollaridan Z.T.Nishonova, A.Tokareva, M.X.Rahmonova, R.Sh.Karimova, M.Zufarova, Z.Qodirovalarni ham aytib o'tish mumkin.

Psixologiya fani O'zbekistonda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab turli jabhalarda rivojlandi. Psixologiyaning turli sohalarida bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. O'zbekiston Respublikasi psixologlar assotsiyasi tashkil topdi. Hali psixologiya fanining turli sohalarida yoritilmagan, yetarli ilmiy jihatdan o'rganilmagan muammolar juda ko'p. ularni o'rganish respublikamiz psixologlarining asosiy vazifalaridir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Assotsiativ psixologiya namoyondalari ko'rsatilgan javobni toping;
a) David Yum (1711-1776), b) Vilgelm Vund (1832-1920), c) Veber (1796-1878)
2. Vilgelm Vund tomonidan birinchi eksperimental psixologiya laboratoriyasi qachon va qayerda tashkil etilgan?
a) Germaniyaning Leyptsig shahri, 1879 yil, b) Germaniyaning Leyptsig shahri, 1861 yil, c) Germaniyaning Berlin shahri, 1879 yil
3. O'zbek xalqining xotin – qizlari ichida birinchi marta psixologiya fanlari doktori (1994) ilmiy darajasini olgan olim....
a) V.Karimova, b) Z.Nishonova c) M.Maqsudova

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Psixologiya tarixining davrlarga bo'linishi.
2. Idealizm va materializm oqimi tarafdorlarining fikrlaridagi farqlar nimada?
3. Qadimgi Hindiston va Xitoydagi psixologik farqlar?
4. Antik davr mutafakkirlarining psixologik qarashlari?
5. Aristotelning asarlaridagi psixologik qarashlar?
6. Gippokratning temperament haqidagi ta'limoti?
7. Islom dinining O'rta Osiyo xalqlari ruhiyatiga ta'siri.
8. VIII asrdagi turli oqim tarafdorlarining fikrlaridagi farqlar.
9. Dekartning ong va ruh haqidagi ta'limoti.
10. T.Robbe va J.Lokkning psixologiyaga qo'shgan hissalari.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T. 1998.
2. Karimov I. A. Donishmand xalqimning irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetasi muxbiri savollariga javoblari. "Fidokor" 8 iyun. 2005
3. Karimov I.A. 8-tom. "Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz". T. "O'zbekiston". 2000.
4. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T. 1997.
5. Barkamol avlod orzusi. T. 1999.
6. Badmayev YE. L. Psixologiya: kak yeyo izuchat i usvoit. M. 1998
7. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. T. 2002.
8. Ivanov P.I. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya, (darslik) Toshkent – 2008
9. Karimova V.M. Akramova F.A. Psixologiya. T. 2002.

10. Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. M.I 998.
11. G'ozieva N.Sh. Xojimatova N "Psixologiya tarixi" fanidan ma'ruzalar matni Angren – 2005
12. Хайдаров Ф. Жўраев Н. Тожиева С. ПСИХОЛОГИЯ ТАРИХИ (маърузалар матни) Т О Ш К Е Н Т – 2003

3 – MAVZU: FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI.

Reja:

1. Faoliyat haqida umumiy tushuncha.

2. Faoliyat tarkibi:

- a) maqsad;
- b) motiv;
- v) ish harakat.
- g) eksteriorizatsiya va interiorizatsiya

3. Faoliyatni egallash.

- a) malakalar;
- b) ko'nikmalar;
- v) malakalarning o'zaro ta'siri.

4. Faoliyatning asosiy turlari:

- a) o'yin;
- b) ta'lim;
- v) mehnat.

5. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi .

6. Motivlarning turlari

7. Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar:

Avtomatizm - ixtiyorsiz yoki anglangan holda bajariladigan harakat;

Avtomatlashuv – mashq qilish natijasida turli malakalarning shakllanish jarayoni;

Yetakchi faoliyat – bunda ma'lum davr ichida shaxs sifat jihatidan o'zgarib shakllanadi.

Interiorizatsiya (lot.interior - ichki) – tashqi amaliy harakatlarning ichki aqliy amallarga aylanish jarayon.

Interferentsiya - avval hosil qilingan malakalarning yangi malakalar hosil bo'lishini sustlashtirish yoki salbiy ta'sir etishi;

Ko'nikma - biror ish harakatni anglangan holda bajara olish o'quvi;

Maqsad - faoliyatning so'nggi natijasi timsoli, inson ehtiyojlarini amalga oshirilishi;

Motiv - insonni faoliyatga undovchi va o'nga mazmun beruvchi kuch;

Mehnat – odamning ma'lum maqsadga, o'z ehtiyojlarini qondirish uchun borliqni bilish va uni qayta qurishga, moddiy va ma'naviy boyliklarini yaratishga yo'naltirilgan faoliyat.

Odat - bajarilishi ehtiyojga aylangan harakat yoki xulq - atvorning tarkibiy qismi;

Ta'lim - bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, faoliyat usullarini egallash jarayoni;

Faoliyat – ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta - qayta ko'rishga yo'naltirilgan faolligi.

Eksteriorizatsiya (lot.exterior – tashqiga aylanish) – ichki psixik faoliyatning tashqi amaliy faoliyati, jonli mushohadaga aylanishi.

O'yin – bu bolalarning kattalarning faoliyatini, ularning ish-harakatlarini, odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va tevarak-atrofdagi borliqni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

O'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda qolish jarayoni.


Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi.

Faoliyat haqida umumiy tushuncha. Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat - bu uning faolligidir. Faollik (lotincha “actus” - harakat, “activus” - faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsning hayotdagi barcha xatti - harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu - o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham psixologiyada shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammolari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni uddalashi aloqador sifatleri orqali bayon etiladi.

Fanda inson faolligining asosan ikki turi farqlanadi:

A). **Tashqi faollik** - bu tashqaridan va o'z ichki istak-xohishlarimiz ta'sirida bevosita ko'rish,qayd qilish mumkin bo'lgan harakatlarimiz, mushaklarimizning harakatlari orqali namoyon bo'ladigan faollik.

B). **Ichki faollik** - bu bir tomondan u yoki bu faoliyatni bajarish mobaynidagi fiziologik jarayonlar (moddalar almashinuvi,qon aylanish, nafas olish, bosim o'zgarishlari) hamda, ikkinchi tomondan, bevosita psixik jarayonlar, ya'ni aslida ko'rinmaydigan, lekin faoliyat kechishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'z ichiga oladi.



Misol tariqasida hayotdan shunday manzarani tasavvur qilaylik: uzoq ayriliqdan so'ng ona o'z farzandi visoliga etdi. Tashqi faollikni biz onaning bolasiga intilishi, uni quchoqlashi, yuzlarini siylashi, ko'zlaridan oqqan sevinch yoshlarida ko'rsak, ichki faollik - o'sha ko'z yoshlarini keltirib chiqargan fiziologik jarayonlar, ichki sog'inchning asl sabablari (ayriliq muddati, nochorlik tufayli ayriliq kabi yashirin motivlar ta'siri), ko'rib idrok qilgandagi o'zaro bir-birlariga intilishni ta'minlovchi ichki, birqarashda ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan emotsional holatlarda namoyon bo'ladi. Lekin shu manzarani bevosita guvohi bo'lsak ham, uni ifodalagan rasmni ko'rsak ham, taxminan qanday jarayonlar kechayotganligini tasavvur qilishimiz mumkin. Demak, ikkala turli faollik ham shaxsiy tajriba va rivojlanishning asosini tashkil etadi. Bir qarashda har bir konkret shaxs va uning ehtiyojlariga bog'liq bo'lib tuyulgan bunday faollik turlari aslida ijtimoiy xarakterga ega bo'lib, shaxsning jamiyat bilan bo'ladigan murakkab va o'zaro munosabatlarining oqibati hisoblanadi.

Inson faolligi "harakat", "faoliyat", "xulq" tushunchalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shaxs va uning ongi masalasiga borib taqaladi. Shaxs aynan turli faolliklar jarayonida shakllanadi, o'zligini namoyon qiladi ham. Demak, faollik yoki inson faoliyati passiv jarayon bo'lmay, u ongli ravishda boshqariladigan faol jarayondir. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat - inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratilgan o'ziga xos faollik shaklidir. Bu - yosh bolaning real predmetlar mohiyatini o'z tasavvurlari doirasida bilishga qaratilgan o'yin faoliyati, bu - moddiy ne'matlar yaratishga qaratilgan mehnat faoliyati, bu - yangi kashfiyotlar ochishga qaratilgan ilmiy - tadqiqotchilik faoliyati, bu - rekordlarni ko'paytirishga qaratilgan sportchining mahorati va shunga o'xshash. Shunisi xarakterliki, inson har daqiqada qandaydir faoliyat turi bilan mashg'ul bo'lib turadi.

Faoliyat turlari. Jismoniy va aqliy harakatlar. Har qanday faoliyat real shart-sharoitlarda, turli usullarda va turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Qilinayotgan har bir harakat ma'lum narsaga – predmetga qaratilgani uchun ham, faoliyat predmetli harakatlar majmui sifatida tasavvur qilinadi. Predmetli harakatlar tashqi olamdagi

predmetlar xususiyatlari va sifatini o'zgartirishga qaratilgan bo'ladi. Masalan, ma'ruzani konspekt qilayotgan talabaning predmetli harakati yozuvga qaratilgan bo'lib, u avvalo o'sha daftardagi yozuvlar soni va sifatida o'zgarishlar qilish orqali, bilimlar zahirasi boyitayotgan bo'ladi. Faoliyatning va uni tashkil etuvchi predmetli harakatlarning aynan nimalarga yo'naltirilganiga qarab, avvalo tashqi va ichki faoliyat farqlanadi. Tashqi faoliyat shaxsni o'rab turgan tashqi muhit va undagi narsa va hodisalarni o'zgartirishga qaratilgan faoliyat bo'lsa, ichki faoliyat - birinchi navbatda aqliy faoliyat bo'lib, u sof psixologik jarayonlarning kechishidan kelib chiqadi. Kelib chiqishi nuqtai nazaridan ichki - aqliy, psixik faoliyat tashqi predmetli faoliyatdan kelib chiqadi. Dastlab predmetli tashqi faoliyat ro'y beradi, tajriba orttirib borilgan sari, sekin-asta bu harakatlar ichki aqliy jarayonlarga aylanib boradi. Buni nutq faoliyati misolida oladigan bo'lsak, bola dastlabki so'zlarni qattiq tovush bilan tashqi nutqida ifoda etadi, keyinchalik ichida o'zicha gapirishga o'rganib, o'ylaydigan, mulohaza yuritadigan, o'z oldiga maqsad va rejalar qo'yadigan bo'lib boradi.

Harqanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-psixologik, ham tashqi - muvofiqlik nuqtai nazaridan ong tomonidan boshqarilib boradi. Har qanday faoliyat tarkibida ham aqliy, ham jismoniy - motor harakatlar mujassam bo'ladi. Masalan, fikrlayotgan donishmandni kuzatganmisiz? Agar o'ylanayotgan odamni ziyraklik bilan kuzatsangiz, undagi yetakchi faoliyat aqliy bo'lgani bilan uning peshonalari, ko'zlari, xattoki, tana va qo'l harakatlari juda muhim va jiddiy fikr xususida bir to'xtamga kelolmayotganidan, yoki yangi fikrni topib, undan mamnuniyat his qilayotganligidan darak beradi. Bir qarashda tashqi elementar ishni amalga oshirayotgan - misol uchun, uzum ko'chatini ortiqcha barglardan xalos etayotgan bog'bon harakatlari ham aqliy komponentlardan xoli emas, u qaysi bargning va nima uchun ortiqcha ekanligidan anglab, bilib turib olib tashlaydi.

Aqliy harakatlar - shaxsning ongli tarzda, ichki psixologik mexanizmlar vositasida amalga oshiradigan turli-tuman harakatlaridir. Eksperimental tarzda shu narsa isbot qilinganki, bunday harakatlar doimo motor harakatlarni ham o'z ichiga oladi. Bunday harakatlar quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

perseptiv - ya'ni bular shunday harakatlarki, ularning oqibatida atrofdagi predmetlar va hodisalar to'g'risida yaxlit obraz shakllanadi;

mnemik faoliyat - narsa va hodisalarning mohiyati va mazmuniga aloqador materialning eslab qolinishi, esga tushirilishi hamda esda saqlab turilishi bilan bog'liq murakkab faoliyat turi;

fikrlash faoliyati - aql, fahm - farosat vositasida turli xil muammolar, masalalar va jumboqlarni yechishga qaratilgan faoliyat;

imajitiv - ("image" -obraz so'zidan olingan) faoliyati shundayki, u ijodiy jarayonlarda xayol va fantaziya vositasida hozir bevosita ongda berilmagan narsalarning xususiyatlarini anglash va xayolda tiklashni taqozo etadi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, har qanday faoliyat ham tashqi harakatlar asosida shakllanadi va motor komponentlardan iborat bo'lishi mumkin. Agar tashqi faoliyat asosida psixik jarayonlarga o'tish ro'y bergan bo'lsa, bunday jarayonni psixologiyada **interiorizasiya** deb ataladi, aksincha, aqlida shakllangan g'oyalarni bevosita tashqi harakatlarda yoki tashqi faoliyatga ko'chirilishi **eksteriorizasiya** deb yuritiladi.

Faoliyat turlari yana ongning bevosita ishtiroki darajasiga ko'ra ham farqlanadi. Masalan, shunday bo'lishi mumkinki, ayrim harakatlar boshida har bir elementni jiddiy ravishda, alohida-alohida bajarishni va bunga butun diqqat va ongning yo'nalishini talab qiladi. Lekin vaqt o'tgach, bora-bora unda ongning ishtiroki kamayib, ko'pgina qismlar avtomatlashib boradi. Bu oddiy tilga o'girilganda, malaka hosil bo'ldi deyiladi. Masalan, har birimiz shu tarzda xat yozishga o'rganganmiz. Agar malakalarimiz qat'iy tarzda bizdagi bilimlarga tayansa, faoliyatning maqsadi va talablariga ko'ra harakatlarni muvaffaqiyatli bajarishni ta'minlasa, biz buni ko'nikmalar deb ataymiz. **Ko'nikmalar** - doimo bizdagi aniq bilimlarga tayanadi. Masalan, ko'nikma va malakalar o'zaro bog'liq bo'ladi, shuning uchun ham o'quv faoliyati jarayonida shakllanadigan barcha ko'nikmalar va malakalar shaxsning muvaffaqiyatli o'qishini ta'minlaydi. Ikkalasi ham mashqlar va qaytarishlar vositasida mustahkamlanadi. Agar, faqat malakani oladigan bo'lsak, uning shakllanish yo'llari quyidagicha bo'lishi mumkin:

oddiy namoyish etish yo'li bilan;

tushuntirish yo'li bilan;

ko'rsatish bilan tushuntirishni uyg'unlashtirish yo'li bilan.

Hayotda ko'nikma va malakalarning ahamiyati katta. Ular bizning jismoniy va aqliy urinishlarimizni yengillashtiradi va o'qishda, mehnatda, sport sohasida va ijodiyotda muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlaydi.

Faoliyatni klassifikasiya qilish va turlarga bo'lishning yana bir keng tarqalgan usuli - bu barcha insonlarga xos bo'lgan asosiy faollik turlari bo'yicha tabaqalashdir. Bu - muloqot, o'yin, o'qish va mehnat faoliyatlaridir.

Muloqot - shaxs individual rivojlanishi jarayonida namoyon bo'ladigan birlamchi faoliyat turlaridan biri. Bu faoliyat insondagi kuchli ehtiyojlardan biri - inson bo'lish, odamlarga o'xshab gapirish, ularni tushunish, sevish, o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga qaratilgan ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Shaxs o'z taraqqiyotini aynan shu faoliyat turini egallashdan boshlaydi va nutqi orqali (**verbal**) va nutqsiz vositalar (**noverbal**) yordamida boshqa faoliyat turlarini mukammal egallashga zamin yaratadi.

O'yin - shunday faoliyat turiki, u bevosita biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlar yaratishni nazarda tutmaydi, lekin uning jarayonida jamiyatdagi murakkab va xilma-xil faoliyat normalari, harakatlarning simvolik andozalari bola tomonidan o'zlashtiriladi. Bola toki o'ynamaguncha, kattalar xatti-harakatlarining ma'no va mohiyatini anglab yetolmaydi.

O'qish - faoliyati ham shaxs kamolotida katta rol o'ynaydi va ma'no kasb etadi. Bu shunday faollikki, uning jarayonida bilimlar, malaka va turli ko'nikmalar o'zlashtiriladi.

Mehnat - qilish ham eng tabiiy ehtiyojlarga asoslangan faoliyat bo'lib, uning maqsadi albatta biror moddiy yoki ma'naviy ne'matlarni yaratish, jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishdir.

Har qanday kasbni egallash, nafaqat egallash, balki uni mahorat bilan amalga oshirishda faoliyatning barcha qonuniyatlari va mexanizmlari amal qiladi. Oddiygina biror kasb malakasini egallash uchun ham unga aloqador bo'lgan ma'lumotlarni eslab qolish va kerak bo'lganda yana esga tushirish orqali uni bajarish bo'lmay, balki ham

ichki (psixik), ham tashqi (predmetga yo'naltirilgan) harakatlarni ongli tarzda bajarish bilan bog'liq murakkab jarayonlar yotishini unutmaslik kerak. Lekin har bir shaxsni u yoki bu faoliyat turi bilan shug'ullanishiga majbur qilgan psixologik omillar - sabablar muhim bo'lib, bu faoliyat motivlaridir.

Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. Yuqorida biz tanishib chiqqan faoliyat turlari o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o'z - o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq - atvorini tushuntirish uchun psixologiyada **“motiv”** va **“motivasiya”** tushunchalari ishlatiladi.

“Motivatsiya” tushunchasi **“motiv”** tushunchasidan kengroq ma'no va mazmunga ega. Motivasiya - inson xulq-atvori, uning bog'lanishi, yo'nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik sabablar majmuini bildiradi. Bu tushuncha u yoki bu shaxs xulqini tushuntirib berish kerak bo'lganda ishlatiladi, ya'ni: “nega?”, “nima uchun?”, “nima maqsadda?”, “qanday manfaat yo'lida?” degan savollarga javob qidirish – motivatsiyani qidirish demakdir. Demak, u xulqning motivatsion tasnifini yoritishga olib keladi.

Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o'zini tutishi sabablarini o'rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan narsa bo'lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi: a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'yektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar); b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Shaxs xulq-atvorini ichkaridan, ichki psixologik sabablar tufayli boshqarish odatda shaxsiy dispozisiyalar ham deb ataladi. Ular shaxs tomonidan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Ya'ni, ba'zan shunday bo'ladiki, shaxs o'zi amalga oshirgan ishi yoki o'zidagi o'zgarishlarga nisbatan shakllangan munosabatning haqiqiy sababini o'zi tushunib yetmaydi, “Nega?” degan savolga “O'zim ham bilmay qoldim, bilmayman”, deb javob beradi. Bu anglanmagan dispozisiyalar yoki ustanovkalar deb ataladi. Agar shaxs biror kasbga ongli tarzda qiziqib, uning barcha sir-asrorlarini egallash uchun astoydil harakat qilsa, bunda vaziyat boshqacharoq bo'ladi, ya'ni, dispozisiya anglangan, ongli hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan motiv - konkretroq tushuncha bo'lib, u shaxsdagi u yoki bu xulq-atvorga nisbatan turgan moyillik, hozirlikni tushuntirib beruvchi sababni nazarda tutadi. Mashhur nemis olimi Kurt Levin motivlar muammosi, ayniqsa, shaxsdagi ijtimoiy xulq motivlari borasida katta keng hamrovli tadqiqotlar olib borib, shu narsani aniqlaganki, har bir odam o'ziga xos tarzda u yoki bu vaziyatni idrok qilish va baholashga moyil bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, o'sha bir konkret vaziyat xususidagi turli shaxslarning baholari ham turlicha bo'ladi. Bundan tashqari, bir shaxsning o'zi ham o'zidagi holat, kayfiyatga bog'liq holda bir xil vaziyatni alohida xollarda turlicha idrok qilishga moyil bo'larkan. Shuning uchun ham odamning ayni paytdagi real harakatlarini o'sha ma'lum sharoitdagi ichki va tashqi stimullarga uning bergan bahosi yoki reaksiyasi sifatida haramay, balki unda shunga o'xshash holatlarni idrok qilishga ichki bir hozirlik - dispozisiyaning mavjudligi bilan tushuntirish to'g'riroq bo'ladi. Shu ma'noda shaxs xulqining motivatsiyasi turli sharoitlardan orttirilgan tajribaga

tayangan, ongli taxlillar, xattoki, ijtimoiy tajriba normalarining ta'sirida shakllanadigan sabablar kompleksini o'z ichiga oladi. Masalan, texnika oliygohlarida: "Materiallarning qarshiligi" nomli kurs bor deylik. Shu kursni o'zlashtirish va undan sinovdan o'tish ko'pchilikka osonlikcha ro'y bermaydi. xali kurs boshlanmasdanoq, yosh talabalarda shu kurs va uning talablariga nisbatan shunday ustanovka shakllanadiki, albatta, bu kurs qiyin, uni olib boruvchi o'qituvchi o'ta talabchan, qattiqqo'l va xokazo degan. Bunday motivatsiya mana necha avlod talabalar boshdan kechirayotgan holat. Endi konkret shaxsning dars jarayoni boshlangan keyingi harakatlari konkret motivlar bilan izohlanadi va tirishqoq talaba uchun bu fan ham boshqa fanlar qatori tinimsiz izlanish, o'z vaqtida darslarni tayyorlashni talab qilsa, boshqasi uchun (dangasaroq talaba uchun) bu darsdan keyin dars yo'q va u qachon shu semestr tugashini kutib harakat qiladi. Har qanday motivlarning orqasida shaxsning ehtiyojlari yotadi. Ya'ni, maqsadli hayotda shaxsda avval u yoki bu ehtiyojlar paydo bo'ladi va aynan ularning tabiati va zaruratiga bog'liq tarzda xulq motivlari namoyon bo'ladi. Misol uchun talabaning o'quv faoliyatini olish mumkin. Bilim olish maqsadi bilim, ilm olish, qiziquvchanlik ehtiyojini paydo qiladi. Bu ehtiyoj taraqqiyotning ma'lum bir davrida, masalan, bog'cha yoshidan boshlab qoniqtirila boshlaydi. Bolaga sotib olib berilgan kitoblar, daftar va boshqa o'quv qurollari, ma'lum ta'lim maskanida tashkil etilgan shart - sharoitlar va u yerdagi bevosita bilim olishga qaratilgan faoliyatning o'zi, bola uchun motiv o'rnini bosadi. Yana bir oddiy misol qo'lingizda kitob bor. Siz xali uni o'qishni boshlamadingiz. Lekin o'qish istagi bor, shu istakning ortida esa, o'sha mazmunni bilish va uning tagiga yetish ehtiyoji turadi. Rus olimi R. Nemov shaxsdagi motivasion sohani quyidagicha tasavvur qiladi. Umuman, har qanday shaxsdagi mavjud ehtiyojlarni ikki guruhga bo'lish mumkin:

Biologik ehtiyojlar - bu - fiziologik (tashnalik, ochlik, uyqu), jinsiy, moslashuv ehtiyojlari.

Ijtimoiy ehtiyojlar - bu - mehnatqilish, bilish, estetik va axloqiy-ma'naviy ehtiyojlar.

Ehtiyojlarni biologik hamda ijtimoiy turlarga bo'lganimiz bilan shu narsani unutmasligimiz lozimki, shaxsdagi har qanday ehtiyojlar ham ijtimoiylashgan bo'ladi, ya'ni, ular o'sha jamiyat va muhitdagi qadriyatlar, madaniy normalar va insonlararo munosabatlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Masalan, eng tabiiy va tushunarli hisoblangan bizning yemishga - ovqatga bo'lgan ehtiyojimizni olsak, u ham konkret muhitga qarab turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Yana misol uchun, to'y marosimlari yoki juda to'kin dasturxon atrofida o'tirgan odam nima uchun shunchalik ko'p ovqat iste'mol qilib yuborganini bilmay qoladi. Agar bu tabiat qo'yni yoki paxta dalasidagi xashar bo'lsa-chi, bir burda issiq non ham butun tanaga rohat baxsh etuvchi malham bo'lib, ochlikni bilintirmaydi. Kamtarona dasturxondan ovqat yeb o'rgangan kishi oz-oz yeyishga o'rgansa, yoshligidan normadan ortiq yeb o'rgangan odam vrach oldiga borib, o'zi uchun ozdiruvchi dori-darmon so'rasa so'raydiki, lekin uyda o'zi yemishini nazorat qilishi kerakligini bilmaydi. Demak, bu ham madaniyatga, etikaga, oila muhitiga bevosita bog'liq narsa ekan -da.

Umuman shaxs ijtimoiy xulqi motivi haqida gap ketganda, uning ikki tomoni yoki elementi ajratiladi: harakat dasturi va maqsad. harakat dasturi maqsadga erishishning vositalariga aniqlik kiritadi. Shuning uchun ham dasturda nazarda tutilgan vositalar maqsadga erishishni oqlashi kerak, aks holda dastur hech narsa bermaydi. Masalan,

ba'zi ota-onalar farzandlarini yaxshi tarbiyalash va undan ideallaridagi shaxs yetishib chiqishini orzu qilib, uning oldiga juda og'ir tarbiyaviy shartlarni qo'yadilar, bola erkinligi bo'g'iladi, u qat'iy nazorat muhitida ushlanadi. Oqibatda bola keyinchalik boshqarib bo'lmaydigan, qaysar, uncha-muncha tashqi ta'sirga berilmaydigan bo'lib qolib, har qanday boshqa ijtimoiy sharoitda qiynaladigan bo'lib qoladi. Shuning uchun ham motiv har doim anglangan, ehtiyojlar muvofiqlashtirilgan va maqsadlar va unga yetish vositalari aniq bo'lishi kerak. Shundagina ijtimoiy xulq jamiyatga mos bo'ladi.

Motivlarning turlari. Turli kasb egalari faoliyati motivlarini o'rganishda motivlar xarakterini bilish va ularni o'zgartirish muammosi ahamiyatga ega. Shunday motivlardan biri turli xil faoliyat sohalarida muvaffaqiyatga erishish motivi bo'lib, bunday nazariyaning asoschilari amerikalik olimlar D.Makklelland, D.Atkinson va nemis olimi X. Xekxauzenlar hisoblanadi. Ularning fikricha, odamda turli ishlarni bajarishini ta'minlovchi asosan ikki turdagi motiv bor: **muvaffaqiyatga erishish motivi** hamda **muvaffaqiyasizliklardan qochish motivi**. Odamlar ham u yoki bu turli faoliyatlarni kirishishda qaysi motivga mo'ljal qilishlariga qarab farq qiladilar. Masalan, faqat muvaffaqiyat motivi bilan ishlaydiganlar oldindan ishonch bilan shunday ish boshlaydilarki, nima qilib bo'lsa ham yutuqqa erishish ular uchun oliy maqsad bo'ladi. Ular hali ishni boshlamay turib, yutuqni kutadilar va shunday ishni amalga oshirishsa, odamlar ularning barcha harakatlarini ma'qullashlarini biladilar. Bu yo'lda ular nafaqat o'z kuch va imkoniyatlarini, balki barcha tashqi imkoniyatlar - tanish - bilishlar, mablag' kabi omillardan ham foydalanadilar.

Boshqacha xulq - atvorni muvaffiqiyatsizlikdan qochish motiviga tayangan shaxslarda kuzatish mumkin. Masalan, ular birinchilardan farqli, ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffiqiyasizlikka duchor bo'lmaslikni o'ylaydilar. Shu tufayli ularda ko'proq ishonchsizlik, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimizmga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, oxir - oqibat ular baribir muvaffiqiyatsizlikka uchrab, "O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da" degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffiqiyatli tugatgach, ko'tarinki ruh bilan ikkinchi ishga kirishishsa, ikkinchi toifa vakillari, harqanday ishni yakunlagandan so'ng, uning natijasidan qat'iy nazar, ruhan tushkunlikka tushadilar va og'rinish hissi bilan boshqa ishga kirishadilar. Bu o'rinda talabchanlik degan sifatning roli katta. Agar muvaffiqiyatga yo'nalgan shaxslarning o'zlariga nisbatan qo'ygan talablari darajasi ham yuqori bo'lsa, ikkinchi toifa vakillarining talablari aksincha, past bo'ladi. Bunday tashqari har birimizdagi o'zimizdagi real qobiliyatlar to'g'risidagi tasavvurlarimiz ham ushbu motivlarning faoliyatdagi o'rniga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, o'zidagi qobiliyatlarga ishongan shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchrasa ham, unchalik qayg'urmaydi, keyingi safar hammasi yaxshi bo'lishiga ishonadi. Ishonchsiz shaxs esa kichkina berilgan tanbeh yoki tanqidni ham juda katta ruhiy azob bilan qayg'urib boshdan kechiradi. Uning uchun ham shaxsning u yoki bu vaziyatlarda qayg'urish sifati ham ma'lum ma'noda motivlar xarakterini belgilaydi.

Shunday qilib, motivlar tizimi bevosita shaxsning mehnatga, odamlarga va o'z - o'ziga munosabatlaridan kelib chiqadi va undagi xarakter xususiyatlarini ham belgilaydi. Ularning har birimizda real shart-sharoitlarda namoyon bo'lishini biror mas'uliyatli ish oldidan o'zimizni tutishimiz va muvaffaqiyatlarga erishishimiz bilan baholasak bo'ladi. Masalan, mas'uliyatli imtihon topshirish jarayonini olaylik. Ba'zi

talabalar imtihon oldidan juda qayg'uradilar, xattoki, qo'rqadilar ham. Ular uchun imtixon topshirish juda katta tashvishday. Boshqalar esa bu jarayonni bosiqlik bilan boshdan kechirib, ichidan hayajonlanayotgan bo'lsalar ham, buni boshqalarga bildirmaydilar. Yana uchinchi toifa kishilari umuman beg'am bo'lib, sira koyimaydilar. Tabiiy, shunga muvofiq tarzda, har bir toifa vakillari ishining muvaffaqiyati va faoliyatning samarasi turlicha bo'ladi. Bunga har bir shaxsdagi da'vogarlik darajasi ham ta'sir qiladi. Da'vogarlik darajasi yuqoriroq bo'lganlar bilgan - bilmaganini isbot qilishga urinsalar, ana shunday darajasi pastlar bor bilganini ham yaxshi aytib berolmay, yana o'qituvchi bilan tortishmaydilar ham.

Shuning uchun ham har birimiz ijtimoiy faoliyat motivlaridan tashqari, shaxsiy hislatlarimizni ham bilishimiz va ongli tarzda xulqimizni boshhara olishimiz kerak.

Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, motivlar, ya'ni xatti-harakatlarimizning sabablari biz tomonimizdan anglanishi yoki anglanmasligi ham mumkin. Yuqorida keltirilgan barcha misollarda va holatlarda motiv aniq, ya'ni shaxs nima uchun u yoki bu turli faoliyatni amalga oshirayotganligini, nima sababdan muvaffaqiyatga erishayotganligi yoki mag'lubiyatga uchraganini biladi. Lekin har doim ham ijtimoiy xulqimizning sabablari bizga ayon bo'lavermaydi. Anglanmagan ijtimoiy xulq motivlari psixologiyada ijtimoiy ustanovka (inglizcha **“attitud”**) hodisasi orqali tushuntiriladi.

Ijtimoiy ustanovka shaxsning ijtimoiy ob'yektlar, hodisalar, guruhlar va shaxslarni idrok qilish, baholash va qabul qilishga nisbatan shunday tayyorgarlik holatiki, u bu baho yoki munosabatning aslida qachon shakllanganligini aniq anglamaydi. Masalan, Vatanimizni hammamiz sevamiz, bayrog'imiz muqaddas, nemis investorlarga ishonamiz, negrlarga rahmimiz keladi, tijorat ishlari bilan shug'ullanadiganlarni albatta puldor, badavlat, deb hisoblaymiz va xokazo. Bu tasavvurlar, baho va hissiyotlar qachon va qanday qilib ongimizda o'rnashib qolganligiga e'tibor bermasdan yuqorida sanab o'tgan hissiyotlarni boshdan kechiraveramiz. Mana shularning barchasi ijtimoiy ustanovkalar bo'lib, ularning mazmun mohiyati aslida har bir inson ijtimoiy tajribasi davomida shakllanadi va uzoq muddatli xotirada saqlanib, konkret vaziyatlarda ro'yobga chiqadi.

Amerikalik olim **G.Ollport** ijtimoiy ustanovkaning uch komponentli tizimini ishlab chiqqan:

A. Kognitiv komponent - ustanovka ob'yektiga aloqador bilimlar, g'oyalar, tushuncha va tasavvurlar majmui;

B. Affektiv komponent - ustanovka ob'yektiga nisbatan sub'yekt his qiladigan real hissiyotlar (simpatiya, antipatiya, loqaydlik kabi emosional munosabatlar);

V. Harakat komponenti - sub'yektning ob'yektga nisbatan real sharoitlarda amalga oshirishi mumkin bo'lgan harakatlari majmui (xulqda namoyon bo'lish).

Bu uchchala **komponentlar** o'zaro bir - birlari bilan bog'liq bo'lib, vaziyatga qarab u yoki bu komponentning roli ustivorroq bo'lishi mumkin. Shuni aytish lozimki, komponentlararo monandlik bo'lmasligi ham mumkin. Masalan, ayrim talabalar talabalik burchi va tartib - intizom bilan juda yaxshi tanish bo'lsalarda, har doim ham unga rioya qilavermaydilar. “Tasodifan dars qoldirish”, “jamoatchilik joylarida tartibni buzish” kabi holatlar kognitiv va harakat komponentlarida uyg'unlik yo'qligini

ko'rsatadi. Bu bir qarashda so'z va ish birligi printsiplining turli shaxslarda turlicha namoyon bo'lishini eslatadi. Agar odam bir necha marta bila turib, ijtimoiy xulqqa zid harakat qilsa, va bu narsa bir necha marta qaytarilsa, u bu holatga o'rganib qoladi va ustanovkaga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ham biz ijtimoiy normalar va sanksiyalar vositasida bunday qarama -qarshilik va tafovut bo'lmasligiga yoshlarni o'rgatib borishimiz kerak. Bu shaxsning istiqboli va faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Faoliyatning muhim xususiyatlari	
Hayvonlar faolligi	Inson faoliyati
Instinktiv - biologik faollik	Bilishga va muloqotga bo'lgan ehtiyojlar bilan yo'naltirilgan.
Hamkorlikdagi faoliyat emas, to'da bo'lib yurish, biologik maqsadlar (oziqlanish, himoyalanih)ga asoslangan.	Kishilik jamiyati hamkorlikdagi faoliyat asosida tashqil topgan har bir harakat inson uchun hamkorlikdagi faoliyatdagi o'rniga ko'ra ahamiyatlidir.
Ko'rgazmali – yaqqol vaziyatlar bilan boshqariladi	Predmet va hodisalarni mavhumlashtirish, ular o'rtasidangi sababiy bog'lanish va munosabatlarni aniqlash mumkin
Irsiy jihatdan mustahkamlangan dastur (instinkt) lar asosidagi xatti – harakatlar, ko'nikmalar yakka tartibda hosil bo'lib hayvonning yashash uchun tashqi sharoitlarga moslashishi sifatida namoyon bo'ladi	Tajribani berish va o'zlashtirish muloqotning ijtimoiy vositalari (til va boshqa belgilar tizimi) yoki moddiy madaniyat mahsulotlari orqali amalga oshiriladi
Yordamchi qurollar, vositalar yasashi mumkin, ammo undan qurol sifatida doimo foydalanmaydi. Bir qurol yordamida boshqa qurol yasay olmaydi	Mehnat qurollari yasab, uni keyingi avlodlarga ham qoldirishi mumkin. Turli predmet va qurollardan foydalanib yangi qurol va vositalar yarata oladi
Tashqi muhitga moslashadi	O'z ehtiyojlariga muvofiq tarzda tashqi dunyoni o'zgartiradi

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. SHaxs faolligining manbai nima?

- a) instinktlar; b) ehtiyojlar;
v) motivlar; g) maqsad.

2. Maqsad nima?

- a) faoliyatning tarkibiy qismi; b) ehtiyojlarning qondirilishi;
v) ehtiyojlarning ruyobga chiqishi; g) faoliyatning so'nggi natijasi.

3. Faoliyat jarayonida sezgi a'zolari qanday vazifani bajaradi?

- a) ijro etish; b) nazorat qilish;
v) boshqarish; g) kuzatish.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Inson faoliyati va hayvonlar xatti -harakatlari o'rtasida qanday farqlar mavjud?

2. Bolalar nima uchun o'ynaydilar?

3. Malakalarning qanday turlari bor?

4. Faoliyat tarkibiga nimalar kiradi?

5. Faoliyatni o'zlashtirishdagi asosiy bosqichlarni sanang.

4 – Mavzu: SHAXS PSIXOLOGIYASI

Reja:

1. SHaxs haqida tushuncha:

a) individ; b) shaxs; v) individuallik.

2. SHaxsning faolligi:

a) ehtiyoj; b) motiv;

v) qiziqish; g) tilak, istak, niyat.

3. SHaxsning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar:

a) irsiyat; b) ijtimoiy muhit;

v) ta'lim - tarbiya; g) shaxsiy faoliyat.

4. SHaxsning malaka va odatlari

5. “Men” - obrazi va o'z-o'ziga baho.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Autizm (yunon. Auto - o'zim) – individning o'zini atrofdagi odamlardan chegaralab, o'zining kechinmalariga berilishidan iborat psixologik begonalashuv.

Ideal (yunon. Ideya – g'oya, tushuncha tasavvur) – biror narsaning namunasi, ayrim odam, guruh va sinf xatti-harakatlari va intilishini belgilovchi oliy maqsad.

Individ (lot.individium - bo'linmas) – biologik turga kiruvchi alohida tirik mavjudot.

Individuallik - shaxs fazilatlarining qaytarilmas birikmasi (temperament, xarakter, qobiliyat).

Motiv - ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq, faoliyatga undovchi ichki kuch.

Motivatsiya - faollikka undovchi motivlar majmuasi.

Ehtiyoj – odam va hayvon faolligining asosiy manbai, aniq sharoitlar bilan bog'liq zaruriyatning ichki holati.

Shaxs – muayyan jamiyatda yashovchi, faoliyatning biror turi bilan shug'ullanuvchi, kishilar bilan normal til orqali munosabatga kirishuvchi ongli individga aytiladi.

Qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli bo'lgan muayyan narsa yoki hodisalarga munosabati, keng va tor, chuqur va yuzaki, barqaror va beqaror bo'lishi mumkin.

O'z - o'zini nazorat - shaxsning o'zini holatini boshqara olishi.

O'z - o'zini baholash - shaxsning o'z xislatlarini baholay olishi.

Frustratsiya (yunon.frustration – aldanish, behuda ko'rish) – kishining maqsadga erishish yo'lida uchraydigan, ob'yektiv ravishda yengib bo'lmaydigan yoki sub'yektiv ravishda shunday tuyuladigan qiyinchiliklar tufayli paydo bo'ladigan psixik holati.

E'tiqod - shaxsni o'z qarashlari, tamoyillari, dunyoqarashlariga mos ravishda harakat qilishga undovchi anglanilgan ehtiyojlar tizimidir.

Shaxs haqida tushuncha. “Shaxs” tushunchasi psixologiyada eng ko'p qo'llaniladigan tushunchalar sirasiga kiradi. Psixologiya o'rganadigan barcha fenomenlar aynan shu tushuncha atrofida qayd etiladi. Inson ruhiy olami qonuniyatlari bilan qiziqqan har qanday olim yoki tadqiqotchi ham shaxsning ijtimoiyligi va aynan jamiyat bilan bo'lgan aloqasi masalasini chetlab o'tolmagan.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, “**Homo sapiens**” - “**aqlli zot**” tushunchasini o'zida ifoda etuvchi jonzotning paydo bo'lganiga taxminan 40 ming yildan oshibdi. Bu davrda olimlarning e'tirof etishlaricha, 16 ming avlod almashgan emish. Darwin ta'biri bilan aytganda, tabiiy tanlanish jarayonida yer yuzida saqlanib qolgan minglab millat

va elatlarning keyingi davrdagi taraqqiyoti ko'proq biologik omillardan ko'ra, ijtimoiy - sotsial omillar ta'sirida ro'y bermoqda. Shuning uchun ham xar bir individni yoki shaxsni o'rganish masalasi uning bevosita ijtimoiy muhiti va uning ijtimoiy normalari doirasida o'rganishni taqozo etadi.

Sotsial yoki ijtimoiy muhit - bu insonning aniq maqsadlar va rejalar asosida faoliyat ko'rsatadigan dunyosidir. Mazmunan har bir insonning shu ijtimoiy olam bilan aloqasi uning insoniyat tajribasi, madaniyati va qabul qilingan, tan olingan ijtimoiy xulq normalari doirasidagi harakatlarida namoyon bo'ladi. Psixologiya ilmining namoyondalari bo'lmish olimlarning butun bir avlodi ana shu shaxs va jamiyat aloqalari tizimida insonning tub mohiyatini anglash, uning rivojlanishi va kamol topishi qonuniyatlarini izlaganlar. Abu Nasr Farobiy, A.Navoiy, Ibn Sino, Beruniy kabi yuzlab Sharq allomalari ham bu o'zaro bog'liqlikning falsafiy va ijtimoiy sirlarini ochishga o'zlarining eng durdona asarlarini bag'ishlaganlar. Barcha qarashlarga umumiy bo'lgan narsa shu bo'lganki, odamni, uning mohiyatini anglash uchun avvalo uning shu jamiyatda tutgan o'rni va mavqeini bilish zarur. Shaxsni o'rganishning birlamchi mezon ham shundan kelib chiqqan holda, uning ijtimoiy mavqei, ijtimoiy munosabatlar tizimidagi o'rni bilan belgilanishi kerak.

Lekin, shaxs bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqalar masalasi birdaniga, bir xil yechimga kelinmagan. Bu o'zaro munosabatlar asosan ikki polyar nuqtai nazardan kelib chiqadi.

Nativizm yo'nalishining tarafdorlari insonlardagi barcha xususiyatlarni tug'ma xarakterga ega, deb e'tirof etadilar.(Lens, Gruber va boshqalar).

Empirizm tarafdorlarining fikricha, yangi tug'ilgan bola go'yoki "top - toza taxta"(tabula rasa), unga hayot va undagi talablar o'zining qonuniyatlarini yozadi va bola ularga so'zsiz bo'ysunishga majbur. Bu yo'nalishning asoschilaridan biri Dj. Lokk bo'lib (1632-1704) uning fikricha, tug'ma fikrlar yoki g'oyalar bo'lishi mumkin emas, ular xohish - tilak va og'riq kabi elementar sezgilarning qayta ishlanishi natijalaridir. hayotda ana shunga o'xshash turli xil sezgilar va g'oyalarning assotsiatsiyasi ro'y beradi.

G.Leybnits (1646-1716) Lokka e'tiroz bildirib, hayotda umuman toza, sof doskaning o'zi bo'lmaydi, xattoki, eng yaxshi silliqlangan marmar yuzasida ham sezilarli teshiklar, do'ngliklar yoki tug'ma asoratlar bo'ladiki, ular layoqatlardek, inson taqdirida ma'lum rol o'ynaydi. Bu ikkala yirik yo'nalish o'rtasidagi tortishuvlarga chek qo'yish maqsadida F.Galton qator eksperimental tadqiqotlar o'tkazib, har bir individga xos differentsial xususiyatlar mavjudligini " egizaklar metodi" yordamida asoslashga harakat qildi. 1- jadvalda Galton tomonidan irsiy va orttirilgan sifatlar munosabati yuzasidan aniqlangan natijalardan keltirilgan.

1 - jadval.

Musiqiy qobiliyatlardagi irsiy xususiyatlar

Ota-onalar, bolalar	Musiqaga moyil	Musiqaga moyil emas
Musiqaga moyil	85 %	7 %
Musiqaga moyil emas	25 %	58 %

Egizaklardagi musiqaga moyillikning korrelyatsion ko'rsatgichi ham yuqori bo'lib (p 0,7), egizak bo'lmaganlardan ancha farq qiladi (p 0,3 - 0,4).

Galtondan keyingi tadqiqotlarda musiqaga bo'lgan qobiliyatga ona tilining xususiyati ta'sir qilishi aniqlandi: yumshoq - tonal yoki keskir - tonal bo'lmagan tillar. Masalan, keskinroq hisoblangan rus tilida gapiruvchi bolalardagi musiqani idrok qilish yumshoq, tonal tillarda so'zlashuvchi veytnamliklarning idrokidan ancha past chiqqan.

Lekin yuqoridagi fikrlar va tortishuvlarning kelib chiqish sababi tushunarli bo'lishi kerak: ular insonning asl mohiyatini tushunish va uning xulqini boshqarish ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Demak, inson jamiyat a'zosi sifatida uning normalariga bo'ysunadi, uning kutishlariga javob berishga harakat qiladi va o'z xulqini uning talablariga monand qilishga intiladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxs fenomeniga ta'rif berish mumkin.

Shaxs - ijtimoiy va shaxslararo munosabatlarning mahsuli, ongli faoliyatning sub'yekti bo'lmish individdir. Shaxsga taalluqli bo'lgan eng muhim tasnif ham uning jamiyatdagi murakkab ijtimoiy munosabatlarga bevosita aloqadorlik, ijtimoiy faoliyatga nisbatan ham ob'yekt, ham sub'yekt bo'lishlikdir.

Shaxsga taalluqli bo'lgan fazilatlardan eng muhimi shuki, u shu tashqi, ijtimoiy ta'sirlarni o'z ongi va idroki bilan qabul qilib (ob'yektni), so'ngra shu ta'sirlarning sub'yekti sifatida faoliyat ko'rsatadi. Oddiy qilib aytganda, inson bolasi ilk yoshlikdanoq "mening hayotim", "bizning dunyo" degan ijtimoiy muhitga tushadi. Bu muhit o'sha biz bilgan va har kuni his qiladigan siyosat, xuquq, axloq olamidir. Bu muhit - kelishuvlar, tortishuvlar, hamkorliklar, an'analar, udumlar, turli xil tillar olami bo'lib, undagi ko'plab qoidalarga ko'pchilik mutloq qo'shiladi, ba'zilar qisman qo'shiladi. Bu shunday qoidalar va normalar olamiki, ularga bo'ysunmaslik jamiyat tomonidan qoralanadi, ta'qiblanadi. Shulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, shaxs jamiyatga nisbatan barcha tartib - qoidalarni qabul qiluvchi sub'yekt bo'lsa, jamiyat - ijtimoiy intizom va tartibning, madaniyatning mufassal ko'rinishidir.

Shaxs ijtimoiy xulqiga turli tashqi kuchlar ta'sir qiladi: siyosiy, mafkuraviy, iqtisodiy, ma'naviy, axloqiy va boshqalar. Bu taassurotlar mohiyatan aslida jamiyat a'zolari bo'lmish shaxslar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ayrim alohida yo'nalishlarini belgilab beradi.

Shunday qilib, shaxs turli ijtimoiy munosabatlar tizimi ta'sirida bo'ladi va ko'plab ijtimoiy institutlar (oilalar, mahalla, o'quv maskanlari, mehnat jamoalari, norasmiy tashkilotlar, din, san'at, madaniyat va boshq.) bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, shaxsdagi turli g'oyalar, fikrlar va mafkuraviy munosabatlar tizimi ta'sirida shakllanib, ular bevosita oilalar, bog'cha, maktab va boshqa o'quv va tarbiya muassasalari orqali ongga singdiriladi. Agar bu ta'sir uning e'tiqodi darajasida ko'tarilsa, va unda yana yangidan - yangi fikrlar va g'oyalarning paydo bo'lishi va o'sishiga olib kelsa, shaxs taraqqiyoti jarayonida shunday faoliyat sohasini tanlaydiki, o'z qobiliyatlari, malaka va ko'nikmalarini rivojlantira borib, ziyoli sifatida yo o'qituvchi, yoki vrach, yoki olim, kashfiyotchi, muhandis bo'lib, elu - yurtiga xizmat qiladi.

Iqtisodiy munosabatlar ham shaxs ongi va uning insoniy xususiyatlari shakllanishida katta rol o'ynaydi. Masalan, bosqichma - bosqich bozor munosabatlari o'tayotgan O'zbekiston sharoitini oladigan bo'lsak, yangicha iqtisodiy o'zgarishlar, bozor, raqobat, legalizatsiya va shunga o'xshash yangiliklar har bir shaxsning moddiy

boyliklar va ularga bo'lgan shaxsiy munosabatlarida aks etib, uning iqtisodiy ongi, tafakkuri va iqtisodiy xulqi normalarini belgilaydi.

Har bir odam bilish, eshitish bilan birga malaka va odatlarni egallaydi. Malakalar bir necha xil bo'ladi (yozish, o'qish, yurish, musiqa chalish, sport va h. k.) Maqsadni ko'zlab biror ishni bajarish malakaga bog'liq. **Malaka deb**, avval ongli bajarilib keyinchalik avtomatlashgan xatti -harakatlarga aytiladi. Istalgan malakani qayta -qayta takrorlash natijasida hosil qilish mumkin. Malakalar sodda va murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, mashina haydash, musiqa chalish, kasb egallash murakkab malaka, mix qoqish, o'tin arralash sodda malaka hisoblanadi. Malakalarni mashq qilish natijasida egallanadi. SHaxsda malakadan tashqari odatlar ham bo'ladi. Odat kishi qalbiga chuqur o'rnanib, uning ehtiyojiga aylanib qolgan harakatlardir. Masalan, ertalab turib yuvinish, ovqatlanish, ozoda yurish kabilar. Odatlar ijobiy va salbiy bo'ladi. Salbiy odatlarga yolg'on gapirish, ichish, chekish kabilar kiradi. Malaka va odatlarning nerv - fiziologik asoslarini shartli reflekslarning hosil bo'lish mexanizmi tashkil qiladi. Bu shartli refleks oddiy emas, balki dinamik stereotip tarzidagi, ya'ni takrorlash natijasida mustahkamlangan shartli reflekslar birlashmasidan iborat. Masalan, bolalar bog'chaga o'rganguncha qiynaladi, chunki uydagi sharoitga ularda dinamik stereotip bo'ladi. Yangi hosil qilinadigan malakalar ilgari hosil qilinadigan malakalarga bog'liq bo'ladi. Ilgarigi malakalar ijobiy ta'sir qilsa malakalarning kuchayishi ko'zatiladi. Masalan, chet tillardan birontasini o'rgangan odam boshqa bir chet tili o'rganishda qiynalmaydi. Agar ilgari malaka salbiy ta'sir qilsa malakalar **interferentsiyasi** deyiladi. Masalan, bir sohada ishlagan odam butunlay boshqa sohaga o'tsa qiynaladi. SHaxs shug'ullanayotgan ishi bilan uzoq vaqt shug'ullanmasa malakalar so'nish hodisasi ko'zatiladi. Buni malakalarning **deavtomatizatsiyasi** deyiladi. Malakalarning hosil bo'lish tezligi va mustahkamlanishi odamning yoshiga bog'liq. Masalan, til o'rganish 4 - 5 yoshda tez o'rganiladi. Hunar egallash 12 - 13 yoshda tez o'rganiladi. Malakalarning mustahkamligi qiziqishlarga, individual xususiyatlarga bog'liq , ya'ni asab tizimiga bog'liq bo'ladi. Masalan, xoleriklarda malaka tez, melanholiklarda sekin hosil bo'ladi.

Demak, malakalar inson shaxsining tarkib topishiga katta ta'sir ko'rsatadi. SHaxs o'zining individualligida, ijtimoiy munosabatlarda belgilanadi. Atoqli psixolog K.K Platonov shaxsni "Konkret odam yoki dunyoni yaratuvchi sub'ektdir", L.L.Bojovich esa "Odam o'zining anglash jarayonida yaxlitligini idrok qiladi, unda "Men" degan tushuncha paydo bo'ladi", deb ta'kidlaydilar. A.N. Leont'evning "Faoliyat. Ong. SHaxs" degan kitobida shaxs haqida ajoyib fikrlar bor: "Bu oliy olam birligi, hayotda doimiylikni saqlaydi, har qanday sharoitda shaxsligicha boshqalar ko'z o'ngida va o'zining ko'z o'ngida qoladi".

Ijtimoiy normalar, sanksiyalar va shaxs. Ijtimoiy norma - shaxs hayotida shunday kategoriyaki, u jamiyatning o'z a'zolari xulq - atvoriga nisbatan ishlab chiqqan va ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan harakatlar talablaridir. Masalan, o'zbeklar uchun biror xonaga kirib kelgan insonning kim bo'lishidan qat'iy nazar, "Assalomu alaykum" deb kelishi - norma; o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishi lozimligi - norma; xotinning er hurmatini o'rniga qo'yishi, qaynonaga gap qaytarmaslik - norma; avtobusda yoki boshqa jamoat transportida kichikning kattalarga, nogironlarga o'rin bo'shatishi - norma va hokazo. Bu normalarni ayrim - alohida odam ishlab chiqmaydi,

ular bir kun yoki bir vaziyatda ham ishlab chiqilmaydi. Ularning paydo bo'lishi ijtimoiy tajriba, xayotiy vaziyatlarda ko'pchilik tomonidan e'tirof etilganligi fakti bilan xarakterlanadi, har bir jamiyat, davr, millat va ijtimoiy guruh psixologiyada muhrlanadi.

Ijtimoiy normalarning u yoki bu davrda, u yoki bu toifa vakili bo'lmish shaxs tomonidan qay darajada bajarilishi yoki unga amal qilinayotganligi ijtimoiy sanksiyalar orqali nazorat qilinadi. **Ijtimoiy sanksiyalar** - normalarning shaxs xulqida namoyon bo'lishini nazorat qiluvchi jazo va rag'batlantirish mexanizmlari bo'lib, ularning borligi tufayli biz har bir alohida vaziyatlarda ijtimoiy xulq normalarini buzmaslikka, jamoatchilikning salbiy fikri ob'yektiga aylanib qolmaslikka harakat qilamiz. Masalan, yuqoridagi misolda, agar jamoat transportida katta muysafid kishiga o'rin bo'shatishni norma deb qabul qilmagan o'smirlarga nisbatan ko'pchilikning ayblov ko'zi bilan qarashi, yoki og'zaki tanbeq berishi, juda kam hollarda o'zini bebosh tutayotgan o'smirning qo'lidan tutib, nima qilish kerakligini o'rgatib, "ko'zini moshday qilib ochib qo'yish" ijtimoiy sanksiyani hayotdagi bir ko'rinishidir.

Har bir alohida shaxs jamiyat tomonidan ishlab chiqilgan va qabul qilingan ijtimoiy normalar va sanksiyalarni u yoki bu ijtimoiy rollarni bajarishi mobaynida xulqida namoyon etadi. Rol - shaxsga nisbatan shunday tushunchaki, uning konkret hayotiy vaziyatlardagi xuquq va burchlaridan iborat harakatlari majmuini bildiradi. Masalan, talaba rolini oladigan bo'lsak, uni bajarish - u yoki bu oliy o'quv yurtida taxsil olish, uning moddiy bazasidan foydalanish, kutubxonasiga a'zo bo'lish, stipendiya olib, ma'muriyatning ijtimoiy himoyasida bo'lish kabi qator xuquqlar bilan birgalikda o'sha oliygoh ichki tartib - intizomi normalariga so'zsiz bo'ysunish, darslarga o'z vaqtida kelish, reyting baholov talablari doirasida kundalik o'zlashtirish normalarini bajarish, amaliyotda bo'lish, dekanatning bergan jamoatchilik topshiriqlarini ham bajarish kabi qator burchlarni ham o'z ichiga oladi. Bu rol uning uyga borgach bajaradigan "farzandlik" roli (ota va ona, yaqin harindoshlar oldida) talab va imtiyozlaridan farq qiladi. Ya'ni, konkret shaxsning o'ziga xosligi va qaytarilmasligi u bajaradigan turli - tuman ijtimoiy rollarning xarakteridan kelib chiqadi. Shunga ko'ra, kimdir "tartibli, ba'mani, fozil, axloqli va odobli" deyilsa, kimdir - be'mani, bebosh, o'zgaruvchan, ikkiyuzlamachi (ya'ni, bir sharoitda juda qobil, boshqa yerda - betartib) degan hayotiy mavqega ega bo'lib qoladi.

Hayotda shaxs bajaradigan ijtimoiy rollar ko'pligi sababli ham, turli vaziyatlardagi uning mavqei - statusi ham turlicha bo'lib qoladi. Agar biror rol shaxs ijtimoiy tasavvurlari tizimida uning o'zi uchun o'ta ahamiyatli bo'lsa (masalan, talaba roli), u boshqa rollarni unchalik qadrlamasligi va oqibatda, o'sha vaziyatda boshqacharoq, noqulay va noboproq mavqeni egallab qolishi mumkin. qolaversa, rollarning ko'pligi ba'zan rollar ziddiyatini ham keltirib chiqarishi mumkinki, oqibatda - shaxs ichki ruhiy qiyinchiliklarni ham boshdan kechirishi mumkin. Masalan, sirdan taxsil olayotgan talaba sessiya paytida ishlab turgan korxonasiga komissiya kelishi va uning faoliyatini tekshirayotganligini bilib, ruhiy azobga tushadi - bir tomondan, talabachilik va uning talablari, ikkinchi tomondan - kasbdoshlar oldida uyalib qolmaslik uchun har kuni ishxonaga ham borib kelish. Hozirgi ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat va bozor munosabatlari sharoitidagi raqobat muhiti shaxsdan bir vaqtning o'zidaqa tor qobiliyatlar va malakalarni talab qilmoqdaki, ayniqsa, yoshlar o'zgaruvchan

sharoitlarga tezroq moslashish uchun ba'zan bir - biriga zid hislatlarni ham xulqda namoyon qilishga majbur bo'lishmoqda. Masalan, yosh oila boshliqi, talaba, ota - onalarga moddiy jihatdan qaram bo'lmaslik uchun, bir vaqtning o'zida ham itoatkor, intizomli talaba va ishdan keyin esa - chaqqon va uddaburon, tadbirkor, tijoratchilik bilan shug'ullanishga majbur bo'lishi mumkin. Bu holat tabiiy, shaxsdan kuchli iroda, doimiy intiluvchanlik va o'z ustida muttasil ishlashni talab qiladi.

Ijtimoiy ta'sirlarning shaxs tomonidan anglanishi. Ijtimoiy normalar, sanksiyalar, rollar ijtimoiy mexanizmlar sifatida shaxs xulq - atvorini ma'lum ma'noda boshqarib, muvofiqlashtirib turishga yordam beradi. Lekin insonning komilligi, uning aqloq - ijtimoiy normalar doirasidagi maqbul harakati uning o'ziga ham bog'liqdir. Odamning o'z - o'zini anglashi, bilishi va o'z ustida ishlashi avvalo uning diqqati, ongi bevosita o'ziga, o'z ichki imkoniyatlari, qobiliyatlari, hissiy kechinmalariga qaratilishini taqozo etadi. Ya'ni, ijtimoiy xulq - shaxs tomonidan uni o'rab turgan odamlar, ularning xulq - atvorlariga e'tibor berishdan tashqari, o'zining shaxsiy harakatlari va ularning oqibatlarini muntazam tarzda tahlil qilib borish orqali, rollarni muvofiqlashtirishni ham taqozo etadi.

Shaxsning o'zi, o'z xulq-atvori xususiyatlari, jamiyatdagi mavqeini tasavvur qilishidan hosil bo'lgan obraz - "Men" - obrazi deb atalib, uning qanchalik adekvatligi va realikka yaqinligi shaxs barkamolligining mezonlaridan hisoblanadi.

"Men" - obrazining ijtimoiy psixologik ahamiyati shundaki, u shaxs tarbiyasining va tarbiyalanganligining muhim omillaridan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, tarbiya shaxsning o'zi va o'z sifatlari to'g'risidagi tasavvurlarining shakllanishi jarayonidir, deb ta'rif berish mumkin. Demak, har bir inson o'zini, o'zligini qanchalik aniq va to'g'ri bilsa, tasavvur qilolsa, uning jamiyat normalariga zid harakat qilish ehtimoli ham shunchalik kam bo'ladi, ya'ni u tarbiyalangan bo'ladi.

O'z - o'zini anglash, o'zidagi mavjud sifatlarni baholash jarayoni ko'pincha konkret shaxs tomonidan og'ir kechadi, ya'ni, inson tabiati shundayki, u o'zidagi o'sha jamiyat normalariga to'g'ri kelmaydigan, no'maqul sifatlarni anglamaslikka, ularni "yashirishga" harakat qiladi, xattoki, bunday tasavvur va bilimlar ongsizlik sohasiga siqib chiqariladi (avstriyalik olim Z. Freyd nazariyasiga ko'ra). Bu ataylab qilinadigan ish bo'lmay, u har bir shaxsdagi o'z shaxsiyatini o'ziga xos himoya qilish mexanizmidir. Bunday himoya mexanizmi shaxsni ko'pincha turli xil yomon asoratlardan, hissiy kechinmalardan asraydi. Lekin shuni alohida ta'kidlash lozimki, "Men" - obrazining ijobiy yoki salbiyligida yana o'sha shaxsni o'rab turgan tashqi muhit, o'zgalar va ularning munosabati katta rol o'ynaydi. Odam o'zgalarga qarab, go'yoki oynada o'zini ko'rganday tasavvur qiladi. Bu jarayon psixologiyada refleksiya deb ataladi. Uning mohiyati - aynan o'ziga o'xshash odamlar obrazi orqali o'zi to'g'risidagi obrazni shakllantirish, jonlantirishdir. Refleksiya "Men" - obrazi egasining ongiga taalluqli jarayondir. Masalan, ko'chada bir tanishingizni uchratib qoldingiz. Siz tinmay unga o'z yutuqlaringiz va mashg'ulotlaringiz haqida gapirmoqdasiz. Lekin gap bilan bo'lib, uning qayergadir shoshayotganligiga e'tibor bermadingiz. Shu narsani siz uning betoqatlik bilan sizni tinglayotganligidan, xayoli boshqa yerda turganligidan bilib qolasiz va shu orqali ayni shu paytda "mahmadona, laqmaroq" bo'lib qolganingizni sezasiz. Keyingi safar shu o'rtog'ingiz bilan uchrashganda, oldingi xatoga yo'l qo'ymaslik uchun "O'rtoq, shoshmayapsanmi?" deb

so'rab ham qo'yasiz. Ana shu ilgarigi refleksiyaning natijasidir. Ya'ni, suhbatdosh o'rniga turib, o'zingizga tashlangan nazar ("men unga qanday ko'rinyapman?") - refleksiya.

Shaxsning o'zi haqidagi obrazi va o'z - o'zini anglashi yosh va jinsiy o'ziga xoslikka ega. Masalan, o'ziga nisbatan o'ta qiziquvchanlik, kim ekanligini bilish va anglashga intilish ayniqsa, o'smirlik davrida rivojlanadi. Bu davrda paydo bo'ladigan "kattalik" hissi qizlarda ham, o'smir yigitchalarda ham nafaqat o'ziga, balki o'zgalar bilan bo'ladigan munosabatlarini ham belgilaydi. qizlardagi "Men" - obrazining yaxshi va ijobiy bo'lishi ko'proq bu obrazning ayollik sifatlarini o'zida mujassam eta olishi, ayollik hislatlarining o'zida ayni paytda mavjudligiga bog'liq bo'lsa, yigitlardagi obraz ko'proq jismonan barkamollik mezonlari bilan nechog'li uy'un ekanligiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham o'smirlikda o'g'il bolalardagi bo'yning pastligi, muskullarning zaifligi va shu asosda qurilgan "Men" - obrazi qator salbiy taassurotlarni keltirib chiqaradi. Qizlarda esa tashqi tarafdin go'zallikka, kelishganlik, odob va ayollarga xos qator boshqa sifatlarning bor - yo'qligiga bog'liq holda "Men" obrazi mazmunan idrok qilinadi. Qizlarda ham ortiqcha vazn yoki terisida paydo bo'lgan ayrim toshmalar yoki shunga o'xshash fiziologik nuqsonlar kuchli salbiy emotsiyalarga sabab bo'lsa - da, baribir, chiroyli kiyimlar, taqinchoqlar yoki sochlarning o'ziga xos turmagi bu nuqsonlarni bosib ketadigan omillar sifatida qaraladi.

"Men" - obrazi va o'z - o'ziga baho. "Men" - obrazi asosida ham bir shaxsda o'z-o'ziga nisbatan baholar tizimi shakllanadiki, bu tizim ham obrazga mos tarzda har xil bo'lishi mumkin. O'z-o'ziga nisbatan baho turli sifatlar va shaxsning orttirilgan tajribasi, shu tajriba asosida yotgan yutuqlariga bog'liq holda turlicha bo'lishi mumkin. Ya'ni, ayni biror ish, yutuq yuzasidan ortib ketsa, boshqasi ta'sirida - aksincha, pastlab ketishi mumkin. Bu baho aslida shaxsga boshqalarning real munosabatlariga bog'liq bo'lsa-da, aslida u shaxs ongi tizimidagi mezonlarga, ya'ni, uning o'zi sub'yektiv tarzda shu munosabatlarni qanchalik qadrlashiga bog'liq tarzda shakllanadi. Masalan, maktabda bir fan o'qituvchisining bolaga nisbatan ijobiy munosabati, doimiy maqtovlari uning o'z - o'ziga bahosini oshirsa, boshqa bir o'qituvchining salbiy munosabati ham bu bahoni pastlatmasligi mumkin. Ya'ni, bu baho ko'proq shaxsning o'ziga bog'liq bo'lib, u sub'yektiv xarakterga egadir. O'z-o'ziga baho nafaqat xaqiqatga yaqin (adekvat), to'g'ri bo'lishi, balki u o'ta past yoki yuqori ham bo'lishi mumkin.

O'z-o'ziga bahoning past bo'lishi ko'pincha atrofdagilarning shaxsga nisbatan qo'yayotgan talablarining o'ta ortiqqligi, ularni uddalay olmaslik, turli xil e'tirozlarning doimiy tarzda bildirilishi, ishdagi, o'qishda va muomala jarayonidagi muvaffaqiyatsizliklar oqibatida hosil bo'lishi mumkin. Bunday o'smir yoki katta odam ham, doimo tushkunlik holatiga tushib qolishi, atrofdagilardan chetroqda yurishga harakat qilishi, o'zining kuchi va qobiliyatlariga ishonchsizlik kayfiyatida bo'lishi bilan ajralib turadi va bora-bora shaxsda qator salbiy sifatlar va xatti-harakatlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Xattoki, bunday holat suitsidal harakatlar, ya'ni o'z joniga qasd qilish, real borligidan "qochishga" intilish psixologiyasini ham keltirib chiqarishi mumkin.

O'zi-o'ziga baho o'ta yuqori ham shaxs xulq-atvoriga yaxshi ta'sir ko'rsatmaydi. Chunki, u ham shaxs yutuqlari yoki undagi sifatlarning boshqalar tomonidan sun'iy tarzda bo'rttirilishi, noo'rin maqtoqlar, turli qiyinchiliklarni chetlab o'tishga intilish tufayli shakllanadi. Ana shunday sharoitda paydo bo'ladigan psixologik holat "noadekvatlik effekti" deb atalib, uning oqibatida shaxs xattoki, mag'lubiyatga uchraganda yoki o'zida nochorlik, uquvsizliklarni sezganda ham buning sababini o'zgalarda deb biladi va shunga o'zini ishontiradi ham (masalan, "xalaqit berdi-da", "falonchi bo'lmaganida" kabi bahonalar ko'payadi). Ya'ni, nimaiki bo'lmasin, aybdor o'zi emas, atrofdagilar, sharoit, taqdir aybdor. Bundaylar haqida bora-bora odamlar "oyog'i yerdan uzilgan", "manmansiragan", "dimog'dor" kabi sifatlar bilan gapira boshlaydilar. Demak, o'z-o'ziga baho realistik, adekvat, to'g'ri bo'lishi kerak.

Realistik baho shaxsni o'rab turganlar - ota-ona, yaqin qarindoshlar, pedagog va murabbiylar, qo'ni-qo'shni va yaqinlarning o'rinli va asosli baholari, real samimiy munosabatlari mahsuli bo'lib, shaxs ushbu munosabatlarni ilk yoshligidanoq xolis qabul qilishga, o'z vaqtida kerak bo'lsa to'g'rilashga o'rgatilgan bo'ladi. Bunda shaxs uchun etalon, ibratli hisoblangan insonlar guruhi - referent guruhning roli katta bo'ladi. Chunki biz kundalik hayotda hammaning fikri va bahosiga quloq solavermaymiz, biz uchun shunday insonlar mavjudki, ularning xattoki, oddiygina tanbehlari, maslahatlari, xattoki, maqtab turib bergan tanbehlari ham katta ahamiyatga ega. Bunday referent guruh real mavjud bo'lishi (masalan, ota-ona, o'qituvchi, ustoz, yaqin do'stlar), yoki noreal, hayoliy (kitob qahramonlari, sevimli aktyorlar, ideal) bo'lishi mumkin. Shuning uchun yoshlar tarbiyasida yoki real jamoadagi odamlarga maqsadga muvofiq ta'sir yoki tazyiq ko'rsatish kerak bo'lsa, ularning etalon, referent guruhini aniqlash katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Shunday qilib, o'z - o'ziga baho sof ijtimoiy hodisa bo'lib, uning mazmuni va mohiyati shaxsni o'rab turgan jamiyat normalariga, shu jamiyatda qabul qilingan va e'zozlanadigan qadriyatlarga bog'liq bo'ladi. Keng ma'nodagi yirik ijtimoiy jamoalar etalon rolini o'ynashi oqibatida shakllanadigan o'z-o'ziga baho - o'z-o'zini baholashning yuksak darajasi hisoblanadi. Masalan, mustaqillik sharoitida mamlakatimiz yoshlari ongiga milliy qadriyatlarimiz, vatanparvarlik, adolat va mustaqillik mafkurasiga sadoqat hislarining tarbiyalanishi, tabiiy, har bir yosh avlodda o'zligini anglash, o'zi mansub bo'lgan xalq va millat ma'naviyatini qadrlash hislarini tarbiyalamoqda. Bu esa, o'sha yuksak o'z - o'zini anglashning poydevori va muhim shakllantiruvchi mexanizmidir. Demak, o'z-o'zini baholash - o'z-o'zini tarbiyalashning muhim mezonidir. O'z-o'zini tarbiyalash omillari va mexanizmlariga esa, quyidagilar kiradi:

o'z-o'zi bilan muloqot (o'zini konkret tarbiya ob'yekti sifatida idrok etish va o'zi bilan muloqotni tashkil etish sifatida);

o'z-o'zini ishontirish (o'z imkoniyatlari, kuchi va irodasiga ishonish orqali, ijobiy xulq normalariga bo'ysundirish);

o'z-o'ziga buyruq berish (tig'iz va ekstremal holatlarda o'zini qo'lga olish va maqbul yo'lga o'zini chorlay olish sifati);

o'z-o'ziga ta'sir yoki autosuggestiya (ijtimoiy normalardan kelib chiqqan holda o'zida ma'qul ustanovkalarni shakllantirish);

ichki intizom - o'z-o'zini boshqarishning muhim mezonini, har doim har yerda o'zining barcha harakatlarini muntazam ravishda korrektsiya qilish va boshqarish uchun zarur sifat.

Yuqoridagi o'z-o'zini boshqarish mexanizmlari orasida psixologik nuqtai nazardan o'z - o'zi bilan amalga oshiriladigan ichki dialog alohida o'rin tutadi. O'z-o'zi bilan dialog - oddiy til bilan aytganda, o'zi bilan o'zi gaplashishdir. Aslida bu qobiliyat bizning boshqalar bilan amalga oshiradigan tashqi dialoglarimiz asosida rivojlanadi, lekin aynan ichki dialog muhim regulativ rol o'ynaydi. E. Klimov bunday dialogning uch bosqichini ko'rsatib o'tadi. 2 - jadvalda shaxs ichki dialogining bosqichlari va har bir bosqichga xos bo'lgan belgilar keltirilgan.

Jadval 2.

Shaxs autodialogining muhim belgilari.

Ichki dialogning shakllanganlik darajasi	Bosqichlari	Ichki dialogning darajaviy belgilari (autokommunikatsiya)
Oliy	6 - bosqich	Shaxsiy mazmundagi dialog (o'zidagi shaxsiy sifatlarni muhokama qilish, shaxsiy mulohaza)
daraja	5 - bosqich	Hodisa va narsalarga bog'liq bo'lgan sifatlarning xususidagi ichki dialog
O'rta	4 - bosqich	Shaxsiy sifatlarning muhokamasiga qaratilgan savollar – o'ziga talablar
daraja	3 - bosqich	Boshqalarning baholari ta'siridagi ichki mulohazalar, shaxsiy ahamiyat kasb etgan o'zgaralar fikri asosida ichki dialog
Quyi	2 - bosqich	Shaxsiy sifatlarga aloqador bo'lmagan o'zgaralar fikri asosidagi dialog (hodisa va narsalarga aloqador fikrlar)
daraja	1 - bosqich	Kimdir nima haqidadir gapirish mumkin bo'lgan holatlar yuzasidan tasavvurlar, lekin aniq fikr yoki munosabat yo'q. autokommunikatsiyaga hojat yo'q

Demak, shaxsni qanday sifatlarga ega ekanligi, undagi baholarning ob'yektivligiga bog'liq tarzda o'z - o'zi bilan muloqotga kirishib, jadvaldagiga muvofiq shaxs o'zini nazorat qila oladi. Shuning uchun ham hayotda shunday kishilar uchraydiki, katta majlisda ishi tanqidga uchrasa ham, o'ziga xolis baho berib, kerakli to'g'ri xulosalar chiqara oladi, shunday odamlar ham borki, arzimagan xatolik uchun o'z "ich - etini yeb tashlaydi". Bu o'sha ichki dialogning har kimda har xil ekanligidan darak beruvchi faktlardir.

O'spirinlik davrida shaxs ijtimoiylashuvi. Shaxs, uning dunyoni bilish, o'zini va atrofidagi insoniy munosabatlarni bilish, tushunishi va o'zaro munosabatlar jarayonida o'zidagi takrorlanmas individuallilikni namoyon qilishi hamda ushbu jarayonlarning yoshga va jinsga bog'liq ayrim jihatlarini taxlil qilish bizga umumiy ravishda shaxs - jamiyatda yashaydigan ijtimoiy mavjudotdir, degan xulosani qaytarishga imkon

beradi. Ya'ni, u tug'ilgan onidan boshlab o'ziga o'xshash insonlar qurshovida bo'ladi va uning butun ruhiy potentsiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo'ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, xali gapirmay turib, odam bolasi o'ziga o'xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko'rinishlarining faol ob'yekti va sub'yektiga aylanadi. Shu nuqtai nazardan, har birimizning jamiyatdagi o'rnimiz, uning qachon va qanday sharoitlarda paydo bo'lgani, jamiyatga qo'shilib yashashimizning psixologik mexanizmlari fanning muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayon psixologiyada ijtimoiylashuv yoki sotsializatsiya deb yuritiladi.

Demak, sotsializatsiya yoki ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Sodda til bilan aytganda, ijtimoiylashuv - har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan xolda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi va kerak bo'lsa, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayonidir.

Ijtimoiylashuv eng avvalo odamlar o'rtasidagi muloqot va hamkorlikda turli faoliyatni amalga oshirish jarayonini nazarda tutadi. Tashqaridan shaxsga ko'rsatilayotgan ta'sir oddiy, mexanik tarzda o'zlashtirilmay, u har bir shaxsning ichki ruhiyati, dunyoni aks ettirish xususiyatlari nuqtai nazaridan turlicha sub'yektiv tarzda idrok etiladi. Shuning uchun ham bir xil ijtimoiy muhit va bir xil ta'sirlar odamlar tomonidan turlicha harakatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, 10 - 15 ta o'quvchidan iborat akademik litsey o'quvchilarini olaylik. Ularning bilimni, ilmni idrok qilishlari, ulardan ota - onalarining kutishlari, o'qituvchilarning berayotgan darslari va unda yetkazilayotgan ma'lumotlar, manbalar va boshqa qator omillar bir xilday. Lekin baribir ana shu 15 o'quvchining har biri shu ta'sirlarni o'zicha, o'ziga xos tarzda qabul qiladi va bu ularning ishdagi yutuqlari, o'quv ko'rsatgichlari va iqtidorida aks etadi. Bu o'sha biz yuqorida ta'kidlagan ijtimoiylashuv va individualizatsiya jarayonlarining o'zaro bog'liq va o'zaro qarama - qarshi jarayonlar ekanligidan darak beradi. Ijtimoiylashuv jarayonlarining ro'y beradigan shart - sharoitlarini ijtimoiy institutlar deb ataymiz. Bunday institutlarga oiladan boshlab, mahalla, rasmiy davlat muassasalari (bog'cha, maktab, maxsus ta'lim o'choqlari, oliygohlar, mehnat jamoalari) hamda norasmiy uyushmalar, nodavlat tashkilotlari kiradi. Bu institutlar orasida bizning sharoitimizda oila va mahallaning roli o'ziga xosdir. Insondagi dastlabki ijtimoiy tajriba va ijtimoiy xulq elementlari aynan oilada, oilaviy munosabatlar tizimida shakllanadi. Shuning uchun ham xalqimizda "qush uyasida ko'rganini qiladi" degan maqol bor. Ya'ni, shaxs sifatlarining dastlabki qoliplari oilada olinadi va bu qolip jamiyatdagi boshqa guruhlar ta'sirida sayqal topib, takomillashib boradi. Bizning o'zbekchilik sharoitimizda oila bilan bir qatorda mahalla ham muhim tarbiyalovchi - ijtimoiylashtiruvchi rol o'ynaydi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ba'zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya'ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo'lib, bu farq odamlar psixologiyasida o'z aksini topadi. Masalan, bitta mahalladan yaxshi kelin chiqsa, aynan shu mahalladan qiz qidirib qolishadi. Ya'ni, shu mahalladagi ijtimoiy muhit qizlarning iboli, aqlli, sarishtali bo'lib yetishishlariga ko'maklashgan. Masalan, ayrim mahallalarda sahar turib ko'cha - eshiklarni supurish odatga aylangan va barcha oilalar shu udumni

buzmaydilar. Shunga o'xshash normalar tizimi har bir ko'cha-mahallaning bir-biridan farqi, afzallik va kamchilik tomonlarini belgilaydi, oxirgilar esa shu mahallaga katta bo'layotgan yoshlar ijtimoiylashuvida bevosita ta'sirini ko'rsatadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv o'choqlariga maktab va boshqa ta'lim maskanlari kiradi. Aynan shu erda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg'unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta'lim oladigan, bola bilimlar tizimini o'zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz. Lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bu yerda oxirgi yillarda joriy etilgan "Ma'naviyat darslari", "Etika va psixologiya" kabi tarbiyalovchi fanlarni nazarda tutmayapmiz. Gap har bir darsning, umuman maktabdagi shart-sharoitlar, umumiy muhitning tarbiyalovchi roli haqida. Masalan, dars paytida o'qituvchi butun diqqati bilan yangi darsni tushuntirish bilan ovora deylik. Uning nazarida faqat dars, mavzuning mazmuni va undan ko'zlangan maqsad asosiyday. Lekin aslida ana shu jarayondagi o'qituvchining o'zini qanday tutayotganligi, kiyim - boshi, mavzuga sub'yektiv munosabati va qolaversa, butun sinfdagi o'quvchilarga munosabati hamma narsani belgilovchi, ijtimoiy tajriba uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan omildir. Shu nuqtai nazardan o'quvchilar didi, kutishlari va talablariga javob bergan o'qituvchi bolalar tomonidan tan olinadi, aks xolda esa o'qituvchining ta'siri faqat salbiy rezonans beradi. Xuddi shunday har bir sinfda shakllangan muhit ham katta rol o'ynaydi. Ba'zi sinflarda o'zaro hamkorlik, o'rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo'lga qo'yilgan, guruhda ijodiy munozaralar va baxslar uchun qulay sharoit bor. Bu muhit tabiiy o'z a'zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo'naltirib turadi.

Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti - bu mehnat jamoalaridir. Bu muhitning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma'lum tajribaga ega bo'lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda muhim bo'lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta'sir qiladi. Lekin baribir shaxsning kimlar bilan qanday o'zaro munosabatlar muhiti ta'sirida ekanligi uning yetuklik davridagi ijtimoiylashuvining muhim mezonlaridandir. Shuning uchun ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri - o'sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o'zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo'lib, ko'pincha oylik - maosh masalasi ana shulardan keyin o'rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog'lom ma'naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o'ynaydi.

Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o'ziga xosligi shundaki, unda individualizasiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta'sirlarni o'zlashtiradi, balki o'zidagi iqtidor, malakalar bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta'sir, shaxsiy o'rnak ko'rsatish imkoniyaga ega bo'ladi. Shu nuqtai nazardan, qarilikning ijtimoiy mohiyati shundaki, ota - bobolarmiz, onaxonlarimiz asosan o'zlaridagi mavjud ijtimoiy tajribani boshqalarga (farzandlar, nabiralar, mahalladagi yoshlar va h-zo) uzatish bilan shug'ullanadilar va bu narsa ayniqsa, Sharq xalqlarida juda e'zozlanadi. Shu sababli ham mustaqil yurtimizda qariyalar e'zozlanadi, mahallaning boshqaruv roli kun sayin oshirilmoqda, oila - tarbiyaning bosh o'choqi sifatida davlat himoyasida bo'lib kelmoqda. Bu mustaqil davlat yoshlarida yangicha tafakkur va

ongning shakllanishiga, yurtga sadoqat, vatanparvarlikning rivojiga o'z hissasini qo'shadi.

Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs yo'nalishining shakllanishi. Ijtimoiylashuvning institutlaridan tashqari uning oqibati masalasi ham psixologiyada muhim amaliy ahamiyatga ega. Shaxs ijtimoiylashuvining eng asosiy mahsuli - bu uning hayotda o'z o'rnini topib, jamiyatga manfaat keltiruvchi faoliyatlarda ishtirok etishidir. Shu nuqtai nazardan olib qarganda, shaxsning yo'nalganligi masalasiga ham fanda katta e'tibor beriladi. Ijtimoiylashuv jarayonida shaxs faoliyatini yo'naltirib turadigan va real vaziyatlarga nisbatan turg'un, barqaror motivlar majmuiga ega bo'lishlik shaxsning yo'nalganligi deb ataladi.

Yo'nalganlikning eng muhim tarkibiy qismlarini quyidagilar tashkil etadi:

Mas'uliyat. Bu ijtimoiylashuv jarayonida shaxsning yetukligini belgilovchi muhim ko'rsatgichlardan sanaladi. Oxirgi yillarda psixologiyada nazorat lokusi nazariyasi (teoriya lokusa kontrolya) keng tarqaldiki, unga ko'ra, har bir insonda ikki tipli mas'uliyat kuzatiladi. Birinchi tipli mas'uliyat shundayki, shaxs o'zining hayotida ro'y berayotgan barcha hodisalarning sababchisi, mas'uli sifatida faqat o'zini tan oladi. ("Men o'zim barcha narsalarga mas'ulman. Mening hayotim va yutuqlarim faqat o'zimga bog'liq, shuning uchun o'zim uchun ham, oilam uchun ham o'zim javob beraman"). Mas'uliyatlilikning ikkinchi turi undan farqli, barcha ro'y bergan va beradigan voqea, hodisalarning sababchisi tashqi omillar, boshqa odamlar (ota - ona, o'qituvchilar, hamkasblar, boshliqlar, tanishlar va boshq.).

Xorij mamlakatlarda o'tkazilgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, ikkinchi turli mas'uliyat ko'proq o'smirlarga xos bo'lib, ulardan 84% mas'uliyatni faqat boshqalarga yuklashga moyil ekanlar. Bu ma'lum ma'noda yoshlar o'rtasida mas'uliyatsizlikning avj olganligidandir. Shuning uchun ham "nazorat lokusi" tushunchasini fanga kiritgan amerikalik olim Dj.Rotter (J. Rotter)ning fikricha, mas'uliyatni o'z bo'yniga olishga o'rgatilgan bolalarda xavotirlik, neyrotizm, konformizm holatlari kam uchrarkan. Ular hayotga tayyor, faol, mustaqil fikr yurituvchilardir. Ularda o'z-o'zini hurmat hissi ham yuqori bo'lib, bu boshqalar bilan ham hisoblashish yashashga sira xalaqit bermaydi. Shuning uchun ijtimoiylashuvning muhim bosqichi kechadigan ta'lim muassasalarida yoshlarga ko'proq tashabbus ko'rsatish, mustaqil fikrlash va erkinlikni hisqilishga sharoit yaratish kerak va bu hozirgi kunda Prezidentimiz I.Karimov siyosatining asosini tashkil etadi.

Maqsadlar va ideallar. Ijtimoiylashuvning mas'uliyat hissiga bog'liq yo'nalishlaridan yana biri shaxsda shakllanadigan maqsadlar va ideallardir. Ular shaxsni kelajakni bashorat qilish, ertangi kunini tasavvur qilish va uzoq va yaqinga mo'ljallangan rejalarni amalga oshirishga tayyorligini ta'minlaydi. Maqsad va rejasiz inson - ma'naviyatsiz pessimistdir. Bu maqsadlar doimo o'zining anglanganligi va shaxs real imkoniyatlariga bog'liqligi bilan xarakteralanadi. Ularning shakllanishi va ongda o'rnashishida ma'lum ma'noda ideallar ham rol o'ynaydi. Ideallar - shaxsning hozirgi real imkoniyatlari chegarasidan tashqaridagi orzu - umidlari, ular ongda bor, lekin har doim ham amalga oshmaydi. Chunki ularning paydo bo'lishiga sabab bevosita tashqi muhit bulib, o'sha ideallar ob'yekti bilan shaxs imkoniyatlari o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, o'smirning ideali otasi, u otasiday mashhur va el suygan yozuvchi bo'lmoqchi. Bu orzuga yaqin kelajakda erishib bo'lmaydi, lekin

aynan ana shunday ideallar odamga maqsadlar qo'yib, unga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengishga irodani safarbar qilishga yordam beradi. Qiziqishlar va dunyoqarash. qiziqishlar ham anglangan motivlardan bo'lib, ular shaxsni atrofida ro'y berayotgan barcha hodisalar, olamlar, ularning o'zaro munosabatlari, yangiliklar borasida faktlar to'plash, ularni o'rganishga imkon beruvchi omildir. Qiziqishlar mazmunan keng yoki tor, maqsad jihatidan professional, bevosita yoki bilvosita bo'lishi, vaqt tomondan barqaror, doimiy yoki vaqtinchalik bo'lishi mumkin. qiziqishlarning eng muhim tomoni shundaki, ular shaxs dunyoqarashi va e'tiqodini shakllantirishga asos bo'ladi. Chunki e'tiqod shaxsning shunday ongli yo'nalishiki, unga o'z qarashlari, printsiplari va dunyoqarashiga mos tarzda yashashga imkon beradi. Xalq doimo e'tiqodli insonlarni hurmat qiladi. E'tiqodning predmeti turlicha bo'lishi mumkin - Vatanga e'tiqod, dinga, fanga, kasbga, axloqiy normalarga, oilaga, go'zallikka va shunga o'xshash.

E'tiqod va qiziqishlar har birimizdagi dunyoqarashni shakllantiradi. Dunyoqarash - tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g'oyalar majmui bulib, u shaxsni ma'lum bir qolipda, o'z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda jamiyatda munosib o'rin egallashga chorlaydi. Mustaqillik davrida shakllanayotgan yangicha dunyoqarash yoshlarda Vatanga sadoqatni, milliy qadriyatlar, an'analarni e'zozlashni, o'z yaqinlariga mehribon va tanlagan yo'lga - kasbi, maslagi va e'tiqodiga sodiqlikni nazarda tutadi. Yangicha fikrlash va yangicha tafakkur aynan mustaqillik mafkurasi ruhida tarbiya topib, sayqal topgan milliy ong, dunyoqarash va e'tiqoddur.

5 – Mavzu: Shaxs taraqqiyotini davrga bo'lish

Reja:

1. Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar
2. Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish
3. O'smirlik va o'spirinlik davrlarida shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi

Shaxs taraqqiyotidagi ijtimoiy va genotipik omillar. Shaxs individual taraqqiyotining muhim omillaridan yana biri uning yoshiga bog'liq bo'lgan xususiyatlaridir. Chunki taraqqiyotning har bir yosh bosqichi o'zining rivojlanish omillariga, qonuniyatlariga, yangiliklari va o'zgarishlariga ega bo'lib, ular shaxsning xarakteri, temperamenti, iqtidori, bilish jarayonlariga bevosita ta'sirini o'tkazadi.

Yosh taraqqiyoti davrlarining ham sifat, ham miqdor o'zgarishlariga ega bo'lgan ko'rsatgichlari borki, amaliy psixologiya har bir yosh xususiyatlarini ana shu ikkala ko'rsatgich nuqtai nazaridan o'rganishi va shaxs xulqini boshqarish va ta'sir ko'rsatishda ularga tayanmoqi lozim. Umuman psixologiyada isbotqilingan faktlardan biri shuki, turli davrlardagi inson taraqqiyoti o'ta murakkab jarayon bo'lib, har bir davrning o'z qonuniyatlari mavjud. har bir bosqichda shaxsning biror bir xususiyatlari o'zining yetuklik fazasiga erishadi. Masalan, olamni sensor jihatdan bilishning yetuklik fazasi 18 — 25 yoshlarda (Lazerev ma'lumotlariga ko'ra), intellektual, ijodiy yetuklik — 35 yoshlarda (Leman ma'lumotlari), shaxsning yetukligi 50 — 60 yoshlarga kelib eng yuqori nuqtasiga erishadi. Shunga o'xshash xususiyatlar insonning butun umri mobaynida muttasil kamolga yetib, rivojlanib borishini ta'minlaydi. Shunisi xarakterliki, har bir yoshda biror funksiyalarning rivojlanishi boshqa bir funksiyalarning susayishi hisobiga ro'y beradi. Masalan, bolalikning ilk bog'cha yoshida fazoga moslashuv juda kuchaysa, keyinchalik uning o'rnini vaqtni adekvat

idrok qilish kuchayadi. hariyalarning biror narsalar xususida bilimdonligi, ma'lumotlar dunyosidagi yaxshi oriyentasiyasi, psixomotorik funksiyalar va bevosita bilish jarayonlarining susayishi hisobiga ro'y beradi. Xuddi shunday bolaning 3-5 yosh davri tilni, uning lug'aviy va strukturaviy xususiyatlarini o'zlashtirishga juda maqbul bo'lsa, yetuklik davri bo'lmish 45-55 yoshlarga kelib ayni shu sifat deyarli o'zini yo'qotadi («til qotib qoladi»).

Psixologiyaning maxsus tarmoqi hisoblanmish yosh davrlari psixologiyasining eng asosiy muammolaridan biri shuki, inson psixik taraqqiyotida qanday omillar-genetik, tug'ma yoki orttirilgan, ijtimoiy omillar roli yetakchi ekanligi masalasidir. Bir tomondan, bolaning o'z ota-onalaridan meros sifatida o'zlashtirgan sifatleri, masalan, anatomo-fiziologik xususiyatlar, miya faoliyatining o'ziga xosligi, tana tuzilishi (qo'l, oyoq, yuz tuzilishi va boshq.) albatta psixologik jihatdan odam bolasining muhitga moslashuvi, unga erkin harakat qilishi, jarayonlarni ongida aks ettirishiga sabab bo'ladi. Chunki oddiygina anatomik anomaliya xolati (qo'lning kaltaligi, bo'yning juda kichikligi kabi) psixikaga va shaxsning jamiyatda o'zini tutishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Lekin ikkinchi tomondan tashqi muhit ta'sirini ham kamsitib bo'lmaydi. Masalan, agar bola maxsus o'quv maskanlarida o'qimasa, unga tarbiyaviy ta'sirlar ko'rsatilmasa, uning rivojlanishi qanday bo'lishini tasavvur qilish qiyin emas.

Bu muammolar ustida boshqotirgan olimlar (L. Vigotskiy, J. Piaje, S. Rubinshteyn, A. Leontev va ko'plab boshqa psixologlar) ikkala omil rolini ham inkor qilmagan xolda ijtimoiy muhitning yetakchi ta'siri to'g'risidagi fikrni baravar yoqlaganlar. Chunki to'g'ri tashkil etilgan ta'lim-tarbiya, oila va undagi o'zaro munosabatlarning xarakteri, shaxs muloqotda bo'ladigan ijtimoiy guruhlar, u tanlagan kasb va kasbdoshlari muhiti, nikoh va ma'lumot masalalarining qanday xal qilinganligi kabi qator ijtimoiy omillar shaxsning rivojlanishi, uning o'z-o'zini anglashi va o'zgalarga munosabati, bilish jarayonlari hamda intellektual taraqqiyotida katta ahamiyatga egaligiga shubha yo'q. Respublikamiz Prezidenti I. Karimov boshchiligidagi mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq boshlangan «Sog'lom avlod uchun» shiorini amalga oshirish siyosati farzandlarimizning ham jismonan, ham ruhan, ham aqlan yetuk bo'lishlariga qaratilgan. Jismonan sog'lom tanada sog'lom ruh bo'lishi tabiiy.

Shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lish. Shu vaqtgacha psixologiya ilmida shaxs taraqqiyotini davrlarga bo'lib o'rganishga juda katta e'tibor qaratilgan. Birqancha davriy sxemalar ham taklif etilgan. Lekin shu sohada astoydil ijod qilgan har qanday olim o'zining «davrlarini» taklif etavergan. Bu tushunarli, zero insonning hayotiy yo'li va uning asosiy lahzalari tarixiy taraqqiyot mobaynida o'zgaradi, bir avloddan ikkinchi avlod taraqqiyotiga o'tishning o'zi ham qator o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Davrlarga bo'lishga aratilgan klassifikatsiyalarning o'zi ham ikki turli bo'ladi: juz'iy (alohida davrlarni yana qo'shimcha davrlarga bo'lish — «davrlar ichidagi davrlar») va umumiy (inson umrining barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan). Masalan, juz'iy klassifikasiyaga J. Piajening intellektning rivojlanishini bosqichlarga bo'lishini kiritish mumkin. U bu taraqqiyotni 3 bosqichda tasavvur qilgan:

1. Sensomotor intellekt bosqichi (0 — 2 yosh). Bunda asosan olti bosqich farqlanadi;
2. konkret operatsiyalarni bajarishga tayyorlash va uni tashkil etish bosqichi (3 — 11 yoshlar);

3. formal operatsiyalar bosqichi (12 — 15 yoshlar). Bu davrda bola nafaqat bevosita ko'rib turgan narsasi, balki mavhum tushunchalar va so'zlar vositasida ham fikr yurita oladi.

D.B.Elkoninning yosh davrlari bosqichlari ham shu guruhga kiradi va u ham bolalikning uch davrini farqlaydi: ilk bolalik, bolalik va o'smirlik. har bir bosqichning o'ziga xos yetakchi faoliyati, o'zgarishlari va rivojlanish shart-sharoitlari mavjud bo'ladi va ularni bilish tarbiyachilar uchun katta amaliy ahamiyatga ega bo'ladi. har bir bosqichda faoliyat motivlari ham o'zgaradi, ularning o'zgarishi shaxs ehtiyojlari va talablari darajasining o'zgarishiga mos tarzda ro'y beradi.

Inson hayotining barcha davrini yaxlit tarzdamrab olgan klassifikasiyalardan biri butun jaqon olimlarining qaroriga ko'ra, 1965 yili Fanlar Akademiyasining maxsus simpoziumida qabul qilingan sxema hisoblanadi. U quyidagi 6-jadvalda keltirilgan. U B. G. Ananev, chet ellik olim Birrenlar taklif etgan klassifikasiyaga yaqin bo'lib, umulashtirilgan toifalashdir.

Taraqqiyotni yosh davrlarga bo'lishda o'ziga xos klassifikasiyalar ham bor. Masalan, E.Erikson shaxs «Men»ining rivojlanish bosqichlarini ajratgan va har birida ham ijobiy, ham salbiy jihatlarni ajratgan.

1-bosqich (ishonch-ishonchsizlik) — bu hayotning 1-chi yili.

2-bosqich (mustaqillik va qat'iyatsizlik) — 2 — 3 yoshlar.

3-bosqich (tadbirkorlik va gunoh hissi) — 4 — 5 yoshlar.

4-bosqich (chaqqonlik va yetishmovchilik) — 6 — 11 yoshlar.

5-bosqich (shaxs identifikasiyasi va rollarning chalkashligi) — 12 — 18 yoshlar.

6-bosqich (yaqinlik va yolg'izlik) — yetuklikning boshlanishi.

7-bosqich (umuminsoniylik va o'ziga berilish) — yetuklik davri.

8-bosqich (yaxlitlik va ishonchsizlik) — keksalik.

Yosh davrlari	Erkaklarda	Ayollarda
Chaqaloqlik	1 — 10 kun	1 — 10 kun
Emiziklik davri	10 kundan 1 yoshgacha	10 kundan 1 yoshgacha
Ilk bolalik	1 — 2 yosh	1 — 2 yosh
Bolalikni 1-davri	3 — 7 yosh	3 — 7 yosh
Bolalikning 2-davri	8 — 12 yosh	8 — 11 yosh
O'smirlik davri	13 — 16 yosh	12 — 15 yosh
O'spirinlik davri	17 — 21 yosh	16 — 20 yosh
O'rta yetukli davri		
Birinchi bosqich	22 — 35 yosh	21 — 35 yosh
Ikkinchi bosqich	36 — 60 yosh	36 — 55 yosh
Keksalik davri	61 — 75 yosh	56 — 75 yosh
Qarilik davri	76 — 90 yosh	76 — 90 yosh
Uzoq umr ko'ruvchilar	90 yoshdan ortiq	90 yoshdan ortiq

Erikson klassifikasiyasining o'ziga xos qimmat shundaki, unda shaxsning o'zi to'g'risidagi tasavvurlarining jamiyat ta'sirida o'zgarishi nazarda tutiladi. Shunga o'xshash bosqichlarga bo'lishlar oxirgi paytda yana ko'plab mualliflar tomonidan taklif etilmoqda (G. Grimm, D. Bromley va boshq.). Ularning barchasidagi umumiy mezon shuki, har bir taraqqiyot davri shaxs rivoji uchun nimani taklif etadiyu, shaxs

unda qanday rivojlanish ko'rsatgichlariga ega bo'ladi. Ularni tabiiy o'zgarishlarda bilish va o'rganish kerak, chunki busiz shaxs tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Masalan, maktab yoshidagi bolalarga qo'yilgan talablar katta odamlar jamoasiga to'g'ri kelmaydi, yoki bog'cha yoshidagi bola bilan til topishish bilan talaba bilan til topish o'ziga xos pedagogik taktni va o'sha yosh sohasida bilimdonlikni talab qiladi.

O'smirlik va o'spirinlik davrlarida shaxs ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi. O'smirlik va o'spirinlik davrlari maktab va boshqa ta'lim maskanlarida o'qish davrlariga to'g'ri keladi. Bu davrdagi yetakchi faoliyat o'quv faoliyati bo'lib, unda bola bilim olish bilan bog'liq, malaka va ko'nikmalarni orttirishdan tashqari, shaxs sifatida ham muhim o'zgarishlarga yuz tutadi.

O'smirlik davri eng murakkab va shu bilan birga muhim taraqqiyot bosqichidir. Ilk o'smirlik 11-13 yoshni, katta o'smirlik — 14 — 15 yoshlarni o'z ichiga oladi. Bu davrning eng muhim hislati shundan iboratki, u bolalikdan o'spirinlik, kattalikka, yoshlikdan yetuklikka o'tish davridir.

O'smirlik — organizm taraqqiyotidagi shiddat va notekislik bilan xarakterlanib, bu davrda tananing intensiv tarzda rivojlanishi va suyaklarning qotishi ro'y beradi. Yurak vaqon tomirlar faoliyatida ham notekislik bo'lib, bu ham bola fe'lining o'zgaruvchan, dinamik va ba'zan noma'qulliklar va noqulayliklarni keltirib chiqaradi. Bular albatta asab tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatib, bola tezda achchiqlanadigan yoki tormozlanish yuz berganda anchagacha depressiya xolatidan chiqolmaydigan tushkunlikda qolishi ham mumkin.

O'smir jismoniy taraqqiyotini belgilovchi asosiy omil jinsiy baloqat bo'lib, u nafaqat psixik, balki ichki organlar faoliyatini ham belgilaydi. Shu bilan bog'liq xolda ongli (ko'pincha ongliz) jinsiy mayllar, shu bilan bog'liq noxush his-kechinmalar, fikrlar paydo bo'ladiki, bola ularning asl sababini ham tushunib yetolmaydi. Psixik taraqqiyotning o'ziga xosligi shundaki, u muttasil rivojlanib boradi, lekin bu rivojlanish ko'plab qarama-qarshiliklarni o'z ichiga oladi. Bu taraqqiyot o'quv jarayonida kechgani uchun ham to'g'ri tashkil etilgan o'quv faoliyati bola psixikaning muozanati va uning turli fikr — o'ylardan chalhishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, diqqat, xotira, tafakkur jarayonlari rivojlanadi. Ayni shu davrda o'smir mustaqil ravishda fikrlashga intila boradi. Chunki bu davrda u ko'proq o'z fikr — o'ylari dunyosida mushoqada qilish, olam va uning sirlarini bilishga, nazariy bilimlarni ko'paytirishga intiladi. Buning sababi — yana o'sha kattalikka o'tish bo'lib, o'smirda o'ziga xos «kattalik» hissi paydo bo'lib, bu narsa uning gapirishi va fikrlashlarida ham ifodalanadi. Shuning uchun ham maktabda berilgan mustaqillik va to'g'ri tashkil etilgan o'qish sharoitlari, samimiylik muhiti unda mustaqil fikrlashiga katta imkoniyatlar ochishi va undagi ijodiy tafakkurni rivojlantirishi mumkin. Shunga bog'liq tarzda o'smirning o'z falsafasi, o'z siyosati, baxt va muqabbat formulasi yaratiladi. Mantiqan fikrlashga o'rganishi esa unga o'zicha aqliy operatsiyalarni amalga oshirish, tushunchalar va formulalar dunyosida harakat qilishga majbur qiladi. Bu o'ziga xos o'smirlik egosentrizmining shakllanishiga — butun olam va uning qonuniyatlari unga bo'ysunishi kerakday fikrning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o'smirlik paytida o'qil-qizlar o'z ota-onalari bilan qadeb

tortishaveradilar. Aniq bir to'xtamga kelolmasa ham tortishish biror fikrni izhor qilish ehtiyojining o'zi unga juda yoqadi.

Shunday bo'lishiga qaramay, o'smirlik yuqorida ta'kidlanganidek, qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Uni ba'zi olimlar «krizislar, tanazzullar» davri ham deb ataydilar. Sababi-o'smir ruhiyatida shunday inqiroziy xolatlar ko'p bo'ladiki, u bu inqirozni bir tomondan o'zi xal qilgisi keladi, ikkinchi tomondan, uni xal qilishga imkoniyati, kuchi va aqli yetishmaydi. Masalan, «kattalik hissiga» to'sqinlik qiladigan omillardan biri — bu ularning o'z ota-onalaridan moddiy jihatdan qaramligi. Ruhan qanchalik o'zlarini katta deb his qilmasin, o'smir maktabga ketayotib, onasidan yoki otadan pul so'raydi, ular esa o'smirlarga bolalarcha munosabatda bo'lib, ozginagina pul beradilar. Ikkinchidan, kattalarday bo'lishni xohlaydi, lekin qiz bola onasining, o'g'il bola otasining kiyimini toshoyna oldida kiyib ko'rsa, baribir yarashmaydi. Ya'ni, tashqi ko'rinishdagi kamchiliklar — xali qaddu-qomatning kelishmaganligi, uning ustiga yuzlari va tanasida paydo bo'ladigan noxush toshmalar uning ruhan salbiy hislarni boshdan kechirishiga olib keladi. Ya'ni, bu yoshni «arosat» yoshi ham deb atash mumkin, chunki katta bo'lib katta emas, bola ham emas. Shularning barchasi o'smirlik davridagi ruhiy tug'yonlarga sabab bo'ladi. Lekin shularga qaramay, o'smir o'zi bilib-bilmay o'z aqliy salohiyatini o'stirishga harakat qiladi, chiroyli fikrlashga tashna bo'ladi va bu — uning psixik taraqqiyotidagi eng muhim o'zgarish hisoblanadi.

O'smir shaxsning takomillashuvi va shakllanishiga turtki bo'lgan omillardan biri — o'quv faoliyati motivlaridagi sifat o'zgarishidir. Kichik maktab yoshidagi boladan farqli, o'smir endi faqat bilimlar tizimiga ega bo'lish, o'qituvchining maqtovini eshitish va «5» baholarni ko'paytirish uchun emas, balki tengqurlari orasida ma'lum ijobiy mavqeni egallash, kelajakda yaxshi odam bo'lish uchun o'qish motivlari ustivor bo'lib boradi. Lekin I. V. Dubrovinaning bergan ma'lumotlariga ko'ra, o'quv faoliyati motivlari orasida umuman bilish, yangi bilimlarga ega bo'lish motivi kuchsiz bo'lgani sababli, ular maktabga borgisi kelmaydi, o'qishga oqrinib kelib, salbiy emosiyalar va xavotirlik hislarini boshdan kechiradilar (o'rtacha 20% o'quvchilar). Bu kattalarning o'smir bilan ishlashini qiyinlashtiradi.

O'smirning shaxs sifatida taraqqiyotida ikki xil xolat kuzatiladi: bir tomondan, boshqalar, tengqurlar bilan yaqinroq aloqada bo'lishga intilish, guruh normalariga bo'ysunish, ikkinchi tomondan, mustaqillikning oshishi hisobiga bola ichki ruhiy olamida ayrim qiyinchiliklar kuzatiladi. O'zgalarni anglash bilan o'z-o'zini anglash o'rtasida ham qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi. Ko'pincha o'smir o'z imkoniyatlarini yuqori baholaydi, boshqalar esa uning kuchi, irodasi va salohiyatiga ishonchsizlik bilan qaraydi. Lekin shunday bo'lsa-da, o'zini nima qilib bo'lsa ham hech bo'lmaganda tengqurlar jamiyati tomonidan tan olinishiga erishishga intiladi va ular bilan muloqot hayotining ma'nosiga aylanib qoladi. Agar mabodo o'smir shu davrda biror sabab bilan tengqurlari jamiyati tomonidan inkor qilinsa, u bunga juda katta mudhish voqeaday qaraydi, maktabga bormay qo'yishi, xattoki, suisidal harakatlar (o'z joniga qasd qilish) ni ham sodir etishi mumkin.

O'smirlik davridagi qiyinchiliklarning oldini olishning eng ishonchli va foydali yo'li — bu uning biror narsaga turg'un qiziqishiga erishish, faoliyat motivlarini mazmunliroq qilishdir. Masalan, shu davrda texnikaga qiziqib qolgan bola qiziqishini qondirish shart-sharoitining yaratilishi, bekor qolmasligiga erishish, har bir harakatini

rag'batlantirish, unga bir ish qo'lidan keladigan odamday munosabatda bo'lish katta pedagogik ahamiyatga ega. Uning qiziqishlarini bila turib, oldiga yangidan yangi maqsadlar qo'yish — bola shaxsining rivojiga asosdir. Shundagina uning o'z «Men»i to'g'risidagi tasavvurlari ijobiy, o'z-o'ziga bahosi ob'yektiv va adolatli bo'ladi, o'zining nimalarga qodirligi va kim ekanligi haqida yaxshi fikrlar paydo bo'ladi.

O'spirinlik davri. Yuqori sinfga o'tgan o'spirin psixologiyasining o'ziga xosligi shundaki, u hozirgi paytini, buguni va ertasini kelajak nuqtai nazaridan, istiqbolga nazar bilan qabul qiladi. Aynan shu davrga kelib, o'spirin turli kasblarga qiziq boshlaydi, o'zining kelajakda kim bo'lishini tasavvur qila boshlaydi. Demak, o'z-o'zini professional nuqtai nazardan ajratish, tasavvur qilish — o'spirinlikning eng muhim yangiligidir. Professional taraqqiyotning asosiy bosqichlarini ajratar ekan, E. A. Klimov (1996), alohida «**optasiya**» (lotincha so'z: optatio — xohish, tanlov) bosqichini ajratadi va uning xarakterli tomoni — odam tomonidan professional taraqqiyotning bosqichi tanlanishidir, deb e'tirof etadi. Optasiya bosqichi 11 — 12 yoshdan 14 — 18 yoshgacha bo'lgan taraqqiyot davrini o'z ichiga oladi.

Biror aniq kasb-xunarni tanlash va o'z faoliyatini shunga yo'naltirish o'spirin shaxsi uchun juda katta ahamiyatga ega. Ana shunday tanlovning adekvat va to'g'ri bo'lishi o'spirindagi bilish bilan bog'liqqiziqishlar va professional yo'nalishning shakllanganligiga bog'liq bo'ladi. Professionalqiziqishlarning shakllanishining o'zi olimlar tomonidan to'rt bosqichli jarayon sifatidaharaladi. Uning birinchi bosqichi 12 — 13 yoshlarga to'g'ri keladi va o'ta o'zgaruvchanligi, shaxsdagi bilish jarayonlari va asl iqtidor bilan bog'lanmaganligi bilan xarakterlanadi. 14-15 yoshlarga to'g'ri keladigan ikkinchi bosqichda qiziqishlar paydo bo'ladi, ular ko'p bo'lib, bevosita bolaning bilish imkoniyatlari va shaxsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Uchinchi bosqichda — 16 — 17 yoshlarda qiziqishlarning shunday integrasiyasi ro'y beradiki, ular avvalo jinsiy xususiyatlar va shaxsdagi individual xususiyatlar bilan bog'liq holda rivojlanadi. Masalan, qizlar va o'g'il bolalar o'zlariga mos va yarashadigan kasb-hunarni tanlay boshlaydilar. L. Golovey (1996) fikricha, to'rtinchi — xal qiluvchi bosqichda qiziqishlar doirasi sezilarli darajada torayib, professional yo'nalish shakllanib bo'ladi va u kasb tanlash bilan yakunlanadi.

O'zining yuqori pog'onasiga ko'tarilgan qiziqishlar o'spirinning professional yo'nalishi va to'g'ri kasb-xunarni tanlashiga zamin yaratadi. Ular boladagi individual-psixologik xususiyatlar va jinsiy farqlar bilan bog'liq bo'lgani uchun ham o'gil bolalar ko'proq-texnik va iqtisodiy yo'nalishlarni, qizlar esa — ijtimoiy-gumanitar va badiiy sohalar bilan bog'liq kasblarni tanlaydilar.

Umuman, inson hayotida professional o'z-o'zini anglash katta o'rin tutadi va u juda yoshlik paytidanoq shakllana boshlaydi. Bu jarayonni bosqichlarda tasavvur qilish mumkin.

Birinchi bosqich: bolalar o'yini, bunda bola ilk yoshlikdanoq u yoki bu kasbga bog'liq professional rollarni qabul qiladi va uning muhim elementlarini o'zicha «o'ynaydi» («o'qituvchi», «doktor», «traktorchi», «futbolist», «artist» va shunga o'xshash).

Ikkinchi bosqich: o'smirlik fantaziyasi — bunda o'smir o'ziga juda yoqqan professional rolni xayolan egallaydi.

Uchinchi bosqich: kasb-hunarni dastlabki tanlash — o'smirlik va ilk o'spirinlik davriga to'g'ri keladi. Turli-tuman faoliyat turlari dastlab o'smirning qiziqishlari nuqtai nazaridan («prokurorlikka qiziqaman, demak, yurist bo'lishim kerak»), keyin uning qobiliyatlari nuqtai nazaridan («matematikani oson yechaman, matematik yoki muxandis bo'lsammikan?»), va nihoyat, o'smirdagi qadriyatlar tizimidagi ahamiyatiga qarab («nochor kasallarga yordam bergim keladi, vrach bo'laman») toifalarga bo'linadi va ajratiladi.

To'rtinchi bosqich: amaliy qaror qabul qilish — kasbni tanlash. Bunda ikkita muhim jihat bor: konkret ixtisoslikni uning kvalifikatsiyasi xususiyatlari, ishning hajmi, og'irligi, mas'uliyatliligi va unga yetarli tayyorgarlikning borligi. Lekin oxirgi sotsiologik ma'lumotlarga ko'ra, oliy o'quv yurtini tanlash, konkret kasb-hunarni tanlashdan oldinroq yuz bermoqda. Masalan, o'spirin qiz «Men baribir Nizomiy nomli universitetga kiraman», deydi va so'ngra konkret fakultet tanlanadi. Shuning uchun ham ko'pincha, ixtisoslikdan, keyinchalik professiyadan «sovib qolish»lar ana shunday ustanovkalar bilan tushuntiriladi.

Bundan tashqari, kasb tanlashga ta'sir qiluvchi yana boshqa omillar ham borki, ularning hisobga olinishi ham ba'zan yoshlarning to'g'ri, o'z imkoniyatlari va qobiliyatlari mos kasb-hunarning tanlanmasligiga sabab bo'ladi. Masalan, bunday omillarga oilaning moddiy shart-sharoiti, o'qish joyining uydan uzoqligi, o'quv tayyorgarligining saviyasi, emosional yetuklik, sog'liqning holati va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash Milliy dasturining 1997 yilda qabul qilinishi Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, mustaqil fikrlaydigan, yuksak malakali kadrlar tayyorlashga xizmat qiladi. Joylarda tashkil qilinayotgan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida tashkil etilgan Tashhis markazlari 9 sinfni tamomlagan yoshlarning iqtidori va layoqati, qiziqishlarini o'z vaqtida aniqlash, uni psixologik metodlar yordamida diagnostika qilishni amalga oshiradi. Bu tadbirlar yoshlardagi kasb-hunarga bo'lgan yo'nalishni adekvat qilish, o'z yashash joyidan uzoq bo'lmagan sharoitda zarur, o'z layoqatiga mos xunar egasi bo'lib yetishishga yordam beradi.

Yoshlardagi attraksiya va yuksak his-tuyg'ular. O'smirlik va o'spirinlik davrlari nafaqat professional tanlov va kasb egallash uchun maqbul davr bo'lmay, bu davr yoshlarning o'zligini anglash, o'z qadr-qimmatini bilish va boshqalarga nisbatan munosabatda bo'lish tajribasini egallash davri hamdir.

O'smir ham o'spirin ham qancha ichki ruhiy iztirob, qarama-qarshilik, mas'uliyat onlarini boshidan kechirmasin, uning emosional olami, atrof-muhitda ro'y berayotgan xodisalarni ongida aks ettirishi katta o'rin tutadi. Aynan o'smirlik davri bola qalbida kim bilandir sirlashish, kimnidir o'ziga eng yaqin kishi sifatida tan olish, uni ruhiyatida kechayotgan barcha o'zgarishlardan voqif etish istagi va ehtiyojini uyg'otadi. Birinchi marta «do'stlik», «muhabbat», «sevgi» tushunchalari ham aynan shu davrda paydo bo'ladi. Shuning uchun ham yetuklik va keksalik davridagi kishilar ham o'smirlik va o'spirinlik yillarini eng beg'ubor, jozibali va yoqimli sifatida xotirlaydilar.

Bu taraqqiyot davri attraksiya deb atalmish hissiyotning paydo bo'lishi uchun eng maqbul davrdir. **Attraksiya** (lotincha attragere — yoqtirtirish, o'ziga jalb etish) — bu bir insonning boshqa bir insonga ijobiy munosabati asosida yohishi va yoqtirishi,

o'zaro moyillikni tushuntiruvchi emosional hisdir. Bu bir odamda boshqa bir odamga nisbatan shakllanadigan ijtimoiy ustanovkaning bir ko'rinishi bo'lib, **simpatiya** — yoqtirishdan tortib, to sevgi muhabbat kabi chuqur emosional bog'liqlik ham shu his asosida paydo bo'ladi. Ijtimoiy psixologiyada ushbu hissiyotning asl sabablari ijtimoiy motivlar — sheriklarning bevosita bitta makon va zamonda ekanliklari, ularning tez-tez uchrashib turishlari, uchrashuvlar tezligi, suhbatdoshlar o'rtasidagi masofa, hissiyotlarning tarbiyalanganligi kabi omillar ta'sirida paydo bo'lishi va uning kechish mexanizmlari o'rganiladi. Tadqiqotlar bu kabi emosional munosabatlar aynan balog'at yoshi arafasida rivojlanishini isbot qilgan. Shunisi ahamiyatliki, attraksiyaning namoyon bo'lishi, uning kuchi va mazmuni o'smir — yoshning shaxs sifatida o'zini idrok qilishi, o'z-o'zini hurmat qilishi va o'zgalarga nisbatan munosabatlarda toqatliroq bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatar ekan. Shuning uchun ham ana shu davrda o'smir va o'spirin atrofida u yoqtirgan va uni yoqtiradigan odamlarning bo'lishi juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, uning aksi bola ruhiy azoblanishining sabablaridan hisoblanadi.

Do'stlik. O'smirlik va o'spirinlik yoshida paydo bo'ladigan barcha muammolarni yechish va u bilan o'rtoqlashish uchun bolaga do'st kerak. Psixolog tili bilan aytganda, do'st — bu «alter — Ego», ya'ni ikkinchi «Men» bo'lib, u o'sha paytdagi «Men»ning bir qismi sifatida idrok qilinadi. Bu shunday odamki, shaxs u bilan barcha dardu — xasratlarini muhokama qiladi, muammolarini uning oldiga to'kib soladi. Do'stlikning boshqa intim, emosional hissiyotlardan farqi shuki, u odatda bir jins vakillari o'rtasida bo'ladi va do'stlar odatda 2 kishi, ayrim xollarda 3-4 kishi bo'lishi mumkin.

Do'stlikning ham ko'zlagan maqsadlari bo'ladi: u amaliy, ish-faoliyat bilan bog'liq, sof emosional (ya'ni, muloqot ehtiyojlarini qondirish), ratsional (intellektual muammolarni xal qilishga asoslangan), axloqiy (o'zaro insoniy sifatlarni takomillashtirishga xizmat qiluvchi) bo'lishi mumkin. Do'stlikning asosiy sharti — o'zaro bir-birini tushunish. Shu shart bo'lmasa, do'stlik haqida gap bo'lishi mumkin emas. Agar ana shunday tushunish bo'lsa, do'stlar gap — so'zsiz ham qiliqlar, yuz ifodasi, yurish-turishga qarab ham bir-birlarini tushunib olaveradilar.

Ikki jins vakillari o'rtasida ham do'stlik bo'lishi mumkin, faqat u ko'pincha tanishuv bilan sevgi-muhabbat o'rtasidagi oraliqni to'ldirishga xizmat qiladi. Do'stlarga xos bo'lgan sifatlarga bir-birini ayash, g'amxo'rlik qilish, ishonch, shaxsiy muammolarga befarq bo'lmaslik, qo'llab-quvvatlash, mehr kabilar kiradi. Ularning ardoqlanishi do'stlikning uzoq davom etishi va ikkala tomon manfaatiga mos ishlarni amalga oshirishga undaydi. Do'sti yo'q o'smir yoki o'spirin o'zini juda baxtsiz, nochor hisoblaydi. Ayniqsa, agar do'sti xoinlik qilsa, uning kutishlariga zid ish qilsa, bu xolat juda qattiq ruhiy iztiroblarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham har bir yosh o'z do'stini xafa qilib qo'ymaslik, uning ko'ngliga qarab ish qilishga harakat qiladi. Agar ilk o'spirinlikda do'stlik mazmunan ancha yuzaki, bevosita muloqot maqsadlari asosida tashkil etilgan bo'lsa, yosh o'tgan sari u hayot mazmuni va yuksak qadriyatiga aylanib boradi.

Sevgi. Agar do'stlik attraksiya namoyon bo'lishining birinchi ko'rinishi bo'lsa, sevgi qalblar yaqinlashuvining muhim alomatidir. Sevgi — bu nafaqat hissiyot, balki boshqalarni seva olish qobiliyati hamda sevimli bo'la olishdir. Shuning uchun ham o'smirlar va o'spirinlar uchun bu hissiyotning borligi juda katta ahamiyatga egadir.

Aynan o'smirlik va ilk o'spirinlikdagi sevgi beg'ubor, tiniq, samimiy bo'lib, yosh o'tgan sari uning mazmuni boyib, boshqa qadriyatlar ham o'rin egallay boshlaydi. To'g'ri, o'smir bilan o'spirin sevgisida ham sifat farqlari bor. Masalan, o'smirlar bir-birlariga mehr qo'yishganda ko'proq sheriklarning tashqi qiyofalari, intellektual imkoniyatlari va ijtimoiy mavqelariga e'tibor beradilar. haqiqiy sevgi o'spirinlik yillarining oxirlarida paydo bo'lib, uning asosiy mezonini endi tashqi belgi va afzalliklar emas, balki insoniy fazilatlar bo'lib xizmat qiladi.

Sevgi — bu shunday tuyg'uki, u bir shaxsning ikkinchi shaxs ustidan mutloq ustunligi yoki afzalligini inkor etadi. Bunday hissiyot esa sevgi bo'lmaydi. Shuning uchun ham o'spirinlik yoshidagi yigit va qizlar guruhda muloqotda bo'lishni va bunda teng xuquqli munosabatlar bo'lishini xohlaydilar. Bu talab sevishganlar uchun ham qonun hisoblanadi. Do'stlikdan farqli, bu yerda turli ko'rinishlar yoki turlarni ajratish mumkin emas. Bu hissiyot shundayki, u tomonlarni faqat axloqan va ma'naviy jihatdan yaqin bo'lishini taqozo etadi. Sevgan yurak ma'naviy jihatdan yaxshi, uluq va ijtimoiy jihatdan manfaatli ishlarni qilishga qodir bo'ladi. To'g'ri, ko'pchilik ota-onalar o'quvchilik yillarida paydo bo'lgan sevgi hissidan biroz cho'chiydilar, uni cheklashga, xattoki, qizlarga ta'qiqlashni ham afzal ko'radilar. Lekin aynan shu hisning borligi yoshlarni ulug'vorroq, samimiyroq, har narsaga qodir va kuchliroq qiladi. Sevgida «ishi yurishmaganlarning» esa boshqa sohalarida ham ishi yurishmaydi. Ular o'zlarini tushkun, baxtsiz, omadsiz hisoblaydilar.

Olimlar sevgining yoshlarda namoyon bo'lishi va uning psixologik tahlilini o'rganishgan. Ma'lum bo'lishicha, sevgining dastlabki bosqichi — o'zaro yoqtirib qolish — simpatiya bo'lib, bunda asosan sevgi ob'yektining tashqi jozibasi rol o'ynaydi. Masalan, o'zbek xonatasini chiroyli qilib tiktirib olgan qizchaning davrada paydo bo'lishi, tabiiy ko'pgina yigitlarning e'tiborini beixtiyor o'ziga tortadi. Ulardan ko'pchiligi birdaniga, bir vaqtda aynan shu qizchani «yoqtirib» qolishadi. Lekin davradagi qaysi yigit unga ham ma'lum jihatlari bilan yoqib qolsa, o'zaro simpatiya shu ikki shaxs o'rtasida ro'y beradi. Vaqtlar o'tib, bu ikki yosh bir necha marta uchrashib turishsa, oddiy yoqtirish sevgiga, jiddiyroq narsaga aylanishi mumkin. Shu narsa ma'lumki, aynan shuqonuniyatni bilgani uchun ham ko'pchilik o'spirinlar birinchidan, davralarda bo'lishni, qolaversa, birovlariga yohish uchun tashqi ko'rinishlariga alohida e'tibor berishga harakat qiladilar. Yoqimtoy bo'lishga harakat qilsa-yu, birortaning e'tiborini o'ziga tortolmagan o'spirin esa bu xolatni juda chuqur qayg'u bilan boshdan kechiradi. Agar xuddi shunday narsa bir necha marta surunkalik takrorlansa, o'sha yosh davralarga ham bormay qo'yadigan, o'zi haqida yomon fikrlarga boradigan, faqat ayrim xollardagina hammani o'ziga «dushman» bilib, xafa bo'ladigan bo'lib qoladi.

Eksperimental izlanishlarning ko'rsatishicha, sevishganlik o'spirin yoshlarning shaxs sifatlariga bevosita ta'sir ko'rsatib, uning xatti-harakatlarida namoyon bo'ladi. Masalan, sevishganlar boshqalardan farqli, ikki marta ziyod o'zaro gaplashishar, gaplari sira ado bo'lmas ekan. Bundan tashqari, bundaylar sakkiz (!) marta ortiq bir-birlarining ko'zlariga qarab vaqt o'tkazisharkan.

Yana shu narsa aniqlanganki, sevgi bilan bog'liq hissiyotlar har bir jins vakilida o'ziga xos xususiyatlarga ega ekan. Masalan, o'spirin yoshlar qizlarga nisbatan romantizmga beriluvchan, tezginada yaxshi ko'rib qoladigan bo'lisharkan. Ularning

tasavvuridagi sevgi ancha romantik, ideal ko'rinishga ega bo'ladi. qizlar esa yigitlarga nisbatan sekinroq sevib qolishadi, lekin sevgini unutish, undan voz kechish ularda osonroq kecharkan. Agar yigitlar bir ko'rishdayoq yoqtirib qolgan qizni sevib ham qolishi ehtimoli yuqori bo'lsa (eksperimentlarda sevgi bilan simpatiya ning korrelyasion bog'liqligi kuchli), qizlarda bunday bog'liqlik ancha past ekan, ya'ni hamma yoqtirganlarini ham sevmas ekan, umuman simpatiya ning paydo bo'lishi ham biroz qiyin ekan.

Bunday tashqari, o'spirinlik yillaridagi sevgi va muhabbat hissi nafaqat qarama-qarshi jins vakiliga qaratilgan bo'ladi, balki aynan shu davrda ota-onaning qadrlanishi va ularga nisbatan sevgi-muhabbat, yaqinlar — aka-uka, opa-singil, hayotda ibrat bo'ladigan kishilarni yaxshi ko'rish, vatanni sevish kabi oliy hislar ham tarbiyalanadi. Shuning uchun ham haqiqiy yuksak muhabbat sohiblari bo'lmish yoshlarni tarbiyalash — jamiyatda insoniy munosabatlarni barqarorlashtirish, odamlar o'rtasida samimiy munosabatlar o'rnatish va ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qiladi.

Ta'limning barcha bosqichida ma'naviy tarbiya ning ajralmas bo'lagi sifatida ana shunday samimiy munosabatlarni tarbiyalash, targ'ib etish, kerak bo'lsa, yoshlarga ana shunday sevgi va sadoqat haqidagi qadriyatlarimizni ongga singdirishimiz kerak. Sevgi va muhabbat hislari keng ma'noda — Vatanga, yurtga, xalqqa, borliqqa, kasbga va yaqin kishilarga qaratilgan bo'lishi kerak. Yuksak his-tuyg'ularning eng oliysi Vatan tuyg'usi bo'lib, u tuyg'u inson bolasining ilk yoshlik davridanoq ongiga va qalbiga singib boradi. Zero, Vatan hissi shu Vatanning egasi bo'lmish xalqni bilishdan, uning qadriga yetishdan, nimalarga qodir bo'lganini tan olishdan, buyukligini e'tirof etishdan boshlanadi. Vatan va xalq egizak tushuncha bo'lib, birini his qilish uchun ikkinchisini bilish kerak. Shuning uchun O'zbekiston deganda, o'zbek xalqini tushunamiz, o'zbeksiz O'zbekistonni xayolga keltira olmaymiz. Vatan hissi — bu xalqni sevmok, hurmat qilmoq, qadriga yetmoq va e'tirof etmoqdir. O'zbekistonliklar uchun shu yurt, shu tuproqni sevish, uning qadriga yetish — buyuk ne'mat va shu bilan birga, yuksak mas'uliyat hamdir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. SHaxs faolligining manbai nima?
 - a) instinktlar (tug'ma harakatlar);
 - b) ehtiyojlar;
 - v) anglanilmagan mayllar;
 - g) motivlar.
2. SHaxsning tarkib topishi ko'proq qaysi omillarga bog'liq?
 - a) ijtimoiy muhitga;
 - b) tarbiyaga;
 - v) ta'limga;
 - g) irsiyat va shaxsiy faoliyatga.
3. SHaxs o'z ehtiyojlarini qanday yo'llar bilan qondiradi?
 - a) shaxsiy tajribasiga asoslanib;
 - b) taqlid asosida;
 - v) jamiyatda qabul qilingan qoida, usullar asosida.

SHaxs xususiyatlarini aniqlash metodikasi:

1. a) yolg'on gapirishingiz mumkinmi?

- b) o'z nuqsonlaringizga ko'nikasizmi?
 s) fikringizni oson o'zgartirasizmi?
 2. a) sizni maqtaganlarni yoqtirasizmi?
 b) o'zingizdan ko'nglingiz to'qmi?
 s) boshqalarning kamchiligi to'g'risida tez - tez gapirib turasizmi?
 3. a) boshlagan ishingizni oxiriga etkazasizmi?
 b) maqsadga erishishda qat'iyatlimisiz?
 s) ishda jonbozlik ko'rsatasizmi?
 4. a) o'zingiz haqingizda gapirishni yoqtirasizmi?
 b) notanish davrada o'zingizni erkin his qilasizmi?
 s) odamlarga ishonchingiz bormi?

Javoblar quyidagicha belgilanadi:

a b s

- 1.
- 2.
- 3.
- 4.

Savollarga “ha” yoki “yo'q” deb javob beriladi. Agar ijobiy javob ko'p bo'lsa 1 ball, salbiy javob ko'p bo'lsa 0 ball beriladi.

Natijasi:

- 1111 - serharakat, muloqotga kirishuvchan, o'zini yaxshi ko'radigan, o'zgaruvchan.
 1000 - e'tiqodsiz, ko'ngli ochiq emas, sust.
 1001 - dangasa, odamovi, engiltak, o'ziga bino qo'ygan.
 1011 - kamgap, faol, e'tiqodi kuchli.
 0111 - ishchan, tez kirishadigan, ammo dimog'dor.
 0110 - rostgo'y, qat'iyatli, mehribon.
 0100 - tarbiyali, ayyor emas, faol emas.
 0000 - indamas, maqsadga erishmaydi.
 1010 - faollikka moyil, kamsuqum, tortinchoq.
 1110 - mehnatkash, ayyor emas, ko'rashda boshqalarga o'rnini oson berib ko'yadi.
 1100 - to'g'ri so'z, kamsuqum, haqqoniy.
 0001 - rostgo'y, ammo indamas.
 0011 - ayyor, yolg'onchi, irodali, tolmas.
 0101 - kirishuvchan, ochiq ko'ngil.
 1101 - engil tabiat, sodda, dangasa, o'zini yaxshi ko'radigan.
 0010 - qat'iyatli, mehnatkash, indamas.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. YOshlar ongiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish orqali komil insonni tarbiyalash deganda nimani tushunasiz?
2. Indivud, shaxs, individuallik tushunchalarining bir - biridan farqi nimada?
3. ehtiyojlar shaxs faolligida qanday ahamiyatga ega?
4. Motivlar deganda nimani tushunasiz?
5. Ijtimoiy muhitning shaxs shakllanishidagi ahamiyati nimada?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I. A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T., 1997.

2. Karimov I. A. O'zbekiston XX1 asr bo'saqasida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.,1998.
3. Karimov I. A. O'zbekiston XX1 asrga intilmoqda. –T., 1999.
4. Andreeva G.M. Sosialnaya psixologiya. Uchebnik. –M., 1998.
5. Berns R. V. Ya - konsepsiya i vospitanie. –M., 1986.
6. Davletshin M.G, To'ychieva M. Umumiy psixologiya –T., 2002.
7. Ibrohimov A. va boshq. Vatan tuyg'usi. –T.,1996.
8. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya asoslari.- T., 1994.
9. Nemov R.S. Psixologiya. –M., Prosveshenie. 2004.

6 - Mavzu: Guruh va Jamoa

Reja:

1. Guruh va jamoa haqida tushuncha.
2. Guruh va uning turlari:
 - a) rasmiy guruh;
 - b) norasmiy guruh;
 - v) real guruh;
 - g) shartli guruh;
 - d) katta va kichik guruhlar.
3. Guruhdagi shaxslararo munosabatlar:
 - a) liderlik;
 - b) konformizm (kelishuvchanlik);
 - v) konflikt (nizo)lar va ularning turlari.
4. Ommaviy tusdagi psixologik hodisalar:
 - a) vahima;
 - b) ijtimoiy kayfiyat;
 - v) musobaqa;
 - g) jamoa ongi.
5. Jamoa va guruhdagi moslik:
 - a) fiziologik moslik;
 - b) psixologik moslik.
6. Guruh va jamoadagi ruxiy muhit.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Agregatsiya - olomon, tasodifiy hodisaning tomoshabini.

Guruh - ma'lum maqsad asosida to'plangan, ikki va undan ortiq kishilar uyushmasi.

Jamoa - uyushgan guruhlar asosida jamiyat maqsadlarini ko'zlab ish yuritadigan guruh.

Konformlilik - shaxsni boshqalarning xulq -atvor motivlarini o'zining faoliyati uchun asos sifatida qabul qilishi.

Lider - boshqalar faoliyatiga rahbarlik qila oladigan guruh a'zosi.

Referent guruh - shaxs o'z xulq - atvorida o'rnak oladigan, guruh bahosi shaxs uchun ma'lum ahamiyatga ega bo'ladigan guruh, shaxs uchun namuna bo'ladigan guruh.

Sotsiometriya - Moreno tomonidan ishlab chiqiladigan, shaxsning guruhdagi mavqeini aniqlab beradigan ijtimoiy - psixologik metod.

Ustanovka - shaxsning atrofdagilarni anglamasdan idrok qilishi.

SHartli guruh - ma'lum belgini asos qilib tuziladigan guruh.

Empatiya - boshqalarga hamdardlik bildirish.

1. Guruh va jamoa haqida tushuncha

Pedagog yoki tarbiyachi o'z ishida faqat birgina o'quvchining o'zi bilan emas, balki turli guruh va jamoalar bilan munosabatda bo'ladi. SHuning uchun dastlab u o'zi bilan bolalar o'rtasida guruh yoki jamoa tuzib olishi kerak. Guruh deb, ikki yoki undan ortiq kishilar uyushmasiga

aytiladi. Masalan, o'quvchilar guruhi, sinfda qandaydir boshliq atrofiga to'plangan bolalar guruhi.

Har bir kishi qaerda yashamasin, baribir qandaydir guruh yoki jamoa orasida yashaydi, ular bilan muloqot qiladi. Guruh va jamoalar doimo o'zgarib turadi. SHaxs ana shu guruh yoki jamoaga moslashib yashashi kerak. Guruh va jamoadagi munosabatlarni ijtimoiy psixologiya o'rganadi. Guruhning eng yuksak shakli jamoadir. Har qanday jamoa umumiy maqsad asosida tarkib topadi. Har qanday uyushgan guruh jamoa bo'la olmaydi. Masalan, banditlar shaykasi, jinoyatchilar to'dasini jamoa deb bo'lmaydi. CHunki ularning maqsadi faqat o'zlarining ehtiyojini qondirish, shaxsiy boylik orttirishdir. Ular ichki manfaatidan tashqariga chiqqa olmaydi. Haqiqiy jamoa a'zolari jamiyat rivoji, o'z xalqining moddiy hayot farovonligini oshirish maqsadida harakat qiladilar. Masalan, oila, o'qituvchilar jamoasi, tadbirkorlar uyushmasi, olimalar va psixologlar uyushmasi kabilarni jamoa deyish mumkin. Jamoadagi kishilar umuminsoniy maqsad yo'lida xizmat qiladilar. Demak, jamoa deb umumiy maqsadlari asosida birlashgan, jamiyatning bir qismi hisoblangan va ana shu jamiyat maqsadlariga to'la buysungan kishilar guruhiga aytiladi. Ushinskiy K. D. , Leont'ev A.N, Anan'ev B. G, Kovalev A. G. kabilarning ishlari shaxs va jamoaning tarkib topishiga qaratilgan.

Har qanday jamoaning maqsadlari shu jamoaning o'z ichida cheklanmay, jamoa doirasidan chetga chiqishi kerak. SHunda jamoa a'zolarining javobgarlik hissi ortadi. Har bir jamoa o'zidan katta bir jamoaning bir qismidir. Masalan: 1 - kurs talabalar jamoasi fakul'tet jamoasining, fakul'tet jamoasi esa universitet jamoasining bir qismidir.

Jamoa va shaxs. Jamoachilik shaxsning xislati sifatida odamning jamiyat taraqqiyoti maqsadlari bilan birdamligining ifodasidir. Bu ijtimoiy birdamlik mehnatda namoyon bo'ladi va mehnatning tarkibiga quyidagilar kiradi: mehnat va ijtimoiy faollik, javobgarlik va burch hissi, butun jamiyat va jamoa maqsadlari manfaati nuqtai nazaridan o'rtoqlarcha o'zaro yordam hamda o'ziga va o'zgalarga nisbatan talabchanlik. Kishi shaxs sifatida tug'ilmaydi, balki boshqa kishilar bilan munosabatlardagina shaxsga aylanadi.

SHaxs deb, jamiyatda faoliyatda bo'ladigan, yuksak ongga ega bo'lgan kishiga aytiladi. Agar yasli yoshidagi bolalar kattalar bilan munosabatda bo'lmasalar, ular shaxs sifatida shakllanmaydi. SHaxs ong egasi bo'lgan odamdur, ong esa faqat tabiiy hodisalar olaminigina aks ettirib qolmay, balki shaxs insoniyat tajribasi asosida to'plangan narsalar bilan munosabatda bo'ladigan ijtimoiy ong mahsulotlarini ham aks ettiradi.

Maktab o'quvchisi shaxsining tarkib topishi jamoada amalga oshadi. Bola avval o'zi haqida uchinchi shaxs tilidan gapiradi. Masalan: "Sardorni o'ynagisi kelyapti". Bola jamoadagi bolalar bilan bo'lgan munosabatdagina o'z - o'zini

anglash darajasiga ko'tariladi. Kattalar yoki

tengdoshlari bolani yaxshi yoki yomonsan deganlarida bola o'z-o'ziga baho berishni o'rganadi. Mana shu tariqa tanqidni tushunishdan o'z - o'zini tanqid qilish yuzaga kela boshlaydi.

2. Guruh va uning turlari

1. SHartli guruhlar. Tadqiqotchi tomonidan ma'lum belgilar asosida kishilarni birlashtirib guruh tuzishga shartli guruh deyiladi. Masalan: bir xil kasbi bo'yicha, bir xil yoshi bo'yicha, jinsi bo'yicha shartli guruh tuzish mumkin. 15 yoshli o'smirlar guruhi, 5 yoshlilar bog'cha guruhi kabilar.

SHartli guruhga kirgan kishilar bir -birlarini mutlaqo ko'rmasliklari, bir - birlarini mutlaqo tanimasliklari mumkin. Millatiga ko'ra O'zbekistonda yashaydigan 18 yoshli kizlar guruhi deb tuzish mumkin. SHartli guruhlarini katta guruhlarga kiritiladi. Masalan: o'zbeklar guruhi, sotuvchilar guruhi, banditlar guruhi, qizlar, o'g'il bolalar guruhi va h.k.

? SHartli guruh a'zosi bir paytda boshqa guruhga kirishi mumkinmi?

2. Real guruhlar deb, bir jamiyatda yashab, kishilar bilan haqiqiy, real munosabatga kirishish yo'li bilan tuzilgan guruhga aytiladi. Masalan: yoshlar jamoa guruhi, bolalar guruhi (bir maktab doirasida) sinflar, talabalar guruhi. NamDUNing fizika fakul'teti 3 - kurs talabalari guruhi real

guruhdir. Demak, real guruhga kiradigan kishilar doimo bir - biri bilan munosabatda bo`lib, bir-biriga yordam beradi.

Bizga ma`lumki, odamni mehnat yaratgan, shuning uchun kishilarning 1 - guruhlari mehnat guruhlari bo`ladi. Masalan: oila mehnat guruhiga kiradi. Ibtidoiy jamiyatda yashagan qabilani guruhlarga kiritish mumkin. Guruhlarning eng kattasi - bu butun insoniyatdir.

3. Referent guruh - shaxs shartli va real guruhdagi kishilarning so`zlariga kirmasligi mumkin. SHaxsning o`z referent guruhi ham bo`ladi, bu kompaniya bo`lishi mumkin. Referent guruhdagi kishilar shaxsga har tomonlama yoqadi, ularni hurmat qiladi, gaplariga quloq soladi. Masalan: bola ota - onasining so`ziga kirmasligi, maktabda o`qituvchining gapiga kirmasligi mumkin. Ammo u referent guruhdagi boshliqning gapiga so`zsiz itoat qiladi. SHuning uchun tarbiyachi, ota - ona agar bolani tarbiyalay olmasalar, uning referent guruhini aniqlab, shu guruhning sardori orqali ta`sir etishlari mumkin.

Odatda guruhlar tasodifan to`planib qolgan kishilardan ham tashqil topishi mumkin. Masalan: poezd kupesida, avtobusda uzoq safarga ketayotgan kishilar, kasalxonada yoki sanatoriyada davolanayotgan kishilar guruh bo`lishi mumkin. Bunday guruhlar norasmiy guruh deyiladi. Rasmiy guruhga talabalar, o`quvchilar guruhlari kiradi. CHunki rasmiy guruhlar buyruqlar asosida tuziladi.

3. Guruhdagi shaxslararo munosabatlar

Odamning xatti - harakati ijtimoiy muhitning ta`siriga bog`liqdir. Kishining shaxs sifatida taqi olam bilan bo`lgan o`zaro munosabatlari ularning ishlab chiqarish faoliyatlarida odamlar o`rtasida shakllanadigan munosabatlarda yuzaga kelgan. Ijtimoiy hayot davomida va ishlab chiqarishda odamlar o`rtasida ob`ektiv tarzda yuzaga keladigan real aloqa va munosabatlar odamlarning sub`ektiv munosabatlarida namoyon bo`ladi. Masalan: o`qituvchi o`quvchilarga to`g`ri munosabatda bo`lmasa, o`quvchilarda o`nga nisbatan hurmat yo`qoladi.

Jamoadagi shaxslararo munosabatlar xilma - xil va murakkabdir. Bu munosabatlarni o`rganish uchun maxsus metodlardan foydalaniladi. Ana shunday metodlardan biri sotsiometrik metodni amerikalik mikrosotsiolog D. Moreno kashf etgan. Bu metod butun jamiyat qonuniyatini o`rganish imkonini beradigan universal metod bo`la olmaydi. Sotsiometrik metodni kichik guruhda qo`llash mumkin. Jamoada kishilar bir - birlarini yaxshi bilsalargina bu metod samarali bo`lishi mumkin. Bu metodning mohiyati shuki, biz guruhda yoki jamoada kim eng qadrli, obro`li, kim obro`siz ekanligini aniqlashimiz mumkin. Buning uchun jamoa a`zolarining matritsasini, ya`ni a`zolarining nomerlangan ro`yhatini tuziladi. Qizlarning familiyasi doira bilan, o`gil bolalarning familiyasining uchburchak bilan belgilanadi. Keyin 3 - 4 doira chiziladi. O`quvchilarga quyidagi yozma savollar berib, ularga javob yozilishi aytiladi. Savollar quyidagi mazmunda bo`lishi mumkin: "Sen kim bilan bir partada o`tirishni xohlaysan?", "Sen sinfda kim boshliq bo`lishini istaysan?" O`quvchilar o`zlari yoqtirgan tengdoshining familiyasini yozib berishlari kerak. Kim ko`p ovoz olsa, eng ichkarigi doiraga, undan kamroq ovoz olgan ikkinchi doiraga, eng kam ovoz olgan o`quvchi eng katta doiraga belgi bilan joylashtiriladi. Jamoada yoshlarda umumiy axlok normalariga to`g`ri keladigan munosabatlar: talabchanlik, odillik, jamoachilik, o`rtoqlik, g`amxo`rlik, nazokatlik, sofdillik, vatanparvarlik, mehr - muruvvatlik kabi xislatlar shakllantiriladi.

Har bir jamoaning o`z lideri - boshlig`i bo`ladi. Lider shu jamoa ichidan etilib chiqishi kerak. Lider rasmiy va norasmiy bo`lishi mumkin. Rasmiy lider yuqoridan tayinlanadi. Masalan, rahbarlar tayinlanadi. Norasmiy liderlar referent guruh boshliqlari, bo`lishi mumkin. Tashqilotchilar ham norasmiy lider hisoblanadi. Liderlar o`z ortlaridan boshqalarni ergashtira oladigan kishilardir. Ularda tashqilotchilik qobiliyatlari shakllangan bo`ladi.

Guruhdagi kishilar konformli, ya`ni kelishuvchan, kechirimli bo`lishlari lozim. Agar guruh uyushgan bo`lsa konformlilik kuchli bo`ladi. Jamoadagi shaxslar konformlilik asosida barcha ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Guruh yoki jamoada kelishuvchanlik bo`zilsa, muloqot to`g`ri amalga oshirilmasa konfliktlar - nizolar kelib chiqishi mumkin. Nizolar ikki xil bo`ladi: a) shaxsiy adovatlar asosida kelib chiqadigan nizolar; b) xizmat (ish) yuzasidan kelib chiqadigan nizolar. Nizolarni bartaraf qilish rahbar - liderlarning qobiliyatiga bog`liq.

4. Ommaviy tusdagi psixologik hodisalar

1. Vahima. Inson psixikasiga xos ommaviy tusdagi hodisaga vahima kiradi. Vahima - qoʻrqishning namoyon boʻlishidan iborat boʻlib, uyushmagan guruhni qamrab olsa, oʻzaro taqlid qilish natijasida kuchayib ketadi. Guruhlar ichki jihatdan uyushgan boʻlsa vahima sekin tarqaladi. Masalan: 1966 yilgi Toshkent zilzilasi davrida vahima gaplar juda koʻp tarqalishi oqibatida koʻpchilik kishilar oʻylariga kira olmay koʻchalarda yashaganlar. YAdro vahimasi, uchar tarelka, koʻrinmas odam, boshqa planetaliklarning kelish vahimasi ommaviy tus olib ketadigan hodisalardir. Hozirgi bozor iqtisodiyoti davrida ocharchilik, qimmatchilik, iqtisodiy tanqislik vahimasi kishilarni qoʻrqitadi.

2. Musobaqa hodisasi. Tadbirkorlik, oilaviy pudrat, fermerlik, xoʻjalik hisobiga oʻtib ishlash kabi kishilar gʻayratini qoʻzgʻaydigan hodisalar - bu ijobiy hodisa. Musobaqa kishilarni ilxomlantiradi, gʻayratini kuchaytiradi.

3. Ijtimoiy kayfiyat. Ommaviy tus oladigan bir guruh doirasidagi hodisa. Bu psixologik iqlimni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy kayfiyatni yuzaga keltiruvchi asosiy omil - bu guruhdagi shaxslararo munosabatlardir. Masalan: Jamoada kelib chiqadigan muammolarni yaxshi psixologik iqlimga ega boʻlgan jamoa aʼzolari ancha engillik bilan hal qiladilar. Agar guruhda va jamoada bitta igʻvogar boʻlsa shu jamoaning mehnat samarasi pasayib ketadi.

4. Jamoa tafakkuri. Bu quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: jamoa tafakkuri jarayonida har bir jamoa aʼzosining yuzaga kelgan vazifalarni hal qilishda bir maqsadga intilib harakat qilishi kuchayadi, jamoa tafakkuri hal qilinishi lozim boʻlgan vazifani oʻylab, har tomonlama yoritib olish imkonini beradi, dadillik bilan tashabbus koʻrsatish qobiliyatiga ega boʻladi, tanqidiy qarash ortadi, bu esa oʻz - oʻzini tanqid qilishning ortishiga olib keladi. Jamoadagi har bir shaxsning oʻz individual ongi va shu bilan birga maʼlum bir yagona maqsadga qaratilgan jamoa ongi boʻladi. YAKka tartibda harakat qilgandan koʻra jamoa boʻlib harakat qilinsa yaxshi natijalar olish mumkin.

YUqoridagi barcha masalalarni ijtimoiy psixologiya oʻrganadi. SHaxs psixologiyasi bilan bogʻliq boʻlgan ijtimoiy psixologiyaning vazifasi mehnat va taʼlim hamda guruh faoliyatini boshqa hamma turlari mehnat unumdorligini oshirishdan iborat.

5. Jamoadagi moslik

SHaxs boshqa kishilar bilan munosabatga kirishar ekan, u oʻzining feʼl - atvori va xatti - harakatlarini boshqalarning xatti - harakatlari bilan uygʻunlashtirib olib borishi, yaʼni har bir shaxs jamoa aʼzolari bilan sigʻishishi kerak. Buning uchun shaxs boshqa aʼzolari chugʻur oʻrganishi lozim. Jamoadagi shaxslararo munosabatlarni, yaʼni shaxslarning bir - birlariga yordam berishlarini, doʻstlashishi, janjallashishi, yarashishlarini oʻrganib chiqish kerak boʻladi. Jamoadagi munosabatlarni oʻrganish rahbarlik qilish imkoniyatini tugʻdiradi.

SHaxs jamoada boshqalarga mos keladigan boʻlsa, uning xulq - atvori va harakatlari boshqalarda ijobiy reaksiya tugʻdiradi. Psixologik jihatdan sigʻishmaydigan boʻlsa, uning feʼl - atvori, harakatlari boshqalarda salbiy reaksiya tugʻdiradi. Psixologik jihatdan sigʻishmaydigan kishilar jamoada uzoq vaqt qololmaydilar. SHaxsning jamoa bilan moslasha olmasligiga bir necha sabablar boʻlishi mumkin. Masalan: yagona bir maqsadning boʻlmasligi, shaxsda salbiy xislatlarning boʻlishi, takabburlik, ezmilik, oʻzini tuta olmaslik kabilar.

Guruh ongi bilan guruhiy moslik bir - biri bilan bogʻliq tushunchalardir. Jamoa va guruhiy moslik fiziologik , psixologik boʻlishi mumkin. Masalan, jismoniy jihatdan zaif boʻlgan yigit bilan sogʻlom, kuchli yigitga bir xil ish topshirilsa ularda fiziologik nomoslik kuzatiladi. YOshi turli xil oʻquvchilarda bir xil masala echish topshirilsa psixologik jihatdan nomoslikni keltirib chiqaradi.

? *Ingliz xalq maqolida shunday deyilgan: “Senga kulgili boʻlib tuyulgan latifadan kulmaydigan qizga aslo oʻylanish mumkin emas”, bu fikrga munosabatingiz?*

Jamoa va guruhdagi moslik shaxslarning bir qator xususiyatlariga bogʻliq. Bunday xususiyatlar jismoniy, yaʼni boʻyni balandligi, muskul kuchiga bogʻliq. SHuningdek, idrok, diqqat, tafakkur, iroda xususiyatlariga ham bogʻliq boʻladi. Masalan, guruh aʼzolaridan biriga

yoqadigan musiqa boshqasiga yoqmasligi mumkin. Oilada er va xotinning xarakteri mos bo'lishi kerak.

Psixologik moslik deganda guruh a'zolari sifatleri va qarashlarining aynanligi emas, balki ular ayrim sifatlarining mos kelishi, qolganlarining tafovut qilishi nazarda tutiladi. Bundan tashqari fanda psixofiziologiya va ijtimoiy psixologik moslik ham farqlanadi. Birinchi holatda faoliyat jarayonida odamlarning bir xil va mos tarzda harakat qila olishlari, ish ritmi va tezligidagi uyg'unliklar nazarda tutilsa, ikkinchisidan ijtimoiy xulqdagil moslik - ustanovkalar birligi, ehtiyoj va qiziqishlar, yo'nalishlar birligi nazarda tug'iladi. Birinchi xil moslik sanoat korxonalari xodimlarida samarali bo'lsa, oliygoh o'qituvchilari, ijodiy kasb egalarida ijtimoiy psixologik moslikning ahamiyati katta.

6. Guruh va jamoadagi ruxiy muhit

Ijtimoiy psixologik muhit deganda, o'sha guruhning a'zolari fikrlari, hissiyotlari, dunyoqarashi, ustanovkalar va o'zaro munosabatlaridan iborat bo'lgan emotsional - intellektual holatni tushunamiz. Bu o'rindagi asosiy omil a'zolarining o'zaro munosabatlaridir. Ma'lumki, o'zaro munosabatlar ish yuzasidan, faoliyat maqsadlari va mazmuni bilan hamda bevosita bir - birlarini yoktirish - yoqtirmaslikka asoslangan insoniy emotsional hissiyotlar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Professional faoliyatni bajarish jarayonida birinchi tipli munosabatlar ustun bo'lib, ikkinchilarining xarakterlari birinchisidan kelib chiqadi. Do'stlar to'plangan davradagi muhit esa bevosita simpatiyalarga tayanadi. Jamiyatdagi barcha nizolar, muammolarning echish usullaridan biri insonlar o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish va shunga ko'ra jamiyatdagi o'zgarishlarni amalga oshirishdir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Liderning obro'si nimalarga bog'liq?

- a) lider boshqalarning o'rniga "o'zini qo'yib ko'rsa";
- b) unga nisbatan bo'lgan xodimlarning, hamkasblarning munosabatlariga (hurmat qilishlari, sevishlari);
- v) ikkalasi ham to'g'ri.

2. Konformlilik nima?

- a) moslashish;
- b) uddaburonlik;
- v) kelishuvchanlik.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

- 1. SHartli guruh a'zosi bir paytda boshqa guruh a'zosi bo'lishi mumkinmi?
- 2. Guruh turlarini sanang.
- 3. Jamoa eng uyushgan guruh bo'lsa, uyushgan banda ham jamoa bo'lishi mumkinmi?
- 4. Lider rahbar bo'lishi yoki rahbar bir paytning o'zida lider bo'lishi mumkinmi?
- 5. Norasmiy lider rasmiy liderdan qanday farq qiladi?

Muammoli vaziyat:

- 1. Rahbarni hurmat qilish kerak, shundagina jamoada ruxiy muhit yaxshi bo'ladi, birgalikdagi faoliyat samarali bo'ladi.
- 2. Rahbar qo'l ostidagi xodimlarining mavqeidan foydalansagina jamoa a'zolarining birgalikdagi ish faoliyatlari samarali bo'lib, ruxiy muhit yaxshilanadi. YUqoridagi holatlardan qaysi biri sizningcha to'g'ri?

Foydalanish uchun tavsiya etiladigan adabiyotlar.

- 1. I.Karimov. YAngicha fikrlash va ishlash - davr talabi. 5 jild. T. "O'zbekiston". 1997.
- 2. G.M.Andreeva. Sotsial'naya psixologiya. Uchebnik. M. 1998.
- 3. Barkamol avlod orzusi. T. "SHarq". 1999.
- 4. V. Karimova . Psixologiya. T. 2002.

7 - Mavzu: Bilish jarayonlari. Diqqat

Reja:

1. Diqqat to'g'risida tushuncha

2. Diqqatning fiziologik mexanizmlari

3. Diqqat turlari

4. Diqqat va ong

5. Bilish jarayonlari

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar;

Diqqat – ongimizning muayyan ob'yektga yo'naltirilishi va unda to'planishidan iborat psixik holat.

Diqqat turlari:

Diqqatning aktivligiga qarab:

- a) **Ixtiyorsiz** – to'satdan ta'sir qilgan biror sabab tufayli bizning xohishimizdan tashqari hosil bo'ladigan diqqat turi.
- b) **Ixtiyoriy** – oldindan belgilangan qat'iy bir maqsad asosida va ongli ravishda diqqatimizni ma'lum bir narsa va hodisalarga qaratilishi.
- c) **Ixtiyoriydan so'nggi diqqat** – agar maqsadga qaratilgan faoliyatda shaxs uchun diqqatning ixtiyoriy to'planganidagi kabi faqat natijasi emas, balki uning mazmuni va jarayonning o'zi qiziqarli va ahamiyatli bo'lishi.

Diqqatning ob'yektiga qarab: tashqi va ichki.

Diqqatning faoliyat turlariga qarab: individual, guruhviy va jamoaviy.

Diqqat xususiyatlari:

Diqqatning kuchi va barqarorligi – odam o'z diqqatini biror narsa yoki hodisaga uzoq muddat davomida muttasil qaratib tura olishiga aytiladi.

Diqqatning ko'lami – bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'yektga qaratilish imkoniyati

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha ob'yektga yoki faoliyatga taqsimlanish xususiyati

Diqqatning ko'chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob'yektdan ikkinchi ob'yektga ko'chirish

Dominant (lot. *dorainans*-hukmron) – markaziy nerv tizimining vaqtincha hukmron qismi bo'lib, boshqa qismlar faoliyatini tormozlaydi

Idrokning aniqligi va samaradorligiga bevosita aloqador bo'lgan psixik jarayonlardan biri — diqqatdir. Shuning uchun ham uyqusirab o'tirib ma'ruza tinglagan talabaning o'sha ma'ruza matnini idrok qilishi qay darajada bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish qiyin emas. Shuning uchun ham biz diqqatimizni kerakli ob'yektda ushlash uchun, yuqorida misolda talabaning ma'ruzani to'la idrok qilishi uchun konspekt qilish kerakligi tavsiya etiladi. Chunki, shu paytda ongimiz eshitayotgan so'zlarning mazmuniga qaratilgan bo'ladi. Demak, **diqqat** — shunday psixik jarayonki, uning yordamida ongimiz o'zimiz uchun ahamiyatli bo'lgan narsalar, hodisalar, predmetlar mohiyatiga qaratiladi. Ya'ni, diqqat — ongning yo'nalganligini tushuntiruvchi psixik jarayondir. Gap shundaki, bizni o'rab turgan borliq va undagi hodisa va predmetlar dunyosi shunchalik murakkab va turfaki, biz ongimizni bir vaqtda ularning barchasiga birdan yo'naltira olmaymiz. Diqqat shuning uchun kerakki, u bizga ayni vaqtda kerak bo'lgan ob'yektni shu turfaning orasidan ajratib, uni o'rganish yoki tanishishga imkon beradi. Masalan, o'qituvchining savoliga javob berayotgan o'quvchini tasavvur qiling: gapirayotib, barmoqlari bilan daftarinig qirg'og'ini hadeb buklayotganligini o'zi

sezmaydi. O'qituvchining «Daftarni tinch qo'y», degan tanbehigina uning diqqatini o'zi amalga oshirayotgan harakatga yo'naltiradi.

Bilish jarayoni kechishning eng muhim xususiyati uning tanlaydigan, yo'naltirilgan tusdaligidan iboratdir. Tevarak-atrofdagi olamning ko'plab ta'sirlari orasida kishi xamisha nimanidir idrok etadi, nimanidir faraz kiladi, nima haqidadir fikr yuritadi, o'ylaydi. Ongning bu xossasini uning diqqat kabi turi bilan o'zaro bog'liq deb hisoblashadi. Diqqat bilish jarayonlaridan farqli o'laroq, uzining alohida mazmuniga ega emas, u barcha bilish jarayonlarining jo'shkin jihatidir. Diqqat individning hissiy, aqliy yoki harakatlantiruvchi faolligi darajasining oshirilishini talab etadigan ongning yo'naltirilganligi va bir narsaga qaratilganligidir.

Diqqatning asosan ikki xil turi farqlanadi: **ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqat**. Agar **ixtiyoriy** diqqat shaxs onganing bevosita o'zi uchun ahamiyatli ob'yektlarga ataylab jalb etishi bo'lsa, (masalan, ma'ruzani to'la tushunish uchun talabaning urinishlari) **ixtiyorsiz** diqqat narsa va hodisalarning mazmun va mohiyati, jozibasiga bog'liq tarzda ongimizning ma'lum narsalarga yo'nalganligidir. Masalan, tijorat do'konida mashhur aktyor kiyib rol o'ynagan ko'ylak qizlarning diqqatini beixtiyor o'ziga tortadi. Bundan tashqari ixtiyoriydan so'nggi diqqat turi ham mavjud.

Diqqat sezgi, xotira, tafakkur va harakat jarayonlarida namoyon bo'lishi mumkin. Shu sababli diqqatni biror narsaga qaratish ob'yektiga bog'liq holda quyidagi shakllarini ajratib ko'rsatadilar: **sensor (perseptiv), aqliy harakatlantiruvchi**. hosil bo'lish va amal qilish xususiyatlariga ko'ra esa diqqatning ikkita asosiy turi mavjud: ixtiyorsiz va ixtiyoriy. Ixtiyorsiz diqqat kishining anglashilgan niyatlari va maqsadlaridan mustasno tarzda hosil bo'ladi, ixtiyoriy ongli ravishda boshqarilayotgan va tartibga solinayotgan bo'ladi. Ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqat zahirida paydo buladi. Ixtiyorsiz diqqatning paydo bo'lishi psixofiziologik va psixik omillar bilan belgilanadi. Kuzatuvchilarning sifati, sub'yekt uchun yangiligi ixtiyorsiz diqqat paydo bo'lishidagi asosiy shart hisoblanadi. Ixtiyoriy diqqat shaxs faoliyatida namoyon bo'ladi, uning asosiy vazifasi psixik jarayonlarning kechishini faol boshqarib turishdir. Kishi ixtiyoriy diqqat tufayli xotiradan o'zi uchun zarur ma'lumotlarni faol tarzda, tanlab ajratib olishga, muhim va jiddiy narsalarni alohida ajratib ko'rsatishga, to'g'ri harorlar qabul kilishga, faoliyat jarayoniga paydo bo'ladigan vazifalarni amalga oshirishga layoqatli bo'ladi.

Diqqatni jalb etishning bir nechta universal qoidalari bor. Masalan, birinchisi — **contrast** qonuni. Masalan, televizor ko'rib o'tirib, birdan bir kanalning boshqasi bilan ulanib qolishi, ranglarning birdan almashinishi, xorij safari vaqtida kutilmaganda ona tilida kimningdir orqangizda turib gaplashishi kabilar idrokni aniqlashtirish va buning uchun diqqatni o'sha narsaga qaratishga sabab bo'ladi yoki Toshkentning an'naviy qiyofasida paydo bo'lgan o'ta zamonaviy bino, masalan, Banklar assosiyasiyasi binosi kontrast effekt beradi, chunki u boshqa ob'yektlardan tub farq qiladi. Shuning uchun ham diqqatimiz noan'anaviy, ajralib turadigan narsalarga idrokimizni, ongimizni yo'naltiradi.

Diqqat turlicha sifat ko'rinishlari bilan ta'riflanadi. Diqqatning bu ko'rinishlarini diqqatning sifati yoki diqqatning xususiyatlari deyiladi. Diqqatning barqarorligi, kuchishi, taqsimlanishi va ko'lami shular jumlasiga kiradi.

Diqqatning barqarorligi diqqat qaratilgan ob'yektlarning xususiyatlariga va diqqati yo'naltirilgan shaxs faolligiga bog'liq. Diqqat jalb qilinadigan ob'jektning o'zgaruvchanligi, harakatchanligi diqqatni uzoq vaqt mobaynida jalb etishning muhim shartlaridir. Agar ob'jektning o'zi o'zgarmaydigan bo'lsa va uni turli jihatdan o'rganib bo'lmasa, u holda bu ob'jektga uzoq vaqt mobaynida diqqatni jalb etish o'ta mushkul, chunki bir xillik diqqatni susaytirib kuyadi. Ob'jektning murakkablanishi va shaxsning faolligi diqqatning barqarorligiga olib keladi.

Diqqatning ko'chishi sub'jektning bir faoliyatdan ikkinchi faoliyatga, bir ob'jektdan ikkinchi ob'jektga, bir harakatdan ikkinchi harakatga ataylab o'tishidan namoyon bo'ladi. Diqqatning ko'chirilishida individual farqlar mavjud. Ba'zi odamlar bir faoliyatni ko'rib, ikkinchisini bajarisha oladi, boshqalar uchun bu ancha vaqt va kuch –g'ayrat sarflashga olib keladi.

Diqqatning ko'lami idrok etiladigan ob'yektlarning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Idrok etilayotgan materialni mazmuniga ko'ra guruhlariga ajratish, sistemaga solish diqqat ko'lami kengayishga ko'ra guruhlariga ajratish, sistemaga solish diqqat ko'lami kengayisha olib keladi.

Diqqatning salbiy jihati ham mavjud. **Bu parishonxotirlikdir. Parishonxotirlik** diqqatni uzoq vaqt davomida jadal bir narsaga qaratishga layoqatsizlikda, diqqatning tez-tez va oson bo'linib turishida namoyon bo'ladi. Bundan ish, o'qish faoliyati susayishi kelib chiqadi. Shuningdek diqqatning haddan tashqari harakatchanligi va aksincha harakatsizligi ham kuzatiladi.

Talabalar o'z ta'lim faoliyatlarida diqqatlarini tarbiyalab borishlari kerak, bu o'z navbatida o'quv samaradorligiga olib keladi.

Qaytaruv qonuni. Saylov oldi jarayonlarida nomzodlar o'z fotosuratlarini yoki siyosiy partiyalari haqidagi ma'lumotlarni har bir mahalla va katta ko'chalarga iladilarki, shu orqali ko'pchilikning diqqatini o'zlariga jalb qiladilar.

Yangilik qonuni. Ma'lumotning yangiligi, shaxs uchun kutilmaganda paydo bo'lishi ham diqqatni jalb etuvchi kuchli omil. Reklamada ham «Birinchi marta» deb berilgan ma'lumot, ijtimoiy jarayonlardagi yangiliklarning o'ziga xos betakrorligi, do'stingiz ustidagi yangi kostyum, bildirilgan yangi fikr yoki g'oya albatta, o'zgalar diqqatini o'ziga tortmay qolmaydi.

Ommaviy ta'sirlanish qonuni. Ommaviy axborot vositalari orqali bugun dunyoga taralayotgan biror xabar, yoki ataylab odamlar o'rtasida tarqatilgan «mish-mish» yoki «shov-shuvlar» alohida ayrim shaxslarning ham diqqat markaziga tushadi. qolaversa, biz hammani qiziqtirgan, hamma gapirib yurgan ma'lumotga ishonamiz, hamma kiygan libosga e'tibor qaratib, o'zimizda ham bo'lishini xohlaymiz.

Bilish jarayonlari va professional faoliyat. Professional faoliyat shaxsdan juda ko'p bilimlarni hamda malakalarni talab qiladi. Nima uchun u yoki bu kasbni tanlaganini anglab yetgan shaxs (motivlar muammosi), endi o'z faoliyati va qobiliyatlarini boshqara bilishi va o'z ustida muttasil ishlab, malakalarini orttirib borishi shart. Professional bilimdonlik shu nuqtai nazardan shaxs umumiy madaniyatining shunday yo'nalishiki, unga faqat kasbiga taalluqli bo'lgan bilimlardan tashqari shu bilimlarning hosil bo'lish yo'llari va malakalarning takomillashuvini ta'minlovchi psixologik jarayonlar va holatlarni bilishni ham taqozo etadi. Bu psixologiyada bilish jarayonlari va ularning mohiyatini va kechishini bilish demakdir.

Ma'lumki, odamlar bir-birlaridan ko'p jihatlari bilan farq qiladilar. Masalan, ayrimlar ko'rgan - kechirganlarini juda yaxshi esda olib qolib, kerak vaqtda aniq esga tushira oladilar. Ba'zilar ko'zi bilan ko'rgan har qanday ob'yektni mayda detallarigacha bayon etish qobiliyatiga ega. Yana birlari eshitgan narsalari xususida aniqroq fikrlaydi, kimdir sodda, ravon tilga o'z his - kechinmalarini ayta olsa, boshqalar - har bir hikoyaga albatta, fantaziya elementlarini qo'shishga moyil bo'ladilar. Demak, odamlarning tashqi olamdan oladigan taasurotlari va ularni ongda tartiblashtirish qobiliyatlari har xil bo'larkan. Ikkinchi tomondan, shunday kasblar borki, u shaxsdagi u yoki bu sifatlarning mukammallashib borishiga imkon beradi. Masalan, yirik avtomatik boshqaruv tizimlarida ishlaydigan operator o'z diqqatini har qanday mayda o'zgarishlarga ham qaratishga o'rgansa, konstruktor mavhum matematik hisob - kitoblarga usta bo'lib boradi. Iqtisodchi - moliyachi pulning har bir tiyiniidan foyda olishga o'rgansa, shoir tabiatan barcha hodisa va voqealarni badiiy bo'yoqlarda, o'ziga xos idrok qilishga moyilligi oshadi. Demak, odamning tashqi olam xossa va xususiyatlarini ongida aks ettirishi uning iqtidori o'sishi va professional malakalari rivojlanganligiga bog'liq tarzda kechadi. Shuning uchun har ongning muhim aks ettirish shakllari bo'lmish bilish jarayonlari - idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlarning inson hayoti va professional o'sishidagi rolga to'xtab o'tamiz. Bu jarayonlar insonga juda yaqin va tanish. Chunki har birimiz ongimiz borligini, atrofdagi narsalar va hodisalarning ayrim alohida hamda yaxlit xususiyatlarini bilamiz. Bu narsa va hodisalar bizda har bir alohida sharoitda o'ziga xos hissiy - kechinmalarni keltirib chiqarishini ham bilamiz. Masalan, qorningiz och qolganda, yemishga bo'lgan talabingizni xaqiqatan bor yoki yo'qligini birovlardan so'ramaysiz-ku? Yoki kitob mutolaa qilayotgan shaxs shu kitobni rosti bilan ham o'zi o'qiyotganligini boshqalardan so'ramaydi. Bunday ishlar o'z - o'zidan tabiiy jarayonlarday kechaveradi. Faqat imtihon paytida kecha kechasi bilan mutolaa qilib, o'rganib chiqqan materialni nega hozir domla oldida eslay olmayotganligingiz sizni ko'proq qiziqtiradi va siz "Xotiram ustida ishlashim kerak" degan xulosaga kelasiz.

Darqaiqat, bilish jarayonlari ham ma'lum ma'noda boshqariladigan jarayonlar bo'lib, agar siz o'z imkoniyatlaringizni kenggaytirish yoki iqtidor darajangizni orttirmoqchi bo'lsangiz, bu jarayonlarga oid ma'lum qoidalar va xususiyatlarni bilib olishingiz kerak.

Bilish jarayonlari. Inson ongi bir qarashda yaxlit narsa, aslida u ayrim alohida jarayonlardan iborat. Shuning uchun ham atrof - muhitni, o'zimizni bilishimizga imkon beruvchi ongni o'rganish uchun uni alohida psixik jarayonlarga bo'lib o'rgana boshlaganlar. Bu jarayonlar - sezgilar, idrok, xotira, diqqat, tafakkur, nutq va boshqalardir. Bu jarayonlar shu qadar bir - birlari bilan bog'liqlik, birini ikkinchisiz tasavvur qilishning o'zi qiyin. Masalan, ko'rib idrok qilib turgan narsangizni fikrlamay ko'ringchi, uning mohiyatini bilasizmi? Diqqat bilan ko'rgan yoki o'qigan tekstingizni eslab qolasiz. Yoki biror narsa to'g'risida fikrlash uchun bizga bir vaqtda ham ilgari idrok obrazlari, ham eslab qolish mahoratimiz, ham ichki nutqimiz, irodamiz va diqqat kerak bo'ladi. Xattoki, tasodifan qo'limizga kirib ketgan zirapchaga bergan reaksiyamiz ham emosiyalardan tashqari, o'sha narsaning bu erda qanday paydo bo'lganligi kabi qator tafakkur jarayonlarini keltirib chiqaradi.

Murakkab kompyuter texnikasi chiqqandan keyin odamning o'z psixik jarayonlariga qiziqishi yanada ortdi. Endi ma'lumotlarni qabul qilish (an'anaviy idrok deb ataluvchi jarayonga o'xshash), ularni qayta ishlash (tafakkurga o'xshash) va uni saqlash (xotira) haqida ko'p gapiradigan bo'lib qoldik. Lekin bu insondagi tabiiy jonli jarayonlar ahamiyati va tarbiyasi masalasini yanada yuqori ko'tardi.

Psixologiya sohasida eksperimental ishlarning muvoffaqiyatli amalga oshirilishi aslida inson psixikasi kompyuterdan ko'ra murakkabligi va odam anglagan ma'lumotlaridan ko'proq narsalarni idrok qilib, qabul qilishini isbotladi. Masalan, maxsus asboblar yordamida aslida odam ko'rmayotgan, his qilmayotgan juda kuchsiz signallar ham fiziologik reaksiyalarni keltirib chiqarayotganligi qayd etildi. Masalan, shu narsa aniqlanganki, odam kino ko'rayotganda bir sekundda 24 kadrni idrok qiladi va biror tasvir ko'z o'ngida gavdalanadi. Psixologlar shunday eksperiment qilishdi: kunlarning birida o'ziga xos tasvir namoyon etildi. 24 ta kadr o'rniga 25 kadr berib, o'sha 25-kadrda "Koka - kola iching" degan yozuv berildi. Tabiiy, oddiy idrok bu bitta kadrni ilg'amaydi. Lekin kinoteatr bufetida ushbu ichimlikni ichish kadrndan keyin 18 foizga oshgan. Demak, aslida ong bu ma'lumotni qabul qilgan, lekin real anglash, oydinlashuv ro'y bermagan ekan.

Analogik holat xotiramizda ham tez - tez ro'y beradi. Kimnidir uchratib qolamizda, o'ylanamiz: qayerda ko'rgan ekanman? hech eslolmaymiz, lekin yuzi, ko'zi va boshqa sifatlari tanishday. Buni ham shunday izohlash lozimki, odam ko'rgan - kechirganlari aslida miyada saqlanadi, biz ong sohasiga ayrimlarinigina chiqara olamiz. Faqat, kasal bo'lib yoki biror narsadan qattiq tashvishga tushganimizda kallamizga har xil o'y - fikrlar kelaveradi. O'shalar aslida bor narsalarning beixtiyor tiklanishi.

Ongdagi ma'lumotlarning aslida miyamizdagilardan kamligining asosiy sababi - odam harqanday ma'lumotni saralab, tanlab qabul qiladi, o'zi uchun "ahamiyatsiz" deb baholagan narsaga diqqat ham qilmaydi, eslab qolmaydi ham. U o'z ongida barcha mavjud ma'lumotni o'ziga xos tarzda qayta ishlaydi, o'zgartiradi. Shuning uchun ham har bir inson o'ziga xos va qaytarilmasdir - individualdir, deyiladi. Bilish jarayonlardagi individuallik sabablarini tushunish uchun eng muhim bilish jarayonlari bilan tanishamiz.

Idrok va idrok qilish qonunlari. Psixologlarning fikricha, inson nimaniki idrok qilsa, uni figura va fonda idrok qiladi. **Ob'yekt**- shunday narsaki, uni aniq anglash, ajratish, ko'rish, eshitish va tuyish mumkin. **Fon** esa aksincha, noaniqroq, umumiyroq narsa bo'lib, aniq ob'yektni ajratishga yordam beradi. Masalan, gavjum bozorda ketayotgan taqdirda ham o'z ismimizni birov aytib chaqirsa, darrov o'sha tarafga haraymiz. Ism - ob'yekt bo'lsa, bozordagi shovqin - fon rolini o'ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, biz biror narsani idrok qilayotgan paytimizda uni albatta biror fondan ajratib olamiz. Masalan, gul bozorida aynan qip-qizil atirgul sizga yoqib qolib, o'shani xarid qilasiz, qolgan gullar fonda ongningiz aktiviga o'tmaydi.

Shunday qilib, **idrok** - bu bilishimizning shunday shakliki, u borliqdagi ko'plab, xilma-xil predmet va hodisalar orasida bizga ayni paytda kerak bo'lgan ob'yektni xossa va xususiyatlari bilan yaxlit tarzda aks etishimizni ta'minlaydi. Ya'ni, idrokning asosida narsa va hodisaning yaxlitlashgan obrazi yotadiki, bu obraz boshqalaridan farq qiladi. Idrok o'ziga nisbatan soddaroq bo'lgan sezgi jarayonlaridan tashkil topadi. Masalan, olmaning shaklini, xidini, mazasini, rangini sezamiz, ya'ni alohida - alohida

xossalar ongimizda aks etadi. Bu - sezgilarimizdir. Sezgilar yaxlit tarzda idrok jarayonini ta'minlaydi. Lekin olimlar idrokni sezgilarning oddiygina, mexanik tarzda birlashuvi, degan fikrga mutloqqarshilar. Chunki idrok ongli, maqsadga qaratilgan murakkab jarayon bo'lib, unda shaxsning u yoki bu ob'yektga shaxsiy munosabati va idrokda faolligi asosiy rol o'ynaydi. Masalan, buni isboti uchun ko'pincha Rubin figurasi tavsiya etiladi. Unda ikkita qora profil oq fonda berilgan. Bir qarashda ayrimlar bu rasmlarga qarab, "Bu - vaza" deb atasa, boshqalar uni bir – biriga qarab turgan ikki kishi yuzining yon tomondan ko'rinishi, deb ta'riflashi mumkin. Shunisi xarakterliki, birinchi marta shu rasmni ko'rgan odam uni yaxlit idrok qilib, nima ekanligini tushunishga harakat qiladi, lekin biror figurani ko'rgach, ma'lum vaqtgacha boshqasini ko'rmay turadi. Agar shu idrok darajasi qolsa, ya'ni yana nimanidir ko'rishni xohlamasa, u ikkinchi figurani ko'rmasligi ham mumkin. Bu bizdagi idrok jarayonlarining faolligimizga, ob'yektga munosabatimizga bevosita bog'liqligini ko'rsatib turibdi. Ikkinchidan, idrok bizning kayfiyatimizga ham bog'liq. Tashvish bilan yo'lakchadan o'tib ketayotib, oyog'ingiz tagidagi narsa tugul, ro'paradagi odamni ham ko'rmay qolishingiz mumkin. Yoki san'at muzeyida tomosha qilib yurgan ikki kishi bir rasmda tamoman har xil narsalarni, elementlarni ko'rishi mumkin. Yaxshi kayfiyatda, yaxshi do'stlar kompaniyasida iste'mol qilgan taom sizga juda mazaliday tuyuladi. Agar talaba biror fan predmetidan qarzdor bo'lib qolsa, och qoringa yegan shirin taomi ham "ta'timaydi", xatto nima ekanini ham unutib qo'yadi. Yomon kayfiyat ko'proq qora, nursiz ranglarni idrok qilishga moyil bo'lsa, yaxshi ko'tarinki kayfiyat, aksincha, hamma narsani eng yoqimli ranglarda "ko'radi". Bu yana bir bor idrokning oddiygina aks ettirish yoki bilish jarayoni emas, balki shaxsdagi faol ustanovkalarga bog'liq bo'lgan, mantiqan asoslangan ongli jarayon ekanligini isbotlaydi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Diqqatning qaysi turi o`quv materiallarini o`zlashtirishda ijobiy rol o`ynaydi?

- a) ixtiyorsiz;
- b) ixtiyoriy;
- v) muvofiqlashtirilgan;
- g) ichki diqqat.

2. O`quvchi darsda o`z diqqatini avval o`qituvchiga, so`ngra doskaga , keyin daftarga va yana o`qituvchiga qaratadi. Aytingchi, bu erda diqqatning qaysi xossasi namoyon bo`ladi?

- a) taqsimlanishi;
- b) ko`lami;
- v) ko`chishi;
- g) barqarorligi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Diqqatning umumiy xususiyati nimadan iborat?
2. Diqqatning fiziologik asosini tushuntiring.
3. Ixtiyoriydan so`nggi diqqatni tushuntirib bering.
4. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz diqqatning bir-biridan farqi nima?

“Kim tezroq” (diqqatni mashq qildirish)

1.O`quvchilarga biror matndagi eng ko`p uchraydigan, masalan, “a” va “o” harflarini chizib chiqish tavsiya etiladi. Topshiriqni bajarish muvaffaqiyati sarflangan vaqt va

yo`l qo`yilgan xatolar miqdoriga qarab baholanadi. Xatolar qanchalik kam bo`lsa, muvaffaqiyat shunchalik yuqori bo`ladi.

2. Diqqatning ko`chishi va taqsimlanishini mashq qildirish uchun topshiriqning mohiyatini biroz o`zgartirish mumkin. Bir harfni vertikal chiziq bilan, ikkinchisini gorizontal chiziq bilan chizish mumkin. Asta - sekinlik bilan vazifani murakkablashtirib borish, ya`ni bittasini chizish, ikkinchisini aylana ichiga olish, uchinchisini tagiga chizib quyish mumkin.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Davletshin M.G, To`ychieva M. Umumiy psixologiya –T., 2002.
2. Karimova V. Psixologiya. O`quv qo`llanma. –T., A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
3. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. –T., 2002.
4. Nemov R.S. Psixologiya. V 2-x kn. –Kn. 1. –M., 2004.
5. Psixologiya. Uchebnik. Pod. Red. A.Krilova. –M., 1998.
6. G`oziev E. Psixologiya. –T., 1994.

SEZGI VA IDROK

Reja:

1. Sezgilar to'g'risida tushuncha.
2. Sezgilarni klasifikasiya qilish negizlari.
3. Sezgi qonuniyatlari.
4. Idrok to'g'risida tushuncha.
5. Idrok obrazlarni predmetli, yaqqol mazmuni.
6. Idrokni individual xususiyatlari.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Sezgi – psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat, voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi.

Interioretseptiv sezgilar – (lot.interior-ichki, redpiere-olmoq) – ichki a'zolariga joylashgan reseptorlar.

Proprioreseptiv sezgilar (lot.proprius – xususiy, maxsus, regipere-qabul qilmoq) – tananing turli qismlardagi holatlardan va ularning harakatlaridan darak beruvchi sezgilar

Eksteroreseptiv sezgilar – tashqi olamdagi narsa va hodisalarning turli xususiyatlari haqida darak beruvchi sezgilar, masalan: ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilishdan iborat tashqi sezgilar

Kinestetik sezgi (yunon. kineo-harakatga keltiraman) – o'z tana a'zolarining holati va harakatini propreoreseptorlar ta'siri ostida sezish.

Sensibilizasiya (lotin.sensibilis-sezuvchan) – ichki omillar ta'siri natijasida analizatorlar sezgirligining ortib ketishi.

**Ob`ekt va fon** - shaxs uchun ayni paytda ahamiyatli narsa (ob`ekt), muhim bo`lmagan narsalar (fon).

Appertseptsiya - idrokning shaxs va uning tajribasiga bog`liqligi.

Konstantlik - narsalarning sharoiti o`zgarsada obrazi o`zgarmasligi.

Illyuziya - bor narsani noto`g`ri, yanglish idrok qilish

Gallyutsinatsiya - yo`q narsalarni idrok qilish

Kuzatuvchanlik - shaxsning idrok qilish qobiliyati

Sezgilar–psixik aks ettirishning oddiy usuli tariqasida hayvonlarga ham, odamlarga ham xos xususiyat bo'lib, u voqelikdagi narsa va hodisalarning ayrim belgi va xususiyatlarini bilib olishni ta'minlaydi. Sezgilar kishiga tevarak-atrofdagi narsa va voqealarning xususiyatlarini bilishga imkon beradi.

Sezgi a'zolari kishiga tevarak–atrofdagi olamda mo'ljal olish imkonini beradi. Agar kishi barcha sezgi a'zolaridan mahrum bo'lib qolsa bormi, u o'zining atrofida nimalar yuz berayotganini bila olmas, tevarak–atrofdagi odamlar bilan munosabatga kirisha olmas, ovqatni qidirib topa olmas, xavf-xatardan qutilib qola olmas edi.

Kishining hayoti va faoliyatida sezgilarning roli juda katta, negaki, ular bizning olam haqidagi va o'zimiz to'g'rimizdagi bilimlarimiz manbai hisoblanadi. Sezgilar bizga ob'yektiv voqelikning haqqoniy suratini beradi, ya'ni olamni u qanday mavjud bo'lsa shundayligicha aks ettiradi. Tovushlar, hidlar va boshqa kuzatuvchilar ko'zga

ta'sir qilganda ko'rish sezgilarini hosil qilmaydi. Xuddi shuningdek, nur va hid ham eshitish kuzata olmaydi.

Muayyan sezgi a'zolari uchun bir xildagi qo'zqatuvchilarni va uning uchun bir xilda bo'lmagan qo'zqatuvchilarni farqqila bilish kerak. Sezgi a'zolarining ixtisoslashishi—uzoq davom etadigan evolyusiya maqsuli, sezgi a'zolarining o'zi esa tashqi muhit ta'siriga moslashuvchanlik maqsulidir. Sezgi a'zolari organizmning muhitga moslashuvi jarayoniga xizmatqilar ekan, ular uning ob'yektiv xususiyatlarini aks ettirgan taqdirdagina o'z funksiyasini muvaffaqiyatli bajarishi mumkin. Shuning uchun tashqi olamning o'ziga qos xususiyatlari sezgi a'zolarining o'ziga qosligini keltirib chiqargandir. Sezgilar mohiyatiga ko'ra ob'yektiv olamning sub'yektiv siymosidir. Sezgilar muayyan payt davomida reseptorga ta'sir o'tkazayotgan qo'zqatuvchining o'ziga xos quvvatini nerv jarayonlar quvvatiga aylanish natijasida xos bo'ladi. Sezgi a'zolari faqat moslashuvchanlik, ijro qilish funksiyalarini bajaribgina qolmasdan, balki axborot olish jarayonida bevosita ishtirok etadigan harakat organlari bilan harakatning bog'liqligi o'z-o'zidan ravshandir. har ikkala funksiya qo'lda bir-biri bilan qo'shilgan bo'ladi. Shu bilan birga qo'lning ijro etish va paypaslab ushlash harakatlari o'rtasida farq borligi ham shubhasizdir. I.P.Pavlov qo'lning pasayib ushlash harakatlarini ijrochilik xatti—harakatlari emas, balki xatti—harakatning aloxida turi—perseptiv xatti—harakatga taalluqli mo'ljaliy—tadqiqiy reaksiyalaridir, deb atagan edi.

Sezgi nerv sistemasining u yoki bu kuzatuvchidan ta'sirlanuvchi reaksiyalari tarzida hosil bo'ladi va harqanday psixik hodisa kabi reflektorlik xususiyatiga egadir. Kuzatuvchining o'ziga aynan o'xshaydigan analizatorga ta'siri natijasida hosil bo'ladigan nerv jarayoni sezgining fiziologik negizi hisoblanadi.

Analizator uch qismdan iborat:

1. Tashqi quvvatni nerv jarayoniga o'tkazadigan maxsus transformator hisoblangan **periferik** bo'lim (reseptor);
2. Analizatorning periferik bo'limini markaziy analizator bilan bog'laydigan yo'llarni ochadigan **afferent** (markazga intiluvchi) va **efferent** (markazdan qochuvchi) nervlar;
3. Analizatorning periferik bo'limlardan keladigan nerv signallarining qayta ishlanishi sodir bo'ladigan **qobiq osti** va **qobiq** (miyaning o'zi bilan tugaydigan) bo'limlari.

Analizator reaksiyalarida periferik bo'limlarining muayyan xujayralari miya qobig'idagi xujayralarning ayrim qismlariga mos bo'ladi. Jumladan, ko'z to'r pardasining turli nuqtalari qobiqda har xil nuqtalarda yoyilgan xolda gavdalangan bo'ladi; eshitish a'zosi ham qobiqda barcha sezgi organlariga ham taaluqlidir.

Sun'iy kuzatish metodlari bo'yicha o'tkazilgan ko'plab tajribalar hozirgi paytda u yoki bu sezgi turlarining miya qobig'idagi ma'lum bir joyda chegaralanib qolishini yetarlicha aniq qilib belgilash imkonini beradi. Jumladan, ko'rish sezgilari joylashgan qism, asosan bosh miya qobig'ining ensa qismida joylashgandir. Eshitish sezgilari miya qobig'i tepa burmasining o'rta qismiga joylashgan. Tuyish—harakat sezgilari miya qobig'i markaziy burmasining orqa qismiga joylashgan va x. k.

Sezgining hosil bo'lishi uchun hamma analizatorlar yaxlit bir narsa sifatida ishlashi darkor. Kuzatuvchining reseptorga ta'siri qo'zg'alishning yuz berishiga olib keladi. Ana shu qo'zg'alishning boshlanishi tashqi quvvatning reseptor yordamida nerv

jarayoniga aylanishidan iboratdir. Bu jarayon reseptordan markazga intiluvchi nerv orqali analizatorning o'zak qismiga qadar yetib boradi: qo'zg'alish analizatorning qobiqdagi xujayralariga borib yetganda organizmning qo'zg'atuvchi javobi hosil bo'ladi. Biz nurni, tovushni, ta'mni yoxud boshqa sezgilarni sezamiz. Shunday qilib, sezgi tashqi qo'zg'alish energiyasining ong faktiga aylanishi demakdir.

Sezgi jarayoni tashqi ta'sirning o'ziga xos quvvatini saralash va qayta o'zgartirishga qaratilgan hamda tevarak-atrofdagi olamning aynan bir xilda aks etishini ta'minlaydigan sensor ta'sir o'tkazish sistemasi sifatida yuz beradi.

Aks etish xususiyatiga va reseptorlarning joylashgan o'rniga qarab sezgilar odatda uch guruhga ajratiladi:

1) tashqi muhitdagi narsalar va hodisalarning xususiyatlarini aks ettiradigan hamda tananing yuzasida reseptorlari bo'lgan **ekstroseptiv** sezgilar;

2) tananing ichki a'zolarida va to'qimalarda joylashgan hamda ichki a'zolarining holatini aks ettiradigan reseptorlarga ega bo'lgan **interoseptiv** sezgilar;

3) reseptorlari mushaklarda va paylarda o'rnashgan proprioseptiv sezgilar, ular gavamizning harakati va holati haqida axborot berib turadi, bu sezgi turini kinesteziya deb ham, unga tegishli reseptorlarni esa **kinestezik** yoki **kinestetik** deyiladi.

Ekstroreseptorlarni ikkitaga: aloqa bog'laydigan kontakt va distant reseptorlarga ajratish mumkin. Aloqa bog'laydigan reseptorlar ularga ta'sir qiladigan ob'yektlar bilan bevosita aloqa bog'lagan paytda qo'zg'atadi, masalan, badanni tegishli orqali sezish, ta'm bilish. Distant reseptorlar uzoqdagi ob'yeqtdan keladigan qo'zg'atishdan ta'sirlanadi, masalan, ko'rish, eshitish, xid bilish reseptorlari shular jumlasidandir.

Hozirgi zamon fani ma'lumotlariga ko'ra sezgilarni tashqi (ekstroreseptorlarga) va ichki (interoseptorlarga) bo'lish yetarli emas. Sezgilarning ba'zi bir turlarini tashqi–ichki deb hisoblansa ham bo'ladi, masalan, xarorat va og'riq, ta'm bilish va tebranish, mushak bo'g'im va statik–harakat sezgilari kiradi.

Sezgilarning har xil turlari faqat o'ziga xosligi bilan emas, balki ular umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan ham ifodalanadi. Sezgilarning sifati, uzoq davom etish va ko'p joylarda yuz berishi ana shunday xususiyatlar jumlasiga kiradi.

Sifat–mazkur sezgining asosiy xususiyati bo'lib, uni boshqa sezgi turlaridan farqlaydi. Jumladan, eshitish sezgisi past–balandligi, mayinligi, ko'rish sezgisi boyligi, rang–barangligi bilan farq qiladi va x. k.

Jadalligi uning miqdorini ifoda etadigan xususiyati bo'lib, ta'sir qilayotgan qo'zg'atuvchining kuchi va reseptorning funksional holati bilan belgilanadi.

Davomiyligi uning vaqtinchalik xususiyati hisoblanadi. U ham sezgi a'zosining funksional holati bo'lib, asosan kuzatuvchining ta'sir qilish vaqti va bu ta'sirning jadalligi bilan xarakterlanadi.

Kishidagi sezgilar haqida gapirganimizda adaptasiya tushunchasi to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Adaptasiya–moslashuv bo'lib, sezgi organlari sezgirligining qo'zg'atuvchi ta'siri ostida o'zgarishi demakdir. Adaptasiya hodisasi uch xil turda:

1. Qo'zg'atuvchining uzoq muddat davomida ta'sir etishi jarayonida sezgining tamomila yo'qolib qolishiga o'xshaydi, masalan, xid bilish sezgilari atrof–muhitga yoqimsiz xid yoyilgandan keyin ko'p o'tmay batamom yo'qolib qolishi ham oddiy

hodisadir. Agar tegishli moddani og'izda bir oz vaqt saqlab turiladigan bo'lsa, ta'm bilish sezgisining jadalligi susayadi va sezgi umuman yo'qolib ketishi mumkin.

2. Adaptasiya deb shuningdek, yuqorida bayon etilgan hodisalarga yaqin bo'lgan, kuchli kuzatuvchining ta'siri ostida sezgining zaiflashib qolishi bilan ifodalanadi hodisaga ham aytiladi. Masalan, sovuq kuzatuvchi hosil qiladigan sezgining jadalligi qo'lni sovuq suvga solganda susayadi. Kishi yarim qorong'i xonadan yaqqol, yorqin yoritilgan xonaga chiqqanda, ko'z qamashadi, tevarak-atrofdagi narsalarning farqini ajratish qiyin bo'lib qoladi, bir oz fursatdan keyin esa ko'rish analizatorining sezuvchanligi keskin susayib, odatdagidek ko'ra boshlaydi va adaptasiya hodisasi kechadi.

Adaptasiya bu ikki turi negativ adaptasiya deyiladi, negaki, bunda analizatorning sezuvchanligi susayadi.

3. Kuchsiz qo'zqatuvchining ta'siri ostida sezgilikning oshishi ham adaptasiya deyiladi, buni pozitiv adaptasiya deb ham ataladi. Masalan, qorong'i ko'p bo'lishi natijasida ko'z sezuvchanligi ortadi. (Graf Monte Kristo misolida tushuntirish mumkin).

Sezgi a'zolarining sezuvchanligining oshishiga olib boradigan ikki soxa mavjuddir: 1) sensor nuqsonlar (ko'rlik, karlik)ning o'rnini to'ldirish zaruratidan kelib chiqadigan sezuvchanlikning ortishi va 2) sub'yekt faoliyati tufayli kasbiga xos talablardan kelib chiqadigan sensibilizasiya (sezuvchanlikning ortishi).

Ko'rish yoki eshitish sezgisining yo'qotilganligi ma'lum darajada sezuvchanlikning boshqa turlarini rivojlantirish hisobiga to'ldiriladi, masalan, ko'ra olmay qolgan kishilar xaykaltaroshlik bilan shug'ullanganlar, chunki ularda tuyish sezgisi yuksak rivojlangan bo'ladi. Ba'zi maxsus kasb bilan uzoq vaqt mobaynida shug'ullanish ham sezgi a'zolari sezuvchanligi kuchayishi olib kelganligini ko'rish mumkin, masalan, choy, pishloq, vino, tamaki sifatini aniqlovchilarda xid va ta'm bilish sezgilari yuksak darajada mukammallashib bo'ladi. (Kinofilm–Nartsiss misolida tushuntirish mumkin).

Mehnat faoliyati talablari ta'siri ostida sezgilar rivojlanishi misolini biz rassomlar, po'lat quyuvchilar, uchuvchilar skripkachilar kabi kasb vakillarining bilish sezgilarida kuzatishimiz mumkin.

Idrok tushunchasining ta'rifi

SHaxs tevarak - atrofdagi narsa va hodisalarning faqat ayrim xossalarini ongda aks ettirib qolmaydi, balki ularning barcha xossalarini birgalikda bir butun holda ham aks ettiradi. Sezgi a'zolariga bevosita ta'sir etib turgan narsa - hodisalarning obrazlarining kishi ongida bir butun holda aks ettirilishi idrok deyiladi. Masalan: uyni idrok qilish, gulni idrok qilish, odamni idrok qilish va boshqalar. Sezgi va idrok bir - biri bilan chambarchas bog'liq. Kishi narsa - hodisalarning ayrim xossalarini sezadi, uni bir butun holda idrok qiladi. Chunki, narsa va xossa bir - biridan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Odam narsalarni idrok qilayotganda uning ayrim xossalarini sezadi. Masalan: chaqmoq qandni idrok qilinadi, uning shirinligini seziladi. Quyoshni idrok qilinadi, uning issiqligini seziladi va boshqalar.

Idrokning murakkabligi

Sezgilar oddiy elementar psixik jarayondir. Idrok esa sezgilarga qaraganda murakkab psixik jarayon hisoblanadi. Idrokning murakkabligi quyidagilarda ifodalanadi:

a. Har bir idrok tarkibiga ayni vaqtda bir necha sezgi kiradi. Masalan: qovunni idrok qilish. Bunda quyidagi sezgilar ishtiroq etadi. Qovunning shakli va rangini aks ettiruvchi ko`rish sezgisi, hidini aks ettiruvchi hid sezgisi, mazasini aks ettiruvchi ta`m sezgisi, harakatni aks ettiruvchi teri sezgisi va boshqalar. Bu sezgilar tahlil yordamida ajratib olinadi va idrokning retseptiv tomonini tashqil etadi. Ular ishtirokida narsaning barcha xossalari bir butun holda aks ettiriladi. Bu esa idrokning pertseptiv tomonini tashkil etadi.

b. Har bir idrok tarkibiga kishining o`tmishda hosil qilingan bilim va tajribalari kiradi. Biz bunday shakl va buyumlarni ilgari juda ko`p marta ko`rganmiz. Ular haqida muayyan bilimlarimiz bor. SHuning uchun bu shakllardagi etishmagan joylarni o`sha bilimlardan olib qo`shamiz va bir butun aks ettiramiz. Demak, idrok jarayoniga xotira faoliyati qo`shiladi.

c. Idrok tarkibiga xayol tasavvurlari kiradi, Masalan, derazadagi qirovni idrok qilib, tropik o`rmon yoki gullarga o`xshatish, kesib olingan daraxt to`nkasini idrok qilib biror yovvoyi hayvonga o`xshatish, osmondagi pag`a – pag`a so`zib yurgan oq bulutlarni idrok qilib, to`plab qo`yilgan paxtaga o`xshatish va boshqalar.

d. Idrok tarkibiga tafakkur va nutq faoliyati kiradi. Agar idrok qilinayotgan narsa yoki hodisa biz uchun yangi notanish bo`lsa, darrov fikr yuritish faoliyati boshlanadi va “bu nima”, “buning nomi nima” degan savol tug`iladi. SHuning, har bir idrok hukm shaklida ifodalanadi. YA`ni narsa yoki hodisaga nom beriladi, uni so`z bilan aytiladi va mavjud tushuncha doirasiga kiritiladi. Masalan “bu gul”, “bu mashina”, “bu kitob” va boshqalar.

j. Idrok jarayoniga his - tuyg`ular ta`sir qiladi. Bu his - tuyg`ular idrok qilinayotgan narsa- hodisalar to`g`risida o`tmishda tug`ilgan taassurotlar va fikrlardan hamda ayni paytdagi idrok jarayonida vujudga kelishi mumkin.

His - tuyg`ular idrokning faollik darajasini kuchaytiradi, uning mazmunini jonli, yorqin qiladi.

z. Idrok jarayonida diqqat g`oyat katta ahamiyatga ega.

Diqqat idrokning faolligini oshiradi va uning mukammal bo`lishiga xizmat qiladi. Diqqatsiz hech narsani idrok qilish mumkin emas. Narsa - hodisalarni to`liq va raso idrok qilish uchun shu narsa - hodisalar ustida diqqat kuchli va barqaror turishi zarur. Demak, o`quv materialini yaxshi idrok qilish uchun o`quvchilar diqqatini uyushtirish kerak.

Kuzatish va kuzatuvchanlik

Kuzatish idrokning mustaqil faoliyati sifatida namoyon bo`ladi.

Kuzatishning muvaffaqiyati oldindan qo`yiladigan maqsadga, ko`riladigan tayyorgarlikka, kishining bilim va tajribalariga, diqqatning kuchiga va fikrlash faolligiga bog`liq. Kishining rejali, tizimli va davomli ixtiyoriy idrok qilish qobiliyatini kuzatuvchanlik deyiladi. Kuzatuvchanlik shaxsning shunday xislatlaridanki, bunda u narsa - hodisalarning unga bilinmaydigan, lekin muhim xarakterli xususiyatlarini payqay oladi. Kuzatuvchan kishi ko`proq narsani ko`radi, chuqurroq tushunadi, narsa - hodisalar o`rtasidagi o`xshashlik va farqni topadi, muhim bo`lmagan belgilarni ajratadi.

Akademik I.P. Pavlov kuzatuvchanlikning ilmiy bilimdagi ahamiyatiga yuksak baho bergan. U Sankt - Peterburg yaqinidagi Pavlovo shahridagi Fiziologiya institutining

old tomoniga **“Kuzatuvchanlik, kuzatuvchanlik va yana kuzatuvchanlik”** deb yozdirib qo`ygan.

Idrokning fiziologik asoslari

Idrokning nerv - fiziologik mexanizmlari sezgilar kabi reflektor jarayondir. Lekin u sezgilargi qaraganda bir muncha murakkabroq. I. P. Pavlov ta`limotiga ko`ra, tevarak - atrofdagi narsa-hodisalarning retseptorlarga ta`sir etishi tufayli hosil bo`ladigan muvaqqat nerv bog`lanishlari idrokning fiziologik asosini tashqil etadi. Bu muvaqqat bog`lanishlar narsa - hodisaning birgina xossasi bilan emas, balki barcha xossalari kompleks qo`zg`ovchilar ta`siri bilan vujudga keladi. Masalan, talaba butun bir dars jarayonida idrok qilayotganda o`qituvchini ko`radi, uning nutqini tinglaydi, yozadi. Bu kompleks qo`zg`ovchilar ko`rish, eshitish, muskul - harakat retseptorlarini qo`zg`aydi. Kompleks qo`zg`ovchilarni analizatorlarning miya po`sti bo`limidagi yadrolarida murakkab tahlil va sintez qilish amalga oshadi. Idrok jarayonida tahlil bilan bir vaqtda sintez ham ro`y beradi. SHuning uchun biz ayrim tovushlarni emas, butun so`z va iboralarni idrok qilamiz. Demak, idrokning nerv - fiziologik asosida ikkinchi signal tizimining muvaqqat nerv bog`lanishlari yotadi. Muvaqqat nerv bog`lanishlarining hosil bo`lish jarayoni sintez asosini tashqil etadi. Idrok asosida ikki xil nerv bog`lanishlari yotadi:

a) bir analizator doirasida hosil bo`ladigan bog`lanishlar. Bu bir narsadagi kompleks qo`zg`ovchilarining organizmga ta`sir etishidan vujudga keladi. Masalan, eshitish analizatoriga ta`sir qiladigan ayrim tovushlarning o`ziga xos birikishi shunday qo`zg`ovchi bo`la oladi. Musiqa tinglash, rasm ko`rish.

b) analizatorlararo bog`lanishlar. Bunda bir narsa yoki hodisadagi qo`zg`ovchilar bir necha analizatorlarga ta`sir etadi. Masalan, ko`rish, eshitish, muskul analizatorlari, ma`ruza, monolog.

Idrokning xossalari

**Idrokda ob`yekt va fon.** Odamga juda ko`p narsa va hodisalar ta`sir qilib turadi. Bo`lar shunday ko`p xossalarga egaki, hatto odam bir vaqtning o`zida ularga javob reaksiyasi qaytara olmaydi. Odam ko`p sonli qo`zg`ovchilardan faqat ayrimlarini aniq va yangilangan holda ajratib oladi. Shu ajratib olingan narsa - hodisalar esa fon sanaladi. Masalan, o`qituvchi bir darsda bir necha o`quvchilardan so`raydi. Har safar so`ralayotganlar turadi. Chaqirilgan o`quvchi uning javobi, xatti - harakati idrok ob`yekti hisoblanadi. Boshqa o`quvchilar faoliyati idrok foni bo`lib qoladi. Idrok foniga kirgan o`quvchi javob berish uchun chaqirilib qolsa idrok ob`yektiga aylanadi va aksincha. Demak, idrok ob`yekti va foni dinamik tabiatga ega bo`lib, doimo o`zgarib turadi. Ob`yekt va fonning dinamikligi bosh miya katta yarim sharlari po`stida vujudga keladigan optimal qo`zg`alish o`chog`ining almashinishi bilan taqozo etiladigan diqqatning bir ob`yektdan boshqa ob`yektga o`tishi bilan izohlanadi. Idrok fonidan ob`yektni ajratishning psixologik qonuniyatlarini ikqilangan tasvirlar, Shrederlar zinapoyasi, predmet konturlarini ajratish kabilarda aniq ko`rish mumkin.

Juda ko`p hollarda ob`yektni fondan tez va aniq ajratib idrok qilish uchun uni alohida rang, shakl va boshqa belgilar bilan ta`kidlab qo`yiladi. Masalan: transport belgilari, temir yo`l ishchilari maxsus to`q sariq rangli kiyim kiyadilar va boshqalar.

Appertsepsiya. Idrok obrazlari ularni vujudga keltiruvchi ob`yektlar va shaxsning o`zida bo`lgan bir qancha omillar bilan taqozo etiladi. Kishi psixik hayoti va shaxsiy

xususiyatlarining idrokka ta'siri va unda aks etuvchi mazmunni appertsepsiya deyilar. Kishilar ayni bir narsa yoki hodisani yoshlari, ma'lumotlari, turmush tajribalari, kasblari, sinfiy chiqishlari, temperament, xarakter, dunyoqarashlari jihatidan turlicha idrok qiladilar. Kishining qaysi sohaga doir bilim va tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning shu sohadagi idroki ham to'liq, chuqur va sarmazmun bo'ladi. Masalan, biror yangi mashinani mutaxassisning idrok qilishi va mutaxassis bo'lmagan kishining idrok qilishi, bir mevali bog'ni rassom, agronom va savdo xodimining idrok qilishi bir-biridan farq qiladi. Appertsepsiya hodisasi og'zaki nutqni idrok qilishda ham yaqqol ko'rinadi.

Idrokning konstantligi. Idrok qilinadigan ob'yektlar idrok qiluvchiga nisbatan ko'p xil sharoitlarga ega. Ularning turgan joyi, masofasi, fazodagi holati, yoritilganlik darajasi cheksiz har xillikda bo'ladi. Lekin predmetlarni shakl, hajm va rang jihatdan nisbatan doimiylikda idrok qilamiz. Narsa -hodisalarni idrok qilish sharoiti o'zgarsa -yu, ulardan hosil bo'lgan obrazlarning o'z holicha saqlanib qolishi idrokning konstantligi deyiladi. Ko'rish idroklarida masofa, rang, shakl, hajm konstantliklari ro'y beradi. Masalan, qalamni 20 sm va 1 sm. masofadan idrok qilish, doskani 1m va 10 m masofadan idrok qilish, oq qogoz yoki oq bo'ni quyoshda, xona ichida, koridorda ham oq idrok qilinadi. Konstantlik hodisasida odam narsalarni ko'z to'r pardasiga tushgan suratiga aynan muvofiq kurmaydi, balki ular haqiqatdan qanday mavjud bo'lsa shunday ko'radi. Bu kishining tajribasi, amaliy faoliyati jarayonida vujudga keladi.

Illyuziya va gallyutsinatsiya. Ba'zi hollarda narsalar noto'g'ri, yanglish idrok qilinadi. Narsalarni ana shunday noto'g'ri idrok qilishni illyuziya deyiladi. Masalan: Arastu illyuziyasida og'irligi aynan bir xil bo'lgan 1 kg torozi toshi 1 kg paxtadan og'irdek idrok qilinadi. Illyuziya hodisasi ayniqsa geometrik shakllarni idrok qilishda ko'p uchraydi. Idrok qilib turgan shaxs psixikasida ro'y beradigan o'zgarishlar ham illyuziya hodisasini paydo qilishi mumkin. Masalan: o'rmondagi to'nkani biror yirtqich hayvon deb idrok qilish. Illyuziyalar hosil bo'lishining sabablari bor. CHunonchi Arastu ilyuziyasida hajmi katta narsaga ko'proq o'rganib qolgan. Geometrik shakllarda qo'shimcha chiziqlar ta'sir etadi. Ko'ruv illyuziyalari amaliy ishlarda katta ahamiyatga ega. CHunonchi harbiy ishlarda texnika va qism turgan joyni niqoblash sho'nga asoslangan. Illyuziyadan gallyutsinatsiyani farqlash lozim, gallyutsinatsiya yo'q narsalarni idrok qilishdir. Masalan: yo'q narsalarni ko'rish, yo'q tovushlarni eshitish kabi.

Idrokning tasnifi

Ma'lumki, idrok sezgi a'zolari asosida vujudga keladi. Har bir idrok jarayonida bir necha sezgi a'zosi ishtiroq etishi mumkin. Lekin ulardan biri eng muhim o'rinda turadi. Masalan, suratni idrok qilishda ko'rish organi, musiqa va nutqni idrok qilishda eshitish organi bosh o'rinda turadi. Idrok jarayonida qaysi sezgi a'zosining etakchilik rolini o'ynashiga qarab idrokni bir necha turlarga ajratish mumkin. Masalan: ko'rish idroki, eshitish idroki, hid bilish idroki, ta'm bilish idroki va boshqalar. Bundan tashqari idrokning aralash turi ham mavjud bo'lib, bunda bir necha analizator birgalikda ishtiroq etadi. Masalan, kinofil'mni idrok qilishda ko'rish va eshitish sezgisi ishtirok etadi. Tevarak - atrofdagi narsa va hodisalar bir - biriga bog'liq. Ular muayyan makonda, ma'lum vaqtda sodir bo'ladilar. SHuningdek, ular bir - birlariga va idrok qiluvchiga nisbatan ma'lum munosabatda, shakl, hajm va boshqa xossalarga egadir.

Idrokni tasnif qilishda materiyaning yashash shakllari - fazo, vaqt, harakat asos qilib olinadi, unga ko`ra idrok quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Fazoni idrok qilish.

2. Vaqtni idrok qilish.

3. Harakatni idrok qilish.

Fazoni idrok qilish undagi narsalarning shaklini, hajmini va o`zaro munosabatlarini aks ettirishdir. Demak, fazodagi narsalar uch o`lchovda idrok qilinadi, narsalarning shakli: uch burchakli, turt burchakli, kub, kvadrat, doira, konus va boshqalar. Narsalarning hajmi katta - kichik, o`rtacha, yirik mayda va boshqalar. Narsalarning bir-biriga va idrok qiluvchiga munosabati: o`ngda, chapda, yuqorida, pastda, uzoqda va hokazo. Fazoni ko`rish, teri, muskul - harakat organlari bilan idrok qilinadi. Fazoni bir ko`z bilan va ikki ko`z bilan idrok qilamiz. Monokulyar idrokda narsalarning chetlaridan kelayotgan nurlar bitta ko`zning to`r pardasida aks etadi. Bu nurlar ko`z gavharida bir-birini kesib o`tadi va ularning kesishgan joyida ko`rish burchagi hosil bo`ladi. Bu burchakning katta - kichikligi idrok qilinayotgan narsaning katta kichikligiga hamda uning ko`zdan qanchalik uzoq - yaqinligiga bog`liq. Ko`z gavharining va umuman, ko`zning narsalarni eng yaxshi ko`rish uchun moslashuvini **akkomodatsiya** deyiladi.

Odatda fazodagi narsalarning, shakl, hajmi va o`zaro munosabatlarini ikki ko`z bilan (binokulyar) idrok qilinadi. Biz bir narsaga ikki ko`z bilan qaraymiz. Lekin narsa bitta aks etadi. Buning sababi o`sha narsadan keladigan nurlarning ko`z to`r pardasiga mos yoki nomos nuqtalarga to`g`ri kelishiga bog`liq. Narsalarning fazo munosabatini binokulyar idrok qilishda konvergenstsiya muhim ahamiyatga ega.

Konvergenstsiya biror narsaga qaraganda ikkala ko`z soqqasining qanshar tomon bab - baravar burilishidir. Konvergenstsiya masofani, chuqurlikni aniq, to`liq idrok qilishga imkon beradi.

2. Vaqtni idrok qilish

Biz idrok qilib turgan narsa - hodisalar muayyan vaqt davomida paydo bo`ladi, o`zgaradi va o`tib ketadi. Vaqt materiya mavjudligining asosiy shakllaridan biridir. Vaqtni idrok qilish voqelikdagi hodisalarning ob`yektiv tezligi, davomiyligi va muntazamligini aks ettirishdir. Vaqtni idrok qilish ob`yektiv reallikni aks ettirib, kishini o`rab olgan muhitda mo`ljol olishiga imkon beradi. Vaqtni mo`ljol olish oriyentirovkasi miyaning po`sti bo`limlari yordamida amalga oshadi. Lekin vaqtni idrok qiluvchi maxsus a`zo yo`q. Vaqtni idrok qilishda turli analizatorlar qatnashadi, biroq vaqtlar oralig`ining bir muncha aniq farqi kinestezik va eshitish sezgilari beradi. Markaziy asab tizimida, bosh miya katta yarim sharlarida qo`zg`alish va tormozlanishning ritmik almashuvi, vaqtni idrok qilish asosida yotadi. Agar bosh miya po`stida qo`zg`alish jarayoni ustunlik qilsa, vaqt "tez" o`tgandek, agar tormozlanish ustunlik qilsa, vaqt "sekin" o`tgandek idrok qilinadi. Vaqtning "tez" yoki "sekin" o`tishi kishining vaqtga va diqqat yo`naltirilgan ob`ektga munosabatiga ham bog`liq. Masalan: biror darsning o`tishi, kinofil`mni ko`rish, avtobus yoki biror kishining kelishini kutish va xokazo. Odamlar vaqtni ob`ektiv belgilash, uning oralig`ini to`g`ri farqlashga imkon beradigan, narsalar oy, quyosh, yulduzlar harakatidan foydalanib kelganlar.

3. Harakatni idrok qilish

Tevarak - atrofdagi narsa - hodisalar muayyan vaqt davomida o'z o'rinlarini almashtirib turadilar. Kishilar narsa - hodisalarning fazoda o'rin almashtirib turishini, ya'ni harakatini ham idrok qiladilar. Harakatni idrok qilishda ko'rish va kineztezika analizator asosiy rol o'ynaydi. Tezlik, tezlanish va harakatning yo'nalishi harakat qilayotgan ob'ektiv parametridir. Odam narsalarning harakati haqida ikki yo'l bilan ma'lumot olishi mumkin:

1. harakatni bevosita idrok qilish.

2. harakat haqida xulosa chiqarish.

Harakatni bevosita ko'rish orqali idrok qilish ikki xildir:

a) ko'zni harakatdagi narsa bilan birga yuritish;

b) ko'zni bir nuqtaga qaratib turish.

Harakatni tez yoki sekin bo'layotgandek idrok qilinadi. Harakatni bunday idrok qilishi narsalarning ob'ektiv tezligiga va uning idrok qiluvchidan qanchalik uzoq - yaqinligiga bog'liq. Harakatni eshitish analizatori yordami bilan ham idrok qilinadi.

Idrokning quyidagi muhim xususiyatlari bor: predmetlilik yaxlitlik, strukturalilik, barqarorlik va anglanilganlikdan iborat.

Idrokning **predmetliliği** tashqi dunyodan olinadigan axborot o'sha dunyoga mansubligida ifoda etiladi, masalan, g'isht bilan portlovchi modda bog'lami paypaslab ko'rilganda bir-biriga juda ham o'xshash bo'lib ko'rinishi mumkin, lekin ularning amalda qay tarzda ishlatilishi bilan bog'liq asosiy xususiyatlari borki, bunda idrokning **predmetliliği** yordam beradi.

Idrokning yana bir xususiyati uning **yaxlitligi**dir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, bu yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning **yaxlitligi** va **strukturaliliği** manbai bir tomondan, aks ettiriladigan ob'yektlarning o'ziga xos xususiyatlarida va ikkinchi tomondan, insonning konkret faoliyatida gavdalanadi.

Idrokning narsalar bilan qilinadigan faoliyat jarayonida shakllanadigan **konstantligi**—kishi hayoti va faoliyatining zarur shartidir. Busiz inson cheksiz rang-barang va o'zgaruvchan olamda mo'ljal ola bilmadi. Konstantlik xususiyati narsaning va uning yashash sharoitining birligini aks ettirar ekan, tevarak—atrofdagi olamning nisbatan barqarorligini ta'minlaydi.

Kishining idroki uning tafakkuri bilan uzviy bog'liq, narsani ongli idrok etish—unga fikran nom berish, sinfga kiritish, uni suz vositasida umumlashtirish demakdir. Idrok sub'yektning bundan oldingi tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kishining tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning bilimlari qanchalik ko'p bo'lsa, uning idroki ham shunchalik boy bo'ladi, bunda u shunchalik ko'p narsalarni ko'ra oladi. Idrokning mazmuni kishi oldiga qo'yilgan vazifa bilan ham, uning faoliyat sabablari bilan ham belgilanadi. Sub'yektning ustanovkasi (yo'l—yo'riqi) idrokning mazmuniga ta'sir qiluvchi omil hisoblanadi. Idrok etish jarayonida idrok mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin bo'lgan his hayajonlar ham mavjuddir. Bu sabablarining hammasi kishini idrokning boshqarish mumkin bo'lgan faol jarayon ekanligini anglatadi.

Idrokning ushbu turlari mavjud: ko'rish, eshitish, paypaslab ko'rish, kinestezlik, xidlash va ta'm bilish yo'li bilan idrok qilish. Shuningdek fazoni idrok etish, vaqtni idrok etish va harakatni idrok etish kabi turlarini ajratib ko'rsatish mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, shaxs idrok qilishi jarayonlariga xos bo'lgan bir nechtaq onuniyatlarni belgilaymiz:

A. Ob'yekt va fonning ilgarigi harakatga bog'liqligi qonuni. Bu qonunning ma'nosi : odam ilgarigi tajribasida bo'lgan, bevosita to'qnash kelgan narsalarini idrok qilishga moyil bo'ladi. Agar biror predmetni u ilgari figura sifatida idrok qilgan bo'lsa, demak, keyingi safar ham uni aynan figuraday idrok qiladi, agar fon bo'lgan bo'lsa, tabiiy, fondaq qabul qiladi. Bu qonunning hayotdagi o'rni chet davlatlarda borgan turistlar tajribasiga tayanib tushuntirilishi mumkin. O'zbekistonliklar Yer kurrasining qaysi burchagida bo'lmasin, o'zbek do'ppisi yoki atlas ko'ylakni juda tez ilg'ab oladilar va suyunib ketadilar ham. Yonidagi sheriglari o'zbek bo'lsa ham, aynan do'ppili o'zbekni ko'rib, ko'zlari yashnab ketadi. Boshqa millat vakillari, masalan, nigeriyalik ham milliy ko'ylagida yurgan bo'lishi mumkin, lekin o'zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligichaqoladi ham.

B. Idrokning konstantligi qonuni. Bu qonun ma'lum ma'noda oldingisiga bog'liq. Ya'ni bunda ham ilgarigi tajriba katta rol o'ynaydi. Ma'nosi : odam o'ziga tanish bo'lgan narsalarni o'sha xossa va xususiyatlar bilan o'zgarishsiz idrok qilishga moyildir. Masalan, samolyot ichida o'tirib yerga qaraganmisiz? Avtomobil yo'llari, ularda harakat qilayotgan mashinalar kichkina ko'rinadi, lekin biz ularni hozir kichrayib qolgan, deb idrok qilmaymiz-ku? Aslida ko'zqorachig'imizdagi aks kichkina bo'lsa-da, ularni o'zimiz "to'g'rilab" alohqida predmetlar sifatida idrok qilaveramiz.

Bu o'rinda bir etnografning Afrikadagi kuzatishi xarakterli. U kunlarning birida **pigmeylar** deb ataluvchi qabila vakillaridan biri biri bilan quyuq o'rmondan chiqqan (bu qabilaning umri qalin o'rmonda o'tadi). Ro'parada yaylovda sonsiz mollar podasi o'tlab yurgan bo'lgan. Etnograf ularni oddiy mollar podasi sifatida idrok qilgan, pigmey esa ularni chumolilarga o'xshatib, ularning ko'pligi va kichikligidan hayratlangan. Olimda idrokning konstantligi namoyon bo'lgan bo'lsa, uning sherigida uning buzilganligi kuzatilgan.

Demak, idrokimizning konstantligi, ya'ni ilgarigi tajriba asosida narsalarning xossa va xususiyatlarini o'zgartirmay, turg'un xolda yaxlit tarzda idrok qilish xususiyati bizga tashqi muhitda to'g'ri moslashuvimiz, narsalar dunyosida adashmasligimizni ta'minlaydi. **Konstantlik** - "constant" so'zidan olingan bo'lib, o'zgarmas, doimiy degan ma'noni bildiradi.

V. Kutishlar va taxminlarning idrokka ta'siri. Ko'pincha bizning idrokimiz ayni paytda biz nimalarni kutayotganimizga bog'liq bo'lib qoladi. Biz o'zimiz kutgandan ham ko'p paytlarda o'zimiz ko'rgimiz kelgan narsalarni ko'ramiz, eshitgimiz kelgan narsani eshitamiz. Masalan, sonlar qatorida paydo bo'lgan V harfi uzoqdan albatta 13 soniday idrok qilinadi, yoki aksincha harflar orasidagi 13 "V" ga juda o'xshaydi. Kechasi yolg'iz qolib kimnidir kutayotgan bo'lsangiz, harqanday juda sekin sharpa ham oyoq tovushlariga o'xshayveradi. Sog'ingan do'stingizga biror jihati bilan o'xshash bo'lgan odamni ko'rsangiz-chi?

Shunday qilib, inson idroki shaxsiy ma'no va ahamiyat kasb etgan ma'lumot vositasida ongdagi bo'shliqni to'ldirishga harakat qiladi. Birovning orqadan

chaqirishini kutayotgan bo'lsangiz, negadir albatta, bosh harfi to'g'ri kelgan ismni aytsa ham tezginada o'sha tomonga o'girilib qaraysiz. Aynan shunday hodisalar ba'zan idrokda xatoliklarning kelib chiqishiga olib keladi. Amerikalik Dj. Begbi degan olim stereoskop orqali amerikalik va meksikalik bolalarga shakli unchalik aniq bo'lmagan slaydlarni birin-ketin ko'rsatgan. Amerikalik bolalar ularni beysbol o'yini, oq sochli qiz ifodalangan desalar, meksikalik bolalar ularni buqalar jangi, qora sochli qiz, deb ta'riflaganlar. Ko'pchilik bolalar esa ko'rsatilgan ikkita rasmdan faqat bittasini ko'rganini e'tirof etganlar. Demak, bizning idrokimiz, uning mazmuni madaniy va ma'naviy muhitga ham bog'liq bo'lib, bu kutishlar tizimidan kelib chiqarkan.

G. O'zgarma ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Bu qonunning mohiyati shundaki, muntazam ta'sir etuvchi ma'lumot ongda uzoq ushlab turilmaydi. Masalan, o'tirganingizda soatning tikkilashini eshitganmisiz? ha, tovush eshitiladi, lekin ma'lum vaqt o'tgandan so'ng go'yoki u yo'q bo'lib qolganday - eshitilmaydi. Yoki eksperiment sharoitida yolg'iz bitta nuqtadagi yorug'lik manbai ko'zga ta'sir etilib, ko'z ham shu nuqta bilan bir vaqtda harakatga keltirib turilganda, 1-3 sekunddan so'ng odam yorug'lik manbaini ko'rmay qo'ygandek. Shunga o'xshash eksperimentlar barcha idrok turlarida ham sinalgan. Past ohangli kuy ham ma'lum vaqtdan keyin eshitmaganday hisni keltirib chiqarishini sinab ko'rishingiz mumkin.

Nutq vositasida xadeb bir xil so'zlarni qaytaraverish psixoterapevtik praktikada gipnotik holatni keltirib chiqaruvchi omil sifatida ishlatiladi. Chunki bir xil so'zlar xadeb qaytarilaversa, ular o'zining ma'no - mohiyatini ham yo'qotadi. Masalan, ko'chalarda yuradigan "folbinlar"ni ko'rganmisiz? Ular avtomatik tarzda aytadigan so'zlari aslida ularning o'zlari uchun umuman ma'nosini yo'qotgan ("baxtingdan ochaymi, taxtingdan ochaymi?" va xokazo shunga o'xshash so'zlar). harqanday harakat xadeb qaytarilaversa, "psixologik to'yinish" hodisasi ro'y beradi va harakatlar avtomatlashib, uning ayrim detallari umuman ong nazoratidan chiqadi. Masalan, mahoratli raqqosa har qanday raqsga ham chiroyli, jozibali harakatlar bilan o'yin tushib ketaveradi.

D. Anglanganlik qonuni. Idrok qilayotgan shaxs uchun figuraning anglanganligi, uning zarurati va ma'nosi katta ahamiyatga ega bo'ladi. Agar biz kuzatayotgan predmet, eshitayotgan nutq yoki his qilayotgan narsamiz ma'nosiz, tushunarsiz, noaniq bo'lsa, biz juda tez charchaymiz va toliqamiz. Masalan, xitoy tilini bilmaydigan odam shu tilda so'zlashuvchilar orasiga tushibqolsa, psixologik jihatdan juda qiynaladi. Ya'ni, bizga barcha narsalarda biror ma'no va mazmun kerak. Odam odatda tushunadigan narsasinigina idrok qiladi. xattoki, ma'ruzachining bugun tushuntirayotgan ma'ruzasidagi faktlar sizning tushunchalaringiz va bilim doirangizdan uzoq bo'lsa, professorgaqarab o'tirgan bo'lsangiz ham uning gaplariquloqingizga kirmaydi. Shunday paytlarda "Nima deyapti o'zi?" deb qo'shnimizdan so'rab qo'yamiz ham, zero ma'ruzasi o'sha biz uchun qadrdon bo'lgan o'zbek tilida gapirayotgan bo'lsa ham. Sinab ko'rish uchun o'rtoqingizga bir nechta so'zlardan iborat qatorni bering. Ular orasida mazmunan bir - biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar, xattoki ma'nosiz (teskarisiga yozilgan so'zlar) bo'lsin. Oraga 2-4 ta tanish o'zbek tilidagi so'zlardan aralashtiring . Bir daqiqa mobaynida qarab, eslab qolganini qaytarishni so'rasangiz, o'sha 2-4 ta so'zlardan boshqalarni deyarli "ko'rmaganining" guvohi bo'lasiz.

E. Taxminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Biz idrok jarayonida ilgari tajribaga tayanganimiz bilan ko'pincha adashamiz, ba'zan esa o'zimiz uchun yangiliklar ochib, tajribani yanada boyitamiz. Ilgari tajriba va kelajakni bashorat qilish insonga xos xususiyat bo'lib, bizning sezgi organlarimiz orqali keladigan ma'lumotlarning ko'lami va imkoniyatlarini yanada oshiradi. Shu nuqtai nazardan olibharalganda, idrok - tashki muhit to'g'risidagi taxminlarimizni isbot qilishga qaratilgan faol jarayondir. Biz bevosita idrokimiz "tagiga etolmayotgan", "tushunmayotgan" narsalarni bevosita his qilgimiz, qo'limiz bilan ushlab ko'rgimiz, ular bilan ishlagimiz keladi. Ya'ni, idrok qilinayotgan narsada noaniqlik, sir paydo bo'lsa, biz "Bu nima bo'ldi" degan savol asosida taxmin qila boshlaymiz va uni tekshirish uchun harakat qilamiz. Aynan harakatlar, amaliy ishlar idrokimiz imkoniyatlari va chegaralari kengaytiradi va anglashga yordam beradi. Shuning uchun ham har bir ishni boshlashdan avval nimaga egamiz, nima kerak va nima qilsak, tezroq yaxshi natijaga ega bo'lamiz, degan savol bilan o'zimizdagi tajribada bo'lgan bilimlarimiz bilan unchalik aniq bo'lmagan ma'lumotlarni tarozuga solish va imkon boricha nutqimiz, harakatlarimiz bilan real tajribani kengaytirishga intilishimiz kerak. Shunday qilib, bir qarashda oddiyroq tuyulgan idrok ham inson bilimlari, tushunuvchanligi va faolligi bilan bog'liq psixologik jarayon bo'lib, u aslida shaxsiy tajribamizning birlamchi asosi va bazasidir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Aytingchi, qorni ochlikni, chanqashni, ko'ngil ozishini sezish quyidagi sezgi turlarining qaysi biriga taalluqli?
a) tuyish sezgisi; b) organik sezgi; v) teri sezgisi; g) ta'm bilish sezgisi
2. Quyidagi javoblarning qaysi birida sezgining ta'rifi to'liq berilgan?
a) sezgi yagona reallikdir b) sezgi narsa va hodisalarning ayrim xossalarini aks ettirishdir v) sezgi ob'yektiv olamning sub'yektiv obrazidir.
g) sezgi tashqi ta'sir va belgilar timsolidir.
3. Ikkala ko'zi ko'r bo'lib tug'ilib, 52 yoshida yorug' dunyoni ko'rgan kishi narsa va hodisalarni ko'zi sog' kishilardek idrok eta oladimi?
a) ha, idrok eta oladi; b) idrok eta olmaydi; v) idrok o'qitishni talab qiladi;
g) fazoni idrok qilish tug'ma emas, shuning uchun idrok eta olmaydi.
4. Idrokning ta'rifini quyidagi fikrlardan aniqlang?
a) idrok sezgilardan tashqil topgan; b) idrok narsa va hodisalarni to'liq aks ettirish;
v) idrok bilish jarayonlariga kiradi; g) idrok maxsus o'qitishni talab qiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari;

1. Idrok xossalarining bir - biridan farqi nimada?
2. Idrok turlari va ularning tasnifini tushuntiring?
3. Vaqt va harakatni idrok qilishning inson hayotidagi ahamiyati qanday?
4. Idrokning sezgidan farqi nimadan?
5. Sezgi deganda nimani tushunasiz?
6. Sezgining qanday turlari bor?
7. Sezgining fiziologik asosini kim ishlab chiqkan?
8. Ekstretseptiv sezgilarga nimalar kiradi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Davletshin M.G, To'ychieva M. Umumiy psixologiya –T., 2002.
2. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu. Kurs leksiy. –M., 1996.
3. Karimova V. Psixologiya. O'quv qo'llanma. T.A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
4. Karimova V., Akramova F. Psixologiya. Ma'ruzalar matni. -T., 2002.
5. Nemov R.S. Psixologiya. V 2-x kn. –Kn. 1. –M., 2004.
6. Psixologiya. Uchebnik. Pod. Red. A.Krilova. –M.,1998.
7. G'oziev E. Psixologiya. –T., 1994.

8 - Mavzu: XOTIRA

Reja:

1. Xotira to'g'risida tushuncha.
2. Xotira nazariyasi.
3. Xotira jarayonlari.
4. Xotira turlari.

Mavzu yuzasidan tayanch iboralar:

Xotira – biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayoni.

Amneziya (lot.A – inkor etish, mnesus - xotira) – miyaning turli qismlarining jarohatlanishi natijasida xotiraning yo'qolish holati

Mantiqiy xotira – materialni ma'no tomonidan o'zaro bog'langan holda tushunib esda qoldirishga asoslanadi

Mexanik xotira (yunon. mechane – qurol, mashina) – materialning ma'nosiga tushunmagan holda takrorlashdan iborat xotira

Paramneziya (yunon. para – oldida, yonida mnosis - eslash) – sodir bo'layotgan voqealarning qachonlardir boshdan kechirgandek bo'lib tuyulishidan iborat xotira kasalligi

Reminissensiya (lot.reminiscentia - eslamok) – avval unutilgan deb hisoblangan materiallarning keyinchalik esga tushurishidan iborat xotira jarayoni, vaqtinchalik unutish holati

Xotira turlari:

I. Psixik aktivlik faoliyatiga ko'ra: harakat, obrazli, emotsional, so'z ma'no.

II. Faoliyat maqsadiga ko'ra: ixtiyorsiz, ixtiyoriy.

III. Materialning davomiyligiga ko'ra: qisqa muddatli, uzoq muddati, operativ

Xotira jarayonlari: esda qoldirish (ixtiyoriy, ixtiyorsiz), esga tushirish, esda saqlash

Xotira tiplari:

- 1) Tez esda qoldirib, sekin unutish,
- 2) Tez esda qoldirib, tez unutish,
- 3) Sekin esda qoldirib, sekin unutish
- 4) Sekin esda qoldirib, tez unutish

Xotira biz ilgari idrok qilgan, boshdan kechirgan va bajargan ishlarimizni yodda saqlash, keyinchalik ularni eslash yoki xotirlash jarayonidir. Biz har kuni yangi narsalarni bilamiz, kun sayin bizning bilimlarimiz boyib boradi. Xotira faoliyatida

shaxsning g'oyaviy yo'nalishi katta o'rin egallaydi. Bu yo'nalish uning faoliyati, hayot sharoiti ta'sirida shakllanadi, kishi o'zining ish faoliyati uchun muhim bo'lgan voqea va hodisalarni yaxshi eslab qoladi. Aksincha, kishi uchun kam ahamiyatga ega bo'lgan narsalar yomon esda qoldiriladi va tezda unutib yuboriladi. Kishining qiziqishi xotiraga aniq va kuchli ta'sir ko'rsatadi, ya'ni yaxshi esda olib qolishini ta'minlaydi. Biz ko'pincha u yoki bu narsa - hodisalarni yomon esda qoldiramiz. Bu xotirani yomonligini emas, balki ularga qiziqish yo'qligini ko'rsatadi. Masalan, o'quvchilar hamma fanlarni bir xil eslab va o'zlashtirib olmaydilar. Bu ularning har xil xotiraga ega ekanliklarini emas, balki uqilayotgan fanga qiziqishining har - xilligi bilan tushuntiriladi. esda olib qolishga kishining emotsional munosabati ham katta ta'sir ko'rsatadi. Kishi uchun yakqol hayajonli reaksiya vujudga keltiruvchi narsalar ongda chukur iz qoldirib, puxta va uzoq yodda saqlanadi. Biz bir narsadan ta'sirlansak, o'sha uzoq vaqt esda saqlanadi. Samarali xotira kishining iroda sifatlariga ham bog'liqdir. Kuchsiz, irodasiz, ishyoqmas kishilar har doim yuzaki, yomon xotirlaydilar. Aksincha, irodali, materialni o'zlashtirishga astoydil kirishadigan kishilar puxta va chuqur esda qoldiradilar. Samarali xotira kishining umumiy madaniyatiga uning aqliy saviyasiga, bilimiga, o'quviga, fikrlash qobiliyatiga, ko'nikma va odatlarga ham bog'liqdir. SHunday qilib, xotiraning tabiati va uning samaraliligi shaxsning xususiyatlari bilan bog'liqdir. SHaxs o'z oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalari asosida o'zining xotirlash jarayonini ongli ravishda tartibga soladi va boshqaradi.

Xotira sohasida quyidagi asosiy jarayonlar: esda olib qolish: esda saqlash; esga tushirish va unutish bir-biridan farq qilinadi. Bu jarayonlar faoliyatda tarkib topadi va belgilanadi. Ma'lum materialni esda olib qolish hayot faoliyati davomida individual, ya'ni shaxsiy tajribani to'plash bilan bog'liqdir, to'plagan tajribadan keyingi faoliyatda foydalanish qaytaesga tushirishni talab qiladi. Ma'lum materialni faoliyatda qatnashmay qolishi yoki tushib qolishi yoddan chiqarishga olib keladi.

Xotiraning nerv-fiziologik asoslari

Esda olib qolish nerv tizimining, miyaning egiluvchan, ya'ni o'zgaruvchanlik, qo'zg'atuvchilar ta'sirida o'zida go'yo bir iz tarzida qoldirish, saqlash imkoniyati tufayli yuzaga keladi. Har qanday kishining miyasi egiluvchanlik xususiyatiga ega bo'lib, lekin uning darajasi har xil bo'ladi. SHaxs xotirasining sifati miyaning faolligi va turli faoliyatga to'g'ridan - to'g'ri bog'liq ravishda rivojlanadi. Atrofni o'rab olgan borliqni faol biluvchi kishi o'z miyasi faoliyatini beto'xtov kuchaytiradi. SHu bilan birga uning egiluvchanlik darajasini oshiradi. Miya egiluvchanligi vaqtincha pasayishiga, xotira samarasining susayishiga, ba'zi paytda odamning toliqishi sabab bo'ladi. Dam olgandan so'ng yana tiklanadi. Odatda miya egiluvchanligi yosh o'tishi bilan susayadi. Masalan, keksa kishilar gaplaridan adashib ketadi. Ilgari gapirgan gaplari esidan chiqib yana o'sha gapni gapiradilar. Miya egiluvchanligining ko'rsatkichi bosh miya po'stlog'ida muvaqqat nerv aloqalarini tezlikda vujudga kelishi, davomli saqlanishi va ularning tez, oson jonlantirishi hisoblanadi. Muvaqqat nerv aloqalari assotsiatsiyalarni hosil qiluvchi fiziologik mexanizmdir.

Assotsiatsiya bizning xotiramizda mustahkamlangan va ongimizda qayd qilingan ayrim voqea - hodisalarning o'zaro bog'lanishidir, biror buyumni esda olib qolish uni boshqa buyumlar bilan bog'lash orqali amalga oshiriladi. "Muvaqqat nerv bog'lanishlar - deb yozadi. I. P. Pavlov,- hayvonot olamida va bizning o'zimizda ham

bo'ladigan eng umumiy fiziologik hodisadir. SHu bilan birga u psixik hodisa hamdir: Turli -tuman harakat, taassurot bo'lmasa harflar, so'zlar va fikrlar o'rtasida paydo bo'ladigan bog'lanishlarni psixologlar assotsiatsiya deb ataydilar".

Odamning xotirasi ketma - ketlik, o'xshashlik, qarama - qarshilik, ya'ni kontrastlik assotsiatsiyalarga asoslanadi. Ketma - ketlik assotsiatsiyalarning asosida narsa va hodisalarning fazoviy, vaqt munosabatlari yotadi. Masalan: Biz bir vaqtning o'zida ma'lum fazoda stol, tarelka va qoshiq, qalam va qog'oz buyumlarni idrok qilar ekanmiz, biz ana shu narsalar o'rtasida fazoviy munosabatlarni o'z ongimizda mustahkam saqlab qolamiz, agar biz bu predmetlar bilan uchrashsak, u hakda eslasak, bizning ongimizda uning yonida bo'lgan boshqa predmetlar ham ko'z ongimizga keladi. SHunga o'xshash ma'lum vaqt oralig'ida, ya'ni biridan so'ng ikkinchisi keluvchi boshqa hodisalarni idrok qilar ekanmiz, masalan, yil fasllarini, biz ularni ketma - ketlikda eslaymiz. Agarda yangi bo'lgan buyum ma'lum bo'lgan buyumga o'xshasa, shu vaqtda o'xshashlik bo'yicha assotsiatsiya vujudga keladi. Masalan: tabiat manzarasini aks ettiruvchi rasmga qarab turib, uni qachondir boshqa rasmda ko'rilgan tabiat manzarasiga o'xshash ekanligini xotirlaymiz, o'xshashlik bo'yicha assotsiatsiya - badiiy usul bo'lib, adabiyotda keng qo'llaniladi. Masalan: shoir majnuntol obrazini tasvirlar ekan, uni ta'sirchan qilish uchun ma'yus ayol obrazi bilan bog'laydi. Qarama - qarshi hodisalar kontrast assotsiatsiya tashkil qiladi. Masalan: Novcha - pakana, qora – oq, botirlik - qo'rqqoqlik va boshqalar.

Xotiraning turlari

Xotiraning turlarini ajratishda esda olib qolish va esga tushirish jarayonlari amalga oshiradigan faoliyat xususiyatlariga bog'liqligi olinadi, bunda xotiraning ayrim turlari 3 ta asosiy mezonga muvofiq ravishda bo'linadi.

1. Psixik faollik tabiatiga qarab: xotirani harakat, hissiy, obrazli, so'z - mantiqiy, mexanik xotira turlariga bo'linadi.
2. Faoliyat maqsadiga ko'ra: ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlariga bo'linadi.
3. Materialni qancha vaqt esda olib qolish va esda saqlash muddatiga ko'ra: qisqa muddatli va uzoq muddatli hamda operativ xotira turlariga bo'linadi.

Harakat xotirasi turli xil harakatlarni esda olish, esda saqlash va qayta esga tushirishdan iborat, buning ahamiyati shundaki, bu yurish va boshqa malakalar qatorida har xil amaliy mehnat malakalarini tarkib topishining asosini tashkil qiladi. Agar harakat xotirasi bo'lmaganda edi, biron harakatni amalga oshirish uchun biz shu harakatni o'zini har gal "boshdan boshlab" o'rganar edik. M: jismoniy chaqqonlik, mehnatga maxorat, "oltin qo'llarga" ega bo'lish yaxshi harakat xotirasiga ega bo'lishning alomati hisoblanadi.

HISSIY XOTIRA tuyg'u - hissiyotga xos xotiradir. emotsiyalar (tuyg'ular) bizga ehtiyojlarimiz va qiziqishlarimiz qanday qondirilayotganligidan, atrofimizdagi olamga nisbatan bizning munosabatlarimiz qanday amalga oshirilayotganligidan doim habar berib turadi. Boshimizdan kechirgan va xotiramizda saqlanib qolgan hissiyotlar harakatga undovchi va o'tmishda salbiy kechinmalarga ega bo'lgan harakatlardan saqlab qoluvchi signal tarzida namoyon bo'ladi. Masalan: biron kishining qayg'usi, shodligiga hamdardlik bildirish, kitob qahramoni bilan birga qayg'urish, hissiy xotiraga asoslanadi, hissiy xotira xotiraning boshqa turlaridan ma'lum ma'noda kuchli bo'lishi mumkin

Obrazli xotira tasavvurlar, tabiat va hayot manzaralari, shu bilan birga tovush, hidlar, ta'mlar bilan bog'liq xotiradir. Xotiraning bu turi ko'rish, eshitish, hid bilish va ta'm xotiralaridan iboratdir.

So'z – mantiqiy xotira mazmuni bizning fikrlarimizni tashkil qiladi. So'zlar bo'lmasa fikrlar ham bo'lmaydi. SHuning uchun fikrlarimizga xos xotira shunchaki mantiqiy xotiralar deb ataladi. So'z - mantiqiy xotirada ikkinchi signal tizimi asosiy rol' uynaydi. So'z - mantiqiy xotira insongagina xos xotiraning maxsus turidir.

Ixtiyoriy va ixtiyorsiz xotira. Faoliyat maqsadiga qarab xotira ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlarga bo'linadi. Muayyan maqsadsiz biron narsani esda olib qolish yoki eslash, ixtiyorsiz esda olib qolish va ixtiyorsiz qayta esga tushirish ixtiyorsiz xotira deb ataladi. O'z oldimizga maqsad qo'yib esda olib qolsak, bu ixtiyoriy xotira deb ataladi. Xotiraning ixtiyoriy va ixtiyorsiz turlari xotira taraqqiyotining ikkita ketma - ket bosqichlarini tashqil etadi. Ixtiyorsiz xotira turmushimizda katta o'rin egallaydi, ixtiyoriy xotirada biz hech qanday irodaviy kuch sarflamaymiz, hech qanday maqsad qo'ymaymiz.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli xotira. Ma'lum bir material xotirada mustahkamlanishi uchun material sub'ekt tomonidan ishlab chiqarilishi kerak. Bunday ishlab chiqish ma'lum miqdorda vaqt talab etadi, bu vaqt izlarni mustahkamlash vaqti deyiladi. Bu jarayon hozirgina bo'lib o'tgan hodisaning sub'ektiv jihatdan "aks-sadosi" sifatida echiladi. Biz ma'lum daqiqa mobaynida hozir bevosita idrok qilmayotgan narsalarni go'yo ko'rishda, eshitishda davom etamiz. Bu jarayonlar beqaror va o'zgarishdir, lekin bu jarayonda esda olib qolish, esda saqlash va qayta esga tushirishning alohida turi sifatida qaraladi, bu jarayon qisqa muddatli xotira deyiladi. Juda ko'p qaytarishlar va qayta tiklashlar natijasida materialni uzoq muddat davomida esda saqlab qolishga xos bo'lgan uzoq muddatli xotiradan farq qilgan holda, qisqa muddatli xotira bir marta hamda juda qisqa vaqt oralig'ida idrok qilish va shu ondayok, qayta tiklashdan so'ng juda qisqa muddatli esda olib qolish bilan ta'sirlanadi. Operativ xotira tushunchasi inson tomonidan bevosita amalga oshirilayotgan harakatlar, operatsiyalar uchun xizmat qiluvchi mnemik (xotira) jarayonlarini bildiradi. Masalan: murakkab arifmetik harakatni bajarishda uni ayrim qismlarga bo'lib bajaramiz. Ana shunday ishni bajarishda inson duch keladigan materiallar qismlar har xil bo'lishi kerak. Xotiraning operativ birliklari deb ataladigan ana shu qismlarning hajmi ma'lum bir faoliyatni muvaffaqiyat bilan bajarishga muhim ta'sir ko'rsatadi. Operativ xotirada ham qisqa muddatli, ham uzoq muddatli xotira materiallaridan kelib qo'shiluvchi "ishchi qotishma" hosil bo'ladi.

XOTIRA JARAYONLARI

a) esda qoldirish va uning turlari.

Xotira faoliyati esda qoldirishdan boshlanadi. esda qoldirish idrok qilingan narsa va hodisalarning obrazlarini miya po'stida iz hosil qilishdir. Uning fiziologik asosi miya po'stida muvaqqat nerv bog'lanishining vujudga kelishidir. esda qoldirish o'zining faolligi jihatidan ikkiga bo'linadi.

b) ixtiyoriy esda qoldirish;

v) ixtiyorsiz esda qoldirishda;

Ixtiyorsiz esda qoldirish oldindan maqsad qo'yilmaydi, mavzu tanlanmaydi va iroda kuchi sarflanmaydi. O'zining go'zalligi, hissiy ta'sirchanligi, hajmi, harakatchanligi,

tezligi, shakli va boshqa xossalari bilan farq qiladigan narsa va hodisalar ixtiyorsiz esda qoladi. M: tasodifiy hodisalar, karnay - surnay ovozi ixtiyorsiz esda qoladi.

Ixtiyoriy esda qoldirishda esa oldindan maqsad qo'yib, mavzu belgilanadi.

Masalan: dars materiallarini esda olib qolish, imtixonga tayyorlanish. Ixtiyoriy esda qoldirishda quyidagi turli usullardan foydalaniladi:

1. maqsad qo'yish, masalan: institutga kirish oldidagi maqsad.

2. o'quv materiallarini tushunib esda qoldirish.

3. esda qoldirishning ratsional usullaridan foydalanish, masalan: esga tushirish yo'li bilan esda qoldirish.

Beixtiyor esda qoldirishda qiziqish katta rol' o'ynaydi. Bizning oldingi tajribamiz bilan bog'liq narsa va hodisalar beixtiyor oson qoladi. Biz ba'zi bir faktlarni bilsak, ular haqida tushuncha bo'lsa, shu faktlarga tegishli bo'lgan hamma narsalar oson esda qoladi.

Ixtiyorsiz esda qoldirish inson hayotida katta ahamiyatga ega bo'lib, undan ortiqcha harakat talab qilmagan holda uning hayotiy tajribalarini kengaytiradi va boyitadi. Biroq ixtiyorsiz esda qoldirish tez bo'lsa ham, ko'pincha noaniq bo'ladi, bunday esda olib qolingani narsa va hodisalar keyinchalik yanglish esga tushiriladi.

Ixtiyoriy esda qoldirish ko'zda tutilgan maqsadga muvofiq tanlangan materialni esda qoldirishdir. Kishi ixtiyoriy esda qoldirish uchun esda saqlashning maxsus usullarini saqlagan holda, materialni puxta esda qoldirish uchun o'zining keraqli kuchini sarf qiladi. Ammo mexanik esda saqlashni ma'noli esda saqlash bilan qo'shilishi foydalidir.

Esga tushirish va uning turlari. O'tmishda idrok qilingan narsalarning his-tuyg'u, fikr va ish - harakatlarining ongimizda qaytadan tiklanishi esga tushirish deyiladi. esga tushirishning nerv - fiziologik asoslari bosh miya po'stida ilgari hosil bo'lgan nerv bog'lanishlarining qo'zg'alishidir. esga tushirishning tanish, eslash, bevosita eslash, oradan ma'lum vaqt o'tkazib eslash, ixtiyorsiz va ixtiyoriy turlari bor. Tanish ilgari idrok qilingan narsa va hodisalarning takror idrok qilish natijasida u narsa yoki hodisaning esga tushishidir. Tanish aniq va noaniq bo'lishi mumkin. Noaniq tanishda biz bu narsani notanish emasligini his qilamiz holos. Masalan: bir odam ko'zimizga issiq ko'rinadi, lekin uni qaerda ko'rganimizni eslay olmaymiz. To'liq, aniq, tanishda esa idrok qilinayotgan narsaning nomi katta rol' o'ynaydi. Masalan: biz bir kishining ko'rib uni taniy olmasak, uning familiyasini yoki ismini eshitsak darrov kim ekanini bilamiz.

Eslash narsa va hodisalarni uni shu paytda idrok qilmay esga tushirishdir. Masalan: bo'lib o'tgan voqea va hodisalarni, bilib olgan she'rimizni bemalol esga tushirishimiz mumkin. eslash ham aniq va noaniq bo'ladi. Masalan: Biz she'ri yoddan aytib bersak ham uni qaerda va qachon o'qiganimizni eslay olmaymiz. esga tushirish avval tanishdan boshlanadi. Masalan: imtixonga kirganda biletni ko'rib uning savolini o'qib taniymiz. Demak, predmetning nomi muhim rol' uynar ekan.

Bevosita esga tushurish materialni idrok qilish ketidanoq esga tushirishdan iborat. Masalan: she'ri yod olganimizda bir necha satrni o'qigach, kitobga qaramasdan takrorlaymiz, ya'ni bevosita esga tushiramiz. Bir karra ko'zdan kechirilgan materialni bevosita esga tushirilgan miqdoriga qarab xotiraning ko'lami aniqlanadi. Materialning ko'p qismini bevosita esga tushira oladigan kishining xotira ko'lami keng hisoblanadi.

Masalan: artistlarda soʻz va iboralarni esda tutib qolish xotirasini koʻlami keng boʻladi. Hisob - kitob ishlarini yuritadigan xodimlarda sonlarni esda tutish xotirasining koʻlami keng boʻladi.

Vaqt oʻtkazib esga tushurish esda olib qolingani oradan bir qancha vaqt oʻtkazib esga tushirishdirki, shu orada ongimizda boshqa jarayonlar oʻtgan boʻladi. Masalan: yoshligimizdagi voqea va hodisalarni shu tariqa eslaymiz.

ESDA SAQLASH VA UNUTISAH. Idrok qilingan narsalar miyamizda oʻrnashib qolishi, esimizda turishi tufayli turli usulda esimizga tushishi mumkin.

Esda saqlash deyilganda ilgari tugʻilgan taassurot, fikr, his-tuygʻu va ish - harakatlarining takrorlanishiga moyillik paydo qilishi va mustahkamlanishi tushuniladi. Bunga sabab asab tizimining egiluvchanligidir. SHuning uchun asab tizimi ilgari boʻlib oʻtgan taassurotlarini takrorlashga tayyor turadi. Faqat esga tushishi uchun qulay sharoit boʻlsagina esga tushadi. Bunday sharoit boʻlmaganda, zarur materialni ixtiyoriy eslash jarayoni qiyinlashadi. SHunday qilib, esga tushirishda ana shu tariqa qiyinlab qolib, zarur boʻlgan narsani shu onda esga tushira olmaymiz.

Unutilgandan keyin xotiraga keltirishni **reministentsiya** (xira esga keltirish) deyiladi. Bu hodisaning sababi shuki, uzoq vaqt bir ish bilan mashgʻul boʻlganda, miya poʻstining asab hujayralarida charchash yuz beradi. CHarchash haddan oshishi natijasida nerv hujayralarida tormozlanish yuz beradi. Materialni esda qoldirilgandan keyin 12 soat ichida esga tushirilsa, materialni koʻp qismi unutiladi. Materialni oʻqib oʻrganib olingandan keyinroq uni yaxshi xotiray olmasak, ammo oradan bir necha vaqt oʻtgandan keyin uni toʻla xotiray olishlikning sababi materialni oʻqib, oʻrganib olishda roʻy beradigan charchashdir. Materialni eslash uchun boʻlgan kuchli xohish natijasida tormozlanish yuzaga keladi, bu esa materialni qayta esga tushirishdagi qiyinchilikni kuchaytirib yuborishi mumkin. Vaqt oʻtishi bilan odam qandaydir boshqa ishga chalgʻib ketgach tormozlanish tarqab ketadi. SHunda esga tushirilishi lozim boʻlgan narsa xotiraga keladi. Materialni mustahkamlashga boʻlgan qiziqishni boʻlishi materialni uzoqroq esda saqlashga olib keladi. Unutish vaqtga bogʻliq boʻladi. Buni ebbingaoʻz aniqlagan. Uning koʻrsatishicha unutish material yod olingandan keyin darhol ayniqsa tez roʻy beradi, undan keyin esa unutish ancha sekinlashadi. Takrorlash unutishga qarshi asosiy vositadir, takrorlash faqatgina oʻquv materialni pishiq esda qoldirishning asosiy sharti emas, balki uni bizning xotiramizda keyinchalik saqlanish sharti hamdir. Lekin unutish bilan kurashishning asosiy vositasi boʻlib, oʻrganilgan bilimni tajribada qoʻllash hisoblanadi.

Xotiradagi individual farqlar yoki xotira tiplari.

Xotira jarayonlaridagi individual farqlar esda qoldirishning tezligida, aniqligida, mustahkamligida va qayta esga tushirishdagi tayyorligida ifodalanadi. Bu farqlar maʼlum darajada nerv faoliyati tiplarining xususiyatlari bilan qoʻzgʻalish va tormozlanish jarayonlarining kuchi va harakatchanligi bilan bogʻliqdir, individual farqlar hayot va taʼlim - tarbiya taʼsirida oʻzgaradi. Xotiradagi individual farqlar yana shunday hollarda namoyon boʻladiki, har xil odamlar obrazli materiallarni, rang, tasvir, narsa, tovushlarni samarali va mustahkam esda olib qoladilar.

Boshqa bir odamlar esa soʻzlarni yaxshi eslab qoladilar. Uchinchi bir toifa odamlarda esa maʼlum bir materialni esda olib qolishda yaqqol ustunlik sezilmaydi. Psixologiyada xotiraning quyidagi tiplari farqlanadi: koʻrgazmali - obrazli xotira, soʻz

- mantiqiy xotira va oraliq tipdagi xotira. Masalan: obrazli - ko`rgazmali tipi ko`proq rassomlarda, so`z - mantiqiy tipi nazariyachi olimlarda uchraydi. Bundan tashqari xotirlash va esda qoldirish jarayonlari analizatorlarning qatnashishiga qarab xotira quyidagi tiplarga ajratiladi: ko`rish, eshitish, harakat va aralash xotira. Bir xil kishilar ko`rish orqali, ikkinchi xillari eshitish orqali, uchinchi xillari harakat yordamida, to`rtinchi xillari esda qoldirishning birga qo`shilgan usulida yaxshi esda qoldiradilar. Xotiraning aralash tiplari eng ko`p tarqalgan.

Xotiraning individual farqlari kishi faoliyatining xususiyatiga bog`liqdir. esda olib qolish va unutish tezligiga ko`ra xotiraning quyidagi tiplari mavjud:

1. *Tez esda qoldirib sekin unutish*
2. *Tez esda qoldirib tez unutish*
3. *Sekin esda qoldirib sekin unutish*
4. *Sekin esda qoldirib tez unutish*

Xotira tasavvurlari. Ilgari idrok qilingan narsa va hodisalar obrazlarining ongimizda qaytadan gavdalanishiga xotira tasavvuri deyiladi. Esda olib qolish va qayta esga tushirish tasavvur obrazlari orqali amalga oshiriladi. Xotira va xayol tasavvurlari bir - biridan farq qiladi. Xotira tasavvurlari ilgari idrok qilingan, ammo hozir ko`z o`ngimizda bo`lmagan narsalarning obrazlarini ongimizda gavdalanishidan iborat. Masalan: yoshlik vaqtimizdagi hodisalarni eslashimiz, ongimizda qayta tiklashimiz xotira tasavvuri bo`ladi.

Xayoliy tasavvur xotira tasavvuriga qaraganda murakkab bo`lib, ongimizdagi bilimlarimiz, tajribamiz asosida ilgari idrok qilinmagan, shu paytgacha uchramagan narsalarning obrazlarini yaratishdan iboratdir. Xayoliy tasavvur ijod qilish bilan bog`liq. Masalan: ertaklar, romanlar, umuman biror asarni o`qiyotganimizda undagi qahramonlarning ko`z o`ngimizda gavdalanish xayoliy tasavvurdir.

Tasavvurlar paydo qilishda so`zning ahamiyati katta. So`z bilan atash tegishli obrazning yaratilishiga yordam beradi. Masalan: “ildiz”, “o`t”, so`zlarining to`rt kishiga berib qanday tasavvur qilishlarini so`rasak, ularning tasavvurlari bir -biridan farq qilishini ko`ramiz, chunki har biri tajribasiga ko`ra, kasbiga ko`ra tushunadi. Masalan: matematik ildizni algebra belgisi deb, botanik o`simlik qismini, uning ildizini, tish doktori esa tish ildizini tushunadi.

Tasavvur qilishning fiziologik asosi shartli reflekslarining hosil bo`lishida bosh miya po`stida paydo bo`lgan izlarning jonlanishidir. Tasavvur birorta turtki ta`sirida jonlanadi. Masalan: biror odam haqida tasavvurlarning tug`ilishi uchun bironta so`z yoki hodisa turtki bo`ladi. Asosan maxsus qo`zg`ovchi so`zdir, shuning uchun so`z bilan tasvirlash orqali tasavvurlar tug`iladi. Odam ko`rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma'lum bo`lishicha, bir vaqtning o`zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo`lgan ma'lumotningqolishiqiyin ekan. Bu ettita so`z, son, belgi, narsaning shakli bo`lishi mumkin. Agar telefon rahamlari 8 ta belgili bo`lganda, uni yodda saqlash anchaqiyin bo`larkan. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumotlarni saralab, terib ishlatishi yana bir psixik jarayonni — xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi. Odatda biz biror bir materialni o`qiydigan bo`lsak, uni hech bir o`zgarishsiz eslab qolishga harakat qilamiz. Lekin ajablanarlisi shundaki, borgan sari material ma'lum o`zgarishlarga yuz tutib, xotirada dastlabki paytdagisidan boshqacharoq bo`lib saqlanadi. Ba'zi bir material yoki ma'lumot

xohlasak ham xotiradan o'chmaydi, boshqasi esa juda qattiq xohlasak ham kerak paytda yodimizga tushirolmaymiz. Bu kabi savollar, inson bilish jarayonlaridagi eng muhim savollar bo'lib, ba'zan o'z taraqqiyotimiz va kamolotimizni ham ana shunday omillarga bog'lagimiz keladi.

Ma'lum bo'lishicha, inson miyasi har qanday ma'lumotni saqlab qoladi. Agar shu ma'lumot biror sabab bilan odamga kerak bo'lmasa, yoki o'zgarmasa, u ongdan tabiiy tarzda yo'qoladi. Lekin har doim ham bizning professional faoliyatimiz manfaatlariga mos ma'lumotlarni esda saqlash juda zarur va shuning uchun ham ko'pchilik ataylab xotira tarbiyasi bilan shug'ullanadi.

Xotira har qanday tajribamizga aloqador ma'lumotlarning ongimizdagi aksidir. Inson xotirasining yaxshi bo'lishi, ya'ni his-kechinmalarimiz, ko'rgan-kechirganlarimizning mazmuni to'laroq miyamizda saqlanishi quyidagi omillarga bog'liq: esda saqlab qolish bilan bog'liq harakatlarning yakunlanganlik darajasiga; shaxsning o'zi shuqullanayotgan ishga nechog'lik qiziqish bildirayotganligi va shu ishga moyilligiga, shaxsning bevosita faoliyat mazmuni va ahamiyatiga munosabatining qandayligiga, shaxsning ayni paytdagi kayfiyatiga, irodaviy kuchi va intilishlariga.

Xotiraning samaradorligi eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi. Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra ham farqlanadilar: materialni tezda eslab qoladiganlar; materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar; istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar.

Ba'zi odamlarning xotirasiga xos jihatlarni tug'ma deb atashadi. To'g'ri, oliy nerv tizimi, uning o'ziga xos ishlash xususiyatlari xotiraning o'ziga xos individual uslubini belgilashi mumkin. Lekin hayotda ko'pincha shaxsning bilish jarayonlari va sezgi organlarining ishlash qobiliyatlariga bog'liq tarzda ajralib turadigan tiplari haqida gapirishadi. Masalan, ayrim odamlar ko'rgan narsalarini juda yaxshi eslab qoladi, demak, ularning xotirasi **ko'rgazmali** — **obrazli** bo'lib, ko'zi bilan ko'rmaguncha, narsaning mohiyatini tushunmaydi ham. Boshqalar esa o'zicha fikrlab, nomini aytib, mavhum tarzda tasavvur qilmaguncha, eslab qolishi qiyin bo'ladi. Bundaylar so'z — mantiqiy xotira tipi vakillaridir. Yana bir tipli odamlar bevosita his qilgan, «yuragidan» o'tkazgan, unda biror yorqin emosional obraz qoldirilgan narsalarni yaxshi eslab qoladilar, bu — **emosional xotiradir**. Lekin yana bir xotira egalari borki, ularni **fenomenal** xotira sohiblari deb atashadi. Psixologiyaga oid kitoblarda ana shunday xotiraga ega bo'lgan kishilar to'g'risida ko'p yozilgan. Bu shunday kishilarki, ular bir vaqtning o'zida nisbatan juda katta hajmdagi ma'lumotlarni esda saqlay oladi va esga tushiradi. Masalan, tarixiy shaxslar orasida Yuliy Sezar, Naloleon, Mosart, shaxmat ustasi Alexin kabi insonlar xotirasi ana shunday noyob bo'lganligi haqida ma'lumotlar bor. Taniqli, rus psixologi va neyropsixologi A.R. Luriya ham ana shunday xotira sohiblaridan biri — asli kasbi jurnalist bo'lgan Shereshevskiy degan shaxs xotirasini ataylab uzoq vaqt mobaynida o'rgangan. Uning xotirasi shunday ediki, Dantening «Ilohiylik komediyasi»dan olingan uzundan-uzoq parchani bir marta qarab olgandan so'ng, 15 daqiqadan keyin so'zma-so'z aytib berolgan. Shunisi xarakterli ediki, komediya unga notanish bo'lgan italyan tilida yozilgan edi. Ko'pchilikni qanday qilib yaxshi, mustahkam esda saqlab qolish muammosi qiziqtirsa, Shereshevskiy uchun qanday qilib unutish masalasi murakkab edi. Uni xotira obrazlari doimo qiynar,

ko'rgan narsalari ko'z oldida gavdalanaverar edi. Qanday qilib eslab qolasiz? Degan savolga u shunday javob bergan: men «materialni» o'zinga tanish va sevimli bo'lgan Moskva ko'chalariga joylashtiraman. Bir marta bir materialning bir bo'lagi o'sha «ko'chaning» salqin tushgan eriga tushib qolib, esga tushirishi ancha qiyin bo'lgan ekan. Shunga o'xshash har bir fenomenal xotira egalarining o'ziga xos eslab qolish uslublari bo'lar ekan. Tarixda bunday kishilar bor va ular bizning oramizda xam yo'q emas. Muhimi shunda-ki, ana shu fenomenal xotirani shaxs va jamiyat manfaatiga mos tarzda unumli ishlata bilishdir. Shunga o'xshash har bir fenomenal xotira egalarining o'ziga xos eslab qolish uslublari bo'lar ekan. Shotlandiyalik matematik A. Etkin 1933 yili 25 ta bir - biri bilan bog'lanmagan so'zlardan iborat ikki qatorni eslab qolib, hech bir xatosiz uni 27 yildan keyin esga tushira olgan. “qilich va qalqon” kinofilmidagi rus razvedchigi I. Vaysning nasistlar tomonidan lekin o'zbek turist uchun bu kiyim fon edi, fonligicha qoladi ham.

Quyida xotira qonunlari bilan tanishib chiqamiz:

Anglanganlik qonuni: Oddiy,lekin murakkab qonun, ya'ni berilgan materialni qanchalik chuqur anglasak, shunchalik uni mustahkam xotirada muhrlagan bo'lamiz.

Qiziqish qonuni: Anatol Frans:«Bilimlarni yaxshi hazm qilish uchun uni ishtaha bilan yutish kerak» deganda, albatta, materialga jonli qiziqish bilan munosabatda bo'lishimiz, va uni yaxshi ko'rishimiz kerakligini nazarda tutgan.

Ilgarigi bilimlar qonuni. Ma'lum mavzu yuzasidan bilimlar qanchalik ko'p bo'lsa, yangisini esda saqlab qolish shunchalik oson bo'ladi. Masalan, ilgari o'qigan biror kitobni qaytadan o'qib, uni yangidan o'qiyotganday his qilsangiz, demak, siz ilgarigi tajribangiz yetishmaganligidan uni yaxshi o'zlashtira olmaganligingizni his qilishingiz mumkin.Demak, eski bilimlar ham tajribaga aylangandagina, yangilariga zamin bo'la oladi.

Eslab qolishga tayyorlik qonuni: Biror materialni eslab qolishdan avval, bo'lg'usi aqliy ishga qanday hozirlik ko'rgan bo'lsangiz, shunga mos tarzda eslab qolasiz. Masalan, fizika o'qituvchisining barcha darslari sizga doimo ma'qul bo'lgan bo'lsa. Siz:«Bugun ham yangi narsa o'rganib chiqaman», deb o'zingizni ishontirasiz va oqibatda natija ham yaxshi bo'ladi yoki vaqtga nisbatan tayyorlik ham shunday. «Bir amallab imtihon topshirsam, keyin qutulaman», deb darsga tayyorlangan bo'lsangiz, imtihon tugagach, go'yoki miyangizni birov «yuhib qo'yganday» tasavvur hosil bo'ladi. Agar materialni mutaxassis bo'lishim uchun juda kerak, deb umringiz oxirigacha muhimligini anglasangiz, u narsa xotirada muhim saqlanadi.

Assosiasiyalar qonuni: Bu qonun xaqida eramizdan avval Arastu ham shunday yozgan edi, qonunning mohiyati shundaki, bir vaqtda shakllangan tasavvurlar xotirada ham yonma-yon bo'ladi. Masalan, ayni aniq bir xona o'sha yerda ro'y bergan hodisalarni ham eslatadi.

Birin-ketinlik qonuni: harflarni alfavitdagi tartibida yoddan aytish oson, uni teskarisiga aytish qiyin bo'lganidek, xotirada ham ma'lumotlarni ma'lum tartibda joylashtirishga va kerak bo'lganda, tartib bilan birin-ketin tiklash maqsadga muvofiqdir.

Kuchli taassurotlar qonuni. Eslab qolinadigan narsa to'g'risidagi birinchi taassurot qanchalik kuchli bo'lsa, unga aloqador obraz ham shunchalik yorqin bo'ladi. Bundan

tashqari, siz uchun ahamiyatli va jozibali ma'lumotlar oqimida eslanayotgan material ham yaxshi esga tushiriladi.

Tormozlanish qonuni: har qanday muayyan ma'lumot o'zidan oldingi ma'lumotni tormozlaydi. Shuning uchun uning o'chib ketmasligi uchun yangini esda saqlashdan avval mustahkamlash choralarini ko'rishingiz kerak. Demak, yaxshi kuchli bilimlarga ega bo'lish uchun xar bir predmet yoki fanning mavzularini o'ziga xos tarzda yoqtira olish va xotirada saqlash uslublarini ishlab chiqishingiz kerak ekan. Lekin albatta, matematika fanidan keyin fizikani, tarixdan keyin adabiyot fanini, she'r yodlashni uyqu oldidan amalga oshirmaslikni maslahat beramiz.

Xotirani rivojlantirish masalasi psixologiyadagi, nafaqat psixologiyadagi, balki insoniyatning oldida turgan dolzarb muammodir. Ayniqsa, u yoki bu ta'lim maskanlarida o'qiydigan har bir o'quvchi yoki talaba uchun ham bu juda muhim narsa: kim eshitgan yoki ko'rgan narsasining mazmunini to'la eslab qolib, keyin sheriklari yoki o'qituvchisini lol qilishni xohlamaydi deysiz? Shuning uchun ham ushbu mavzuda amaliy jihatdan ma'qul va mumkin bo'lgan ayrim tavsiyalarga e'tiborni qaratamiz.

Ko'pchilik psixologlar va amaliyotchilar inson xotirasini kitoblar javoniga o'xshatishadi. Agar shu javonda kitoblar tartib bilan joy-joyiga qo'yilgan va siz vaqti-vaqti bilan ularning orasiga «tashrif» buyurib tursangiz, qaysi kitob qayerda turganini yaxshi bilasiz. Xotira ham shunday. Agar siz muntazam o'z qobiliyatlaringizni o'stirish ustida ishlasangiz, u yoki bu qiziqtirgan mavzu bo'yicha turli kitoblarni o'qib, ularni ma'lum tartibda qaytarib tursangiz, esda saqlash va esga tushirish qobiliyatingiz o'sib boraveradi.

Ikkinchi muhim amaliy qoida — bu o'qigan, eshitgan yoki ko'rgan narsangizning mohiyatini anglashga harakat qilishingiz lozim. Chunki tushunmagan narsangizni qayta-qayta o'qisangiz ham esda yaxshi qolmaydi. Masalan, ingliz tilidan «topiklar»ni o'qituvchi so'raganda yoddan aytib bergan bo'lsangiz, u tezda xotirangizdan o'chib ketadi. Agar uni amaliy biror ish-faoliyatingiz bilan bog'lab, qiynalib bo'lsa ham ovoz chiqarib mashq qilsangiz, u anchagacha yoddan chiqmaydi.

Uchinchi keng tarqalgan usul — bu eslab qolinishi kerak bo'lgan narsalarni ma'no jihatdan guruhlariga bo'lib turib eslab qolish. Bu usulni biz yoshlikdan boshlab ishlatib kelganmiz. Masalan, sizga so'zlar qatori berilgan: sinf, bola, parta, ruchka, boq, uzum, charos, qalam, ariq. Shu so'zlarni yaxshilab esda saqlash uchun ularni ma'lum guruhlariga oldin bo'lib olsak, masalan, maktabga aloqador narsalar guruhi va bog' bilan bog'liq narsalar guruhlari. Shu aqliy ishni amalga oshirsak, albatta, xotiramiz ishi samarali bo'ladi yoki yoshlikdagi bir ertak hammaga tanish: chol turp ekan va u shu qadar katta bo'lib ketganki, o'zi yakka hech uni tortib chiqara olmaydi. Shunda u kampirni, kampir — nabirasini, nabira — kuchukni, kuchuk — mushukni, mushuk esa sichqonchani chaqirib, birgalikda jo'r bo'lishib, tortib olishadi. Nega bu ertakning ma'no-mazmuni yoddan chiqmaydi, chunki undagi voqealar zamirida birin-ketin amalga oshadigan voqealar zanjiri mavjud. Shu birin-ketinlik qonuni eng kattadan eng kichkina bo'lgan jonzo'tning birgalikdagi, do'stona uzviyligi yotadi. Bu ertakda nafaqat tarbiyaviy ma'no bor, bu ham muhim, balki unda yuqorida ta'kidlaganimiz — guruhiy o'zaro bog'liqlik tamoyili bor.

Xotira jarayonlari shaxsning faoliyatdagi yutuqlariga bog'liq bo'lgani uchun ham, uning tabiati, qanday kechishiga ko'plab olimlar ahamiyat berganlar. Masalan, nima uchun odam u yoki bu ma'lumotni xotirada saqlaydi, degan savolga turli olimlar turlicha javob beradilar. Masalan, fiziologlar uning sababini miyada hosil bo'ladigan nerv bog'lanishlari - assosiasiyalar bilan bog'lashsa, bioximiklar - ribonuklein kislota (RNK) va boshqa bioximik o'zgarishlar oqibatidadir, deb tushuntiradilar.

Psixologlar esa xotirani doimo inson faoliyati, uning shaxs uchun ahamiyati va motivlar xarakteri bilan bog'laydilar. Chunki shaxsning yo'nalganligi, uning hayotdagi mavqei va qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi aynan xotirasining mazmuniga bog'liq. Shuning uchun xattoki, shunday gap ham bor: "Nimani eslashingni menga ayt, men sening kimligingni aytaman".

Amaliy nuqtai nazardan xotiraning samaradorligi va uni o'quv va mehnat faoliyati jarayonida oshirish katta ahamiyatga ega. Chunki ko'pincha odamlar orasida ishchanroqi, o'quvchi yoki talabalar orasida bilimiroqi ham birqarashda xotirasining kuchi bilan boshqalardan ajralib turadi. Buyuk bobokalonimiz Amir Temurning xotirasi haqida afsonalar yuradi. Masalan, u o'zqo'l ostidagi beklarning nafaqat ismini balki otasining ismlarini ham yoddan bilarkan, uchrashuvlarda bevosita nomini aytib murojaat qilarkan. Bu fazilat ham uning o'zqo'l ostidagilar orasida obro'ining balandligiga ta'sir ko'rsatgan. Amerikaning mashhur Prezidentlaridan Avraam Linkoln ham ana shunday fenomenal xotirani o'z yaqinlari va ish yuzasidan u bilan bog'liq bo'lgan xodimlarga nisbatan namoyon etib, lol qoldirgan ekan. Demak, xotira tarbiyasi, uni kerakli yo'sinda rivojlantirish - kerak bo'lsa, shaxsiy obro' hamda ishdagi samara masalasi bilan bevosita bog'liq ekan.

Umuman, xotiraning samaradorligi eslab qolishning ko'lami va tezligi, esda saqlashning davomiyligi, esga tushirishning aniqligi bilan bog'lanadi. Demak, odamlar ham aynan shu sifatlarga ko'ra ham farqlanadilar, materialni tezda eslab qoladiganlar, materialni uzoq vaqt esda saqlaydiganlar, istagan paytda osonlik bilan esga tushiradiganlar.

Esda saqlangan ma'lumotni xotiradan chiqarib olib, qayta tiklash ham muhim muammo. Chunki ko'pincha biz xotiramizda kechagina o'qigan yoki yaqindagina o'qituvchimiz aytib bergan ma'lumotning borligini bilamiz-u, lekin kerak vaqtda uni esga tushira olmaymiz. Ma'lumotni xotiradan chaqirib olish omillariga quyidagilar kiradi:

Ma'mulotning anglanganligi. Biz o'zimiz to'la anglagan, tushungan narsalarni osonroq esga tushiramiz. Masalan, alfavitni juda oson esga tushiramiz, yoki 1, 2, 3, 4 va hokazo tartibli sonlarni bir ko'rgandan so'ng u milliongacha bo'lsa ham esga tushirishimiz sirayam qiyin emas. Lekin shu sonlardan bor yo'g'i 7 - 8 tasini teskari yoki aralash tartibda yozilgan bo'lsa, ularni esga tushirish ancha mushkul bo'ladi. "Psixologiya" yozuvini esga tushirish juda oson, lekin "ipioxoyaslg" harflari to'plami aynan o'sha harflardan iborat bo'lsa ham sira esga tushira olmaymiz. Demak, materialni yaxshilab esda saqlash va esga tushirish uchun uni tushunish va anglash kerak. Mazmunini va mohiyatini tushungan xolda iloji bo'lsa, o'zimizdagi qiziqishlarga bog'lay olishimiz kerak.

Kutilmagan ma'lumot. Kutilmaganda paydo bo'lgan yangi va yaxshi ma'lumot ham yaxshi esga tushadi. Masalan, sonlar qatorida berilgan bitta harf, yoki aksincha,

harflar orasidagi bitta son, uzun jumlar orasida paydo bo'lgan qisqa jumla esga tezroq va aniqroq tushadi. Buning oddiy sababi - biz kutilmaganda paydo bo'lgan ma'lumot yoki narsaga hayratlanamiz, jonli emosiyalar bilan javob beramiz, bu esa yaxshi eslab qolishga va kerak bo'lganda, yorqin tiklashga asosdir.

Ma'lumotning mazmun yoki shakl jihatdan bir - biriga yaqinligi. Masalan, agar ko'plab bir - biriga bog'liq bo'lmagan so'zlar orasida "erkak" va "ayol" so'zlari paydo bo'lgan bo'lsa, bittasining esga tushirilishi ikkinchisining ham esda tiklanishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham o'quv rejasiga kiritilgan barcha fanlar shunday birin-ketinlikda beriladiki, birini o'zlashtirish ikkinchisining ham o'zlashtirilishi, bir - birini to'ldirishga xizmat qilsin.

Esda saqlash vaqti bilan esga tushirish vaqti o'rtasidagi farq. Odamda berilgan ma'lumotni idrok qilish va shu orqali esda saqlash vaqtiqanchalik ko'p bo'lsa, esga tushirish ham osonroq bo'ladi. Shuning uchun ham uzoq muddatli xotirada saqlanadigan informatsiya uzoq vaqt mobaynida, ko'pincha bir necha marta qaytarib beriladi, qisqa muddatlida esa bir marta, qisqa fursatda beriladi va shu narsa esga tushirish kerak bo'lganda, tiklanmaydi. Masalan, biror tekstni kompyuterga kiritish uchun o'rtog'ingizga berib, keyin nimalarni kiritganini so'rang. Javob aniq: "Esimda yo'q". Ya'ni ma'lumotning umumiy mazmuni yodda qolsa ham, asosiy tushunchalar va mohiyat esda qolmaydi. Shunday qilib, xotira faol jarayon bo'lib, u shaxsning u yoki bu turli ma'lumotlar bilan ishlash malakasiga, unga munosabatiga, materialning qimmatini tasavvur qilishiga bevosita bog'liq bo'ladi. Eng xarakterli narsa shuki, inson faqat eshitgan ma'lumotining 10 foizini, eshitgan va ko'rgan narsasining 50 foizgachasini, o'zi faol bajargan ishlarining deyarli 90 foizini yodda saqlaydi. Bu ko'plab psixologik eksperimentlarda isbot qilingan. Shaxsning o'zi o'ylab topib, o'zi bevosita bajargan ishlari juda oson esga tushadi. Bu hodisa psixologiyada generatsiya effekti deb ataladi. Agar talaba yoki o'quvchi ham o'zi biror teoremani mustaqil ravishda isbot qilgan bo'lsa, yoki biror xulosaga mustaqil ravishda kelolgan bo'lsa, o'qituvchi tushuntirgan hodisaga yaqin narsa to'g'risida o'rtoqlariga so'zlab bergan bo'lsa, albatta uni xoxlagan paytda osongina esga tushiradi. Shuning uchun ham oxirgi paytlarda o'yin metodlari, munozara metodlaridan o'quv jarayonida ham keng foydalanilmoqda. Xattoki, kattalarni qisqa fursatda o'qitish va malakalarini oshirishda ham turli xil amaliy o'yinlardan, ijtimoiy psixologik treninglardan foydalanishning ma'nosi ham shunda - yaxshi va tez eslab qolish hamda samarali esga tushirish. Iqtisodiy o'quvlarda turli xil "keys stadi"larni taxlil qilish va o'z nuqtai nazaricha maqbul harakat shakllari qarorlar qabul qilish ham mutaxassislar malakasini oshirishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Agar boshingizdan kechirganlaringiz bir lahza esga kelganda rangingiz oqarib yoki qizarib ketsa, boshingizga tushgan musibat haqida o'ylashdan qo'rqsangiz, sizda xotiraning qaysi turi ustun bo'ladi?

a) harakat xotirasi; b) so'z - mantiq xotirasi; v) obrazli xotira; g) hissiy xotira.

2. Bir sahifa she'rni yod olish uchun Pushkinga 1- 2 marta o'qib chiqish kifoya qilardi. Motsart bir marta eshitgan musiqa asarini esda qoldirib, keyinchalik shu asarni notaga yoddan ko'chira olgan. Ularning xotirasi qaysi tipga taalluqli?

a) tez esda qoldirib sekin unutish; b) tez esda qoldirib tez unutish;

v) sekin esda qoldirib sekin unutish; g) sekin esda qoldirib tez unutish.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Assotsiatsiyalar necha turga bo`linadi?
2. Mantiqiy xotira mexanik xotiradan qanday farqlanadi?
3. esda qoldirishning turlarini tavsiflang?
4. Xotira jarayonlariga nimalar kiradi?

Xotirani mashq qildirish:

Guruh a`zolari o`z ichlaridan bir kishini “josus”etib saylashadi. Boshlovchi guruh a`zolariga qarab “qotib qoling”degan buyruq beradi. Guruh a`zolari turli holatlarda qotib turishadi va o`z holatlarini eslab qolishadi. Josus ham kimning qanday holatda turganligini eslab qolishga harakat qiladi. SHundan so`ng u ko`zini yumishi yoki xonadan chiqib turishi so`raladi. Paytdan foydalanib, ishtirokchilar o`z holatlarini o`zgartiradilar. “Josus” ko`zini ochib, barcha o`zgarishlarni topishi kerak.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Bruner D.S. Psixologiya poznaniya. –M., 1977.
2. Vertgeymer M. Produktivnoe mishlenie. –M., 1987.
4. Granovskaya R.M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997.
5. Davletshin M.G, To`ychieva M. Umumiy psixologiya –T., 2002.
6. Dyui D. Psixologiya i pedagogika mishleniya. –M., 1998.
7. Emelyanov Yu.N. Aktivnoe sotsialno - psixologicheskoe obuchenie. –L., 1985.
8. Nemov R.S. Psixologiya –M., Prosveshenie. 2004.
9. Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2002.

9 – Mavzu: Xayol

Reja:

1. Xayol jarayonlari:

- a) agglyutinatsiya;
- b) aktsentirovka;
- v) giperbolizatsiya;
- g) tipiklashtirish;
- d) analiz va sintez.

2. Xayol turlari:

- a) tasavvur xayoli;
- b) ijodiy xayol;
- v) ixtiyoriy va ixtiyorsiz;
- g) orzu, tush ko`rish, shirin xayol (ko`knori xayol).

3. Xayol sifatlari:

- a) kengligi va torligi;
- b) chuqurligi va realligi;
- v) mazmundorligi va kuchi;
- g) fantaziyaga boyligi.

4. Xayolning (fantaziya) ahamiyati va o`sishi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Analiz va sintez - xotira tasavvurlarini tahlil qilish va umumlashtirish;

Agglyutinatsiya - elimlash orqali ayrim elementlarni bitta qilib yangi obraz yaratish;

Aktsentirovka - bo`rttirish orqali obraz yaratilishi;

Giperbolizatsiya - kattalashtirish yoki kichiklashtirish orqali obraz yaratish;

Ijodiy xayol - xayol turi bo`lib, original obrazlar yaratish;

Tipiklashtirish - har bir davrga xos bo`lgan obrazlar yaratilishi.

1. Xayol jarayonlari

Biz ilgari idrok qilmagan narsalarni tasavvur qilamiz, ilgari ko`rmagan narsalar obrazlarini yaratamiz, yaratiladigan narsalar g`oyalarini yuzaga keltiramiz, bular xayoldir. Masalan: bizning ko`rmagan joylarimiz haqida tasavvurimiz bor. Xayol - obraz, tasavvur yoki g`oya shaklida yangi narsaning yaratilishi, ong faoliyati, ya`ni ilgari idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini mavjud tasavvurlar asosida miyada yaratishda ifodalanadigan faoliyatdir.

Fantaziya - xayol turlaridan biri bo`lib, u eng qimmatli iste`doddur. Xayol faqat insonga xosdir. Xayol mehnat natijasida paydo bo`ladi. Masalan: biror bir muammoni echishda avval nimadan boshlash, nima qilish, echish, yaratish yo`llari haqida xayol qilinadi. Xayolda biz yo`q narsani yaratamiz, lekin tashqi reallikka asoslanamiz. Masalan: yozuvchilar, rassomlar, kompozitorlar asarlarini hayotdan oladilar. Inson miyasida vujudga kelgan muvaqqat bog`lanishlarni yangi tartibda va qayta paydo bo`lishi xayolning nerv - fiziologik asosi bo`lib hisoblanadi. Kishilar tashqi olamni idrok qilib qolmasdan, balki uni o`zgartiradilar. Xayol qobiliyatimiz bilan bog`liq holda namoyon bo`ladi. SHuningdek, tasavvur xotirasi bilan ham bog`liq, u xayol turi sifatida qatnashadi. Obrazli xotira ijodiy xayol qilishda katta yordam beradi. Xayol voqelikni aks ettirish shakli sifatida quyidagicha ifodalanadi: kelajakni oldindan ko`ra oladi, ilgarigi ta`sirotlarni "jonlantiradi". Xayol mehnat faoliyati orqali rivojlanadi. Xayolning fiziologik asosini miyaning murakkab analitik - sintetik faoliyati tashqil etadi. Xayol bilish jarayonini kengaytiradi va chuqurlashtiradi. Inson bir narsani o`zgartirishdan oldin miyasida o`ylaydi. Xayol ijodiy jarayonning muhim qismi bo`lib, u taqi olamni idrokdan farq qilib, to`liq, chuqur aks ettiradi. Xayolning faoliyati shaxs yo`nalishiga, quyidagi bir qator axlokiy - psixologik sifatlarga bog`liq: vatanparvarlik, mas`uliyatni his qilish, insonparvarlik, qat`iyatlilik kabilar.

Kishining butun ruxiy hayoti shaxsning bilish faoliyati va emotsional irodaviy holatlari bilan o`zviy bog`liq. Xayol idrok, xotira, tafakkur kabi mantiqiy bilish jarayonidir. Xayolning maxsusligi shundaki, u orqali avvalgi tajribalar qayta ishlanadi. Xayol tafakkur bilan shunday bog`liqki, xayol ham tafakkur ham muammoli vaziyatlarda kelib chiqadi, shaxs ehtiyojlariga asoslanadi. Tafakkurda fikrlar tushunchalar asosida ifodalanadi. Xayol faol va passiv, ijodiy bo`lishi mumkin. Orzu ijodiy xayol turi bo`lib, u kelajakni his qilish bilan bog`liq.

Xayol jarayonidagi sintez quyidagi shakllarda namoyon bo`ladi:

- **agglyutinatsiya** - "elimlash" degan ma`noni bildirib, unda turli qismlarni bitta qilib yangi obraz yaratiladi. Masalan: yalmog`iz kampir, suv parisi, kentavr, sfinks obrazlari kabilar;

- **giperbolizatsiya** - obrazlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish, shuningdek, alohida qismlarni o`zgartirishdir. Masalan, Gulliver, liliput, Alpomish, Rostam paxlavon, no`xot polvon obrazlari kabilar.

- **sxemalashtirish** - o`xshatish orqali ayrim tasavvurlarni, ular orasidagi farqlarni silliqlash;

- **tipiklashtirish** - bir xil obrazlarni qaytarilishi bo`lib, har bir darv uchun tipik bo`lgan obrazlarni yaratish. Masalan, A. Qaxxor hikoyalari ("O`g`ri", "Bemor"), A.Qodiriy ("O`tkan kunlar") romani, T.Malikning ("SHaytanat") asarlari kabilar;

- **aktsentirovka** - ayrim belgilarni ta`kidlash orqali obrazlar yaratish. Masalan, o`rtoqlik hazillari. Aktsentirovka adabiyotda ko`p qo`llaniladi. Yuqoridagi xayol jarayonlari orqali yaratiladigan obrazlar analiz va sintez jarayonida ro`y beradi. Chunki, har bir narsani yoki hodisani avval analiz (tahlil) qilib ko`riladi, keyin ularni sintez (birlashtirish) qilish orqali yangi obraz hosil qilinadi.

Xayol jarayonida xayol tasavvurlarining xotira tasavvuridan farqi muhim ahamiyatga ega:

1. Xayol tasavvurlari ongda tez paydo bo`ladi va barqaror bo`ladi.

2. Xotira tasavvurlari doim tanish narsadek his qilinadi, xayol tasavvurlari esa yangilikni his qilish tuyg`ularini beradi.

3. Xayol tasavvurlari insonning qiziqish va ideallari bo`lganligi sababli yangilikni his qilish tuyg`ulari oqibatida vujudga keladi.

Xayol turlari

1. Tasavvur xayoli - biz idrok qilayotgan narsa - hodisalar to`g`risida tasavvur va obrazlar yaratishdan iborat bo`lgan xayol turidir. Bunday tasavvur xayoli boshqa kishilar tomonidan aytib berilgan so`zlar asosida hosil bo`ladi. Masalan, tarixda bo`lgan urushlar, ota - bobolarimiz boshidan o`tgan voqealar haqidagi tasavvurlar. Qiziqarli roman o`qiganimizda bizda tasavvur hosil bo`ladi. O`quvchilar o`rganadigan fanlarga doir bilimlar tasavvur xayoli asosida o`zlashtiriladi.

Tasavvur etilgan obraz yanada yorqinroq bo`ladi.

2. Ijodiy xayol - tajribamizda va tashqi olamda uchramagan narsalar haqida yangi obrazlar yaratilishidir. SHaxs bu xayol turida yangi obraz yaratadi. Masalan, shoirning she`r yozishi, yozuvchining asariga obraz yaratishi, rassomning rasm chizishi, muxandisning ixtirolari, olimning dissertatsiya yozishi kabilar. Umuman har qanday yangilik ijodiy xayolga kiradi. Ijodiy xayol san`atning hamma turlarida namoyon bo`ladi. Har bir odamning o`z orzusi bo`ladi. Har qanday bajarilgan ish amalga oshirilgan orzudir. Amalga oshirilgan orzu yangi ehtiyojni hosil qiladi, kishini ruxlantiradi va kelajakka qaray olish imkonini beradi. Orzu ijodiy xayolning kelajakka, shaxs faoliyatining istiqboliga qaratilgan hayotni ilmiy ko`ra bilishning elementidir.

**SHirin xayol surish (ko`knori xayol)** tartibga solinmagan, maqsadga qaratilmagan xayol jarayonidir. Bunda turli obrazlar ko`z o`ngimizdan birin-ketin o`taveradi. SHirin xayolda o`zimizga yoqqan obrazlar hosil bo`ladi, shuning uchun u huzur baxsh etadi. SHirin xayolga botish odamning irodasi bo`shashganda, dam olayotganda, uyquga ketayotganda, uyg`onganda paydo bo`ladi. SHuningdek, shirin xayol surish harorat ko`tarilganda, asab tizimi zaharlanganda ham paydo bo`ladi, ya`ni kishi giyohvandlik moddalarini iste`mol qilganda shirin, yoqimli hisni boshdan kechiradi.

3. Ixtiyoriy va ixtiyorsiz xayol

Ixtiyorsiz xayolda obrazlar o`z - o`zidan hosil bo`ladi, hech qanday maqsad belgilanmaydi. Masalan, orzu, shirin xayol surish ixtiyorsiz bo`ladi. Chanqagan paytda suv obrazi hosil bo`ladi. Tush ko`rish ixtiyorsiz bo`ladi, biz qattiq uxlamagan holatda

tush ko`ramiz. Tush ko`rishning sababi, bosh miyada tormozlanmay qo`zg`algan holatda qolgan markazlardir. Biz orzu qilgan kishilarimiz, o`ylagan, his qilgan narsalar haqida tush ko`ramiz. Uyqu vaqtida tug`iladigan sezgilar kishi organizmining holati va ehtiyojlari, kishi bedor yurgan chog`ida tuyg`usidan kechirgan hissiyotlar, uyqu vaqtida beixtiyor paydo bo`ladigan tasavvurlar odamning tush ko`rishiga sababchi bo`ladi. I.P.Pavlovning fikricha, tush ko`rishning fiziologik asosi ilmiy ta`sirotlarning nervda qoldirgan izlari kutilmagan tarzda bir - biri bilan bog`lanishidir. Ixtiyoriy xayol oldindan belgilangan maqsadga yo`nalgan bo`ladi. Muayyan obrazni yaratish uchun zarur bo`lgan materialni tanlash, iroda kuchini ishlatish yo`li bilan vujudga keladi. Masalan, san`at asarlari. Ixtiyoriy xayol ixtiyorsiz xayol bilan bog`liq bo`ladi. Masalan, biror ixtironi kashf qilayotganda muxandis beixtiyor obrazlarga, fikrlarga berilib ketgandek bo`ladi. SHoir va rassomlarda ilxom keladi. Ilxom kelishi uchun mehnat qilish, iroda kuchi sarf qilish kerak. Ilxom kelishi mehnatning natijasidir. **Realistik xayol** turida voqelik aks ettiriladi, orzular amalga oshadi. **Fantastik xayol** - amalga oshmaydigan xayol turi. Masalan, "ko`knori xayol".

Xayol sifatlari

Kishilarning xayoli kengligi, mazmundorligi, kuchi va realligi, fantaziyaga boyligi jihatidan farq qiladi. Xayol kengligi voqelikning kishilar faoliyati uchun bo`ladigan doirasi bilan belgilanadi. Masalan, kishi san`at, texnika, sport, bilimga qiziqsa va shular haqida xayol qilsa bunday kishining xayoli keng bo`ladi. Xayolning unumdorligi biror narsaga nisbatan, xayolning boyligi, xilma-xilligi bilan belgilanadi. Xayol keng bo`lsa, u mazmundor ham bo`ladi. Xayol faoliyatning biror sohasida namoyon bo`ladi. Xayolning kengligi va mazmundorligi kishining bilim va tajribasiga bog`liq.

Xayol kuchi kuchli va kuchsiz bo`ladi. Kuchli xayolda odam juda ta`sirlanadi. Masalan, biz "O`tkan kunlar", "SHaytanat" romanini o`qiganimizda xayol kuchli bo`lishi natijasida juda ta`sirlanamiz. Ilmiy asarni, zerikarli hikoyalarni o`qiganimizda esa xayolimiz kuchsiz bo`ladi. Qiziqish kuchli bo`lsa xayol ham kuchli bo`ladi.

Bolalarning xayoli fantaziyaga boy bo`ladi. Kishi imkoniyatiga qarab xayol qilsa, u real bo`ladi. Mehnat faoliyati natijasida xayol sifatlari rivojlanadi. Xayol kuchi quyidagilarga bog`liq bo`ladi:

1. Xayol kuchi ehtiyoj, qiziqish, istaklarning kuchiga bog`liq bo`ladi. Masalan, faqat shu bugungi kun haqida o`ylasa, odamning xayoli kuchsiz bo`ladi.
2. Xayol kuchi hissiyotga bog`liq bo`ladi, hissiyot qanchalik kuchli bo`lsa, xayol shunchalik erkin, jonli bo`ladi.
3. Xayol kuchi idrokka bog`liq bo`ladi. Biz idrok qilayotganimizda diqqat bilan idrok qilsak, xayol kuchayib ketadi, agar diqqatimiz xayolga qaratilsa, unda idrok susayadi. Masalan, ba`zan bir xayolga berilib, atrofdagi narsalarni ko`rmaymiz, shovqinlarni eshitmaymiz.
4. Xayol kuchi kishining ahvoliga, asab tizimiga bog`liq bo`ladi, ya`ni asab tizimining tetikligiga, charchab qolganligiga, sog`ligiga va betobligiga bog`liq bo`ladi. Masalan, harorat juda baland bo`lsa, kishining xayoli juda kuchli bo`lishi natijasida obrazlar juda yorqinlashib ketadi. Natijada bunday paytda odam alahsiraydi (gallyutsinatsiya). Gallyutsinatsiya xayolning kuchli namoyon bo`lishidir.

Xayolning realligi – voqelikning to'g'ri aks ettiruvchi xayoliy obrazlarning yaratilishi. Geniylarning xayoli kuchli real xayoldir. Masalan, kosmosga uchish xayolini oldindan tasavvur etish.

Xayolning realligi odamning tajribasiga, bilimiga, tafakkuriga bog'liq bo'ladi. Obrazlar amalga oshmasa, bu real xayol bo'lmaydi, balki fantastik xayol bo'ladi. Bolalarda xayol kattalarga taqlid qilish orqali o'sadi. Bolalarda fantaziya juda kuchli bo'ladi. Masalan, ular oddiy cho'pni "uchqur ot" deb tasavvur qilib o'ynaydilar. O'zlarini kahramon deb his qiladilar. YAsli yoshiga nisbatan bog'cha yoshidagi bolalar xayoli bir muncha kengroq bo'ladi. Ularda xayol asosan o'yin faoliyatida o'sadi. Bola kattalarga taqlid qilib shofyor bo'ladi, doktor bo'ladi va xokazo. Bog'cha yoshidagi bolalarda xayol ixtiyoriy bo'ladi. Masalan, katta odam bolaga kubiklardan uy yasash, rasm chizish kabi topshiriqlar beradi. Bog'cha yoshidagi bolalarning xayoli kattalar bilan muloqotda bo'lish ta'sirida o'sadi. Bolalar ertaklarni tinglashni, voqealarni eshitishni yoqtiradilar. Kattalarning fikrlarini eshitish natijasida bolalarda ular hali ko'rmagan narsalar to'g'risida obrazlar paydo bo'ladi. Bolalar o'yin vaqtida erkin obrazlarni yaratadilar. Kichik yoshdagi bolalar xayolning o'sishi uchun tarbiyachining olib boradigan mashg'ulotlari, turli o'yinlarini tasavvur etishlari katta ahamiyatga ega. Asosan qiziqishlar xayolning o'sishiga yordam beradi.

Xayol faoliyati kuchli bo'lsa, uning mazmuni kengroq idrok etiladi. Xayol tasavvurlari esda olib qolish, esga tushirish, bog'lanishlarni vujudga keltirish uchun tayanch bo'ladi. Tafakkur jarayonidagi yaqqollik xayol faoliyati tufayli hosil bo'ladi. Xayol faoliyati tufayli tug'iladigan hislar ko'pincha ancha kuchli va barqaror hislar bo'ladi. Demak, biz ta'lim - tarbiya jarayonida yoshlarda xayol, fantaziyani rivojlantirishni maqsad qilib olishimiz zarur.

Xayolning ahamiyati va o'sishi

Xayolning ahamiyati juda katta. Biz xayol tufayli ko'rmagan, bilmagan, idrok qilmagan narsalar to'g'risida ham tasavvur qila olamiz. Xayol hamma psixik jarayonlarning faoliyatini boyitadi. Masalan, idrok to'liq bo'ladi, xotirada, tafakkurda ahamiyati katta va irodasi kuchli kishilarda xayol ustun bo'ladi. Faoliyatning barcha turlarida xayolning ahamiyati katta. Masalan, yosh bolalar o'yin faoliyatida xayol, fantaziya tufayli ularning ongi rivojlanadi, turmush tajribasi o'sadi, xarakter hislatlari shakllanadi. O'qish faoliyatidagi xayolning ahamiyati katta. Masalan, o'quvchilarning o'zlashtirayotgan fanlari xayolda gavdalantirmay turib o'rganmaydilar. Mehnat faoliyatida xayolning ahamiyati katta. Kishi o'zining mehnati natijasini avvaldan xayolida gavdalantirmasa, ishlay olmaydi. Ilmiy kashfiyot, tadqiqotlarda xayolning ahamiyati katta.

Biz bolalarda xayolning keng, mazmundor bo'lishiga, real bo'lishiga, kuchli bo'lishiga erishishimiz kerak. Xayol yoshlikdan o'sa boshlaydi. Avval bolalarda o'qish faoliyatlarida, keyin o'qish va mehnat natijasida o'sa boshlaydi. Asosan xayol ta'lim - tarbiya natijasida o'sadi. Demak, xayol mantiqiy bilish jarayoni bo'lib, faqat insonga xosdir. U kishi hayotida katta ahamiyatga ega. Biz yoshlarda xayol -fantaziyani rivojlantirsak, ular mustaqil Vatanimizni rivojlantirishga o'z hissalarini qo'shadilar.

Xayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bulib, mexnatning oralik va oxirgi maxsulotlarida uz ifodasini topadi, shuningdek problemali vaziyat noaniklik kursatgan xollarda xulk-atvor programmasini tuzishni ta'minlaydi. Xayolning psixik jarayon

sifatidagi muxim vazifasi juda axamiyatli jixati shundaki u mexnat boshlamasdan oldin uning natijasini tasavvur kilish imkonini beradi. Xayol odamga faoliyat jarayonida mexnat maxsulotlarining oralik yoki oxirgi psixik modellarini hosil kilish yuli bilan yul–yurik beradi. Xayol tafakkur bilan uzviy boglangan bulib, kelajakni oldindan kurish imkonini beradi. Zikr etilayotgan xayol uzining aktivligi va faolligi bilan xarakterlanadi. Ayrim xollarda xayol faoliyatning urnida bulishi va unda shaxs uzi xal kila olmaydigan masalalar, ogir sharoitlardan yashirinish uchun real tasavvurlardan uzok bulgan fantastika olamiga vaktincha kirib ketadi. Xayolning bunday formasi passiv xayol deyiladi. Kishi passiv xayolni oldindan uylab yuzaga keltirishi mumkin, xayotda gavalantirishga karatilgan xayolning obrazlari shirin xayollar xam deyiladi. Agar passiv xayolni oldindan uylab va uylamasdanqilingan turlarga bulish mumkin bulsa, aktiv xayolni ijodiy va kayta tiklovchi xayol turlariga bulish mumkin. Uz asosida tasviriga muvofik keladigan obrazlar sistemasini yaratuvchi xayol kayta tiklovchi xayol bulsa, ijodiy xayol original va kimmatli moddiy maxsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarning yaratilishini talab etadi. Kupincha xayol jarayonlari odam amalga oshirishni istaydigan timsollar shakliga, aloxida ichki faoliyat shakliga kirib boradi. Shunday odam kelgusida xoxlaydigan timsollarni orzu deb ataladi. Demak, shaxs tarbiyasida xayol jarayonining uziga xos axamiyati mavjud bulib, ilmiy, badiiy ijodga keng qo'llaniladi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Xalq ertaklaridagi suv parisi, bulbuligo`yo, kentavr (odam boshli ot), sfinks (odam boshli sher) kabi obrazlarning yaratilishi qaysi xayol jarayonlariga taalluqli?
 - a) kattalashtirish (giperbolizatsiya); b) aktsentirovka (bo`rttirish);
 - v) agglyutinatsiya (elimlash); g) tipiklashtirish.
2. Quyidagi javoblardan qaysi birida xayol ta`rifi to`liq berilgan?
 - a) xayol yoki fantaziya tafakkur kabi faqat insongagina xos bo`lgan bilish jarayonidir;
 - b) xayol mehnatning oraliq va oxirgi natijalarini ko`rish imkonini beruvchi bilish jarayonidir;
 - v) xayol avval idrok qilingan obrazlar asosida hali idrok qilinmagan narsalarning obrazlarini aks ettirishdir.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Xayol - fantaziya deganda nimani tushunasiz?
2. Xayol jarayonlariga nimalar kiradi?
3. Xayol turlari qaysilar?
4. Kishilarning xayoli nimasi bilan farq qiladi?
5. Tush ko`rish xayolning qaysi turiga kiradi?
6. Hayvonlarda xayol bo`ladimi?

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Bruner D.S. Psixologiya poznaniya. –M., 1977.
2. Vertgeymer M. Produktivnoe mishlenie. –M., 1987.
3. Granovskaya R.M. Elementi prakticheskoy psixologii. SPb, 1997.
4. Davletshin M.G, To`ychieva M. Umumiy psixologiya –T., 2002.
5. Dyui D. Psixologiya i pedagogika mishleniya. –M., 1998.
6. Emelyanov Yu.N. Aktivnoe sotsialno - psixologicheskoe obuchenie. –L., 1985.

7. Nemov R.S. Psixologiya –M., Prosveqenie. 2004.
8. Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2002.

10 – Mavzu: TAFAKKUR

Reja:

1. Tafakkur haqida umumiy tushuncha.
2. Tafakkur jarayonlari.
3. Tafakkur shakllari.
4. Tafakkur va masala hal qilish.
5. Tafakkur turlari.
6. Tafakkurdagi individual farqlar.

Mavzu bo'yicha tayanch tushunchalar:

Abstrakt tafakkur - mavhum narsalar haqida fikr yuritish

Analiz - narsa va hodisalarni tahlil qilish

Sintez - ajratilgan elementlarni qaytadan birlashtirish

Umumlashtirish - bir turkumga xos bo'lgan narsa va hodisalar haqida fikr yuritish

Taqqoslash - narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlik va farq xususiyatlar haqida fikr yuritish

Masala - muammoli masalalar haqida fikr yuritish

Tafakkur - narsa va hodisalarni umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirish.

TAFAKKUR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Insonda tafakkur bo'lganligi va tafakkur bilan chambarchas nutq bo'lganligi tufayli u hayvonlardan farq qiladi, shu sababli u ongli mavjudotdir. Inson o'z atrofidagi olamda bo'lgan buyumlar va hodisalarni ongli ravishda idrok qiladi. Ongli ravishda eslab qoladi hamda esga tushiradi va ongli ravishda harakat qiladi. Tafakkur atrofdagi olamni bilish qurolidir va inson amaliy faoliyatini vujudga kelishi uchun shartdir. Biron narsa to'g'risida tafakkur qilish jarayonida fikr paydo bo'ladi, bu fikrlar insonning ongida hukm va tushunchalar shaklini oladi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi roli avvalo bizning idroklerimiz va fikrlarimizning voqelikka qanchalik muvofiq bo'lishini, bo'lar haqiqat yoki xato, chinmi yoki yolg'on ekanligini belgilashda o'z ifodasini topadi. Bunday tafakkur qilish eng oddiy amaliy voqelikda namoyon bo'ladi. Voqelikning sezgilardagi va idrokidagi in'ikosning o'zi chinakam bilim bo'ladi. Masalan: biz quyoshning har kuni sharqdan chiqib, g'arbga botayotganini hammamiz ko'ramiz (idrok qilamiz). Biz erni qimirlamay turganini, asrlar davomida qilgan fikriy faoliyati natijasidagina uzoq davom qilgan kuzatishlar o'tkazish va matematika yo'li bilan tadqiqotlar qilish natijasidagina haqiqatda quyosh er atrofida aylanmasdan, balki er o'z o'qi atrofi va quyosh atrofida aylanayotganligini aniqladik. Demak, quyoshning harakati to'g'risidagi bizning bevosita idrokimiz voqelikka to'g'ri kelmas ekan. Voqelikni to'g'ri aks etishi tafakkur bilan aniqlanadi. Yuqoriroq bosqichlarda bunday fikrlash tafakkur jarayonlarida hosil bo'lgan hukmlar va tushunchalarning chinligini yoki chin emasligini aniqlashda ifodalanadi. **Tafakkur deb, voqelikdagi narsa va hodisalarni, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni fikran, umumlashtirib, vositali yo'l bilan aks ettirishga aytiladi.** Voqelik tafakkurda, idrok va tasavvurgina nisbatan chuqurroq va to'laroq aks etadi. Biz sezgi, idrok vositasi bilan bilib olishimiz mumkin bo'lmagan

narsa yoki hodisalarni, narsa yoki hodisalarning xususiyatlarini, ularning bogʻlanish va munosabatlarini tafakkur vositasi bilan bilib olamiz. Masalan: bizga maʼlumki, agar yorugʻlik nuri shisha prizma orqali oʻtkazilsa bu nur spektorni etti rangiga ajralib ketadi. Bu ranglarni biz idrok qilamiz (koʻzimiz bilan koʻramiz). Lekin fizikadan bizga shu narsa aniqki, bu nurlardan boʻlak yana boshqa nurlar ham bor. Bu nurlar infraizil, ulʼtrabinafsha nurlar deb ataladi. Bu nurlarni biz koʻrmaymiz. Bunday nurlarni borligi tafakkur yordami bilan kashf qilingan. Biz tasavvur qilishimiz mumkin boʻlgan koʻpgina hodisalar bor. Biz bu hodisalar toʻgʻrisida faqat fikr yurita olamiz.

Tafakkur voqelikni umumlashtirib aks ettirishdir. Biz ayrim narsalarni va hodisalarni, masalan, alohida stolni yoki stulni idrok qilamiz, tasavvur qilamiz, ammo umuman stol va stul toʻgʻrisida fikrlashimiz mumkin. Umumlashtirish natijasida bir hukmning oʻzida ayni vaqtda yakka bir narsa toʻgʻrisidagina fikr qilib qolmasdan, balki shu narsa bilan birga narsalarning butun bir turkumi toʻgʻrisida ham fikr qilish mumkin. Masalan, **“Oʻzbekistonning hamma fuqarolari qonun oldida tengdirlar.”** Bu hukmda ayrim bir kishi toʻgʻrisida hukm qilmasdan, balki Oʻzbekistonning hamma fuqarolari toʻgʻrisida fikr yuritamiz. Narsa yoki hodisalar toʻgʻrisidagi eng muhim bogʻlanishlar va munosabatlar tafakkur yordami bilan ochiladi. Siz qalamni barmoqlaringiz bilan 20 sm balandda ushlab turibsiz. Barmoqlaringizni ochib yuborsangiz qalam stol ustiga toʻshadi, uning taqillagani eshitiladi. Biz bu hodisalarni birin-ketin idrok qilamiz va ularni xuddi shu tartibda tasavvur qilishimiz mumkin. Lekin biz bunda hodisalarni maʼlum vaqt ichida birin - ketin sodir boʻlishini idrok qilamiz, holos. Ammo ayni vaqtda tafakkur yordami bilan bu hodisalarning bir - biriga qonuniy bogʻlanishdagi chuqurroq sabablar va bundan kelib chiqadigan natijalar ochiladi.

Biz hodisalarning birin - ketin oʻtayotganligini qayd qilib qolavermaymiz, balki birinchi hodisa boʻlgani uchun ikkinchi hodisa roʻy berdi, undan keyingina hodisalarning har qaysisi (masalan, tovush) oldindan hodisa roʻy berganligi uchun (qalam stolga urilgani uchun) sodir boʻladi, deb aniq qilib aytamiz va oldingi hodisaning roʻy berganligi keyingi hodisaning muqarrar keltirib chiqarganligini anglaymiz. Bu hodisalar ularning maʼlum bir vaqt ichida birin - ketin sodir boʻlganligini idrok qilganimizdan tashqari ular oʻrtasida sabab - natija tariqasida bogʻlanishi, yaʼni qonuniy bogʻlanish bor, deb aniq qilib aytamiz. Biz shu sabab - natija tariqasidagi bogʻlanishning oʻzini bevosita idrok qila olmaymiz. Uni sezgi organlarimiz vositasi bilan his qilolmaymiz, (koʻrmaymiz, ushlab koʻrmaymiz, eshita olmaymiz) balki shu bogʻlanish borligini idrokimizga asoslanib turib fikr qilish yoʻli bilan topamiz. Soʻngra ayrim hodisalaridagi sabab-natija bogʻlanishlari ochilganligiga asoslanib, umumiy lashtirish yoʻli bilan voqelikning umumiy qonuniyatlarini topib olamiz. Masalan, bir holda suvning yaxlab qolganligi haroratning pasayganligi (0 dan pastda tushib ketganligi) sabab boʻlgani aniqlangan boʻlsa va bu hodisa boshqa bir qancha hollarni ham aniqlagan boʻlsa, yana shu hollarni umumiy lashtirish natijasida “harorat 0 dan past boʻlgani suv hamisha muzlaydi”, degan hukmda ifodalangan qonun topilgan. Hodisalar oʻrtasidagi mavjud sabab - natija bogʻlanishlarini belgilaganimiz uchun biz hozirgi paytda bizning oldimizda roʻy bermagan hodisalarning yuz berishini oldindan aytib berishimiz mumkin. Masalan: termometrda haroratning 0 dan past tushganligini koʻrishimiz bilan endi suv muzlaydi, deb oldindan ayta olamiz.

Astronomlar osmondagi jismlarning harakat qonunlarini bilganliklari uchun quyosh yoki oy qachon tutilishini rosa aniq qilib oldindan aytib beradilar. SHarq mutafakkirlari jamiyat taraqqiyoti qonunlarini ochib berganlar. Bu qonunlarni bilish ijtimoiy - siyosiy voqealarning qay tarzda borishini (bilish tufayli mumkin bo`lmoqda) oldindan bilib turish imkoniyatlarini beradi.

Oldindan bilish muayyan maqsadni qo`yishga va ana shu maqsadga muvofiq harakat qilishga imkon beradi. Odamlarning hozirgi amaliyoti bizning xilma - xil mehnatimiz natijasini oldindan bilish tufayli mumkin bo`lmoqda. Mehnat faoliyati ayni vaqtda fikrlash faoliyati hamdir. Tafakkur yo`li bilan aniqlangan abstrakt - nazariy qoidalar inson amaliyotida sinovdan o`tkaziladi, (tasdiqlanadi yoki rad qilinadi), voqelikni xuddi shu yo`l bilan eng to`g`ri va aniq bilib olinadi. Tafakkur ongning voqelikni eng aniq, chuqur, to`liq, umumiy lashtirib va bevosita aks ettirishga (bilishga) qaratilgan faoliyatdir, asosan narsalarni bevosita sezishimiz va idrok qilishimiz mumkin bo`lmagan bog`lanishlar va munosabatlarning aks etishidir. Fikrlar, hukmlar va tushunchalar dastlab idrok va tasavvur asosida vujudga keladi. Bu fikrlar xotirada mustahkamlanadi va so`ngra tafakkurning yuksakroq va murakkabroq jarayonlari uchun material (asos) bo`lib qoladi. Har bir kishi tevarak - atrofdagi olamni bevosita bilish bilan mashg`ul bo`lganida fikr yuritmay, balki shu bilan birga u harakat qilayotganida ham boshqa kishilar nutq orqali aloqa qilayotganida, o`z fikrini boshqa kishilarga bildirayotganida hamda boshqa kishilardan tayyor fikr va bilimlarni olayotganida ham fikr qiladi. Odamning tafakkuri til bilan bevosita bog`langandir. Fikr va muhokamalar, bilish va tajriba til yordami bilan shakllanadi. Insoniyat jamiyatida odamlar bir - birlari bilan til vositasi orqali fikr almashadilar.

TAFAKKUR JARAYONLARI VA FIKR YURITISH OPERATSIYALARI

Tafakkur faoliyati muayyan maqsadga qaratilgan alohida ong jarayoni tariqasida sodir bo`ladi. Bosh miyaning biror uchastkasidagi faoliyat emas, balki butun bosh miya po`stining faoliyati mana shu jarayonning nerv - fiziologik asosidir. Tafakkur faoliyati uchun avvalo analizatorning miyadagi uchlari o`rtasida vujudga keladigan murakkab bog`lanishlar muhim ahamiyatga egadir. Analizatorning bosh miya po`stidagi uchastkalari bir - biridan keskin ajralgan holda emas, balki bir - biriga tutashib, bir - biri bilan chambarchas bog`lanib ketganligi sababli mazkur bog`lanishlarning vujudga kelishi osonlashadi. Ikkinchi signal tizimida muvaqqat bog`lanishlar vujudga kelishi, yuqorida aytib o`tilganidek, tafakkurning maxsus nerv - fiziologik mexanizmlaridir. Bunda ikkinchi signal tizimining bog`lanishlari birinchi signal tizimidagi bog`lanishlarga tayanadi. I.P.Pavlov ikkinchi signal tizimining ishi hamisha birinchi signal tizimi bilan o`zaro o`tkazish jarayonida hozir bo`ladi, deb ta`kidlagan. Ikkinchi signal tizimi asosida, birinchi signal bilan o`zaro ta`sir qilish jarayonida “dastlab umuminsoniy empirizm”ni va nihoyat odamning o`z tevaragida olamni va uning o`zini bilish uchun oliy qurol bo`lgan fanni yaratuvchi maxsus insoniy, oliy tafakkur voqe bo`ladi. Tafakkurning muayyan bir narsaga qaratilishi uchun nerv - fiziologik asos bo`lgan orientirovka refleksi tafakkur jarayonlarida katta rol` o`ynaydi. Tafakkur jarayoni insonning bilishga bo`lgan ehtiyojlari, tevarak - atrofdagi olam va turmush to`g`risidagi o`z bilimlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga intilish sababli vujudga keladi. Fikr qiluvchi kishining tafakkur ob`ektini anglashi (bilish) tafakkur jarayonining xarakterli xususiyatidir. Odam o`zi

idrok qilayotgan, tasavvur qilayotgan narsalar to'g'risida fikr qiladi. SHuning uchun tushunchalar, narsalarning butun bir sinfi (turkumi) to'g'risida fikr qiladi. Odam o'z tafakkuri to'g'risida va boshqa psixik jarayonlar to'g'risida, shuningdek o'ziga xilma xil ob'ektiv xususiyatlari to'g'risida fikr qiladi, ya'ni bo'lar tafakkur ob'ekti bo'ladi. Bir narsaga tayanmagan quruqdan - quruq tafakkur bo'lishi mumkin emas. Taqqoslash, tahlil va sintez, abstraktsiya va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish aqliy operatsiyalarning asosiy turlaridir. Bizda yangi hukmlar ana shu operatsiyalar jarayonida hosil bo'ladi, real olamdagi narsalar va hodisalar to'g'risidagi tushunchalar vujudga keladi.

Taqqoslash. Taqqoslash shunday bir aqliy operatsiyadirki, bu operatsiya ayrim narsalar o'rtasidagi o'xshashlikni yoki tafovutni, tenglikni yoki tengsizlikni, bir xil yoki qarama - qarshilik borligini aniqlashda ifodalanadi. Narsalarning o'xshashligi yoki tafovuti dastlab bevosita sezgilarda va idroklarda aks etadi. Taqqoslash fikr qilish jarayoni idrok qilinayotgan narsalarning o'xshashligi yoki tafovutni aniqlash lozim bo'lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o'xshashlik va tafovutni topish lozim bo'lgan hollarda voqe bo'ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi bir narsaga solishtirib ko'rilayotganda, masalan: bir qalamni ikkinchi bir qalamga, o'lchov chizig'ini taxtaga va shu kabilarga solishtirib ko'rilayotganda sodir bo'ladi. Taqqoslash tasavvur qilinayotgan yoki o'ylanilgan narsalarni bir -biriga fikran solishtirib ko'rish yo'li bilan amalga oshiriladi. Psixologiyani o'rganayotgan vaqtimizda biz hamisha ayrim psixik hodisalarni bir - biri bilan taqqoslaymiz va ulardagi o'xshashlikni, tafovutni topamiz. Ayrim kishilarni bir -biriga taqqoslab, ularning qobiliyatida, xarakterida, qarashlarida tafovut yoki o'xshashlik topamiz.

SINTEZ va TAHLIL. Analiz (tahlil) narsa - buyumlarni, hodisalarni, jarayonni tarkibiy belgilari, elementlariga, qismlariga bo'lish demakdir. Tahlil jarayonida butunning uning qismlariga, uning elementlariga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Tahlil ob'ektlari amalda ajratib bo'lmaydigan elementlarga yoki belgilarga bo'lishda ifodalanishi mumkin. Bu fikriy tahlil, ya'ni fikrda qilinadigan tahlildir. Psixologiyani o'rganayotganimizda har bir psixik hodisani bir-biri bilan taqqoslabgina qolmasdan, balki shu bilan birga tahlil ham qilamiz. O'qish mashg'uloti vaqtida tafakkurning tahlil qilish faoliyati katta o'rin tutadi. CHunonchi, savod o'rgatish, nutqni tahlil qilishdan: gapni so'zlarga, so'zlarni bo'g'inlarga, bo'g'inlarni tovushlarga ajratishdan boshlanadi. Matematik masalani echish tahlil qilishdan, dastlab bir qancha ma'lum sonlarni, so'ngra esa noma'lum sonlarni topishdan boshlanadi. **Sintez** tahlilning aksi yoki teskarisi bo'lgan tafakkur jarayonidir. Bu jarayon ob'ektning ayrim elementlarini, qismlarini, belgilarini bir butun qilib qo'shishdan iboratdir. Sintez jarayonida murakkab bir butun narsa yoki hodisa tarkibiga kirgan elementlar yoki qismlar tariqasida olingan buyum va hodisalarning shu murakkab bir butun narsa yoki hodisaga bo'lgan munosabati aniqlanadi. Sintez elementlarning, narsa va hodisalarning qismlarini bir butun qilib qo'yishdan iboratdir, tahlil amaliy bo'lgani singari sintez ham amaliy bo'lishi mumkin. Tahlil singari sintez ham o'qish jarayonida katta o'rin tutadi. Masalan: o'qishga o'rgatish vaqtida tovushlar va harflardan bo'g'inlar , bo'g'inlardan so'zlar, so'zlardan gaplar tuziladi. Mana shuning o'zi sintezdir.

Abstraktsiyalash, umumlashtirish va konkretlashtirish.

Abstraktsiya shunday bir fikrlash jarayonidirki, bunday tafakkurda aks etilayotgan bir yoki bir necha ob`ektlarning biror belgisi (xususiyati, harakati, holati, munosabati) shu ob`ekt yoki ob`ektdan fikran ajratib olinadi. Bu jarayonda ob`ektdan ajratilgan bir belgining o`zi tafakkurning mustaqil ob`ekti bo`lib qoladi. Abstraktsiya, odatda tahlil jarayonida yoki tahlil natijasida sodir bo`ladi. Masalan: sinfdagi doskani qoraligi to`g`risidagi, so`ngra umuman qoralik to`g`risida fikr qilish mumkin. Biz odamlar, samolyotlar, suv, ot va hokazolarni ko`z oldimizdagi harakatini ko`zatib turib, ularning bitta umumiy belgisini, harakatini fikran ajratib olishimiz va umuman harakat to`g`risida fikr qilishimiz mumkin. CHunonchi abstraktsiyalash yo`li bilan bizda uzunlik, kenglik, miqdor, tenglik, son, qiymat va boshqa shu kabilar to`g`risida abstrakt tushuncha hosil bo`ladi.

Umumlashtirish tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o`xshash muhim belgilarining shu narsalar to`g`risidagi bitta tushuncha qilib fikrda birlashtirish demakdir. Masalan: olmalar, noklarda, o`riklarda, apel'sinlarda va boshqa shu kabilarda bo`lgan o`xshash belgilar bitta tushunchada birlashadi. Biz buni meva degan so`z bilan ifodalaymiz. Daraxtlar, o`tlar, gullar va boshqa shu kabilar o`simlik degan tushunchada umumlashtiriladi.

Konkretlashtirish birinchidan, umumiy abstrakt belgining yakka ob`ektga tadbiq etish mansub qilinadi, ifodalanadi. Masalan: biz "oq" deganimizda ko`z oldimizga kor, qog`oz, paxta va shu kabilar kelishi mumkin. Ikkinchidan, konkretlashtirish umumiy va yakka belgilari kamroq bo`lgan umumiylikni ochishda ifodalanadi. Masalan, biz olma, olxo`ri, o`zumni mevalar qatoriga, stol, stul, divan va shu kabilarni mebel qatoriga qo`shamiz. Umumiy fikrlarni bayon qilish va izohlash chog`ida biz, odatda keltiriladigan misollarning hammasi konkretlashtirishning o`zidir.

**Klassifikatsiya (turkumlarga bo`lish), sistemaga solish** atrofdagi olamni bilish uchun bitta narsani emas, balki ko`pchilik va xilma - xil narsalarni o`rganishdir. SHu sababli o`rganish uchun qulaylik tug`dirish maqsadida, shuningdek amaliy maqsadlarida mana shu ko`pchilik narsalarni guruhlarga, turkumlarga bo`lishga to`g`ri keladi. Ko`pchilik narsalarni (hodisalarni) guruhlarga bo`lish klassifikatsiya yoki turkumlarga bo`lish deb ataladi. Masalan: kutubxonada kitoblar muqovasiga, shakliga, mazmuniga va shu kabi belgilariga qarab turkumlarga bo`lish mumkin. O`quvchilarning odatda yoshi yoki jinsiy belgilari bo`yicha, ulgurishlariga kabilarga qarab turkumlarga bo`ladilar.

Tizimga solish shundan iboratki, bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o`rniga yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi. SHu sababli makon, xronologiya va mantiqiy belgilar asosida tizimga solish turlari ajratiladi. Mebelning xonadagi joylashtirilishi, daraxtning boqqa o`tqazilishi makoniy tizimga na`muna bo`la oladi. O`tmishda bo`lib o`tgan voqealarning xronologik tartibda joylashtirilishi shu voqealarning vaqtiga qarab tizimga solishning namunasi bo`la oladi. Matematikaga, falsafaga, mantiqqa doir darsliklarda ilmiy materiallarning joylashtirilishi mantiqiy tizimga solishning namunasi.

TAFAKKUR SHAKLLARI

Tushuncha voqelikda narsa va hodisalarning umumiy, muhim farq qiluvchi maxsus belgilarini aks ettiradi, Masalan: “odam”, “kuy”, “ruchka”.

Hukm voqelikdagi narsa va hodisalar o`rtasida mavjud bog`lanishlarni, shu narsa va hodisalarga bir xususiyatni xos yoki xos emasligi ko`rsatadi. Hukmlar ob`ektiv voqelikni aks ettirishga qarab chin yoki xato bo`ladi. “Hozir tashqarida yomg`ir yog`yapti” (xato). Hukmlar umumiy juz`iy va yakka hukmlar bo`ladi. Umumiy hukmlarda mazkur guruhdagi mazkur sinfdagi hukmlar, hamma narsalar to`g`risida tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Juz`iy hukmlarda xususiyatlar ayrim qismlarga taalluqli bo`ladi. YAKKA hukmlarda tasdiqlash yoki inkor qilish faqat bitta narsaga tegishli bo`ladi.

Xulosa chiqarish bitta yoki bir necha hukmlardan yangi hukm hosil qilishdir 3 xil xulosa chiqarish mavjud:

- 1. Induktiv xulosa chiqarish (yakka xulosa)**
- 2. Deduktiv xulosa chiqarish (umumiy xulosa)**
- 3. Analogik xulosa chiqarish (taxminiy xulosa)**

TAFAKKUR VA MASALA HAL QILISH

Agar hayot va amaliyot davomida odam yangi maqsad, yangi muammo, yangicha ahvol va yangi faoliyat sharoitlari paydo bo`lsa, odamda dastlab tafakkur qilishga zaruriyat tug`iladi. Tafakkur yangilikni izlash va ochish demakdir.

Oddiy eski usullar bilan vazifa hal qilinganda tafakkur talab qilinmaydi. Masalan, muammoli vaziyat bilan masalani farq qilish zarur. Muammoli vaziyatning odamlar faoliyati davomida kutilmagan, qandaydir tushunib bo`lmaydigan narsaga, noma`lum tashvishli narsalarga duch kelib qoladi. Muammoli vaziyatni tahlil qilish natijasida masala paydo bo`ladi va tarkib topadi. Masalani yuzaga kelish muammosi vaziyatdan farq qilib, garchi oldindan bo`lsa ham mazkur (ma`lum) va noma`lum qidiralayotgan narsani taxminan bo`laklarga bo`lish masalaning shartida ifodalanadi. Masalan, o`quv masalasida uning asosiy sharti hamda talablar (savollar) mavjud bo`ladi.

TAFAKKUR TURLARI

Psixologiyada tafakkur turlarining quyidagi sodda va bir muncha shartli tasnifi tarqalgandir:

- 1. Ko`rgazmali - harakat;**
- 2. Ko`rgazmali -obrazli;**
- 3.Mavhum.**
- 4.Nazariy;**
- 5. Amaliy tafakkur.**

**Ko`rgazmali - harakat tafakkur** - tarixiy taraqqiyot davomida odamlar o`z oldilarida turgan maqsadlarni dastlab amaliy faoliyat nuqtai nazardan echganlar, keyinchalik undan nazariy faoliyat ajralib chiqqan. Amaliy va nazariy faoliyat chambarchas bog`langandir. Sof nazariy faoliyat birlamchi emas, balki amaliy faoliyatning o`zi birlamchidir. YAna faoliyatning taraqqiyoti davomida unga nisbatan mustaqil nazariy fikr yuritish faoliyati ajralib chiqqan. Faqat butun insoniyatning tarixiy taraqqiyoti emas, balki shu bilan birga har bir bolaning psixik taraqqiyoti jarayonini ham dastavval sof nazariy faoliyat emas, balki amaliy faoliyatdir. Guyo bu amaliy faoliyat ichida avval bola tafakkuri rivojlanadi. Bog`chadagi yosh (3 yoshgacha) asosan ko`rgazmali - harakat tafakkuri bo`ladi. Bola bilayotgan obrazli tafakkurni o`z qo`llari bilan amaliy ravishda va guyo tabiiy ravishda ajratadi. Masalan, o`yinchoqlarni buzib ko`rish va boshqalar.

**Ko`rgazmali - obrazli tafakkur.** Ko`rgazmali-obrazli tafakkur sodda shaklda ko`pincha bog`cha yoshida bolalarda, ya`ni 4 - 7 yoshgacha bo`lgan bolalarda paydo bo`ladi. Bu yoshdagi bolalarda tafakkurning amaliy harakatlar bilan aloqasi avvalgidek to`g`ri va bevosita bo`lmaydi. Bola bo`layotgan obrazli tafakkurni aniq idrok qilishi va tasavvur qilishi shartdir. Bog`cha yoshidagi bolalar faqat ko`rgazmali obrazlar bilan fikr yuritadilar va uncha tushunchaga ega bo`lmaydilar. Bog`cha yoshidagi bolalarda tushunchalarning yo`qligi shveytsariyalik psixolog J.Piajening quyidagi tajribasida juda yaqqol namoyon bo`ladi: 7 yoshga yaqin bolalarga xamirdan qilingan mutlaqo bir xil hajmi jihatdan teng 2 ta soqqa ko`rsatiladi. Bolalar uni teng deb hisoblaydi. Bolalarning ko`z oldida bitta soqqa ezib non shakliga keltiriladi. endi bolalar non shaklidagi soqqada xamir ko`p deb hisoblaydilar. Bolalarning ko`rgazmali - obrazli tafakkurlari hali ularning idroklariga bevosita to`la bo`ysunadigan bo`ladi. Ularning ko`rgazmali - obrazli shaklida o`tadigan tafakkurlari bolalarni soqqaga qaraganda non shaklidagi hamir ko`proq, degan xulosaga olib keladi.

MAVHUM TAFAKKUR (ABSTRAKT)

Bolalarning amaliy va ko`rgazmali hissiy tajribalari asosida ularning maktab yoshidagi davrlarda avval sodda shakldagi mavxum tafakkur, ya`ni mavxum tushunchalarga asoslangan tafakkur rivojlanadi. Maktab o`quvchilarining matematika, fizika, tarix va boshqa fan asoslarini o`zlashtirish davomida tushunchalarni egallashlari ularning aqliy taraqqiyotlari uchun katta ahamiyatga egadir. eng mavhum tafakkurlarning ham hissiy bilish chegarasidan ancha chiqib ketishga qaramay, hech qachon sezgi, idrok va tasavvurlardan to`la - to`kis ajralib ketmaydi. O`quvchilarda tushunchalarning taraqqiy etishi jarayonida ko`rgazmalilik ikki tomonlama rol` o`ynaydi. Bir tomondan, ko`rgazmalilik, tushunchalarning taraqqiy etishi ni engillashtiradi. Ikkinchi tomondan, har qanday ko`rgazmalilik sharoitida maktab o`quvchilarida mavxum tafakkurning tarkib topishiga qulay sharoit yarata bermaydi. Juda ko`p ko`rgazmalilik o`quvchilar diqqatini chalg`itib yuboradi.

TAFAKKURDAGI INDIVIDUAL FARQLAR YOKI SIFATLAR

Ayrim kishilarning tafakkuri o`zining mazmundorligi, chuqurligi va kengligi jihatdan, mustaqilligi, samaraliligi va tezligi jihatdan turli davrlarda turlicha namoyon bo`ladi. Bular tafakkurning sifatini tashqil qiluvchi belgilardir.

Tafakkurning mazmundorligi avvalo u yoki bu narsalar, hodisalar to`g`risidagi voqelikning u yoki bu, muhokamalar va tushunchalarda odamlarning ongida qanchalik o`rin olganligidan kelib chiqadi. Fikrning chuqurligi uning mazmundorligini ta`minlaydi. Tafakkurning mazmundorligi va chuqurligi uning kengligi bilan chambarchas bog`langan. Voqelikning eng ko`p sohalarini o`z ichiga olgan, hozirgi vaqtni, uzoq o`tmishni va uzoq kelajakni o`z ichiga olgan tafakkurni biz keng tafakkur deymiz. Odam o`z oldiga yangi vazifalarni qo`yishda o`zi tashabbus ko`rsatib, shu vazifalarni boshqa odamlarning yordamisiz, o`zining alohida yo`llari bilan hal qilaversa, bu odamlarning tafakkuri mustaqil tafakkur bo`ladi. Tafakkurning tanqidiyligi o`zgalarning yoki o`zlarining fikrlarini xaqiqatga mos bo`lishi - bo`lmasligi jihatini tekshira bilishda va shu fikrlarga baho bera olishda ifodalanadi. Tafakkurning tezligi qo`yilgan savollarga juda tezlik bilan javob topa olishida namoyon bo`ladi. Fikrning tezligi maktab o`quvchilari uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan: ayrim yaxshi o`quvchilarni doskaga chiqarib, ulardan yangi masalani echish

talab qilinganda hayajonlanib, butun sinf oldida o'zlarini yo'qotib qo'yadilar. Bu salbiy emotsiyalar go'yo ularning tafakkurini tormozlab qo'yadi. Fikr juda sekin va tez - tez muvaffaqiyatsiz ishlay boshlaydi. Maktab o'quvchilarning tafakkuri hali juda katta va etarli foydalanilmayotgan zaxira hamda imkoniyatlarga egadir. Psixologiya va pedagogikaning asosiy vazifalaridan biri ana shu imkoniyatlarni to'la ochish va ular asosida ta'limni yanada samarali, hamda ijodiy qilishdan iboratdir.

Tushunish va tafakkur qilishning ijtimoiy mohiyati. Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks xolda u eslabqolmaydi ham, keyingi safar analogik ob'yekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, figura fonga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi ma'noli, kerak bo'lsa, ma'nili bo'lishini xohlaymiz. Shunisi xarakterliki, ana shunday narsa va hodisalarga biz tomondan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha idrok qilinadi. Masalan, olim uchun har qanday kitob - hayotining ma'nosi bo'lsa, dehqon uchun yer va undan olinadigan hosil - ahamiyatli hisoblanadi. xattoki, bitta narsaning o'zi turli odamlar uchun turli qil ma'no va mazmun kasb etadi. O'sha kitob misolini oladigan bo'lsak, kitob industriyasi bilan shuqullanuvchi muxandis uchun - ishlab chiqarish mahsuloti, kitob do'koni sotuvchisi uchun - tovar - mahsulot, o'quvchi uchun - ilm manbai, muallif olim uchun - ijodining mevasi, eng qimmatli narsadir. har bir alohida narsaga bo'lgan munosabatimiz uning biz uchun qadr -qimmatiga bevosita ta'sir etadi, u goh ijobiy, goh salbiy bo'lishi mumkin. Shu nuqtai nazardan ham biz narsa va hodisalarga tanlab munosabatda bo'lamiz. Tilshunoslikni kasb etib tanlagan talaba uchun kibernetik modellashtirishga bag'ishlangan ma'ruza qanchalik zerikarliday tuyulsa, iqtisodchilik kasbini egallamoqchi bo'lganlar uchun pul, foyda va daromad olish yo'llari haqidagi ma'lumotlar shunchalik ahamiyatli, oddiy so'zning morfologik taxlili - shunchalik befarqlik holatini keltirib chiqaradi. Demak, bizning dunyoni, uning sir - asrorlarini tushunishimizning zaminida narsa va hodisalarning biz uchun shaxsiy aloqasi, ahamiyatliliigi darajasi yotadi. Ana shunday dunyoni tushunishimiz, anglashimiz va unga ongli munosabatimizni bildirib, izhor qilishimizga aloqador bilish jarayoni psixologiyada tafakkur, fikrlash deb ataladi.

Tafakkur - inson ongining bilish ob'yektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir. Tafakkur muammolari uzoq vaqtgacha o'zining murakkabligi bilan psixologlar nazaridan chetda bo'lgan, u asosan faylasuflar va mantiqshunoslar fikr yuritadigan masala hisoblangan. Psixologiya ilmining otaxoni hisoblanmish nemis olimi Vilgelm Vundt ham psixologiyani ikkiga bo'lib - fiziologik psixologiya (eksperimental yo'l bilan bilish jarayonlarini o'rganuvchi fan) va xalqlar psixologiyasi qismlariga bo'lib, oxirgi psixologiyaning tarkibiga nutq va tafakkur psixologiyasini ham kiritgan va uni eksperimental tarzda o'rganib bo'lmaydi, ularni tushuntirish mumkin xolos deb hisoblagan. Bu xulosalar aslida tafakkur va fikrlash jarayonlarining naqadar murakkab tabiatga ega ekanligidan dalolat beradi. Lekin shunday bo'lsa ham shuni ta'kidlash joizki, birinchidan, tafakkur va fikrlash jarayonlari - bu bilish jarayonlari; ikkinchidan, ular ham shaxs tomonidan borliqni aks ettirish shakli, umumlashtirib, bilvosita aks ettirish shakli; uchinchidan, bu jarayonlar

ham eksperimental psixologiya tomonidan o'rganiladi; to'rtinchidan, tafakkur bilishning eng oliy va yuqori darajadagi shaklidir.

Tafakkurning oliyligi va murakkabligi shundaki, u idrokdan farqli, bevosita aks ettirish bo'lmay, narsalar va ularning xossalarini ular yo'q paytda ham aks ettirishga imkon beradi. Masalan, Afrikaning subtropik xududlari to'g'risida gap ketganda, umrida biror marta Afrikaga bormagan odam ham subtropiklik xossasini bilgani uchun ham ushbu axborotni tushunib, uni qabulqila oladi. Sinov paytida talaba kecha o'qigan, laboratoriya sharoitida sinab ko'rgan qonuniyatlar xususida xuddi ro'parasida namoyon bo'layotganday, obrazli qilib gapirib berishi, ro'y bergan hodisalarni yana formulalar va statistik hisob - kitoblar vositasida isbot qilib berishi ham mumkin. Bu operatsiyalarning asosida tafakkur jarayonlari yotadi.

Tafakkur qilishimizni ta'minlovchi organ - bu bizning miyamiz. Barcha hisob - kitob ishlari - eng elementar harakatlarni rejalashtirishdan tortib, murakkab mavhum teoremlarni isbot qilishga qaratilgan operatsiyalar miyada sodir bo'ladi. Shuning uchun ham juda charchab turgan paytda odamdan biror qiyinroq masala xususida fikr bildirishini so'rasangiz, "hozir boshim og'rib turibdi, juda charchaganman, biroz o'zimga kelay, keyin fikrlashamiz", deb javob beradi. Demak, miya faoliyati bilan fikrlash faoliyati o'zaro uzviy bog'liq ekan. Miyamizning fikrlash qobiliyati va imkoniyatlari shunchalik salmoqliki, ayrim olimlarning fikricha, uning ishlash qonunlari hozir biz ishlatayotgan kompyuterlar emas, yana 100-200 yillardan keyin paydo bo'ladigan murakkab, o'ta "aqlii" kompyuterlar faoliyatiga yaqin ekan. Kallamizga kelgan barcha o'y - xayollar - bu fikrlardir. Normal insonni fikrsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har on, har daqiqada odam miyasi qandaydir fikrlar bilan band bo'ladi. Ularni tartibga solish, keragiga diqqatni qaratish, ichki yoki tashqi nutq vositasida uni echish - fikrlash jarayonidir. Fikrlash jarayoni aslida ma'lum bir masala, muammo, jumboqni hal qilish kerak bo'lganda paydo bo'ladi. Fikrlash doimo bir narsa xususida kamida bitta yechimni berishi shart, aks xolda u boshqa jarayonga - xayol, fantaziyaga aylanib ketishi mumkin. Fikr, g'oya, aniq yechim bo'lmaganda, inson miyasining borliqdagi narsa va hodisalar mohiyatini aks ettirishi xayol deb ataladi. Shuning uchun ham do'stlar davrasida ba'zan muammo xususida tortishuv bo'lib qolganda, aniq bilimi yoki g'oyasi yo'qligi tufayli kallasiga kelgan narsani aytgan bolaga qarab "Juda olib qochishga ustasan-da, xayolparast" deyishadi. Shunday qilib, muammo yoki jumboqlar bizni fikrlashga majbur etadi. Masalan, shunday masalani olib ko'raylik. Sizga mixlar solingan bir karton quticha va ikkita sham, bolqacha berilgan. Vazifa: eshikka shamni o'rnatib, yoqib qo'yish kerak. Kim qanday yechadi? Albatta, birdaniga to'g'ri yechimga kelish qiyin. Agar qutichani bo'shatish mumkinligi va uni shamdon sifatida eshikka qochish mumkinligi to'g'risida fikr kallaga kelmaguncha, yechimni toppish qiyin. Ayni shu masala ikki xil shart bilan berilgan: bittasida quticha mixlar bilan to'la deyilgan, ikkinchisida quticha bo'sh deb berilgan. Ikkinchi holatda bolalar uning yechimiga tezroq kelishgan.

Psixologlarning fikricha, har qanday masalani yechish mobaynida odam uning shartlarini bir necha variantlarda tasavvur qilsagina yechimga kelarkan. Agar idrok bilan bog'laydigan bo'lsak, figura fonga, fon esa figuraga aylanadi, ularning o'rinlari almashadi va qakozo. Bunday individual farq shundaki, ba'zi bolalar yechimga to'g'ridan - to'g'ri figura asosida keladi, boshqalar esa bir necha yechimning

variantlarini ko'z oldiga keltirib, so'ng bir qarorga keladi. Kimdir juda tez fikrlaydi, kimdir juda sekin. Shuning uchun ham test yechish jarayonida yonma - yon o'tirgan ikki bola bir xil yechimni belgilaydi, lekin o'sha yechimga kelish yo'llari har birida o'ziga xos bo'ladi. Aynan shu jarayonning qanday kechishini tafakkur psixologiyasi o'rganadi. Muammoning yechimi ba'zan birdan , yorqin yulduzday yarq etib paydo bo'ladi. Bunday psixologik holat psixologiyada insayt - oydinlashuv deb ataladi. Odam qachon ana shunday fikrlarda tiniqlik, insayt paydo bo'lganini o'zi ham bilmaydi. Eng iqtidorli, zukko olimlar ham o'z fikr yuritish qonuniyatlariga e'tibor berib, yangi g'oya qachon, qanday yo'l bilan paydo bo'lganiga javob topolmaganlar. Xattoki, ba'zan shunday ham bo'ladiki, yangilik kashf etgan olim o'zining fikri naqadar noyob ekanligini ham anglash imkoniyatiga ega bo'lmaydi, qolaversa, kashfiyot go'yoki uniki emasday, qaerdan kelib qolaganini ham tushunmaydi. Shuning uchun ham ko'plab genial kashfiyotlarning haqiqiy qadr -qimmatini muallif o'tib ketgandan keyin tarix tomonidan baholanadi. Xuddi shunday qadrga ega bo'lgan kashfiyotlar yurtimizda yashab o'tgan yuzlab allomalar ijodiga taalluqli. Masalan, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Abu Nasr Farobiy, Al- Farg'oniy, Xorazmiy, Zamashhariy kabi allomalar o'zlari ijod qilgan paytlarida yaratgan g'oyalari va kashfiyotlarining qanchalik ahamiyatli va o'lmas ekanligini keyingi avlod, butun bir insoniyat tarixi isbot qilib, tan oldi. R. Dekartning kallasiga analitik geometriya g'oyasi kelganda, o'zida yo'q xursand bo'lgan va cho'kkalab, yig'lab shu fikrni unga ato etgan Xudoga sajda qilgan ekan. Darhaqiqat, miyadagi tiniqlik, oydinlashuv avvalo Olloqning inoyati, qolaversa, o'sha fikr egasining mashaqqatli mehnati, tinimsiz ilmlar dunyosida to'kkan zahmatli terlari evaziga ro'y beradi. Umuman yangiliklar ochish, ijod qilishga aloqador tafakkur turi uning eng ahamiyatli va shu bilan birga eng qiyin turidir. Chunki ijodkor, yoki kashfiyotchi nimanidir kashfqilishni xohlaydi, tinimsiz izlanadi, lekin qachon, qanday sharoitda, qanday yo'l bilan uni ochishi mumkinligini o'zi ham bilmaydi. Shu o'rinda akademik Kedrovning Mendelev davriy jadvalini kashf qilganligi xususidagi esdaliklari juda o'rinli. Olim uzoq vaqt mobaynida barcha kimyoviy elementlarni ma'lum qonuniyat asosida jadvalga tushirishni o'ylab yurgan. "Kallamga kelyapti-yu, uni ko'rolmayapman", deb tashvishlanardi olim. Kunlardan bir kun u juda toliqib, yozuv stoli ustida uxlab qolganda, tushida davriy jadvalni "ko'rgan". Xursand bo'lib ketib, uyg'ongan zahoti moddalarni jadvalga joylashtira boshlagan. Tushdagi ishi bilan o'ngidagi ishining farqi shu bo'lganki, tushida engil moddalar pastda joylashgan bo'lgan, Mendelev ularni o'ngida "to'g'rilab" chiqqan. Bu ham o'sha insaytga bir misol.

Tafakkurning turlari. Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda, uning qanday shakllarda kechishi ahamiyatli bo'lib, bu uning turlari va shunga ko'ra fikrlashdagi individuallik masalasidir. 1- jadvalda tafakkurning turli mezonlar asosidagi klassifikatsiyasi keltirilgan.

hayot mobaynida o'qiganlarimiz, ma'lum shart-sharoitlarda konkret dalillar va nazariy bilimlar asosida mushoqadaqilgan bilim vaqoyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni nazariy tafakkurdir. Undan farqli amaliy tafakkur bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo'lgan fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir.

Tafakkur turlari

Shakliga ko'ra	Ko'rgazmali - harakat Ko'rgazmali - obrazli Mantiqiy
Ko'riladigan masalaning xarakteriga ko'ra	nazariy amaliy
Ijodiylik elementiga ko'ra	konvergent divergent
Yangiligi va noyobligiga ko'ra	reproduktiv produktiv (ijodiy)

Ko'rgazmali - harakat tafakkurining xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar bilan ishqilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi. Ko'rgazmali - obrazli tafakkur esa ko'rgan - kechirgan narsalar va hodisalarning konkret obrazlari ko'z oldimizda gavdalangan chog'da ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. **Mantiqiy tafakkur** - bu mavhum tafakkur bo'lib, so'zlar, so'zda ifodalangan bilim, g'oya va tushunchalarga tayangan xolda bevosita idrokimiz doirasida bo'lmagan narsalar yuzasidan chiqargan hukmlarimiz, mulohazalarimiz bu tafakkurga misol bo'la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o'rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo'ladi.

Fikrlashimizning yana bir turi reproduktiv bo'lib, uning mohiyati - ko'rgan - bilgan narsamizni aynan qanday bo'lsa, shundayligicha, o'zgarishsiz qaytarish va shu asosda fikrlashga asoslanadi. Undan farqli produktiv yoki ijodiy tafakkur - fikrlash elementlariga yangilik, noyoblik, qaytarilmaslik qo'shilgandagi tafakkurni nazarda tutadi. Shunga bog'liq bo'lgan **konvergent** fikrlash masalaning yechimi faqat bitta bo'lgandagi fikrlashni nazarda tutsa, **divergent** tafakkur - fikrning shunday turiki, u shaxsga bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechimlar paydo bo'lishini taqozo etadi. Aynan ana shunday ijodiy tafakkur divergent shaklda bo'lsa, u ijodiy parvoz, yangiliklarni kashf etishga asos bo'ladi. Fikrning kashf etish, yangilik yaratishga qaratilgan faoliyati ba'zan uning kreativlik sifati bilan bog'lab tushuntiriladi. **Kreativlik** - shunday hislatki, u go'yoki yo'q joyda borqiladi, ya'ni oddiygina, jo'ngina narsalarga boshqacha, birovlarinikiga o'xshamagan yondashuvlarni talab qiladi. Masalan, uchta so'z berilgan - "qalam", "ko'l", "ayiq".

Uchtasini qo'shib, yangi jumlar tuzish kerak. har kim o'zidagi kreativlik darajasiga ko'ra turli xil jumlar tuzsa bo'ladi, masalan, "Bolaqalamni olib, ko'lda cho'milayotgan ayiq rasmini chizdi". Yoki "Terak qalamchalari ekib chiqilgan ko'l yoqasida bir ayiq bolasini cho'miltirardi". Shunga o'xshash ko'plab jumlar tuzish mumkin.

Mashhur olim K. Yung insonlarni fikrlashlariga ko'ra asosan ikki toifaga bo'lgan edi:

Intuitiv tiplilar. Bu shunday toifali kishilarki, ularda ko'pincha hissiyotlar mantiqdan ustun keladi va miya faoliyati bo'yicha ham o'ng yarim sharlar faoliyati chapnikidan ustunroq bo'ladi. Ko'rib, his qilib, yorqin emosional munosabat shakllantirilmaguncha, bunday odamlar biror xususda fikrlarini bayon eta olmaydilar.

Fikrlovchi tiplar. Bunday kishilarda doimo mantiq, mulohaza hissiyotlardan ustun bo'ladi va miyasining chap tomoni o'ngiga nisbatan dominanta(ustun) hisoblanadi. Bundaylar gapira boshlashsa, ko'pincha, "Faysasuf bo'lib ket-e", deb ham qo'yishadi. Chunki ular o'zlarigacha bo'lgan bilimlar, mantiqiy fikrlash borasidagi yutuqlarga tayanib, doimo to'g'ri gapirishga, doimo fikrlarini mantiqan asoslash – argumentasiya qilishga harakat qiladilar. Aniq va texnika, tibbiyot fanlari bilan shug'ullanuvchilarda ana shu tafakkur tipiga moyillik va psixologik hozirlik bo'lsa, ular o'z kasblari borasida juda yaxshi natijalarga erishadilar. Ulardan farqli birinchi toifa vakillaridan yaxshi yozuvchilar, shoirlar, tilshunoslar, psixologlar yetishib chiqadi.

Tafakkur shakllari va operatsiyalari. Tafakkur qilish shakllari yoki formasiga tushunchalar, hukmlar va xulosa chiqarish kiradi.

Tushunchalar - tafakkurning shunday shakli, unda narsa va hodisalarga xos bo'lgan eng umumiy va xarakterli xususiyatlarni o'zida aks ettiradi. Ular umumiy va juz'iy, konkret yoki mavhum bo'lishi mumkin. Masalan, "ong" tushunchasini oladigan bo'lsak, uning eng muhim va boshqa tushunchalardan farq qiladigan jihatlarini ajratishimiz kerak : faqat insonga xoslik, oliy darajadagi aks ettirish, olamni bilish mexanizmi ekanligi va xakozo.

Hukmlar - atrofimizdagi narsalar va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Masalan, "Inson ongli mavjudot" degan hukm - fikr "odam, inson", "ong" va "mavjudot" tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalab turibdi. Ana shunday hukmlar bizning nutqimizda har kuni juda ko'p ishlatiladi va ular tabiatan turli bog'liqliklarni yo tasdiqlaydi, yoki inkor qiladi, rost yoki yolg'on bo'ladi. Shaxsning insoniyligi aslida u ishlatadigan iboralarning qanchalik mantiqqa, hayotiy xaqiqatlarga to'g'ri kelishi, argumental ekanligi bilan baholanadi. Doimo to'g'ri, mantiqan fikr yuritgan odamni biz "bama'ni, gapida jon bor, xaqiqatgo'y" deb ta'riflaymiz.

Xulosalar - mantiqiy tafakkurning yana bir shakli bo'lib, ular fikrlar, hukmlar va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishdan yangi bir fikrlarni keltirib chiqarishni nazarda tutadi.

Masalan: 1- hukm: O'zbekiston - mustaqil davlat.

2-hukm:Qirg'iziston - mustaqil davlat.

3-hukm:qozohiston - mustaqil davlat.

4-hukm: Turkmaniston - mustaqil davlat.

5-hukm : Tojikiston - mustqil davlat.

Demak, Barcha Markaziy Osiyo davlatlari - mustaqildir.

Shunga o'xshash biz ba'zan ayrim fikrlardan umumiy bir fikr keltirib chiqaramiz (bu - induktiv xulosa chiqarish), ba'zan esa aksincha, umumiydan juz'iy - alohida fikr chiqaramiz (fikrlashning bunday harakati deduksiya deb ataladi).

Bundan tashqari, psixologiya bizdagi fikrlash jarayonini ta'minlovchi alohida operasialarni ham o'rganadi. Fikrlash operasialariga analiz (fikran narsa va hodisalarga taalluqli sifat va xususiyatlarni alohida qilib ajratish, tahlil qilish), sintez (analiz jarayonida ajratilgan qismlarni yana fikran birlashtirish, qo'shish), mavhumlashtirish (alohida biror xususiyatni ajratib, boshqalaridan fikrni chalg'itish, ayrim xossani mavhumlashtirish), taqqoslash (predmetlar va ularga xos bo'lgan xususiyatlarni fikran bir - biriga solishtirish, umumiy va farq qiluvchi jihatlarini topish), umumlashtirish (umumiy va muhim sifatlariga ko'ra predmetlarni guruhlashtirish, umumiyashtirish) kabilar kiradi.

Mustaqil fikrlash – sog'lom ma'naviyatning mezoni sifatida. Tafakkurni rivojlantirish. Biz yuqorida tafakkurni individual xususiyatlari va ushbu jarayonga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlarni o'rgandik. Lekin aslida maqsad shundayki, har bir shaxs o'zidagi tafakkur va fikrlash jarayonlarining o'ziga xos tomonini bilgan qolda uni o'stirish yo'llarini bilishi kerak. Oxirgi yillarda psixologlarning o'tkazgan tadqiqotlari va kuzatishlari shuni ko'rsatdiki, fikrlash jarayonlarini guruh sharoitida, dars paytida ham o'stirish va bunga qisqa yo'llar bilan erishish mumkin ekan. Ularning fikricha, guruhdagi hamkorlikdagi faoliyat idrok va xotiraning o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, fikrlash jarayonini tezlashtiradi va faoliyatni samaraliroq qiladi. Ayrim juda jiddiy va murakkab ijod daqiqalarini inobatga olmaganda, yaxshi tashkil etilgan dars jarayoni, undagi faoliyat shakli individual tafakkurning ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu narsa isbotqilinganki, jamoada ishlash ko'plab nostandart fikrlarning tuqilishi, ularning ichidan eng yaxshilarining saralanishi va yangidan yangi g'oyalarning paydo bo'lishiga sabab bo'larkan. Ana shunday samara beruvchi metodikalardan biri "breynstorming" deb atalib, uning lug'aviy ma'nosi "miyani zabt etish"dir ("mozgovaya ataka" ruscha - "brain storming" ingl.). Uni o'tkazish quyidagi tamoyillarga asoslangan:

Ba'zi intellektual masalalarni echishda bitta echim bilan cheklanib bo'lmaydi va shu maqsadda ijodiy fikrlovchilar guruhi tashkil etiladi va bu jarayonda "gruppaviy effekt" bo'lishi kutiladi. Guruh ishi tez va optimal qarorlar qabul qilishga qaratilgan bo'ladi va bunda alohida ayrim individual qarorlarga ta'sirlanishga yo'l qo'yilmaydi. Guruhga shunday kimsalar kiritiladiki, ular bir - birlaridan fikrlash uslublarining noyoblighi bilan farq qiladilar. Masalan, kimdadir mantiqiylik ustun, kimdir - kreativ, kimdir - tanqidchi va shunga o'xshash. Guruhda shunday ijodiylik ruhi bo'lishi kerakki, har kim xohlagan fikrini bemalol aytaveradi, u yoki bu fikr tanqid qilinishi mumkin, lekin uning egasi tanqid qilinmaydi. Bunday sharoitda o'rtacha intellektual darajaga ega bo'lgan shaxs ham shunday fikrlar izhor qila boshlaydiki, ular alohida qolgan paytida sira ham miyaga kelmagan bo'lardi.

Bu jarayon oliy o'quv yurtlarida darslarda ham qo'llanilishi mumkin, faqat uning yuqoridagi tamoyillari inobatga olinishi va guruhda o'zaro hamjihatlik muhiti bo'lishi kerak.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Tafakkurda aks etgan bir turkum narsalarning o`xshash, muhim belgilarni shu narsalar to`g`risida bitta tushuncha qilib, fikran birlashtirish degan ta`rif tafakkurning qaysi jarayoniga taalluqli?

a) analiz va sintezga; b) taqqoslashga; v) umumlashtirishga; g) abstraktsiyalashtirishga;

2. Quyidagi javoblarning qaysi biri tafakkurning ta`rifini to`g`ri ifodalaydi?

a) tafakkur xotira obrazlaridan tashkil topadi;

b) tafakkur hodisalarning umumiy xususiyatlarini umumlashtirib aks ettirishdir;

v) tafakkur nutqqa bog`liq bo`lmagan jarayondir;

g) tafakkur faqat insonlarga xos bo`lgan xossadir.

O`xshashini topish (tafakkurni mashq qildirish).

Biror predmet yoki hodisaga o`xshash bo`lgan predmet va hodisalarni sanang, masalan, “vertolyot” so`zini oladigan bo`lsak, uning ko`pgina xususiyatlariga qarab o`xshashini topish mumkin, ya`ni “qush”, “kapalak”, “ninachi”(uchadi), “avtobus”, “poezd”, (transport vositalari va h.k.). Bu mashqlar tafakkurning umumlashtirish va tasniflash jarayonini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Hissiy bilish va tafakkur o`rtasidagi farqni ayting?

2. Tafakkur jarayonlarining ahamiyatini ko`rsating?

3. Abstrakt va konkret tafakkur o`rtasidagi farq nimada?

4. Muammoli vaziyat va masala hal qilishning ahamiyatini asoslab bering?

5. Hayvonlarda tafakkur bormi?

Adabiyotlar ro`yxati.

1. Luriya A.R. Yazik i mishlenie. – M., 1979.

2. Davletshin M.G, To`ychieva M. Umumiy psixologiya –T., 2002.

3. Dyui D. Psixologiya i pedagogika mishleniya. – M., 1998

4. Karimova V.M. va b.q.lar Mustaqil fikrlash. –T.- Sharq, 2000.

5. Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2002.

6. Karimova V., Sunnatova R. Mustaqil fikrlash bo`yicha mashg`ulotlarni tashkil etish yuzasidan uslubiy qo`llanma. –T., Sharq, 2000.

Shaxsning hissiy-emotsional va irodaviy sifatleri

11 – Mavzu: HISSIYOT VA IRODA

Reja:

1. His-tuyg'ular haqida tushuncha.
2. His-tuyg'ularni boshdan kechirish shakllari.
3. His-tuyg'ularning turlari va ularning shakllantirilishi.
4. Iroda haqida tushuncha.
5. Irodaviy akt (harakat) strukturasi.
6. Shaxsning irodaviy fazilatlari va ularni shakllantirish.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Emotsiya (lot. emovere – uyg'otish, to'ldinlashtirish) – odam yoki hayvonlarning sub'yektiv ifodalangan ichki yoki tashqi qo'zg'ovchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

Hissiyot – odamning yuksak ehtiyojlarini qondirish yoki qondirmaslik qobiliyatining mavjudligi va psixik obraz yarata olish natijasida uning tevarak-atrofdagi olamga bo'lgan munosabatlarining ongda aks ettirilishidan iborat jarayon.

Apatiya (yunon. apatheia- hissiyotsizlik) – kishining tevarak-atrofdagi olamga nisbatan hech qanday qiziqishlarsiz befarq holati

Asteniya (yunon. astheneia-kuchsizlik, holsizlik) – kuchli toliqish va organizmning madorsizligida namoyon bo'ladigan asabiy psixik holsizlanish.

Kayfiyat – birorta emotsiyaning barqaror kechishi.

Affect (lot. affektus-ruhiy hayajon, ehtiros) – kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar tariqasida ro'y beradigan psixologik holat/

Stress (ing. Stress – zo'riqish) – kuchli qo'zg'ovchilar ta'sirida yuzaga keladigan ruhiy holat.

Stenik hislar (yunon. sthenos - kuch) – shaxsning faoliyatini oshiruvchi hislar. (mas, xursandchilik ...)

Depressiya – xatti - harakatlarning tormozlanishi, faollikni kamayishi bilan bog'liq tushkunlik kayfiyati;

Kinoya — muhokama qilinayotgan shaxsni tashqi jihatdan ma'qullab, yashirin, engilgina ustidan kulish;

Iroda — ichki va tashqi qiyinchiliklarni echish uchun xatti - harakatlarni tanlash imkoniyatida namoyon bo'ladigan ruxiy aks ettirish shakli.

Irodaviy zo'r berish — irodaviy harakatning zo'r berishini his qilish bilan bog'liq sub'ektiv tarkibiy qismi.

Iroda kuchi — maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan irodaviy zo'r berish darajasi.

Impul'siv harakat — ong tomonidan to'liq nazorat qilinmaydigan va beixtiyor tarzda bajariladigan harakatlar.

Motivlar ko'rashi — qaror qabul qilish bog'liq bo'lgan irodaviy harakat bosqichi.

Qaror qabul qilish — muammoning hal etishning biror usulini tanlash.

Kishi idrok etish, xayol surish va fikrlash jarayonlarida faqat voqelikni bilib qolmay, balki shu bilan birga hayotdagi u yoki bu narsalarga qanday bo'lmasin munosabat bildiradi. Unda ularga nisbatan u yoki bu tarzda his-tuyg'u paydo bo'ladi. Bunday ichki shaxsiy munosabatning manbai faoliyat va munosabat jarayonlari bo'lib, u ana shunday jarayonlarda ro'y beradi, o'zgaradi, barqaror tus oladi yoki yo'qoladi (vatanparvarlik, nafratlanish, bar lahzalik mamnunlik).

Hissiyot voqelikni aks ettirilishidir. Odam ayni bir paytda tirik organizm va jamiyat aʼzosi boʻlishi bilan birga, oʻz miyasida alohida shaxs sifatida, ayrim obʼyektlar bilan qiladigan obʼyektiv munosabatlarni aks ettiradi. Odam miyasida olamning aks ettirishni ana shunday oʻziga xos tomoni hissiyot sohasi yoki inson shaxsining emotsional tomoni hisoblanadi. **Hissiyot** - odam miyasida uning real munosabatlarining, yaʼni ehtiyojlar subʼyektining uning uchun ahamiyatli boʻlgan obʼyektlar bilan boʻlgan munosabatlarning aks ettirilishidir. **“Hissiyot”** tushunchasini faqat tirik mavjudotlar miyasida ularning ehtiyojlarini qondiradigan va qondirishga qarshilik qiladigan obʼyektlarga boʻlgan munosabatlarni aks ettirish haqida gap ketganda qoʻllash mumkin. Belgilari xususan yaqqol namoyon boʻladigan hissiyotlarning ichdan kechirishdan iborat boʻlgan ruhiy jarayon sodir boʻlishining konkret shaklinigina **emotsiya** deb ataladi.

Masalan, vatanparvarlik, muhabbat, javobgarlik hissini emotsiya deb boʻlmaydi.

His-tuygʻular – kishining oʻz hayotida nimalar yuz berayotganiga, nimalarni bilib olayotganiga yoki nima bilan mashgʻul boʻlayotganiga nisbatan oʻzicha turli xil shaklda bildiradigan ichki munosabatidir. His-tuygʻuni boshdan kechirishning turli shakllari – emotsiya, affekt, kayfiyat, turli hayajonlanish (stress holati) mavjud. Ehtiros, va nihoyat, tor maʼnodagi soʻz bilan aytganda, his-tuygʻular – shaxsning emotsional sohasini tashkil etadiki, ular kishi xulq-atvorini tartibga solib turadi, bilishning jonli manba, odamlar oʻrtasidagi murakkab va koʻpqirrali munosabatlarning ifodasi boʻlib hisoblanadi. His-tuygʻular baʼzan har qanday psixik jarayonning faqat yoqimli, yoqimsiz yoki aralash asorati tarzida boshdan kechiriladi. Bu oʻrinda ular oʻz xolicha anglanilavermaydi, aksincha, narsa va harakatlarning xususiyati tarzida anglaniladi va biz yoqimli kishi, yoqimsiz taʼm, kulgili ifoda, nafis mato,quvnoq sayr va hokazolar deb gapiramiz. Koʻpincha bunday hissiy tus oldingi kuchli kechinmalarning oqibati, oʻtmish tajribaning aks-sadosi boʻlib chiqadi. Baʼzan u narsaning kishini qanoatlantirishi yoki qanoatlantirmasligi, uning faoliyati muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsiz oʻtayotganligi belgisi sifatida xizmat qiladi.

His-tuygʻular shaxs ehtiyojlariga javob beradigan narsalarni aniqlab olishga yordam beradi va ularning qondirilishiga qaratilgan faoliyatga omil baxsh etadi. Ehtiyojlarning qondirilishi yoki qondirilmasligi kishida turli xil shaklni kasb etadigan oʻziga xos kechinmalarni hosil qiladi.

Emosiyalar – “hissiyot” (“emosiya”) va “his-tuygʻu” soʻzlari koʻpincha sinonimlar sifatida qoʻllaniladi. “Emosiya” soʻzini oʻzbek tiliga aniq tarjima qilinganda u ruhiy hayajonlanish, ruhiy harakatlanish degan maʼnoni anglatadi. Bu xil holatlarda emosiyalar taʼsirchanligi bilan ajralib turadi. Ular xatti-harakatlarga, fikr-mulohazalar bildirishga turtki beradigan kuch boʻlib chiqadi, kuch-hayratlarni oshirib yuboradi va **stenik** deb ataladi. Boshqa bir hollarda emosiyalar sustligi, loqaydligi bilan ajralib turadi, his-tuygʻularning boshdan kechirilishi kishini boʻshashtirib yuboradi va bu hol **astenik** deb ataladi. (qoʻqqanidan oyoqlari qaltirashi, kuchli his-tuygʻuga berilib, xayolga choʻmib, oʻzi bilan oʻzi ovora boʻlib qolish hollari).

Affektlar (hissiy portlashlar) – kishini tez chulgʻab oladigan va shiddat bilan oʻtib ketadigan jarayonlar affektlar deb ataladi. Ular ongning anchagina darajada oʻzgarganligi, xatti-harakatlarni nazorat qilishning buzilganligi, odamning oʻzini oʻzi idrok qila olmasligi, shuningdek uning butun hayoti va faoliyati oʻzgarib qolganligi

bilan ajralib turadi. Affektlar birdaniga katta kuch sarf qilinishiga sabab bo'lgani uchun ham qisqa muddatli bo'ladi: ular his-tuyg'ularning bamisoli birdan lov etib yonib ketishiga, portlashiga, bir zumda hamma yoqni to's-to'polonqilgan shamolga o'xshaydi. Agar oddiy hissiyot faqat ruhiy hayajonlanishini ifoda etsa, u qolda affekt bo'rondir.

Kayfiyatlar - ancha vaqt davomida kishining butun xatti-harakatiga tus berib turadigan umumiy hissiy holatini ifoda etadi. Kayfiyat shodu xurramlik yoki qayg'uli, tetiklik yoki lanjlik, hayajonli yoki ma'yuslik, jiddiy yoki yengiltaklik, jizzakilik yoki muloyimlik va hokazo tarzda bo'ladi.

Kayfiyat juda xilma-xil, yaqin va ancha uzoq turuvchi manbalarga ega bo'lishi mumkin. Turmushning butun borishidan, jumladan, ishda, oilada, maktabda munosabatlarning qanday yo'lga qo'yilganligidan, kishining hayot kechirishi yo'lida paydo bo'layotgan har qanaqa ziddiyatlar qay tarzda bartaraf etilishidan qanoat hosil qilishi yoki qanoatlanmaslik kayfiyatlarning asosiy manbalari hisoblanadi. Kishining uzoq vaqt yomon yoki lanj kayfiyat bilan yurishi uning hayotida biror narsaning ko'ngildagidek emasligini ko'rsatadi. Kayfiyatlarning manbalari uni boshdan kechirayotgan kishiga hamisha aniq bo'lavermaydi. Lekin kayfiyatga doimo biron-bir narsa sabab bo'ladi va buni aniqlab ola bilish

Kuchli hayajonlanish (stress) holatlari. Psixologik ta'rifga ko'ra affektiv holatga yaqin turadigan, lekin boshdan kechirilishining davomlilikiga ko'ra kayfiyatlarga yaqin bo'lgan his-tuyg'ular boshdan kechirilishining alohida shakli kuchli hayajonlanish (stress) holati (inglizchada stress – tazyiq ko'rsatish, zo'riqish degan so'zdan olingan)dan, yohud hissiy zo'riqishdan iboratdir. hissiy zo'riqish xavf-xatar tug'ilgan, kishi xafa bo'lgan, uyalgan taxlika ostida qolib ketgan vash u kabi vaziyatlarda ro'y beradi.

Asosiy hissiy holatlar va ularning tashqi ifodasi. His-tuyg'ularning hissiyotlar, kayfiyatlar, kuchli hayajonlanish tarzida boshdan kechirilishi chog'ida ma'lum darajada seziladigan tashqi belgilarga ham ega. Yuzlarning ifodali harakatlari (mimika), qo'l va gavdaning ma'noli harakatlari, ohang, ko'zqorachiqklarining kengayishi va torayishi kabilar shular jumlasiga kiradi. Har biri o'zining psixologik ta'riflari va tashqi ko'rinishlariga ega bo'lgan quyidagicha asosiy hissiy holatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin, qiziqish, quvonch, hayratlanish, iztirob chekish, g'azablanish, nafratlanish, jirkanish, qo'rquv, uyalish va hokazo.

Qiziqish – malaka va ko'nikmalarning rivojlanishiga, ta'lim olishga moyillik tug'diradigan bilimlarni egallashga yordam beradigan ijobiy hissiy holatdir.

Quvonch – xali-veriqondirilishi mumkin bo'lmagan yoki har qoldaqondirilishi noaniq bo'lgan dolzarb ehtiyojning yetarli darajada to'la qondirilgan bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq ijobiy hissiy holatdir.

Hissiy holatlarni paydo bo'lishiga tashqi olamda yuz beradigan o'zgarishlar sabab bo'ladi. Hissiy holatlar uchun xos bo'lgan fiziologik jarayonlarning asosi murakkab shartsiz va shartli reflekslardir. Ma'lumki, shartli reflekslar tizimi katta miya ustuniga tegishli ko'rish tepachalari va nerv qo'zg'alishlarini miyaning yuqori bo'limlaridan vegetativ asab tizimiga o'tkazib beruvchi boshqa markazlar orqali amalga oshiriladi. Kishining hislarni kechirishi hamma vaqt miya po'sti va po'stlok osti markazlarining birgalikdagi faoliyatlari natijasidir. Atrofda va olamda yuz beradigan o'zgarishlar

odam uchun qancha ahamiyat kasb etsa, hissiy kechinmalar shuncha chuqur bo`ladi. Buning natijasida paydo bo`ladigan muvaqqat bog`lanishlar tizimi qayta tuzilishi qo`zg`alish jarayonini yuzaga keltiradi. Bu jarayon katta miya yarim sharlari po`stida tarqalib po`stloq osti markazlarini ham egallab oladi. Katta miya yarim sharlar po`stidan pastda organizm fiziologik faoliyatining turli markazlari; nafas olish, yurak va qon tomirlarini idora qilish, ovqat hazm qilish, ichki sekretiya bezlarini ishini idora qilish va boshqa markazlar joylashgan. SHuning uchun po`stloq osti markazlarining qo`zg`alishi bir qator ichki a`zolar faoliyatini kuchaytirishga olib keladi.

Hissiy holatlar o`zining fiziologik mohiyati jihatidan katta yarim sharlar po`stining va miya po`sti boshqaradigan po`stloq osti markazlarining funktsiyasigina bo`lib qolmay, balki miyaning boshqa qismlari ishni boshqaradigan retikulyar tuzilmaning vazifasidir. Miyaning **talamus** (ko`rish tepaligi) va **gipotalamus** (tepacha osti qismi) deb atalgan joyining qadimgi po`stloq osti tuzilishlari bilan yarim sharlar yangi po`stlog`i osti tuzilmalari o`rtasidagi limbik tizimning vazifasidir.

Inson o`z ehtiyojlarini qondirish uchun faollik ko`rsatar ekan, ba`zan ichki (sub`yektiv) va tashqi (ob`yektiv) to`siqlarga duch keladi. Bu to`siqlarni yengib o`tish va maqsadga erishish uchun undan yanada faolroq bo`lish talab qilinadi. Maqsadga erishish yo`lida turgan qarama -qarshiliklarni bartaraf qilish uchun zo`r berish bilan bog`liq bo`lgan va ma`lum maqsadga yo`naltirilgan ongli harakatlar **irodaviy harakatlar** deb ataladi. Iroda inson faolligining alohida shaklidan iboratdir. Odam oldida turgan va uning uchun katta ahamiyatga ega bo`lgan maqsadlarga o`zi uchun ozroq ahamiyatga ega bo`lgan boshqa xatti - harakatlar motivlarini bo`ysundiradi. Iroda odamdan o`z xatti -harakatlarini o`zi boshqarishini, bir qator boshqa intilish va istaklarining tormozlanishini taqozo qiladi. Irodaviy qobiliyat shundan iboratki, bunda odam o`z - o`zini idora qiladi, o`zini qo`lga oladi.

Bir qator hollarda irodaviy faoliyat odamning hayot yo`lini aniqlaydigan, uning ijtimoiy qiyofasini namoyon qiladigan va uning axloqiy qiyofasini ochib beradigan qarorlarga kelish bilan bog`liq bo`ladi.

Umumiy irodaviy faoliyatni yoki alohida aktini amalga oshirishning muhim xususiyatlaridan biri amalga oshirilayotgan harakatlarning erkin ekanligini anglashdan: "Xohlasam unday, xohlasam bunday qilaman" deyishdan iboratdir.

Odamning irodaviy harakati to`la - to`kis determinizmga, ya`ni sababiy bog`lanish qonuniga bo`ysunadi. SHuning bilan birga irodaviy faoliyatning bevosita sabablari sifatida irodaviy harakatlarni belgilab beradigan turli - tuman hayotiy sharoitlar bo`lishi mumkin.

Odamning irodaviy faoliyati ob`yektiv jihatdan bog`langandir. Irodaviy faoliyatning muhim xususiyatlaridan yana biri, irodaviy harakatlarni odam hamma vaqt shaxs sifatida amalga oshiradi. Xuddi mana shuning bilan bog`liq ravishda irodaviy harakat odam to`la ravishda javob beradigan ish sifatida ichdan kechiriladi. Irodaviy faoliyat tufayli ko`p jihatdan o`zini shaxs sifatida anglaydi, o`z hayot yo`li va taqdirini o`zi belgilashini tushunadi.

Irodaning eng muhim xususiyati unda faoliyatni amalga oshirishning puxta o`ylab chiqilgan rejaning mavjudligidir. Avvaldan rejalashtirilmagan xatti - harakatlarni irodaviy harakat deb aytib bo`lmaydi. SHu bilan birga iroda - avval mavjud

bo'lmagan, lekin faoliyatni amalga oshirish natijasiga erishgandan so'ng hosil bo'lishi mumkin bo'lgan qoniqishga butun e'tiborni qaratishdan iboratdir.

Ko'p hollarda iroda vaziyat yoki qiyinchilik ustidan g'alaba qozonish emas, balki o'z - o'zini yengish hamdir. Bu ayniqsa muvozanatsiz, hissiy qo'zg'aluvchan, sust kishilarga xos bo'lib, o'zlarining tabiiy xarakterologik xususiyatlari bilan kurashishga to'g'ri keladi. Hech bir hayotiy muammo irodaning ishtirokisiz hal etilmaydi, yashagan va yashayotgan biror kishi kuchli, irodasiz katta muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Odamzot boshqa tirik mavjudotlardan o'zining ongi va aqli bilangina emas, balki irodasining mavjudligi bilan ham ajralib turadi.

Irodaviy, ya'ni ixtiyoriy harakatlar odamga irsiy yo'l bilan tug'ma ravishda beriladigan harakatlar emas. Irodaviy harakatlar har doim ma'lum sabablarga ko'ra yuzaga keladi. CHet el psixologiyasida iroda erkinligi degan ta'limot yuzaga kelgan bo'lib, bu ta'limotga ko'ra, odamning irodasi azaldan belgilangandir. Irodaviy harakatlar odamning shaxsiga, ongiga mutlaqo bog'liq emas. Iroda qandaydir iloxiy kuchga bog'liqdir. SHuning uchun iroda o'z mohiyati jihatidan doimo erkindir. CHet el olimlarining iroda erkinligi, ya'ni irodaviy harakatlar hech qanday sababga bog'liq emasligini haqidagi ta'limotlari batamom xatodir. Biz yashab turgan moddiy dunyoda sababsiz hech narsa va hech qanday hodisa bo'lmaganidek irodaviy harakatlarning ham o'z sabablari mavjuddir.

Irodaviy, ya'ni ixtiyoriy harakatlarning nerv - fiziologik asosida bosh miya katta yarim sharlari po'stining shartli reflekslar hosil qilishdan iborat bo'lgan murakkab faoliyati yotadi. Irodaviy harakatlar ongli harakatlar sifatida ikkinchi signallar tizimi asosida ro'y beradi. Gumanitar, ya'ni inson muammolariga e'tibor ortishi bilan o'z - o'zidan irodani o'rganish ham dolzarb masalaga aylanib bormoqda. XVIII - XIX asrlarda bu muammo eng markaziy psixologik tadqiqot masalalaridan biri edi. Biroq psixologiya fanida XX asr boshlarida ro'y bergan inqiroz tufayli u ikkinchi rejaga o'tib qoldi, uni mutlaqo inkor etish mumkin emas.

Arastu o'z davrida irodani jon haqidagi fanning muhim tushunchasi deb e'tirof etgan. Uning fikricha, iroda inson xulq - atvorini o'zgartirishga, boshqarish imkoniyatiga ega bo'lgan omil hisoblanadi. Psixologiyada mavjud oqimlar ham irodani turli jihatlariga ko'ra tadqiq etadilar. Masalan, bixeviorizm - xulq - atvor shakli, motivatsiya psixologiyasi - shaxsning ichki ziddiyatlari, shaxs psixologiyasi - insonning muhim shaxsiy xususiyati sifatida o'rganadi. V. A. Ivannikov fikricha, **iroda - inson xulq -atvoridagi reaktivlik va faollikning o'zaro ko'rinishidir.** V.I.Selivanov esa, irodani ongli boshqarilishi maqsadga yo'naltirilgan harakatni amalga oshirish uchun ichki va tashqi qiyinchiliklarini engib ketish imkoniyati borligini bilish deb ta'riflaydi.

Inson irodaviy faoliyati ongli, maqsadga yo'naltirilgan faollikdir. Asab tizimining umumiy sog'lomlik holati katta ahamiyatga ega. Kasallik paytida, charchagan vaqtda inson irodasi bo'shashadi. Iroda – bu shaxsning oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda qiyinchiliklarni yengib o'tishga qaratilgan faoliyati va xulq-atvorini ongli ravishda tashkil qilishi va o'z-o'zini boshqarishi demakdir.

Iroda – bu shaxs faolligining alohida shakli, uning xulq-atvorini tashkil etishning u tomonidan qo'yilgan maqsad bilan belgilanadigan alohida turidir. Iroda tabiat qonunlarini egallab oladigan va shu tariqa uni o'z ehtiyojlariga ko'ra o'zgartirish

imkoniyatiga ega bo'ladigan kishining mehnat faoliyatida paydo bo'ldi. Iroda o'zaro bog'liq ikkita vazifaning – undovchi va tormozlash (to'xtatish) vazifalarini bajarilishini ta'minlaydi va ularda o'zini namoyon qiladi. Undovchi vazifasi kishining faolligi bilan ta'minlanadi. harakat oldingi vaziyat (chaqiriqqa nisbatan kishi aylanib qaraydi, o'yinda tashlangan to'pni qaytaradi, qo'pol so'zdan qafa bo'ladi va hokazo) bilan bog'liq bo'lgan paytdagi faollik harakatning ayni o'zida namoyon bo'ladigan ichki holatiga nisbatan sub'yektning o'ziga xos xususiyatini kuchga kiritish harakatini chiqaradi (zarur axborotni olishga ehtiyoj sezayotgan kishi o'rtoqini chaqiradi, jahli chiqqan holatda yonidagilariga qo'pollik qilishga yo'l qo'yadi va hokazo).

Irodaning undovchi vazifasi bilan birgalikda harakat qiluvchi to'xtatish vazifasi faollikning yoqimsiz ko'rinishlarini jilovlashda namoyon bo'ladi. Shaxs o'zining dunyoqarashida eng yuksak maqsadlariga javob bermaydigan motivlarning o'yqonishini va harakatlarning bajarilishini to'xtatishga qodirdir. To'xtatish bo'lmasa, xulq-atvorni boshqarib bo'lmas edi.

Odamlar o'zlarining qilgan ishlari uchun ma'suliyatni kimga yuklashga moyil bo'lishiga qarab sezilarli ravishda farqlanadilar. Kishining o'z faoliyati natijalari uchun ma'suliyatni tashqi kuchlarga va sharoitlarga qayd qilib qo'yish, yoki, aksincha ularni shaxsiy kuch-g'ayratlariga va qobiliyatlariga moyilligini belgilaydigan sifatlar nazoratni lokallashtirish deyiladi (psixologik adabiyotda “nazorat lokusi” degan termin qo'llaniladi, lotinchada lotus – o'rnatilgan joy va fransuzchada controle – tekshirish deyiladi). O'z xulq-atvori va o'z ishlari sabablarini tashqi omillar (taqdir, holat, tasodif va boshqalar)dan deb bilishga moyil bo'ladigan odamlar bor. Shunaqa paytda nazoratning tashqi (eksternal) lokallashtirilishi to'g'risida gapiriladi. Bu toifaga mansub o'quvchilar olingan qoniqarsiz baholarini istagan vaj-bahona bilan tushuntirishadi. Tadqiqotlar nazoratning eksternal lokallikka moyilligi mas'uliyatsizlik, o'z imkoniyatlariga ishonmaslik, xavfsirash, o'z niyatlarini ro'yobga chiqarishni yana va yana kechiktirishga intilish kabi shaxsiy fazilatlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Agar inson, odatda o'z qilmishlari uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olsa va uning sabablarini o'z qobiliyati, xarakter iva shu kabilarda deb bilsa, unda nazoratning ichki (internal) lokallashtirish ustun deb hisoblash uchun asos bor. Nazoratning ichki lokallashtirilishi xos bo'lgan odamlar maqsadga erishishda ancha ma'suliyatli, izchil o'z-o'zini tahlil qilishga moyil hamda mustaqil bo'lishi aniqlangan.

Irodaning asosini, xuddi umuman sub'yektning faolligi kabi, uning xatti-harakatlari va ishlarining ko'p tarmoqli va xilma-xil motivlashtirilishiga sabab bo'luvchi ehtiyojlari tashkil etadi.

Psixologiyada motivlashtirish deganda psixologik hodisalarning o'zaro mustahkam bog'langan, lekin bir-biriga to'la mos kelmaydigan nisbatan mustaqil uchta turi tushuniladi.

Bu, birinchidan, individning ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatga undovchi sifatida namoyon bo'luvchi motiv sifatidagi motivlashtirishdir. Bu holda motivlashtirish faollik holati umuman nima uchun paydo bo'lishini, sub'yektni faoliyat ko'rsatilgan qanday ehtiyojlar undayotganini izohlab beradi. Ikkinchidan, motivlashtirish faollik nimaga qaratilganligini, nima uchun qandaydir boshqa xulq-atvor emas, balki xuddi shunaqasini tanlanganligini izohlab beradi. Bu yerda motivlar xulq-atvor yo'nalishini tanlashni belgilaydigan sabablardir. Bular birgalikda kishi

shaxsining yo'nalishini tashkil etadi. Nihoyat, uchinchidan, motivlashtirish kishi axloqi va faoliyatni o'zi boshqaradigan vosita hisoblanadi. Bu vositalarga emosiyalar, istaklar, qiziqishlar va boshqalar kiradi.

Irodaviy aktda (irodaviy harakatda) uni motivlashtirishning barcha uchta tomoni – faollik manbai, uning yo'nalganligi va o'z-o'zini boshqarish vositalari namoyish qilingandir. Shunday qilib, ehtiyojlar bir xil harakatlarning bajarilishini belgilaydigan va boshqalarining bajarilishiga xalaqit beradigan har xil motiv (sabab)larga aylanadi. Irodaviy harakatlarning sabablari hamisha ozmi-ko'pmi darajada anglanilgan xarakterda bo'ladi. U yoki bu ehtiyojning qanchalik anglanilganiga bog'liq holda intilish va istakni ham farq qilsa bo'ladi.

Intilish – hali yetarli darajada anglanilmagan ehtiyojdan iborat faoliyat motividir. Masalan, kishi kimgadir intilishni boshdan kechirayotib, o'z intilishining ob'yektini ko'rganda, u bilan gaplashganda mamnun bo'ladi va shu sababli beixtiyor bu uchrashuvga intiladi. Lekin ba'zida xuzur-halovatga sabab bo'lgan narsani u anglamaydi. Intilish noaniqdir.

Istak – faoliyatning motivi sifatida ehtiyojning yetarli darajada tushunib yetilganligi bilan xarakterlanadi. Masalan, novator ishchi mehnat unumdorligini ancha oshirish istagini bildirib, o'z stanogini yanada takomillashtirish to'g'risida o'ylaydi, o'z ish jadvalini yana qayta ko'rib chiqadi, har bir harakatini hisobga oladi va hokazo. Faoliyatning butun sabablari kishining yashash sharoitlarini aks ettirish va uning ehtiyojlarini fahmlash natijasi hisoblanadi. Ana shu sabablar orasida hayotning har bir daqiqasida bir xillari ko'proq, boshqalari kamroq ahamiyatga ega bo'ladi. Kishida turli ehtiyojlar ahamiyatining o'zgarishi munosabati bilan birqator hollarda motivlar kurashi paydo bo'ladi: bir istak boshqa istakka qarama-qarshi qo'yiladi, u bilan to'qnashtiriladi. Muhokama va motivlar kurashi natijasida qaror qabul qilinadi, ya'ni muayyan maqsad va unga erishish usuli tanlanadi. Irodaviy xatti-harakatning so'nggi jihati ijrodir. Unda qaror harakatga aylanadi. Ijroda, irodaviy xatti-harakatda yoki ishlarda kishi irodasi namoyon bo'ladi. Kishining irodasi haqida atigi birgina yuksak g'oyaviy motivlarga va qahramonona qaror va niyatlarga qarab emas, balki ishlarga qarab hukm chiqarish kerak. O'z navbatida ishlar tahliliga qarab, u tayangan motivlar to'g'risida xulosa qilish mumkin. Motivlarni bilgandan keyin bunday hollarda kishi o'zini qanday tutishi mumkinligi haqida oldindan aytib berish mumkin.

Iroda faoliyatning ichki qiyinchiliklarini yengishga qaratilgan ongli tuzilma va o'z-o'zini boshqarish sifatida eng avvalo o'ziga, o'z hissiyotlariga, xatti-harakatlariga hukmronlik qilishdir. Bu hukmronlik har xil odamlarda har xil darajada ifodalanishi hammaga ma'lumdir. Kuchli irodaga ega bo'lgan kishi qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida uchraydigan istagan qiyinchiliklarni bartaraf eta oladi, ayni chog'da qa'iylik, mardlik, jasurlik, chidamlilik kabi irodaviy fazilatlarni namoyon qiladi. Irodasi sust kishilar qiyinchiliklar oldida ojizlik qiladilar. Irodasi sustlikning namoyon bo'lish doirasi xuddi kuchli irodaning xarakterli sifatleri kabi rang-barangdir. Irodasi sustlikning eng chekka darajasi psixika normasi chegarasidan tashqarida bo'ladi. Abuliya va apraksiya hollari shunga kiradi.

Abuliya – bu miya patologiyasi zaminida yuzaga keladigan faoliyatga intilishning yo'qligi, harakat yoki uni bajarish uchun bajarish uchun qaror qabul qilish

zarurligini tushungan holda shunday qilolmaslikdir. Tabiiy xulq-atvor uning uchun xarakterlidir.

Apraksiya – miya tuzilishining shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan harakatlar maqsadga muvofiqligining murakkab buzilishidir. Ular psixikasi og'ir kasallangan odamlarga xos, nisbatan kamyob hodisalardir. Pedagog kundalik ishda duch keladigan irodaning sustligi, odatda miya patologiyasi bilan emas, balki noto'g'ri tarbiya bilan belgilanadi.

Yalqovlik - kishining qiyinchiliklarni yengishdan bosh tortishga intilishi, irodaviy kuch-g'ayrat ko'rsatishni qat'iy ravishda istamasligi iroda sustligining eng tipik ko'rinishidir. Yalqovlik – kishi ojizligi va sustligining, uning hayotga layoqatsizligining, umumiy ishga befarqligining dalilidir. Yalqovlik – kishining qiyofasidir, shuning uchun ham uni butun choralar bilan yo'qotish zarur. Yalqovlik, shuningdek, ojizlikning boshqa ko'rinishlari –qo'rqqoqlik, jur'atsizlik, o'zini tuta bilmaslik va boshqalar shaxsning rivojlanishidagi jiddiy kamchiliklardir, ularni bartaraf etish jiddiy tarbiyaviy ishni va avvalo o'z-o'zini tarbiyalashni tashkil etishni talab qiladi.

Irodaning ijobiy fazilatlari, uning kuchini namoyish qilinishi faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi, kishi shaxsini eng yaxshi tomondan ko'rsatadi. Bu kabi irodaviy fazilatlarga qahramonlik, sabotlilik, qat'iylik, mustaqillik, o'zini tuta bilish va shu kabilar kiradi.

Pedagogning vazifasi – faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muhim axloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarni rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir. Masalan, o'quvchilardan biri «sabr toqatini rivojlantirish» uchun kinokomediya ko'rsatilayotganda kulmaslikka harakat qildi, kimdir qo'lini pichoq bilan kesdi va hokazo. Irodani mustaqil tarbiyalashning ana shu usullari samarasizligi eng avvalo shundaki, o'spirin bir lahzalik «irodaviy xatti-harakat»ni amalga oshirib, o'zining irodasi kuchli ekanligi to'g'risida fikrni tasdiqlab oladi. Aslida esa irodani mustaqil tarbiyalashdek asosiy muammoni kundalik hayotda, o'qishda va birinchi navbatda uchraydigan qiyinchiliklarni muntazam ravishda bartaraf etish tashkil etadi.

Irodani mustaqil tarbiyalash usullari turli xil bo'lib, ularning hammasi quyidagi shartlarga amal qilishni o'z ichiga oladi.

1. Irodani tarbiyalashni nisbatan arzimasi qiyinchiliklarni bartaraf etishni odat qilishdan boshlash kerak. Oldiniga unchalik katta bo'lmagan qiyinchilikni, vaqt o'tishi bilan esa ancha katta qiyinchiliklarni muntazam ravishda yengib borib, kishi o'zining irodasini mashq qildiradi va chiniqtiradi.

2. Qiyinchiliklarni va to'siqlarni bartaraf etish ma'lum maqsadlarga erishish uchun amalga oshiriladi. Maqsad qanchalik ahamiyatli bo'lsa, irodaviy motivlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, kishi shunchalik qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodirdir.

3. Qabul qilingan qaror bajarilishi kerak. har gal, qachonki, qaror qabul qilinib, uning bajarilishi kechiktirilaversa, kishining irodasi ishdan chiqadi qaror qabul qilayotib, uning ham maqsadga muvofiqligini, ham bajarilishini hisobga olishimiz kerak.

Kishining kundalik rejimga butun hayotining to'g'ri tartibda olib borilishiga qat'iy amal qilinishi, kishi irodasining shakllanishi uchun muhim shartlar qatoriga kiradi. Irodasi bo'sh odamlar ustidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ular na o'z ishlarini, na dam olishlarini tashkil qila olmaydilar. Irodali kishi – o'z vaqtining xo'jayini.

Sport bilan muntazam shug'ullanish kishi irodasini chiniqtirishning muhim shartlaridan biridir. Jumladan, shuni aytish kerakki, asosiy irodaviy fazilatlarining rivojlanishi kishining boshqa insonlar bilan muloqoti jarayonida yuz beradi.

Kishining irodasi o'z sifatlari, ya'ni kuchi, axloqiyligi, mustaqilligi jihatidan ayrim hollarda turlicha namoyon bo'ladi. Iroda ma'lum kuchga ega bo'ladi, ba'zi hollarda irodasi kuchli, boshqa hollarda esa kuchsiz namoyon bo'ladi. Kuchli irodaga kosmonavtlarning irodasi misol bo'ladi. Kishi irodasining kuchsizligi uning juda arziyas qiyinchiliklarining ham yenga olmasligida ko'rinadi. Masalan, biror ishni bajarishga yoki biror ishni boshlashga o'zini majbur qila olmaydi. Iroda kuchi - o'zini tuta bilishda, jasurlik, qat'iyat, matonat va chidamlilikda namoyon bo'ladi. O'zini tuta bilish - kishining oldiga qo'ygan maqsadlarining amalga oshirishga qarshilik qiladigan ichki holatini yengishda ko'rinadigan irodadir. O'zini tuta bilish og'riq hissini, toliqish, qo'rquv va g'azabni yengishda namoyon bo'ladi. O'zini tuta bilish ayni paytda keraksiz bo'lgan reflekslarga, odatlarga yo'l qo'ymaslikdir. Dadillik - kishilik hayoti va omonligi uchun xavfli bo'lgan qarshiliklarni yengishda ko'rinadigan kuchli iroda. Masalan, parashyutchi har gal sakraganda dadillik qiladi. Dadillik o'zini tuta bilish bilan bog'liqdir.

Mustaqillik - irodaviy harakatlar motivlarida va shu bilan birgalikda qaror qabul qilishda namoyon bo'ladi. Mustaqillikning mohiyati shundan iboratki, odam o'zining ish - harakatlarining tevarak - atrofdagilarining tazyiqi, tasodifiy taassurotlar bilan emas, balki o'z ishonch e'tiqodlarini, bilimlari va tegishli vaziyatda qanday ish to'tish kerakligi haqida tasavvurlariga asoslanib belgilaydi. Mustaqillikning qarama -qarshi tomoni tasirlanuvchanlikdir. Bu shundan iboratki, bunda odam o'zgalarning ta'siriga tez beriladi, hamda uning harakat motivlari o'zida tarkib topgan xususiy qarashlar, ishonch aqidalar asosida emas, balki tashqaridan ko'rsatilgan ta'sir natijasi sifatida paydo bo'ladi. Qat'iyat-o'ylab qo'yilgan qarorni muvaffaqiyatli amalga oshirishni ta'minlovchi g'oyat muhim sifatdir. Qat'iylik odamdan uzoq vaqt davomida hech bir pasaymaydigan irodaviy zo'r berish va kuch - quvvatni taqozo qiladi. Belgilangan maqsadga erishishdagi qiyinchiliklar odamni hayiqitirmaydi, og'ishmay intila boradi.

Qaysarlik - odam oqilona asoslarga ega bo'lishga qaramay harakat qilish illatidan, ilgari oz o'ylab qabul qilingan qarordan voz kechish qobiliyatiga ega bo'lishidir. Qaysarlik real sharoitga tik qaramay, o'zgargan vaziyatga epchillik bilan moslasha olmaslikdir. Mana shunday hollarda odam irodasining sustligi namoyon bo'ladi.

“Biz kishilarni nima uchun yaxshi ko'ramiz”.

Odamlar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, ularning ba'zilarini yoqtiramiz, ba'zilarini esa yoqtirmaymiz. Bunda biz odamlarning ichki xususiyatlariga qarab baho beramiz. Kimning qaysi xususiyatiga qarab qadrlashimizni quyidagicha aniqlashimiz mumkin. Topshiriq yozma holda bajariladi. Guruh ichidan o'zingizga eng yoqadigan biror kishini tanlab oling va o'zingizga yoqadigan 5 ta xususiyatini yozib chiqing.

Lekin uning ismi sharifini ko'rsatmang. Guruh a'zolariga ana shu 5 ta xususiyatni o'qib bering va qolganlar bu xususiyatlar kimga mos kelishini topishlari kerak.

Irodani tarbiyalash bo'yicha metodika:

Berilgan savollarga to'g'ri va haqqoniy tarzda javob berishga harakat qiling, javoblar **“ha”**, **“yo'q”**, **“bilmayman”** (ba'zan bo'lib turadi).

1. Siz uchun qiziqarli bo'lmagan ishni albatta oxiriga etkazasizmi? Agar shu ishni ma'lum muddatda tashlab qo'yib keyin unga kaytish uchun vaqt va imkoniyat etarli bo'lsa ham.
2. O'zingizga yoqmagan biror ishni bajarish uchun sizda paydo bo'lgan ichki qarshilikni hech qanday zo'riqishlarsiz eng olasizmi?
3. Janjalli vaziyatga tushib qolsangiz (ishda, o'qishda, turmushda) vaziyatga to'g'ri, ob'ektiv baho berish uchun o'zingizni qo'lga olasizmi?
4. Agar parhez qilish buyurilgan bo'lsa, o'zingizga yoqadigan shirinlikdan voz kecha olasizmi?
5. Kechqurun rejalashtirilgan vaqtingizdan ertalab ertaroq tura olasizmi?
6. Guvohlik ko'rsatmasi berish uchun voqea sodir bo'lgan joyda qolasizmi?
7. Xatlarga tezda javob yozasizmi?
8. Samolyotda uchish, yoki tish shifokori huzo'riga borishdan oldin paydo bo'lgan qo'rquv hissini qiyinchiliksiz eng olasizmi?
9. SHifokor tavsiya etgan eng noxush dorini ham qabul qila olasizmi?
10. Bergan va'dangiz sizga ko'plab tashvish keltirsa ham albatta bajarasizmi yoki o'z so'zining ustidan chiqadigan kishimisiz?
11. Notanish shaharga hech qanday ikqilanishsiz jo'nab keta olasizmi?
12. Kun tartibiga qat'iy rioya qilasizmi? Uyqu, ovqatlanish, ish, dam olish va boshqalar?
13. Kutubxonadan “qarzdor” bo'lib qolishni xushlamaysizmi?
14. eng qiziqarli teleko'rsatuv ham sizni muhim va tezda bajarilishi zarur bo'lgan ishdan chalg'ita olmaydi. SHundaymi?
15. Raqibingizning so'zlari sizga qanchalik og'ir botsa ham janjalni to'xtatish uchun jim tura olasizmi?

Har bir **“ha”** degan javob — **2 ball**, **“bilmayman”** — **1 ball**, **“yo'q”** — **0 ball**. Natijalarni umumlashtirib, jami ballar hisoblab chiqiladi.

0 - 12 ball. Sizda irodaviy sifatlar taraqqiyoti yaxshi emas. Qanday ishlar oson va qiziqarli bo'lsa shularni bajarasiz. Burchingizga, majburiyatingizga panja orasidan qaraysiz. Bu sizga juda ko'p ko'ngilsizlik keltirishi mumkin.

13 - 21 ball. Sizda iroda kuchi o'rtacha. Biror qiyinchilikka duch kelib qolsangiz, uni asta - sekin engishga harakat qilasiz. Mabodo osonroq yo'lpaydo bo'lib qolsa, darrov o'sha tomonga o'tib olasiz. Bergan so'zingizning ustidan chiqa olasiz. YOqmagan ishni ham, o'zingizni u yoq bu yoqqa tashlab bo'lsa ham bajarishga harakat qilasiz. Hayotda ko'p narsaga ega bo'lishni xohlasangiz irodangizni mashq qildiring.

22 - 30 ball. Iroda kuchi sizda yuqori. Sizga ishonsa bo'ladi. Hech qachon noqulay vaziyatga tashlab qo'ymaysiz. YAngi topshiriqli sharoit sizni cho'chitmaydi. Lekin sizning murosasizligingiz qat'iy atrofdagilarni qiynab qo'yishi mumkin. Irodaning kuchliligi yaxshi, lekin ko'ngilchanlik, egiluvchanlik kabi xususiyatlar ham shaxs uchun g'oyat muhimdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Vigotskiy L.G. Problema voli i ee razvitie v detskom vozraste. Sobr. soch., 2-tom. M., Pedagogika, 1982.
2. Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2000.
3. Muzdibaev K. Psixologiya otvetstvennosti. –L., Nauka, 1983.
4. Nemov R.S. Psixologiya –M., Prosveshenie. 2004.
5. Psixologiya. Uchebnik. Pod. Red. A.Krilova. –M.,1998.
6. G'oziev E. Psixologiya. –T., 1994.

Shaxsning individual-psixologik xususiyatlari.

12 – Mavzu: TEMPERAMENT

Reja:

1. Temperament shaxsning individual xususiyatlari integrasiyasi.
2. Temperamentning klassik nazariyasi.
3. Temperament tiplari va ularning psixologik xarakteristikasi.
4. Temperamentni tadqiq qilish metodlari.
5. Individual yondashish va temperament tiplari.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Labillik (lot.labilis – beqaror, o'zgaruvchan) – nerv hujayralarining tezlik bilan qo'zg'alish holatidan tormozlanish va tormozlanishdan qo'zg'alish holatiga o'tish.

Rigidlik (lot. regidus – qattiq, mustahkam) – sub'yektiv tomonidan dasturlashtirilgan faoliyatda qayta qurishning talab qilinishi natijasida ro'y beradigan qiyinchiliklar.

Temperament (lot. temperamentum – qismlarning bir-biriga munosabati, aralashma) – shaxsning individual psixologik xususiyatlari majmui. Bu kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Xolerik (yunon. chole-safro, sariq o't) – u hissiyotning jo'shqinligi, kayfiyatning birdaniga tez o'zgarib qolishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman harakatchanligi bilan ifodalanadi.

Sangvinik (yunon. sanguis - qon) – bu tip, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez-tez o'zgarib turadigan, boshqa kishilarga nisbatan dilkashlik va mehribonlik qilish xislatlari bilan tavsiflanadi.

Melanxolik (yunon. melane-xole – qora o't, safro) – psixik faollikning sust, tez ta'sirlanuvchanlik, hatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta'sirotda berilishi bilan xarakterlanadi.

Flegmatik (yunon. flegma – balg'am, shilimshiq modda) – bu tip, harakatlarining sekinligi, barqarorligi, emotsional holatlarining tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Tevarak - atrofimizdagi hayot faktlari va hodisalarga bir xil odamlar tez va engillik bilan, bir xillari shoshmasdan va qiyinchilik bilan, boshqalari esa sust va befarq bo'ladilar, yana bir xillari keskin va g'ayratli, ayrimlari esa bir xil maromda va mulohazali bo'ladilar.

Temperament va xarakter odamning ijtimoiy munosabatlarida yaqqol namoyon bo'ladigan individual xususiyatlardir. Temperament - lotincha "aralashma" yoki qismlarning nisbati, degan ma'noni bildiradi. Temperament - shaxsning hissiy qo'zg'aluvchanligi va umumiy harakatchanligi bilan sifatlanadigan individual xususiyatlar yig'indisi. Temperament - inson faoliyatida uning asab tizimi tipining namoyon bo'lishi. Temperament his -tuyg'ularning paydo bo'lish tezligi va kuchida hamda kishining umumiy harakatchanligida namoyon bo'ladigan individual - psixologik xususiyatlarining majmuidir. Temperamentga taalluqli individual dinamik xususiyatlarning asosiy belgilari:

- 1) temperamentning ayni bir xil xususiyatlari, xuddi bir odamning o'zida faoliyatning har xil turlarida va har turli maqsadlarda namoyon bo'ladi;
- 2) temperamentning xususiyatlari odam hayotining butun davomida va ma'lum bir qismida barqaror va o'zgarmasdir;
- 3) mazkur odamdagi temperamentning turli xususiyatlari bir - biri bilan tasodifiy birlashgan bo'lmay, balki bir - biri bilan qonuniy bog'langan bo'lib, bu xususiyatlar temperament tiplarini ifodalovchi muhim tuzilmani hosil qiladi.

Temperamentning xususiyatlari deganda, bir inson psixik faoliyati tezligini belgilovchi psixikaning barqaror individual xususiyatlarini tushunamiz. Bu xususiyatlar turli mazmundagi faoliyatlarda, motivlarda va maqsadlarda nisbatan o'zgarmaydi, hamda temperament tipini ifodalovchi tuzilmani tashqil qiladi.

Oliy nerv faoliyati tiplari va temperament. I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra, shartli reflekslar hosil bo'lishining xususiyatlari asab tizimining xususiyatlariga bog'liqdir. I.P.Pavlov ana shunday xususiyatlardan uchtasini ajratgan:

- 1) qo'zg'alish va tormozlanish jarayoni kuchi;
- 2) qo'zg'alish kuchi bilan tormozlanish kuchi o'rtasidagi muvozanatlilik darajasi;
- 3) qo'zg'alishning tormozlanish bilan almashinish tezligi yoki nerv jarayonlarining harakatchanligi.

Bu xususiyatlar doimo qo'shib kelgan, uni I.P.Pavlov asab tizimining tipi deb atagan va to'rtta asosiy tipga ajratgan:

- 1) kuchli, muvozanatli, epchil.
- 2) kuchli, muvozanatsiz, epchil.
- 3) kuchli, muvozanatli, sust.
- 4) kuchsiz, muvozanatsiz, sust.

Hozirgi paytda temperamentning yaxlit tavsifi bilan uning alohida xususiyatlari bo'lgan asab tizimining o'z davrida hayvonlarda I.P.Pavlov tomonidan ajratilgan 4 ta tipi o'rtasida aloqa borligi aniqlangan. Temperament bog'liq bo'lgan asab tizimining ochilgan tiplari inson va hayvonlar uchun umumiy bo'lib, ular umumiy tiplar deb ataladi. SHunday qilib, temperamentning fiziologik asosini asab tizimining umumiy tiplari tashkil qiladi. Ayrim chet el olimlari - nemis psixologi Krechmer, amerika psixologi SHeldon fikriga ko'ra, temperament asab tizimining umumiy tipiga emas, balki tana, gavda tuzilishining nisbatiga bog'liq deb hisoblaydilar, ya'ni vistserotonik - semiz, qorin bo'shlig'i kuchli rivojlangan odam uchun shodlik, dилxushlik, yaxshi ovqatlanishga moyillik xosdir. Skelet muskullari yaxshi rivojlangan odamlar uchun g'ayratlilik, faollik, somatotoniklarga xosdir. Asab tizimi va xususan bosh miyasi kuchli taraqqiy etgan odamlar uchun yuksak sezgirlik, tashvishlanish, o'z xayollari

bilan band bo'lish - tserebrotonikka xosdir. Bunday nazariya noto'g'ridir. Temperamentning psixologik xususiyatlari asab tizimining umumiy tipining fiziologik xususiyatlariga ko'p tomoni tobedir. SHuning uchun asab tizimi umumiy tipi xususiyatlarini fiziologik tadqiqotlar garchi zarur bo'lsa ham, temperament hosil bo'lishi qonuniyatlarini o'rganish uchun etarli emas. Asab tizimi umumiy tipi xususiyatlarini fiziologik tadqiqot qilish bilan birga psixologik jihatdan ham tadqiq qilish kerak.

Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki, aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarni o'z ichiga olgan individ hamdir. Temperamentlar individning dinamik o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Bu sifatlarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarning o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emosional holatdan boshqasiga o'tgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi va shu nuqtai nazardan qaraganda temperament – shaxs faoliyati va qulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emosional-hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.

Temperament – insonning turli vaziyatlarda narsa, hodisa, holatlar va insonlarning xatti-harakatlariga nisbatan reaksiyasini tushuntirib beruvchi xususiyatlari majmuidir. Temperament xususiyatlari shaxsning ichki-biologik, psixofiziologik tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning namoyon bo'lishi uning aniq bir vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha tutadi: talabalar safigaqabulqilinganligi to'g'risidagi axborotni eshitgan bolaning o'zini tutishi, yoki hayotning og'ir sinovlari (yaqin kishisining o'limi, ishdan qaydalishi, do'stining xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ikkala vaziyatni ham kimdir og'ir-bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajada his-hayajon bilan boshdan kechiradi. Shuning uchun ham temperamentning shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavqeini egallashidagi ahamiyati juda katta.

Temperamental xususiyatlar aslida tug'ma hisoblansa-da, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda o'zgarib boradi. Shuning uchun ham tuqilgan choqida sangvinika o'xshash harakatlar namoyonqilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha “Temperament” termini antik fanning individual-psixologik farqlari tabiatiga bo'lganqarashlariga borib taqaladi. qadimgi yunon medisinasining yirik vakili Gippokrat (er.ol.V asr) fikricha organizmning holati asosan “sharbat”larning, ya'ni, organizmda mavjud suyuqliklarning (qon, limfa, o't) miqdoriy nisbatiga bog'liqdir. Bu sharbatlarning aralashtirilgandagi nisbati grekchasiga “krasis” (“go'zal” ma'nosida) so'zi bilan atalgan. Bir necha asr keyinroq ishlagan rimlik vrachlar bu tushunchani lotincha temperamentum so'zi bilan ataganlar, “qismlarning tegishli nisbati” degan ma'noni bildiradi. Bundan “temperament” degan termin kelib chiqqan. Asta-sekin antik fanda odamlarning ruhiy xususiyati krasisga yoki temperamentga, organizmda asosiy “sharbat”lar aralashib ketgan nisbatga

bog'liq degan fikrharor topdi. Eramizdan ilgari II yashagan rimlik anatom va vrach Galen birinchi bo'lib temperamentlarning kengaytirilgan tasnifini berdi: u 13 turni o'z ichigahamrab oladi. Temperament turlari soniqadimgi midisina vakillari tomonidan keyinchalik to'rttagaqadar kamaytirildi. Ularning har biri qandaydir suyuqlikning boshqalardan ko'pligi bilan ajralib turadi.

Organizmda suyuqliklarning aralashuvi (uqonning ko'pligi bilan xarakterlanadi) sangvinik temperament deb ataldi (lotin tilidagi "sangvis"-qon so'zidan); limfa ko'p bo'lganda flegmatik temperament (grekcha "flegma"-shilimshiq parda degani); sariq o'tning ko'payganini xolerik temperament (grek tilidagi "xole"-o't so'zidan) va niqoyat, qora o't ko'p bo'lgan melanxolik temperament deb (grekcha "meloyna xole"-qora o't) ataladi.

Antik fan yaratgan temperamentning organik asosi to'g'risidagi ta'limot hozir faqat tarixiy jihatdan qiziqish o'yg'otadi, xolos. Kishining temperamenti qanaqaligi haqidagi tasavvur odatda shu shaxs uchun xarakterli bo'lgan ayrim psixologik xususiyatlar asosida vujudga keladi. Sezilarli psixik faollikka ega bo'lgan, atrofdagi bo'layotgan voqealarga tez munosabatini bildiruvchi, taassurotlarini hadeb o'zgartirishga intiluvchi, muvaffaqiyatsizliklar va ko'ngilsizliklarni nisbatan yengil o'tkazib yuboruvchi, jonli, harakatchan, ifodali mimikasi va harakatlari bo'lgan kishi sangvinik deb ataladi. Yuragi keng, barqaror intilishlarga va kayfiyatlarga, doimiy va chuqur his-tuyg'ularga, harakatlari va nutqi bir xil maromda bo'lgan, ruhiy holati tashqi tomonda ifoda etiladigan kishi flegmatik deb ataladi. Juda g'ayratli, ishga juda ehtiros bilan berilish qobiliyatiga ega bo'lgan, tez va shiddatli, qizg'in emotsional "portlash" va kayfiyatning keskin o'zgarishlariga moyil, ildam harakatlar qiladigan kishi xolerik deb ataladi. Ta'sirchan, chuqur kechinmali, gap ko'tara olmaydigan, ammo atrofdagi voqealarga unchalik e'tibor bermaydigan, o'zini to'xtata oladigan harakatlar qiladigan va sekin ovoz chiqaradigan kishilar melanxoliklar deb ataladi.

Temperamentning har bir tipi ham ijobiy, ham salbiy psixologik xususiyatlarda o'zini namoyon qilishi mumkin. Agar xolerikning kuch-quvvati, ehtirosiligi munosib maqsadlarga yo'naltirilgan bo'lsa, qimmatli fazilatlar bo'lishi mumkin, lekin yetarlicha bo'lmagan muvozanatlik, emotsionallik va harakatsizlik zarur tarbiya bo'lmaganda o'zini tuta olmaslikda, keskinlikda, doimo qizishib ketishga moyillikda ifodalanishi turgan gap. Sangvinikning jonliligi va hozirjavobliligi qimmatli xususiyatlardir, lekin tarbiya yetarli bo'lmagan taqdirda ularni tegishlicha diqqatni to'planishining yo'qligiga, yuzakichilikka, bir yo'la bir necha ishga qo'l urishga moyillikka olib kelishi mumkin. Flegmatikning vazminligi, sabr-toqatliligi, shoshqaloqlikning yo'qligi ahamiyatli xususiyatlardir. Lekin tarbiyaning noqulay sharoitlarida ular kishini bo'shashtirib, hayotning ko'pgina taassurotlariga befarq qilib qo'yish ehtimoli mavjud. hissiyotning chuqurligi va barqarorligi, emotsional jihatdan sezgirlik melanxolikning qimmatli fazilatlarini hisoblanadi. Biroq bu tip vakillarida tegishli tarbiyaviy ta'sirlar yetishmagan taqdirda o'zlarining shaxsiy kechinmalariga butunlay berilib ketish, ortiqcha uyatchanlik rivojlanishi mumkin.

Shunday qilib, temperamentning aynan bir xil boshlang'ich xususiyatlari ularning qanday – ijobiy yoki salbiy tomonga rivojlanishini oldindan belgilab bermaydi. Shuning uchun tarbiyachining vazifasi bir xildagi temperamentni boshqasiga o'zgartirishga urinib ko'rishdan iborat bo'lmasligi kerak (bu mumkin ham emas), balki

muntazam ish olib borish yo'li bilan har bir temperamentning ijobiy tomonlari rivojlanishiga ko'maklashish va ayni paytda ushbu temperament bilan bog'liq bo'lishi mumkin salbiy jihatlardan holi bo'lishga yordam berishdan iboratdir.

Faqat tarbiyalanmaganlik natijasi hisoblangan narsani temperament hisobiga o'tkazmaslik kerak. Masalan, xulq-atvorda sabr-toqat va o'zini tuta bilmaslikning yo'qligi xolerik temperamentini bildirmaydi albatta, u har qanday temperamentda ham aynan tarbiyada yo'l qo'yiladigan kamchilikning oqibati bo'lishi mumkin. Maktabda o'quvchi jur'atsiz, deyarli o'zini eplay olmaydigan bo'lib ko'rinishi, o'ta melanxolik tipdagi odamning tasavvurini berishi, lekin amalda unday bo'lmasligi mumkin. Masalan, uning xulq-atvoriga o'quv predmetlaridan orqada qolib ketganligi ta'sir etgandir.

Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari. Shaxsning individual xususiyatlari haqida gap ketganda, ularning tug'ma, biologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi. Chunki aslida bir tomondan shaxs ijtimoiy mavjudot bo'lsa, ikkinchi tomondan - biologik yaxlitlik, tug'ma sifatlarini o'z ichiga olgan substrat - individ hamdir. Temperament va layoqatlar individning dinamik - o'zgaruvchan psixik faoliyati jarayonini ta'minlovchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Bu sifatarning ahamiyati shundaki, ular shaxsda keyin ontogenetik taraqqiyot jarayonida shakllanadigan boshqa xususiyatlarga asos bo'ladi. Odam temperamentiga aloqador sifatlarining o'ziga xosligi shundaki, ular odam bir faoliyat turidan ikkinchisiga, bir emosional holatdan boshqasiga, bir malakalarni boshqasi bilan almashtirgan paytlarda reaksiyalarning egiluvchan va dinamikligini ta'minlaydi va shu nuqtai nazardan haraganda temperament - shaxs faoliyati va xulqining dinamik (o'zgaruvchan) va emosional - hissiy tomonlarini xarakterlovchi individual xususiyatlar majmuidir.

Temperament xususiyatlari shaxsning ichki tuzilmasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, ularning namoyon bo'lishi uning konkret vaziyatlarga munosabatini, ekstremal vaziyatlarda o'zini qanday tutishini belgilab beradi. Masalan, inson turli vaziyatlarda o'zini turlicha tutadi: oliy o'quv yurtida talabalar safiga qabul qilganligi to'g'risidagi axborotni eshitgan bolaning o'zini tutishi, yoki hayotning og'ir sinovlari (yaqin kishining o'limi, ishdan haydalanish, do'stning xoinligi kabi) paytida odam beixtiyor namoyon qiladigan reaksiyalari uning temperamentidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham ikkala vaziyatni ham kimdir og'ir - bosiqlik bilan, boshqasi esa o'zini yo'qotgudek darajada his - hayajon bilan boshidan kechiradi. Shuning uchun ham temperamentning shaxs shakllanishi va ijtimoiy muhitda o'ziga xos mavqeni egallashidagi ahamiyati juda katta. O'zini bosib olgan, hayot qiyinchiliklarini sabr - bardosh bilan ko'taradigan insonning odamlar orasidagi obro'si ham baland bo'ladi. Bu uning o'z - o'ziga nisbatan qurmatini ham oshiradi, ishga, odamlarga va narsalarga munosabatini takomillashtirib borishiga imkon beradi. Temperamentning yana bir ahamiyatli jihati shundaki, u hayotiy voqealar va vaziyatlarni, jamiyatdagi ijtimoiy guruhlarini "yaxshi - yomon", "ahamiyatli - ahamiyatsiz" mezonlari asosida ajratishga imkon beradi. Ya'ni, temperament odamning ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan "sezgirligini" tarbiyalaydi, professional maqorat va kasb malakasining oshib borishiga yordam beradi.

Temperamental xususiyatlar aslida tug'ma hisoblansada, shaxsga bevosita aloqador va anglanadigan bo'lgani uchun ham ma'lum ma'noda o'zgarib boradi.

Shuning uchun ham tug'ilgan chog'ida sangvinikka o'xshash harakatlar namoyon qilgan bolani umrining oxirigacha faqat shundayligicha qoladi, deb bo'lmaydi. Demak, har bir temperament xususiyatlarini va uning shaxs tizimga aloqasini bilish va shunga yarasha xulosalar chiqarish kerak.

Akademik I. Pavlov temperament xususiyatlarini belgilab beruvchi uch oliy nerv tizimi xossalarini ajratgan edi:

kuch , ya'ni nerv tizimining kuchliqo'zqatuvchilar ta'siriga bardoshi, shunga ko'ra odamlardagi mehnatga yaroqlilik, chidam kabi sifatlarning namoyon bo'lishi:

muvozanatlashganlik, ya'ni asabdagi tormozlanish vaqo'zqalish jarayonlarining o'zaro mutunosibliigi, shunga ko'ra, o'zini tuta olish, bosiqlik kabi sifatlari va ularga teskari sifatlarning namoyon bo'lishi;

xarakatchanlik, ya'ni qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlaridagi o'zaro almashinish jarayonining tezligi va harakatchanligi ma'nosida. quyidagi rasmda nerv jarayonlari bilan temperament tiplari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida temperament tiplari aks ettirilgan.

Shunday qilib, asab tizimi bilan bog'liq individual sifatlarni bilish shart, chunki ular bevosita mehnat va o'qish jarayonlarini har bir inson tomonidan, uning manfaatlariga mos tarzda tashkil etishga xizmat qiladi. Asabga bog'liq bo'lgan tabiiy xususiyatlarmizni ham umuman o'zgaras deb ayto olmaymiz, chunki tabiatda o'zgarmaydigan narsaning o'zi yo'q. Shuning uchun ham oxirgi yillarda o'tkazilayotgan tadqiqotlarda shaxs tizimida shunday ma'qul, "hayotiy ko'rsatgichli" xususiyatlar tizimini o'rganilmoqda va unda temperamentga aloqador sifatlari ham nazarda tutilmoqda. Masalan, V.S.Merlin temperamentning psixologik tasnifi va ularning hayotiy vaziyatlarda namoyon bo'lishini boshqarish masalasida ko'p ishlar qilgan. Uning fikricha, insonda mavjud bo'lgan faollik, bosiqlik, emosional tetiklik, hissiyotlarning tezda namoyon bo'lishi va o'zgaruvchanligi, kayfiyatning turg'unligi, behalovatlilik, ishchanlik, yangi ishga kirishib ketish, malakalarning tez hosil bo'lishi kabi qator sifatlari asosida shaxsdagi o'sha ekstroverziya va introverziya xossalari yotadi va ularni ham o'zgartirish va shu orqali temperamentni boshqarish mumkin. Shulardan kelib chiqqan xolda shaxsning mehnat qilish uslubini tanlash va professional mahoratni o'stirishda ayni shularga e'tibor berish kerak. Masalan, ba'zilar xoleriklarga o'xshash qiziqqon, tezkor bo'lishadi.

Temperament tiplarining kelib chiqishida irsiyatning roli katta. Masalan, gomozigot (1 tuxumdan) rivojlangan va geterozigot (2 tuxumdan rivojlangan). egizaklar temperamentlarini solishtirib bunga ishonch hosil qilish mumkin. Temperamentning ayrim xususiyatlari hayot davomida ma'lum bir o'zgarishga uchrashi mumkin. Lekin temperament tipi o'zgarmaydi. Temperament xususiyatlari ma'lum bir yoshda birdaniga paydo bo'lmaydi. Ba'zan kichik bolalarda yosh xususiyatlari tufayli to'la darajada namoyon bo'lmaydi. Ma'lum bir temperament tipining asosiy xususiyatlari birdaniga hammasi namoyon bo'lmaydi, balki yoshga qarab sekin - asta asab tizimining voyaga yetishi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bu jarayonni biz temperamentning voyaga yetishi deb ataymiz. Umuman yaxshi va yomon temperament tipi yo'q. Masalan, sangvinik o'zining hissiyligi va ishchanligi bilan ajralib turadi. Lekin uning mayllari, diqqati beqarordir. Melanholik tez toliqadi, o'ziga ishonmaydi, lekin u noziq sezuvchi, ehtiyotkor va xushyor odamdur. Agar

xolerikning kuch - quvvati, ehtirosiligi munosib maqsadlarga yo`naltirilgan bo`lsa, qimmatli fazilatlar bo`lishi mumkin, lekin yetarlicha bo`lmagan muvozanatlik, hissiy qo`zg`aluvchanlik, zarur tarbiya bo`lmaganda o`zini tuta olmaslikda, keskinlikda, doimo qizishib ketishiga moyillikda ifodalanishi turgan gap. Flegmatikning vazminligi, sabr - toqatliligi, shoshqaloqlikning yo`qligi, qimmatli xususiyatlardir. Lekin tarbiyaning noqulay sharoitlarida ular kishini bo`shashtirib hayotining ko`pgina taassurotlariga befarq qilib qo`yadi. Temperamentning aynan bir xil boshlang`ich xususiyatlari ularning qanday - ijobiy va salbiy tomonga rivojlanishini oldindan belgilab bermaydi. SHuning uchun tarbiyachining vazifasi bir temperamentni boshqasiga o`zgartirishga urinib ko`rishdan iborat bo`lmasligi kerak, balki muntazam ish olib borish yo`li bilan har bir temperamentning ijobiy tomonlari rivojlanishiga ko`maklashish va ayni paytda ushbu temperament bilan bog`liq bo`lishi mumkin, salbiy jihatlardan holi bo`lishga yordam berishdan iboratdir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Temperament haqidagi birinchi ta`limot kim tomonidan tavsiya qilingan?
a) Arastu; v) Gippokrat;
b) Aflotun; g) Gall;
2. Temperament xususiyatlari qanday sifatlarga bog`liq?
a) kishining tana tuzilishiga;
b) organizmdagi suyuqliklar nisbatiga;
v) qon tarkibi va tomirlari tuzilishiga;
g) asab tuzilishi xususiyatlariga.
3. Kishining temperamenti va xarakteri o`rtasidagi munosabatni aniqlang?
a) temperament xarakter tarkibiga kiradi;
b) xarakter temperament tarkibiga kiradi;
v) temperament va xarakter bir narsa;
g) temperament va xarakter shaxsning qarama -qarshi xususiyatlari.
4. Quyidagi asab tizimi tiplarining qaysi biri singviniklar uchun xos?
a) kuchli, muvozanatsiz, harakatchan;
b) kuchli, muvozanatli, harakatchan;
v) kuchli, muvozanatli, sust;
g) kuchsiz, muvozanatsiz, harakatchan yoki sust.
5. Asab hujayralarining ish qobiliyati tashqi taassurotlarga javob berishdagi chidamliligi asab tizimining qanday xususiyatlariga bog`liq?
a) harakatchanligi; v) kuchi;
b) muvozanati; g) labilligi.

Temperament tipini aniqlash metodikasi:

Berilgan fikrga qo`shilsangiz “1” ball, qo`shilmasangiz “0” ball qo`ying.

Siz:

1. Saranjom, behalovat;
2. O`zini tuta olmaydigan, tez jahli chiqadigan;
3. Betoqat;
4. Odamlar bilan munosabati keskin.;
5. Qat`iyatli va tashabbuskor;
6. O`jar va qaysar;

7. Tortishuv va bahslarda topqir;
8. Bir xil tempda ishlamaysiz;
9. Tavakkalchilikka moyilligingiz bor;
10. YOmon narsalarni eslab yurmaysiz;
11. Nutqingiz tez, bo`linuvchan, ohangga ega;
12. Muvozanatsiz, tez qizishib ketishga moyilligingiz bor;
13. Tez urishib ketadigan, janjalkash;
14. Kamchiliklarga murosasiz;
15. Ifodali mimikaga egasiz;
16. Tez harakat qilasiz, qarorga kelasiz;
17. YAngilikka muttasil intilasiz;
18. Harakatlaringiz keskin va uzilishli;
19. O`z oldingizga qo`ygan maqsadni albatta amalga oshirasiz;
20. Kayfiyatingiz tez o`zgarishga moyil - **xoleriksiz**.

Siz:

1. Dilkash va quvnoq;
2. Tirishqoq va ishbilarmon;
3. Ko`p hollarda boshlagan ishni oxiriga etkazmaysiz;
4. O`zingizni yuqori baholaysiz;
5. YAngilikni tez o`zlashtirib olasiz;
6. Qiziqish va intilishlaringiz beqaror;
7. Muvaffaqiyatsizlikni tez unutasiz;
8. Turli sharoitga tez moslashasiz;
9. Har qanday yangi ishga qiziqish bilan kirishasiz;
10. YAngi ishga tez kirishasiz va tez biridan ikkinchisiga o`ta olasiz;
11. Agar ish sizni qiziqitirmay qolsa tez soviysiz;
12. Bir xil tipdagi ishlarda tez toliqasiz;
13. Muomalaga tez kirishasiz;
14. CHidamli va mehnatsevarsiz;
15. Nutqingiz baland, tez, mimika va imo-ishoraga boy;
16. Qiyin vaziyatda o`zingizni tuta bilasiz;
17. Doimo tetik kayfiyatda yurasiz;
18. Tez qarorga kelib, tez undan voz kechasiz;
19. Tez chalg`iysiz;
20. Behuda shoshilasiz - **sangviniksiz**;

Siz:

1. Osoyishta va sovuqqon;
2. Ishda tartibli, izchil;
3. ehtiyotkor va aql bilan ish tutasiz;
4. Sabr - toqat bilan kuta olasiz;
5. Bo`lar - bo`lmas narsalar haqida gapirmay sukut saqlay bilasiz;
6. Nutqingiz osoyishta, bir xil tempda va hech qanday ifodali harakatlarga ega emas;
7. CHidamli va o`zini tuta bilasiz;
8. Boshlangan ishni oxiriga etkaza olasiz;
9. Behudaga kuch sarflamaysiz;

10. Ish rejimi va kun tartibiga qat'iy rioya qilasiz;
11. ehtirosni, hayajonni osongina engasiz;
12. Tanqid va maqtovg'a e'tibor qilmaysiz;
13. YUvosh va ko'ngilchansiz;
14. Qiziqish va munosabatlaringiz barqaror;
15. Ishga sekin moslashib boshqa ishga o'tish qiynalasiz;
16. Munosabatlaringiz turli - tuman;
17. Har bir narsada tartib va intizom bo'lishini xohlaysiz;
18. YAngi sharoitga qiyinchilik bilan moslashasiz;
19. Kayfiyatingiz barqaror;
20. Vazmin tabiatli, ogir - bosiq - **flegmatiksiz**;

Siz:

1. Uyatchan va tortinchoqsiz;
2. YAngi sharoitda o'zingizni yo'qotib qo'yasiz;
3. Notanish kishilar bilan aloqa o'rnatishga qiynalasiz;
4. O'z kuchingizga ishonmaysiz;
5. YOlg'izlikni yoqtirasiz;
6. Muvaffaqiyatsizlikda tezda tushkunlikka berilasiz;
7. Tez charchaysiz;
8. Nutqingiz sekin, kuchsiz;
9. Boshqalar ta'siriga tez berilasiz?
10. Ta'sirlanuvchan, tez yig'laysiz;
11. Tanqid va maqtovnini tez qabul qilasiz;
12. O'zingiz va boshqalarga nisbatan talabchan;
13. SHubha va gumonga tez berilasiz;
14. Tez xafa bo'lasiz va arazlaysiz;
15. Har bir narsani o'zingizga tez qabul qilasiz;
16. Muloqotga kirishishga qiynalasiz;
17. Boshqalarga fikringizni aytishni yoqtirmaysiz;
18. Sust va kam faollik bilan ajralib turasiz;
19. Tez bo'ysunasiz, itoatkorsiz;
20. Boshqalarda yordam hissini uyg'otishga harakat qilasiz – **melanholiksiz**.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Gippenreyter Yu. B. Vvedenie v obquyu psixologiyu. Kurs leksiy. –M., 1996.
2. Karimova V. Psixologiya. O'quvqo'llanma. –T., A.qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. 2002.
3. Muzdibaev K. Psixologiya otvetstvennosti. –L., Nauka, 1983.
4. Nemov R.S. Psixologiya. V 2-x kn. –Kn. 1. –M., 2003.
5. Psixologiya. Uchebnik. Pod. Red. A.Krilova. –M.,1998.
6. Xrestomatiya po psixologii. –M., Prosveqenie, 1977.
7. G'oziev E. Psixologiya. –T., 1994.

13 – Mavzu: XARAKTER

Reja:

1. Psixologiyada xarakter muammosi.
2. Xarakterning tuzilishi.
3. Xarakter va temperament.
4. Xarakter hislatlari va shaxsning munosabatlari.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Xarakter (yunon. character – xususiyat, belgi) – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarning individual birligi. U shaxsning mehnatga, atrofdagi narsa hodisalarga, boshqa kishilarga va o'z-o'ziga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi.

Introversiya – shaxsning o'z fikrlari, sezgilari, kechinmalarining o'z-o'ziga tayanishi.

Ekstroversiya (lot. extra – haddan tashqari, verso- o'zgarish) – shaxsning tevarak-atrofdagi odamlarga, tashqi hodisalarga yo'nalishi.

Fenomen (yunon. phainomenon-yuz beruvchi, sodir bo'luvchi) – his-tuyg'ular tajribasi bilan payqaladigan hodisani anglatuvchi tushuncha.

Xarakter aksentuatsiyasi (yunon. character-xususiyat, belgi, lot. accentus-urg'u) – xarakterning alohida xususiyatlarini haddan tashqari ifodalanishi (psixopatiyaga yaqin namoyonlashuvi)

Fiziognomika (yunon. physis-tabiati, gnomon-biluvchi) – insonning tashqi ko'rinishi va uning biror shaxs turiga mansubligi o'rtasidagi qat'iy bog'liqlik.

Xiromantiya (yunon. cher-qo'l, man-fol) – odamning kaftiga qarab uning xarakteri, taqdiri bo'yicha fol ochish.

Psixopatiya - aqliy qobiliyat saqlanib qolgani tarzda boshqa kishilar bilan bog'liq xarakterga oid hastalik, ba'zan atrofdagilar uchun ijtimoiy xavfli bo'lishi ham mumkin.

Grekchadan tarjima qilinganda “xarakter” – bu “zarb qilish”, “belgi” demakdir. xaqiqatdan ham xarakter – kishining jamiyatda yashab egallaydigan alohida belgilaridir. Shaxsning individualligi psixik jarayonlarning o'tish xususiyatlarida (yaxshi xotira, xayol, zehni o'tkirlik va boshqalar) va temperament xususiyatlarida namoyon bo'lishiga o'xshab, xarakterning hislatlarida ham ko'rinadi.

Xarakter – shaxsning faoliyat va muomalada tarkib topadigan va namoyon bo'ladigan barqaror individual xususiyatlari bo'lib, individ uchun tipik xulq-atvor usullarini yuzaga keltiradi. Xarakter – shaxsdagi shunday psixologik, sub'yektiv munosabatlar majmuiki, ular uning borliqqa, odamlarga, faoliyatga hamda o'z-o'ziga munosabatini ifodalaydi. Demak, “munosabat” kategoriyasi xarakterni tushuntirishda asosiy hisoblanadi. B.F.Lomovning ta'biricha, xarakter shaxs ichki dunyosining asosini tashkil etadi va uni o'rganish katta ahamiyatga ega. Munosabatlarning xarakterdagi o'zni xususida fikrlar ekan, V.S.Merlin ularning mazmunida ikki sohani ajratadi:

a) emotsional kognitiv – borliq muhitning turli tomonlarini shaxs qanday emotsional his qilishi va o'zida shu olamning emotsional manzarasini yaratishi;

b) motivation-irodaviy – ma'lum harakatlar va xulqni amalga oshirishga undovchi kuchlar. Demak, bizning munosabatlarimiz ma'lum mazmun va ma'no kasb etgan munosabatlar bo'lib, ularning har birida bizning hissiy kechinmalarimiz aks etadi va xarakterimiz namoyon bo'ladi.

Mashhur rus olimi, psixologiya fanining metodologiyasini yaratgan S.L.Rubinshteyn shaxsning o'ziga xosligini va xarakterologik tizimda uchta asosiy tuzilmalarni ajratgan edi:

1.Munosabatlar va yo'nalish shaxsdagi asosiy ko'rinishlar sifatida – bu shaxsning hayotdan nimani kutishi va nimani xohlashi.

2.Qobiliyatlar ana shu tilak-istaklarni amalga oshirish imkoniyati sifatida – bu odamning nimalarga qodir ekanligi.

3.Xarakter imkoniyatlardan foydalanish, ularni kengaytirishga qaratilgan turg'un, barqaror tendensiyalar, ya'ni bu kim ekanligi.

Shu nuqtai-nazardan qaraganda ham, xarakter shaxsning “tanasi”, borlig'idir. Xarakterning boshqa individual-psixologik xususiyatlardan farqi shuki, bu xususiyatlar ancha o'zgaruvchan va dinamik, orttirilgandir. Shuning uchun ham maktabdagi ta'limdan oliy o'quv yurtidagi ta'limga o'tish faktining o'zi ham o'spirinda ma'lum va muhim o'zgarishlarni keltirib chiqaradi. Umuman, aniq bir shaxs misolida olib qaraydigan bo'lsak, har bir alohida ob'yektlar, narsalar, hodisalarga mos tarzda xarakterning turli qirralari namoyon bo'lishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Masalan, uyda katta yoshli ota-onalar oldida o'ta bosiq, ko'nuvchan, har qanday buyurilgan ishni e'tirozsiz bajaradigan kishi, o'z kasbdoshlari orasida doimo o'z nuqtai nazariga ega bo'lgan, gapga chechan, kerak bo'lsa qaysar, dadil bo'lishi, ko'chada, jamoatchilik joylarida beg'am, loqayd, birov bilan ishi yo'q kishiday tuyulishi, o'ziga nisbatan esa o'ta talabchan, lekin egoist, o'z-o'ziga bahosi yuqori bo'lishi mumkin. Demak, xarakterning psixologik tizimini tahlil qiladigan bo'lsak, uning borliqdagi ob'yektlar va predmetli faoliyatga nisbatan amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun ham psixologiyada xarakterning quyidagi tizimi e'tirof etiladi:

1.Mehnat faoliyatida namoyon bo'ladigan xarakterologik xususiyatlar – mehnatsevarlik, mehnatkashlik, tashabbuskorlik, ishga layoqat, ishga qobillik, ma'suliyat, dangasalik, qo'nimsizlik va boshqalar.

2.Insonlarga nisbatan bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'ladigan xarakterologik sifatlar – odoblilik, mehribonlik, takt, jonsaraklik, dilgirlik, muloqatga kirishuvchanlik, altruizm, g'amxo'rlik, rahm-shafqat va boshqalar.

3.O'z-o'zining munosabatiga aloqador tavsifiy sifatlar – kamtarlik, kamsuqumlilik, mag'rurlik, o'ziga bino qo'yish, o'z-o'zini tanqid, ibo, sharmu-hayo, manmansirash, va boshqalar.

4.Narsalar va hodisalarga munosabatlarda namoyon bo'ladigan xususiyatlar – tartiblilik, oqillik, saranjom-sarishtalik, ziqnalik, tejamkorlik, pokizalik va boshqalar.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlar aslida shaxsning hayotdagi yo'nalishlaridan kelib chiqadi. Chunki yo'nalish – borliqqa nisbatan tanlovchan munosabatining aks etishidir. Bunday yo'nalish turli shakllarda namoyon bo'ladi: diqqatlilik, qiziquvchanlik, ideallar, maslaklar va hissiyotlarda.

Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon bo'lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir. Avvalo xarakter insonning xatti-harakatlari va amallarida namoyon bo'ladi – odamning ongli va maqsadga qaratilgan harakatlari uning kim ekanligidan darak beradi.

Nutqning xususiyatlari (baland tovush bilan yoki sekin gapirish, tez gapirishi yoki bosiqliqi, emosional boy yoki jonsiz) ham xarakterning yo'nalishini belgilaydi.

Tashqi qiyofa – yuzining ochiq yoki tund ekanligi, ko'zlarining samimiy yoki johilligi, qadam bosishlari tez yoki bosiq, mayda qadam yoki salobatli, turishi – viqorli yoki kamtarona, bularning hammasi xarakterni tashqaridan kuzatib o'rganish belgilaridir.

Bundan tashqari, ilm olamida inson xarakterini turli belgilarga ko'ra o'rganishga qaratilgan ko'plab urinishlar bo'lgan. Ularda odamning turli tabiiy, tug'ma xususiyatlariga xarakterni bog'lashga urinishlar bo'lgan. Masalan, fizionomika odam yuz qirralari va ularning bir-biriga nisbati orali odam fe'l-atvorini o'rganishga harakat qilsa, xiromantiya –qo'l barmoqlari va kaftdagi chiziqlar orqali, ko'z rangi va qarashlar, soch va uning xususiyatlari orqali o'rganish yo'llarini qidirgan. Ch.Lombrozo, E.Krechmer, U.Sheldonlarning konstitusion nazariyalari shaxs xarakterini uning tashqi ko'rinishi, tana tuzilishi bilan bog'liqlikni tushuntirishga uringan.

Xarakterning psixologik va fiziologik sabablari haqida faqat taxminiy fikrlar, xulosalar mavjud. Kishi temperamenti uning xakteri tarkibiga kiradi, shu sababli ham xakterning fiziologik asosi asab tizimining tipidan iborat.

Xarakter xislatlari shaxsning qiyin hosil qilinadigan va mustahkamlanib qoladigan xususiyatlari bo'lganlari tufayli, xakterning fiziologik asosi ham individual hayot jarayonida asab tizimining o'zgargan xususiyatlaridan iborat. Hayvon asab faoliyatining tug'ma konstitutsion turi **genotip**. Lekin hayvon tug'ilganidan keyin tashqi sharoitlarning g'oyat xilma - xil taassurotlariga duch keladi va bunga muayyan faoliyat orqali u muqarrar javob berishi lozim bo'ladi, ko'pincha bu faoliyatlar mustahkamlanib, butun hayoti bo'yicha saqlanib qoladi. SHu sababli hayvonning batamom tarkib topgan asab faoliyati tipga oid belgilardan tashqari muhit ta'siri ostida hosil bo'lgan o'zgarishlarning qotishmasi - **fenotip** xakterdir. Dinamik **stereotip** shaxsdagi mustahkam odat bo'lib qolgan xususiyatlarining, jumladan, xakter xislatlarining ham nerv - fiziologik asosidir. Xakterning nerv - fiziologik asosini tushunish uchun I.P. Pavlovning ikkinchi signal tizimi haqidagi ta'limoti katta ahamiyatga egadir. Ikkinchi signal tizimi nutq va tafakkurning fiziologik asosi bo'lish bilan birga, kishi xulqini ham idora qiladi. Xakterning fiziologik asosi xakterning mazmunini tashkil qiladigan sifatlari, chunonchi, ijtimoiy maslak, mardlik, o'z burchiga sadoqatli bo'lishlarini o'z ichiga olmaydi va ololmaydi ham, albatta xakter psixologiyasining mazmuni o'zining kelib chiqishi jihatidan ijtimoiy hodisadir: psixologiya xakterning mazmunini tashkil qilgan tomonlarini yoritishligi tufayli, u ijtimoiy fanlar qatoriga kiradi.

Psixologiya tarixida xakterning tipologiyasini yaratishga bir necha bor urinib ko'rilgan. Nemis psixologi va psixiatri E.Krechmer tomonidan XX asr boshlarida tavsiya etilgan tipologiya eng mashhur va dastlabki urinishlardan biri edi. Keyinchalik uning hamkasblari U.Sheldon, E.Fromm, K. Leongard va A.E.Lichkolar tomonidan ham shunday tipologiyalar tavsiya etildi. Inson xakterining barcha tipologiyalari quyidagi asosiy g'oyalarga muvofiq tarzda tashkil etilgan:

1. Inson xakteri uning ontogenetik taraqqiyoti mobaynida juda erta namoyon bo'la boshlaydi va butun hayoti davomida barqaror bo'lib boradi.
2. Xakter tarkibiga kirgan xususiyatlar tasodifiy uyushma emas. Ular xakter tipologiyasini tuzish imkonini beruvchi bir - biridan farq qiluvchi tiplardan iborat.

3. Mazkur tipologiyaga ko'ra, ko'pchilik kishilarni ma'lum guruhlarga birlashtirish mumkin.

E. Krechmer odam tanasining tuzilishi va konstitutsiyasiga ko'ra, eng ko'p uchraydigan uchta tipni ajratib ko'rsatgan (astenik, atletik, piknik). Ularning har birini shaxsning ma'lum xarakter tiplari bilan bog'langan bo'lsa ham aslida hech qanday ilmiy asoslar bo'lmagan.

1. Astenik tip - Krechmer fikricha, uncha katta bo'lmagan gavda tuzilishi o'rtacha yoki undan balandroq bo'yli, oriqli kishilardir. Asteniklarning tana va yuz terisi noziq, yelkasi tor, yassi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan.

2. Atletik tip - skelet va mushaklar yaxshi rivojlangan, o'rtachadan yuqori, baland bo'yli, keng yelkali, kuchli ko'krak qafasli, boshini tik tutib yuradigan kishilardir.

3. Piknik tip - bosh, ko'krak qafasi va qorin bo'shligi yaxshi rivojlangan, semirishga moyil, tayanch - harakat a'zolari yaxshi rivojlanmagan kishilardir.

E. Krechmer mazkur tiplar bilan ayrim ruxiy kasalliklar o'rtasida muvofiqlik bor, degan fikrni ilgari suradi. Masalan, atletik va astenik tiplar shizofreniyaga moyilroq deb hisoblaydi. E. Krechmer tipologiyasi hayotiy kuzatishlar asosida xulosalar chiqarish orqali tuzilgan bo'lsa ham kamchiliklarga ega. Ba'zi ilmiy tadqiqotlar ma'lum tana tuzilishiga ega kishilar ruxiy kasalliklarga moyil ekanligini aniqladi va xarakter aktsentuatsiyasi haqidagi fikrlarni ilgari surish imkonini berdi.

Nemis psixiatri K. Leongard fikricha, 20 - 50 % kishilarda ba'zi xarakter xususiyatlari shu darajada kuchliki, ba'zan bir xil tipdagi ziddiyat va hissiy portlashlarga olib kelishi mumkin.

Xarakter aktsentuatsiyasi - biror xususiyatning boshqalari zarariga kuchli rivojlanishi va atrofdagilar bilan munosabatlarining yomonlashuviga olib kelishidir. Xarakter aktsentuatsiyasi turli darajada yengil va hatto psixopatiya darajasigacha bo'lishi mumkin. O'smirlar orasida xarakter aktsentuatsiyasi ko'p (50-80%) uchraydi. Uni turli psixodiagnostik testlar, masalan, Shmishek testi orqali aniqlash mumkin.

K. Leongard tomonidan xarakter aktsentuatsiyasi quyidagicha tasniflanadi:

1. Gipertim tip. Haddan tashqari aloqaga kirishuvchan, ko'p gapiradi, imo - ishora, mimikaga boy, suhbat mavzusini burib yuborishga moyil, ko'pincha xizmatga doir va ommaviy majburiyatlarni unutib qo'yganligi sababli ziddiyatlar kelib chiqadi.

2. Distim tip. Kamgap, muloqotga kirishishga qiynaladi, pessimist, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, uyda yolg'iz qolishni yoqtiradi.

3. Tsikloid tip. Kayfiyati tez o'zgarishga moyil, kayfiyati yaxshi paytda - gipertim, yomon paytda distim tipga o'xshab qoladi.

4. Qo'zg'aluvchan tip. Muloqotda passiv, verbal va noverbal reaksiyalari sust, qaysar, ba'zan urushqoq, ko'pincha turli mojarolarning tashabbuskori.

5. Kuchaytiruvchi tip. Kamgap, aql o'rgatishni yoqtiradi, yuqori natijalarga erishishni xohlaydi, tez xafa bo'ladi, shubhalanuvchan, qasoskor. Kichik-kichik muammolarni kattalashtirishga, bo'rttirishga moyil.

6. Pedant tip. Ziddiyatlarga kam qo'shiladi, ko'pincha passiv holatda bo'ladi, atrofdagilarga ko'plab rasmiy talablar qo'yadi, tartibli, jiddiy, ishonchli xodim.

7. Xavotirli tip. Kamgap, odamovi, o'ziga ishonmaydi, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, tinchliksevar, o'z - o'zini tanqid qiladi. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

8. Emotiv tip. Tor doiradagi kishilar bilan muloqotga kirishishni yoqtiradi, xafa bo'lsa tashqaridan sezdirmaslikka harakat qiladi, mehribon, g'amxo'r, mas'uliyatni his qiladi. Boshqalarning yutuqlaridan quvonadi.

9. Namoyishkorona (demonstrativ) tip. Muloqotga tez kirishadi, yetakchilikka intiladi, hokimiyat va maqto'vni yoqtiradi, boshqalarni o'ziga jalb qila oladi, noyob tafakkurga, xulq - atvorga ega.

10. Ekzaltirovanlashgan tip. O'ta muloqotga kirishuvchan, ko'p gapiradi, qiziquvchan, do'stlari va yaqinlariga e'tiborli, boshqalarga yordam beradi, did-farosatli, samimiy.

11. Eekstrovertirovanlashgan tip. Muloqotga kirishuvchan, do'stlari ko'p, ziddiyatlardan o'zini olib qochadi, boshqalarni diqqat bilan eshitishi mumkin. Topshiriqlarni vaqtida bajaradi.

12. Introvertirovanlashgan tip. Muloqotga kirishishga qiynaladi, "ichimdagini top", falsafiy fikr yuritishni yoqtiradi, qat'iyatli, e'tiqodi mustahkam, qaysar, tafakkuri qotib qolgan.

To'g'ri tashkil etilgan ta'lim - tarbiya jarayonida xarakter aktsentuatsiyasini tarbiyalash va tuzatish mumkin.

Odam xarakterining tarkibi turli xususiyatlari tasodifiy yig'indisidan iborat emas. Xarakterning ayrim xususiyatlari bir - biriga bog'liq, biri - biriga tobe yaxlit organizmni hosil qiladi. Mana shunday yaxlit organizm xarakter tarkibi deb ataladi. Masalan, odamning takabbur va shuhratparastligini bilsak, uning ichi qora, qorako'ngilli deb, kamtarligini bilsak, ko'ngilchan deb aytamiz.

Hozirgi zamon psixologiyasida shaxsning turli munosabatlari bilan belgilanadigan xarakter xususiyatlarining to'rtta tizimi farqlanadi.

1. Jamoa va ayrim odamlarga bo'lgan munosabatlarini ifodalovchi xususiyatlar (yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, takabburlik va shu kabilar).

2. Mehnatga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: (mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mehnatga mas'uliyat yoki mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lish kabilar).

3. Narsalarga bo'lgan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar (ozodalik yoki ifloslik, narsalar bilan ayab yoki ayamasdan munosabatda bo'lish kabilar).

4. Odamning o'z - o'ziga bo'lgan munosabatini ifodalovchi xususiyatlar (izzat - nafslilik, shuhratparastlik, mag'rurlik, o'zini katta olish, kamtarlik kabilar).

Bundan tashqari, kamroq ahamiyatga ega bo'lgan boshqa juda ko'p xususiyatlar ham mavjud: o'ziga ishonish, o'zbilarmonlik, o'ziga bino qo'yish, maqtanchoqlik kabilar. Xarakterning hamma xususiyatlari bir - biri bilan bog'liq, kishining xarakteri nisbatan bir butundir.

Xarakterning tarkibi faqat ayrim xususiyatlarining o'zaro bog'liqligi bilan emas, balki bir butun xarakterga xos bo'lgan xususiyatlar bilan belgilanadi. Xarakterning xususiyatlari jumlasiga birinchidan, ularning chuqurlik darajasi kiradi. SHaxsning markaziy asosiy munosabatlari bilan belgilanadigan xususiyatlarini biz xarakterni birmuncha chuqurroq xususiyatlari deb ataymiz. Masalan, barkamol shaxsda odamlarga, jamoa va mehnatga nisbatan vijdonan munosabatda bo'lish bilan belgilanadigan xususiyatlar chuqurroq xususiyatlar hisoblanadi. Ikkinchidan, xarakter kuchi yoki faolligi . Xarakter faolligi xarakter xususiyatlarining kishini biror narsaga

undash kuchi bilan tashqi sharoitlarga qarshilik ko'rsatish darajasi bilan belgilanadi. Uchinchi, xarakterning tarkibiy xususiyatlariga - uning barqarorlik va o'zgaruvchanlik darajasi kiradi. Xarakter barqarorligi va o'zgaruvchanligi ham moslashish faoliyatining zarur shartlaridandir. Agar tashqi sharoitning o'zgarishi bilan har gal xarakter boshqacha bo'lib, o'zgarib qoladigan bo'lsa, unday paytda odamning xatti -harakatlari tashqi sharoit ta'siriga nisbatan passiv javob reaksiyasiga aylanib qolgan xatti -harakat batamom passiv moslashishga aylangan bo'lar edi. Odamning xarakter xususiyatlari juda xilma - xil hayot sharoitlarida ham qarshilik qiluvchi sharoit bo'lishiga qaramay uning xatti -harakatlarini boshqaradi.

Xarakter ma'lum darajada plastikdir (egiluvchandir). Xarakterning **plastikligi** ikki xil ma'noga ega, birinchidan, xarakterning plastikligi (egiluvchanligi) xarakterning barqarorligi singari muhim faol ta'sir qilishidir. Ikkinchidan, xarakter ma'lum darajada plastik bo'lganligi uchungina istalgan odamning xarakterini tarbiyalay va qayta tarbiyalay olamiz. Kishiga mustahkamlanib, uning shaxsiy xususiyatiga aylanib qolgan iroda sifatleri xarakterning iroda bilan bog'liq bo'lgan xislatlaridir, bu sifatlar alohida ko'rinib emas, balki shaxsning fazilatiga aylanib qoladi, qat'iyat, sabr – toqat, chidamlilik, dadillik, o'zini tuta bilish, mustaqillik, intizomlilik, mas'uliyatni his qilish, o'z - o'zini tanqid axloqiy xislatlardir.

Organizmning nasliy xususiyatlari xarakter xususiyatlarining paydo bo'lishidagi shartlardan biridir. Xarakter xususiyatlari irsiyatning biologik qonuniyatlari bilan emas, balki ijtimoiy qonuniyatlar bilan belgilanadi. (egizaklar). egizaklar temperament xususiyatlari jihatidan o'xshasalar ham xarakter xislatlari bir - biridan farq qiladi. Xarakterning xususiyati shaxs munosabatlari bilan bog'liqdir. Lekin shaxs munosabatlari o'z navbatida ijtimoiy munosabatlar bilan belgilanadi. Kishining xakteri tug'ma, doimiy va o'zgarmaydigan narsa emas. Hech bir bola mehnatsevar yoki dangasa, rostgo'y yoki yolg'onchi, qo'rqq yoki jasur bo'lib tug'ilmaydi. Har bir odamning xakteri temperamenti asosida, ijtimoiy muhit ta'siri bilan tarbiya, amaliy faoliyat jarayonida va kishining o'z - o'zini tarbiyalashi bilan taraqqiy qilib, o'zgarib boradi. Xakterning taraqqiyoti kishining irodasi, aql - idroki va hissiyotlarining taraqqiy qilib borishi bilan mustahkam bog'liqdir.

Kishining butun hayoti davomida uning xakterining tarkib topishiga ijtimoiy muhit, avvalo shu kishi bilan birga yashab turgan va ishlab kelgan jamoa katta ta'sir ko'rsatadi. Kichik bolalarda xakterning tarkib topishida taqlidning roli katta. Bolalar ota - onasiga, yaqin kishilarga va kattalarga o'xshashlikka harakat qiladi. Ular kattalarning yurish - turishlari, dasturxon atrofida o'zini to'tishi va boshqalarga taqlid qiladilar, kichiklarga va jonivorlarga munosabatlarini kuzatadilar. Ota - onalar va o'qituvchilar, umuman katta yoshdagilar hammasi o'zlariga ham e'tibor bilan qarashlari, o'zlarida ijobiy xakter xislatlarini har doim tarbiyalab borishlari lozim.

Bolalarda ijobiy, irodaviy va axloqiy sifatlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun ota - onalar va tarbiyachilarning o'zlari bunday sifatlariga ega bo'lishlari lozim.

Xakterning o'sishida tarbiya va o'z - o'zini tarbiyalashning roli katta. O'sib kelayotgan yosh avlodning xakteri, avvalo oilada va maktabda tarbiyalanadi. Bolalarning xakterini tarbiyalashda katta mas'uliyatli vazifa ota - onalar, o'qituvchilar va bolalar bog'chasi tarbiyachilari zimmasiga tushadi. Xakterni tarbiyalashda pedagog bolaning temperamentni ijobiy va salbiy tomonlarini yaxshi

bilishi lozim. Xarakterni tarbiyalash, jumladan, temperamentning ijobiy tomonlarini o`stirishdan, uning salbiy tomonlarini yo`qotishdan va bu salbiy tomonlarni xarakterning ijobiy xislatlari bilan almashtirishdan iborat. Xarakterning salbiy tomonlarini yo`qotmoq, ijobiy tomonlarini tarbiyalab yetkazmoq uchun tarbiyalanuvchining o`z temperamentini o`zi idora qilishiga o`rgatmoq lozim. O`z temperamentini idora qila bilish xarakterning ijobiy xislatidir.

Bola xarakterining tarkib topishida jamoaning tarbiyalovchi roli nihoyatda katta. Inson yakka bir - biridan ajralgan tarika hayot kechirmaydi, muayyan jamoada, ya`ni muayyan oilada, maktabda, tsexda va hokazolarda hayot kechiradi. Jamoa shaxs bilan jamiyat o`rtasidagi bog`lovchi bo`g`indir. Har bir o`qituvchi va tarbiyachi bola xarakterining ayrim xislatlarini tarbiyalashda faqat jamoa orqali ta`sir qilib, ijobiy natijalarga erishmoqi mumkin.

Xarakterning tashabbuskorlik, qat`iyatlilik, dadillik, sabotlilik singari ijobiy xislatlari bolalar bog`chasida o`yin faoliyatida tarkib topa boshlaydi. To`g`ri uyushtirilgan maktab jamoasi sharoitida o`quvchilarda uyushqoqlik, intizom, saranjom - sarishtalik, o`z - o`zini tuta bilish, o`zini idora qilish, o`ziga nisbatan talabchan bo`lish kabi xarakter xislatlari tarbiyalanib etishadi. Kishi jamoada bir - biri bilan aloqa qilish jarayonida boshqalarning va o`zining xarakter xususiyatlarini bilib oladi. Xarakterini bir xili ijobiy, boshqa bir xili salbiy ekanligini ajratib oladi. Bunday sharoit kishini o`z xarakterini o`zi tarbiyalash, jumladan, o`z xarakterini qaytadan tarbiyalashni yo`lga soladi. Har bir kishi ma`lum yoshdan boshlab o`z xakteri va uning sifatlari uchun o`zi javobgardir. O`z xarakterini tarbiyalashda kishi avvalo yaxshi fazilatlarini ko`zda tutmog`i lozim. O`z kamchiliklariga iqror bo`lish kamchiliklarini yo`qotishga boshlaydi.

Xarakter va uning rivojlanishi, namoyon bo`lishi uchun umumiy qonuniyat shuki, u tashqi muhit ta`sirida, turli xil munosabatlar tizimida shakllanadi va sharoitlar o`zgarishi bilan o`zgaradi. Xarakter insonning tashqi ko`rinishiga ta`sir qilarkan, uning xatti-harakatlarida xulq-atvorida, faoliyatida yorqin ifodasini topadi. Xarakter to`g`risida avvalo odamlarning xatti-harakatlari asosida hukm chiqarish kerak. Ularning mohiyati ana shu xatti-harakatlarda ancha to`laroq aks etadi.

Sharq maqolida hikmat ko`p: **“qiliq eksang – odat o`rsan, odat eksang – xarakter o`rsan, xarakter eksang – taqdir o`rsan”**. Unda insoniy xatti-harakatlarga urg`u qo`yilishi to`g`ri. Ular takrorlanaverib, odatdagi narsa bo`lib qoladi, xarakter xususiyatlarida mustahkamlanadi, bu bilan uning mohiyatini tashkil etadi, kishining ijtimoiy hayotdagi ahvoliga va boshqa odamlar tomonidan unga nisbatan munosabatga ta`sir qiladi. Odatdagi ish, faoliyat va xatti-harakatlar tizimi – inson xarakterining poydevoridir. Xarakter shaxs dunyoqarashiga, uning faoliyati mazmuni va xarakteriga, u yashayotgan va ishlayotgan jamoaga, boshqa odamlar bilan faol munosabatlariga bog`liqdir.

Xarakter - tarixiy kategoriya hamdir. Buning ma'nosi shuki, har bir ijtimoiy - iqtisodiy davr o`z kishilarini, o`z avlodini tarbiyalaydi va bu tafovut odamlardagi xarakterologik xususiyatlarda o`z aksini topadi. Masalan, o`tgan asr o`zbeklari, XX asrning 50 - yillaridagi o`zbeklar va mustaqillik yillarida yashayotgan o`zbeklar psixologiyasida farq avvalo ularning xarakterologik sifatlarda aks etadi. Aminmizki, XX1 asrning yosh avlodlari yanada zukkoroq, irodaliroq, ma`rifatli va ma`naviyatliroq

bo'ladi. Mamlakatimizda hozirgi kunda amalga oshirilayotgan say' - harakatlar yangi asr avlodining ruhan va jismonan sog'lom bo'lishiga zamin yaratmoqda.

Xarakter xususiyatlarining nimalarda namoyon bo'lishi, ularning belgilari masalasi ham amaliy jihatdan muhimdir.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Xarakterning nerv - fiziologik asosini nima tashkil qiladi?
a) irsiy belgilar; b) asab tizimi tiplari; v) odatlar; g) shartli reflekslar.
2. Quyidagi xususiyatlardan qaysi biri xarakterga xos?
a) o'zini tuta bilish; b) ifodali harakatlar; v) tejamkorlik; g) nutq tempi.
3. Xarakter tarkibida necha xil xususiyatlar guruhini ajratish mumkin?
a) uchta; b) beshta; v) to'rtta; g) oltita.
4. "Xarakter" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
a) grekchadan tarjima qilinganda "tamg'a"; b) lotinchada "muxr";
v) grekchada "bo'rtiq chiziq"; g) lotinchada "odat".

"Kengga keng dunyo" testi:

1. Cho'ntagingizga pul tushdi. Bu pulning hammasini do'stingiz uchun sovgaga sarflay olarmidingiz?
2. Do'stingiz sizga o'z muammolari to'g'risida gapira boshladi. Bu gaplar sizni qiziqtirmasligini yuziga shartta aytasizmi?
3. Agar hamroxingiz shaxmat yoki boshqa biror o'yinni yaxshi bilmasa, yolg'ondakam o'nga yutqizib berasizmi?
4. Kishilarning kayfiyatini ko'tarish uchun yaxshi gaplarni tez - tez gapirib turasizmi?
5. Qo'pol hazlni hazm qila olasizmi?
6. Kekchi emasmisiz?
7. O'zingizni qiziqtirmaydigan narsani ham toqat bilan eshita olasizmi?
8. Amalda o'z iqtidoringizni qo'llay olasizmi?
9. Yutqiza boshlagan o'yinni tashlab ketasizmi?
10. Agar haqligingizga ishonsangiz sizga kuchli raqib kishini fikrini eshita olasizmi?
11. Iltimoslarni bajonidil bajarasizmi?
12. Atrofdagilarni kuldirish uchun bironing g'ashiga tegasizmi?

Kalit: 1,3,4,7,11 savollariga "ha" javob uchun 1 ball. 2,6,5,8,9,10,12 savollariga "yo'q" javob uchun 0 ball

8 balldan ko'p ball to'plagan bo'lsangiz, siz juda xushfe'l, atrofdagilar bilan muomala qilishni bilasiz. Do'stlaringiz juda ko'p. Biroq hamma bilan ham yaxshi bo'lishdan saqlaning. Buning uddasidan chiqish qiyin.

4 balldan 8 ballgacha. Samimiyligingiz tasodif mahsuli, barcha bilan bir munosabatda emassiz. Bu uncha yomon emas. Har tugul barchaga barobar bo'lishga harakat qiling.

4 balldan kam ball bo'lsa, tan olish kerak, siz bilan munosabatda bo'lish qiyin. Hatto yaqinlaringiz uchun ham. Ko'ngilni kengroq qiling, shunda do'stlaringiz ko'payadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'saqasida : xavfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1998.
2. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Atlas po psixologii. –M.,1986
3. Merlin V.S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznanie. Perm, 1990

4. Merlin V. S. Ocherk integralnogo issledovaniya individualnosti. - M., 1986
5. Nemov R. S. Psixologiya .- V 2-x kn. Kn.1.- M., 1998
6. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi.- M., 1999
7. Psixologiya. Uchebnik.- Pod red. A. Krilova- M., 1998

14 – Mavzu: QOBILIYAT

Reja:

1. Qobiliyat to'g'risida tushuncha.
2. Qobiliyatlarni tuzilishi.
3. Qobiliyatlarning turlari.
4. Qobiliyat va faoliyat.
5. Qobiliyat vaqiziqishlar.
6. Talant, uning kelib chiqishi va tuzilishi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Geniallik (lot. genius-aql zakovat, buyuk iste'dod) – shaxsning eng yuksak darajadagi ijodiyoti bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

Zehn, layoqat – nerv tizimining ba'zi genetic nazariyalari anatomic-fiziologik xususiyati bo'lib, u kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishining dastlabki individual tug'ma tabiiy zaminidir.

Mayl – shaxs qiziqishlari va fikrlarining biror faoliyat bilan shug'ullanishga jalb etilganligi, shaxsda kuchli istak, xohish tarzida namoyon bo'lib, bajo keltirilganda odamga mamnuniyat baxsh etadi

Iste'dod (talant) - shaxsning biror faoliyatga bo'lgan qobiliyatining mustaqil, original tarzda bajarish imkoniyati.

Test - individual xususiyatlar va rivojlanish darajasini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan me'yorlashtirilgan tekshirish usuli

Frenologiya (yunon. phren-ong, logos-ta'limot) – odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning o'rganilishini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin, degan nazaruya. Bu nazariyaga avstriyalik vrach F.Gall asos solgan.

Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvoffaqqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyatlar.

Qobiliyatlar odamning shunday psixologiya xususiyatlardirki, bilim, ko'nikma, malaka oshirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin bu xususiyatlarining o'zi bu bilim va ko'nikmalarga taalluqli bo'lmaydi.

Malaka, ko'nikma va bilimlarga nisbatan odamning qobiliyatlar qandaydir imkoniyat tarzida bo'ladi. Qobiliyatlar imkoniyatlardan iborat bo'lib, biror bir ishdagi mahorat darajasi – xaqiqatdir. Bolada namoyon bo'ladigan musiqaga qobiliyati uning musiqachi bo'lishi uchun imkoniyatlar, o'nga maxsus ta'lim berilishi qat'iylik, salomatligining yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi notalar va boshqa ko'pgina sharoitlar bo'lishi kerak. Bo'larsiz qobiliyatlar taraqqiy etmay turiboq so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar faqat faoliyatda namoyon bo'ladi, shundan ham faqat ana shu qobiliyatlarsiz amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan faoliyatlardagina namoyon bo'ladi. O'quvchida hali zaruriy ko'nikma va malakalar tizimi hamda mustahkam bilimlar tarkib topish uslublari yo'qligiga asoslanib, jiddiy tekshirib ko'rilsa, shoshilinch ravishda unda qobiliyatlar yo'q, deb xulosa chiqarish pedagogning jiddiy

psixologik xatosi bo'ladi. Masalan, Al'bert Eynshteyn o'rta maktabda uncha yaxshi o'qimaydigan o'quvchi hisoblangan va uning kelajakda genial bo'lishidan hech narsa dalolat bermas edi.

Qobiliyatlar bilim va malakalarning o'zida ko'rinmaydi, balki ularni egallash tizimida namoyon bo'ladi, ya'ni boshqacha qilib aytganda, mazkur faoliyat uchun muhim bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish jarayoni turli sharoitlarda qanchalik tez chuqur, yengil va mustahkam amalga oshirilishida namoyon bo'ladi. Qobiliyatlar individual psixologik xususiyatlar bo'lishi bilan aql sifatleri, xotira xususiyatlariga, hissiy xususiyatlar va shu kabilarni qarama - qarshi qo'yib bo'lmaydi, hamda qobiliyatlarni shaxsning bu xususiyatlari bilan bir qatarga qo'yish ham mumkin emas. Agar ana shu sifatlarning birortasi yoki ularning yig'indisi faoliyat talablariga javob bersa yoki bu talablar ta'siri bilan tarkib topsa, unday paytlar bu shaxsning mazkur individual xususiyatlarini qobiliyatlar deb hisoblashga asos bo'ladi.

Qobiliyatlar – bu imkoniyat, u yoki bu ishda mahoratning zarur darajasi esa voqelikdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqiy qobiliyat uning musiqachi bo'lishi uchun biron bir darajada garov bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uchun unga maxsus ta'lim berilishi, pedagog va bola namoyish qilgan qat'iylik, salomatlikning yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'plab shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turib qo'shib ketishi mumkin. Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlari juda ko'plab tadqiqotlar ob'yekti bo'lgan. Odamlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni, so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan) ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar. Ch.Spirmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning xaqiqatdan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj.Gilford esa aqlni bir qator aqliy operatsiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikatsiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishini taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tiborni qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb qarash mumkin. Intellektual potensial esa bir tomondan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomondan – shaxsga bevosita

aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi. **Intellekt** – lotincha so'z – **intellectus** – tushunish, bilish va **intellectum** – aql so'zlari negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantirib bo'lmaydi. Bu – intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

Ba'zan o'ta iqtidorli va qobiliyatli bola haqida gap ketsa, undagi bu sifat tug'ma ekanligiga ishora qilishadi. Talantli, genial olim, san'atkor yoki mutaxassis haqida gap ketsa ham xuddi shunday. Umuman qobiliyatlarning tug'ma yoki orttirilgan ekanligi masalasi ham olimlar diqqat markazida bo'lgan muammolardan. Psixologiyada tug'malik alomatlari bor individual sifatlar layoqatlar deb yuritiladi va uning ikki xili farqlanadi: tabiiy layoqat va ijtimoiy layoqat. Birinchisi odamdagi tug'ma xususiyatlardan – oliy nerv tizimi faoliyatining xususiyatlari, miya yarim sharlarining qanday ishlashi, qo'l-oyoqning biologik va fiziologik sifatleri, bilish jarayonlarini ta'minlovchi sezgi organlari – ko'z, quloq, burun, teri kabilarning xususiyatlaridan kelib chiqsa (bular nasliy ota-onadan genetik tarzda o'tadi), ijtimoiy layoqat - bola tug'ilishi bilan uni o'ragan muhit, muloqot uslublari, so'zlashish madaniyati, qobiliyatni rivojlantirish uchun zarur yaratilgan shart-sharoitlar mahsuli yordamida shakllanadigan sifatlardir. Layoqatlilik belgisi – bu o'sha individga aloqador bo'lib, u bu ikkala layoqat muhitini tayyorligicha qabul qiladi.

Qobiliyatsizlik va intellektning pastligi sabablaridan biri ham shuki, ana shu ikki xil layoqat o'rtasida tafovut bo'lishi mumkin. Masalan, genial rassom oilasida bola tug'ildi, deylik. Unda rassomchilik uchun tug'ma, genetik belgilar otasi tomonidan berilgan. Lekin bolaning onasi farzandining ham rassom bo'lishini xoqlamasligi, o'ziga o'xshash qo'shiqchi bo'lishini xohlashi mumkin. Ayol bolani yoshdikdan faqat musiqa muhitida tarbiyalaydi. Tabiiy layoqatning rivoji uchun ijtimoiy layoqat muhiti yo'q, ijtimoiy layoqat o'sishi uchun esa tabiiy, tug'ma layoqat yo'q bo'lgani sababli, bolada hech qanday talant namoyon bo'lmasligi, u oddiygina musiqachi yoki qo'shiqchi bo'lish bilan cheklanishi mumkin. Intellekt testlari va qobiliyatdagi tug'ma va orttirilgan belgilarni o'rganishning psixologik ahamiyati aynan shunda. Ilk yoshlikdan bolaning o'zidagi mavjud imkoniyatlarni rivojlantirish, shart-sharoitini yaratish, ishini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak.

Tug'ma iqtidordagi orttirilgan sifat shuki, bola toki bilim, malaka va ko'nikmalarni o'stirish borasida harakat qilmasa, eng kuchli tug'ma layoqat ham layoqatligicha qolib, u iqtidorga aylanmaydi. Shuni unutmash kerakki, qobiliyatsiz odam bo'lmaydi. Agar shaxs adashib, o'zidagi xaqiqiy iqtidor yoki layoqatni bilmay, kasb tanlagan bo'lsa, tabiiyki, u atrofida qilarga layoqatsiz, qobiliyatsiz ko'rinadi. Lekin aslida nimaga uning qobiliyati borligini o'z vaqtida to'g'ri aniqlay olishmagani sabab u bir umr shu toifaga kirib qoladi. Shuning uchun ham har bir ongli inson o'zidagi qobiliyat va zehnni ilk yoshlikdan bilib, o'sha o'zi yaxshi ko'rgan, “yuragi chopgan” ish bilan shuqullansa, va undanqonihish olib, qobiliyatini o'stirishga imkoniyat topib, yutuqlarga erishsa, biz uni iqtidorli deymiz. **Iqtidor** - insonning o'z xatti-harakatlari, imkoniyatlari, malakalariga nisbatan sub'yektiv munosabatidir. Iqtidorli odam genial yoki talantli bo'lmasligi mumkin, lekin har qanday ishda mardlik, chidamlilik, o'z-o'zini boshqara olish,

tashabbuskorlik kabi fazilatlariga ega bo'lib, o'zlari shug'ullanayotgan ishni bajonidil, sidqidildan bajaradi. Ular ana shunday harakatlari bilan ba'zi o'ta iste'dodli, lekin kamharakat kishilardan ko'ra jamiyatga ko'proq foyda keltiradi. Iqtidorli insonda iste'dod sohibi bo'lish imkoniyati bor. Zero, **iste'dod** - har tomonlama rivojlangan, nihoyatda kuchli va takrorlanmas qobiliyatdir. U tinimsiz mehnat, o'z qobiliyatini takomillashtirib borish yo'lida barcha qiyinchiliklarni yengish va irodasi, butun imkoniyatlarini safarbar qilish natijasida qo'lga kiritiladi.

Qobiliyatlar avvalom bor umumiy va maxsus turlarga bo'linadi va har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari unlagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga birqancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy-gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumiy bilimdonlik, hayotiy maqsadlar, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi iator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarni o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalter hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi.

Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega. Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy xayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishiga layoqat, pedagogik qobiliyatlarga esa – pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalar kiradi.

Biz yuqorida sanab o'tgan individual psixologik xususiyatlarning ahamiyati katta. Ular bizning jamiyatdagi o'rnimiz, obro' - e'tiborimiz, ishdagi va o'qishdagi yutuqlarimiz, inson sifatidagi qiyofamizni, kim ekanligimizni, kerak bo'lsa, o'zligimizni belgilaydi. Kim bilan qayerda uchrashmaylik, o'sha insonning bugungi holati, kayfiyati, bizga va biz bildirayotgan fikrlarga munosabati, hamkorlikda ishlash tilak - istaklariga doimo e'tibor beramiz va bu masala biz uchun muhim bo'ladi. Xuddi shunday suhbatdosh ham suhbatning boshidanoq, bizni o'rgana boshlaydi. Chunki agar suhbatdoshlar bir - birlarini bilsalar birgalikdagi faoliyatni samarali tashkil etish va undan foyda olish imkoniyati ko'proq bo'ladi. Shuning uchun ham ishda ham, dam olishga otlangan chog'da ham, qayerda bo'lsa ham o'zimizga "qo'shni" tanlaganda uning inson sifatida qanday ekanligiga qiziqamiz. Agar suhbatdosh yoki sherik bizga tanish bo'lmasa, uni taniganlardan oldindan so'rab ham olamiz va bunda aynan uning nimaga qobilligi, fe'li, ishga, odamlarga munosabatini so'raymiz va xohlaymizki, u to'g'risida "Juda xushfe'l, odamgir ..."kabi tasniflarni eshitgimiz keladi. Biror yerga ishga kirayotgan paytda ham rahbar albatta o'ziga yaqin odamlardan yangi xodimning xarakterini, qobiliyatini va muhim narsalarga munosabatini albatta so'raydi va shu asosda suhbatga tayyorlanadi. Demak, individual sifatlar bizning ongli hayotimizning ajralmas qismi, idrokimiz, xotiramiz va fikrlarimiz yo'naltirilgan muhim predmet ekan. Chunki aynan ular bizning turli faoliyatlarni amalga oshirish va ishlarni bajarishdagi

individual uslubimizga bevosita aloqador. Kimdir juda chaqqon, tez ish qiladi, lekin sifatsiz. Kimdir juda yaxshi qoyilmaqom ish qiladi, lekin juda sekin, kimdir ishga yuzaki qarab, nomiga uni bajarsa, boshqa bir odam unga butun vujudi va e'tiqodi bilan munosabatda bo'lib, tinimsiz izlanadi va jamiyat uchun manfaat qidiradi. Shuning uchun ham individuallikning faoliyat va muloqotdagi samarasini inobatga olib, eng muhim individual - psixologik xususiyatlarni alohida o'rganamiz.

Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi. Odamlarning o'quv, mehnat va ijodiy faoliyatidagi o'ziga xoslikni tushuntirish uchun psixologiya fani birinchi navbatda qobiliyatlar va iqtidor masalasiga murojaat qiladi. Chunki qobiliyatli odamdan avvalo jamiyat manfaatdor, qolaversa, o'sha insonning o'zi ham qilgan har bir harakatidan o'zi uchun naf ko'radi.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu - zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'rganiladi. Har bir normal odam o'zining aqli bo'lishini xohlaydi, "Men aqlliman" demasa-da, qilgan barcha ishlari, gapirgan gapi, yuritgan mulohazasi bilan aynan shu sifat bilan odamlar uni maqtashlarini xohlaydi. "Aqlsiz, nodon" degan sifat esa har qanday odamni, xattoki, yosh bolani ham xafa qiladi. Yana shu narsa xarakterliki, ayniqsa, bizning sharq xalqlarida biror kimsaga nisbatan "o'ta aqli" yoki "o'ta nodon" iboralari ham ishlatilmaydi, biz bu xususiyatlarni o'rtacha tasniflar doirasida ishlatamiz : "Falonchining o'g'li anchagina aqli bo'libdi, narigining farzandi esa biroz nodon bo'lib, ota - onasini kuydirayotgan emish" degan iboralar aslida "aqllilik" kategoriyasi insonning yuragiga yaqin eng nozik sifatlariga aloqadorligini bildiradi.

Ilm - fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar ob'yekti bo'lgan. Olimlar qobiliyatlarning rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan), fazoviy ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Qobiliyatlarning psixologik strukturasi. Qobiliyatlar avvalom bor umumiy va maxsus turlarga bo'linadi va har birining o'z psixologik tizimi va tuzilishi bo'ladi. Shaxsning umumiy qobiliyatlari undagi shunday individual sifatlar majmuiki, ular odamga bir qancha faoliyat sohasida ham muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish va natijalarga erishishga imkon beradi. Masalan, texnika oliy o'quv yurtining talabasi ham ijtimoiy - gumanitar, ham aniq fanlar, ham texnika fanlari sohasidagi bilimlarni o'zlashtira oladi. Bunda unga umumiy bilimdonlik, nutq qobiliyatlari, tirishqoqlik, chidam, qiziquvchanlik kabi qator sifatlar yordam beradi.

Maxsus qobiliyatlar esa ma'lum bir sohada yutuqlarga erishish, yuqori ko'rsatgichlar berishga imkon beruvchi sifatlarini o'z ichiga oladi. Masalan, sport sohasi bilan buxgalterlik hisob-kitobi bo'yicha ishlayotgan ikki kishida o'ziga xos maxsus qobiliyatlar bo'lmasa bo'lmaydi. Har bir qobiliyat o'zining tizimiga ega.

Masalan, matematik qobiliyatni oladigan bo'lsak, uning tarkibiga umumlashtirish malakalari, aqliy jarayonlarning egiluvchanligi, mavhum tafakkur qila olish kabi qator xususiyatlar kiradi. Adabiy qobiliyatlarga ulardan farqli, ijodiy xayol va tafakkur, xotiradagi yorqin va ko'rgazmali obrazlar, estetik hislar, tilni mukammal bilishga layoqat; pedagogik qobiliyatlarga esa - pedagogik odob, kuzatuvchanlik, bolalarni sevish, bilimlarni o'zgalarga berishga ehtiyoj kabi qator individual xossalari kiradi. Xuddi shunga o'xshash qolgan barcha qobiliyatlarni ham zarur sifatlar tizimida tahlil qilish mumkin va bu katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'ladi.

Qobiliyatlar tasnifi. Qobiliyatlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Tabiiy qobiliyatlar — odamlar va hayvonlar uchun xos bo'lib, idrok qilish, xotirada saqlash, oddiy muloqotga kirisha olish shular jumlasidandir. Biologik jihatdan asoslangan bu qobiliyatlar asosini shartli reflekslar hosil bo'lish jarayoni tashqil etadi. Odamdagi va yuksak darajada rivojlangan hayvonlardagi bu qobiliyatlar bir - biridan farq qiladi.

2. Maxsus insoniy qobiliyatlar ijtimoiy -tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy muhitdagi hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida - umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi. Umumiy qobiliyatlar - insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar, xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarining aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat. Xususiy qobiliyatlar alohida olingan bir faoliyatning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Bu qobiliyatlar alohida muloqotning bo'linishini taqozo etadi. Masalan, matematika, texnika, badiiy - ijodiy sportga bo'lgan qobiliyatlar shular jumlasidandir. Nazariy va amaliy qobiliyatlar ham inson qobiliyatlaridan bo'lib, nazariy qobiliyatlar-mavhum, mantiqiy qobiliyatlar esa aniq amaliy harakatlarga moyillikda namoyon bo'ladi.

O'quv qobiliyatlari bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish shaxs sifatlarining shakllanishi, pedagogik ta'sirlar samaradorligining ortishida ijobiy rol o'ynaydi. Ijobiy qobiliyatlar moddiy va ma'naviy madaniyat asarlari yaratish yangi g'oya, kashfiyot va yangiliklar yechishda namoyon bo'ladi. Muloqotga qobiliyat shaxsning boshqa kishilar bilan bo'ladigan o'zaro jarayonida muhim ahamiyatga ega.

Qobiliyatlarning miqdoriy va sifat tavsifi. O'quvchining qobiliyatlari nimaga namoyon bo'lishini va binobarin, o'quvchi shaxsini qanday individual - psixologik xususiyatlari faoliyat tomonidan qo'yilgan talablarni qay darajada, bajarish qobiliyatiga ega ekanligi, ya'ni o'quvchining boshqalarga nisbatan malaka va bilimlarning qanchalik tez, yengil va mustahkam egallay olishini bilish pedagog uchun muhimdir.

Qobiliyat xususiyatlarining sifat tomonidan qaralishi - maqsadga har turli yo'llar bilan borishga imkon beruvchi "o'zgaruvchan miqdor" to'plami sifatida faoliyat muvaffaqiyatini taminlovchi inson psixologik xususiyatlarini murakkab yig'indisi sifatida ko'rinadi. Bir xususiyatlarni o'rnini ikkinchi bir xususiyatlar bilan bosishning keng imkoniyatlari bor, buni odam o'zida chidam va qat'iylik bilan ishlash orqali rivojlantirish mumkin. Pedagog va psixolog Sxolovvanskiy ko'r -kar Ol'ga Skoroxodovada faqat ilmiy xodimlik qobiliyati emas, balki adabiy qobiliyat ham namoyon bo'lishiga erishgan. Bir qobiliyatni boshqa bir qobiliyat bilan boshqarish

yordami bilan to'ldirish xususiyati har bir odam oldida kasb tanlash va uni takomillashtirishning nihoyatda keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Qobiliyatlarning sifat jihatdan tavsifi odam mehnat faoliyatining qaysi sohada (pedagogik, sport, savdo va boshqalar) yengillik bilan "o'zini topa oladi" va qanday qilib katta yutuq va natijalarga erisha oladi, degan savolga javob berish imkoniyatini beradi. Qobiliyatlarni miqdor tavsifi va ularni o'lchash muammosi bilan ko'proq chet el psixologlari (Kettel, Termen, Spirmen) va boshqalar shug'ullanganlar. O'sha paytlarda qobiliyatlarni o'lchash usuli sifatida aqliy iste'dod testlaridan foydalanganlar. Bolaning aqliy iste'dod koeffitsienti

$$IQ = \frac{\text{акл ёши}}{\text{боланинг хакикий ёши}} \times 100$$

Bu usul odamning aqliy qobiliyatlari emas, balki odamda qobiliyatlar bilan aralashtirib bo'lmaydigan biror bir xildagi ma'lumotlar, ko'nikma va malakalar borligini namoyon qiladi. L.S. Vigotskiy bu usulni tanqid qilib o'zining kelajak taraqqiy zonasini belgilash "metodi" deb ataladigan usulini taqlif qildi. Qobiliyatlar odamning aniq faoliyatidan tashqarida mavjud bo'lmaydi. Qobiliyatlarning tarkib topishi esa ta'lim va tarbiya jarayonida bolaning yutuqlari tezligida namoyon qilishdir.

Qobiliyatlarning tabiiy asoslari. Qobiliyatlar odamga shaxsning hamma individual psixologik xususiyatlari kabi qandaydir tabiat tomonidan tug'ma ravishda tayyor holda berilmaydi, balki faoliyat jarayonida tarkib topadi. Odam dunyoga hech qanday psixik xususiyatlarsiz, faqat ularni orttirishga qaratilgan umumiy imkoniyatlar bilan keladi. O'z zamonasida Platon "qobiliyatlar tug'ma ravishda berilgan bo'ladi va odam foydalanadigan barcha bilimlar uning "absolyut bilimlar" ideal olamida bo'lishligi haqidagi tasavvurlardan iboratdir" - degan edi. XVII asrda Dekart tug'ma g'oyalar haqidagi ta'limotni gavdalantirilgan. Bu kambag'allarni o'qitib bo'lmaydi, deb ularga past nazar bilan qarashga, ularni kamsitishga reaksiya fikrlarga olib keladi. Qobiliyatning tug'maligini inkor qilish absolyut tabiatga ega emas. Psixologiya qobiliyatning tug'ma ekanligini tan olmas ekan, bu bilan miyaning tuzilishi bilan bog'liq bo'lgan differentsial xususiyatlarning tug'maligini inkor qilmaydi. qobiliyat taraqqiyotining daslabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining, sezgi a'zolari va funktsional xususiyatlari - layoqat deb ataladi. Layoqat ko'p qirralidir. Faoliyat tomonidan qo'yilgan talablarning tabiatiga bog'liq ravishda aynan bir xil layoqatlar asosida har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin.

F.A.Gallning fikricha odamning hamma qobiliyatlari "aql" va "qobiliyat" sifatlari miya yarim sharlarida o'zining maxsus qat'iy markazlari mavjud ekan, ya'ni bu sifatlarning taraqqiyot darajasi miya tegishli qismlarining miqdoriga to'g'ridan to'g'ri bog'liqdir. SHuning uchun odamning kalla suyagiga bir qarash yoki boshidagi dumboqchalarini shunchaki paypaslab ko'rish orqali go'yo odamning qobiliyatlarini aniqlasa bo'ladi. Layoqatning miya miqdori massasi va og'irligiga bog'liq haqidagi faraz ham bekor qilingan. Katta yoshdagi odam miyasining o'rtacha og'irligi 1400 g. ga yaqin bo'ladi. I.S.Turgenev miyasining og'irligi 2012, D.G.Bayronniki 1800 g, mashhur ximik YU.Libixniki 1360 g, yozuvchi A.Fransniki 1017 g bo'lgan. eng katta miya aqliy jihatdan nuqsoni bor odamga taalluqli ekanligi aniqlangan


Qobiliyat va irsiyat 1675 yilda F.Galtonning “Talantning irsiyatga bogʻliqligi uning qonunlari va oqibatlari” degan kitobi nashr qilingan. Bunda muallif bir necha yuzlab mashhur kishilarning qarindoshlik aloqalarini oʻrganib, talant yoki onadan irsiyat yoʻli bilan oʻtadi degan xulosaga kelgan. Biroq Galltonning xulosalari ilmiy jihatdan asoslanmagan edi. Baxlar oilasida musiqaga boʻlgan talant dastavval 1550 yilda maʼlum boʻlgan. Bu talant 1800 yillarda yashagan qandaydir Regina Soʻsannadan soʻng tamom boʻlgan. Umuman Baxlar oilasida 57 dan koʻp musiqachi boʻlgan. Ularning 20 tasi mashhur boʻlgan. Bend degan skripkachilar oilasida 9 ta mashhur musiqachi boʻlgan. Gaydon oilasida ikkita mashhur musiqachi boʻlgan. Koʻpchilik hollarda mashhur odamlarning nasl - nasablarini oʻrganish biologik irsiyatdan emas, balki hayot sharoitining nasldan naslga oʻtishidan, yaʼni qobiliyatlar taraqqiyotiga yordam berishdan ekanligi maʼlum boʻldi.

Qobiliyatlarning rivojlanishi Qobiliyatlar taraqqiyotidagi yuksak bosqichga isteʼdod deb ataladi. Isteʼdod deb, odamga qandaydir murakkab mehnat faoliyatini muvaffaqiyatli, mustaqil va oʻziga xos tarzda bajarish imkonini beradigan qobiliyatlar uyushmasiga aytiladi. Qobiliyatlar kabi isteʼdod ham faqat ijodiy yutuqqa erishish imkoniyatidan iboratdir. Biroq oqibat natijada ijodiy yutuqlar odamlarning ijtimoiy yashash sharoitiga bogʻliqdir. Agar jamiyat taraqqiyoti bunday kishilarga muhtoj boʻlsa, bunday kishilarning paydo boʻlish imkoniyati tugʻiladi. Isteʼdod qobiliyatlar yigʻindisidan, ularning majmuidan iboratdir. Alohida olingan yakka qobiliyat - garchi u taraqqiyotning juda yuksak darajasiga erishgan va yorqin ifodalangan boʻlsa ham isteʼdod bilan tenglashtirib boʻlmaydi. Bu haqda gʻoyat oʻtkir fenomenal xotiraga ega boʻlgan kishilar haqida oʻtkazilgan tadqiqotlar dalolat beradi.

Moskvalik psixologlar bir necha yillar davomida kuzatgan S.SH. oʻzida xotiradan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirmadi va shuning uchun u oʻzining ajoyib qobiliyatlarga mos keladigan ijodiy muvaffaqiyatga erisha olmadi.

SHunday qilib, isteʼdod, shaxs psixik sifatlarining shu qadar murakkab birikmasidirki, uni qandaydir birorta yagona qobiliyat bilan, bu qobiliyat xotiraning yuksak mahsuldorligi kabi muhim ahamiyatga ega boʻlsa ham belgilab bermaydi. Psixologik tadqiqotlardan maʼlum boʻlishicha, birorta ham qobiliyatning yoʻqligi yoki etarli taraqqiy etmaganligi isteʼdod sifatlarining murakkab turiga kiruvchi boshqa qobiliyatlarning jadal taraqqiyoti yoʻli bilan muvaffaqiyatli ravishda oʻrni bosib yuboriladi.

Qobiliyatlar rivojlanishini quyidagi jadval orqali koʻrish mumkin:



Har qanday layoqat qobiliyat darajasiga ko'tarilishi uchun eng murakkab yo'lni bosib o'tish kerak bo'ladi. Qobiliyatning rivojlanishi inson hayotining ilk davrlaridanoq boshlanib, bir necha bosqichida amalga oshadi.

Layoqatning rivojlanishi qobiliyat yoki iste'dod darajasiga ko'tarilish uchun etarli shart-sharoitlar bo'lishi kerak. Hozirda Respublikamizda iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish maqsadida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda, chunki iste'dodli yoshlar mustaqil O'zbekistonimizni kelajagini ta'minlaydi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Kishilar o'rtasidagi individual farqlarni psixologiyaning qaysi sohasi o'rganadi?
a) maxsus psixologiya ; b) differentsial psixologiya; v) shaxs psixologiyasi; g) psixofiziologiya.
2. Qobiliyatlarning rivojlanishi inson bosh suyagining tuzilishiga bog'liqligi haqida ta'limot qanday ataladi?
a) xiromantiya; b) fiziognomika; v) frenologiya; g) grafologiya.
3. Qobiliyatlarning tabiiy asosi nimadan iborat?
a) tana tuzilishi; b) asab tizimi; v) ichki a'zolar tuzilishi ; g) layoqat.
4. Pedagogik qobiliyatlar tarkibidagi etakchi xususiyat qaysi?
a) pedagogik odob; b) kuzatuvchanlik; v) bolalarni sevish; g) tashqilotchilik.
5. 1- va 2- signallar tizimi tuzilishining o'zaro nisbatiga ko'ra odamlarni "badiiy", "fikrlovchi" va "oraliq" tiplariga ajratgan olimni aniqlang?
a) I.M.Sechenov; b) P. K. Anoxin; v) I.P.Pavlov; g) G.M. Teplov.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'saqasida : xavfsizlikka taqdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T., 1998.
2. Gamezo M.V., Domashenko I.A. Atlas po psixologii. –M.,1986
3. Merlin V.S. Struktura lichnosti. Xarakter, sposobnosti, samosoznanie. Perm, 1990
4. Merlin V. S. Ocherk integralnogo issledovaniya individualnosti. - M., 1986
5. Nemov R. S. Psixologiya .- V 2-x kn. Kn.1.- M., 1998

6. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodiki i testi.- M., 1999
7. Psixologiya. Uchebnik.- Pod red. A. Krilova- M., 1998

15 – Mavzu: NUTQ VA MULOQOT

Reja:

1. Muloqot haqida umumiy tushuncha.
2. Muloqot – axborot almashish tariqasida.
3. Muloqot va til.
4. Nutq haqida tushuncha.
5. Pedagogik muloqot.
6. Nutqni o'sishi.

Mavzu yuzasidan tayanch tushunchalar:

Afaziya (yunon. A – inkor, phasia - nutq) – bosh miya qobig'ining ayrim qismlari zararlanishi natijasida nutqning izdan chiqishidan iborat psixopatologik nuqson.

Verbal (lot. verbalis – og'zaki) – atama. Verbal nutq – og'zaki ifodalanadigan nutq.

Identifikatsiya (lot.identifisage - tenglashtirmoq) – shaxsning o'zini o'zga odam bilan emotsional va boshqa tomondan tenglashtirilishi.

Kommunikatsiya (lot. communion – aloqa, fikr olishuv, ma'lumot berish) – til va boshqa belgilar vositasida axborot berish.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq kishilarning o'zaro bir-biriga verbal va noverbal ta'sir etishi.

Nutq – odamlarning til vositasi bilan aloqa qilishning tarixan tarkib topgan shakli.

Nutq madaniyati – muloqot jarayonida ma'lum til normalariga asoslangan holda ma'noli nutqni ifoda etish.

Noverbal kommunikatsiya belgilari:

Jestlar – insonning qo'l harakatlari bo'lib, u orqali insonning ichki holati, biror bir ob'yektga munosabati va tashqi olamga yo'nalganligi ifodalanadi.

Mimika – inson yuzi harakatlarining bir qismi bo'lib, u orqali insonning o'ylari, xatti-harakatlari, tasavvurlari, xotirlashi, taajjubi va hokazolarda namoyon bo'ladi.

Pantomimika – inson tanasi yoki uning qismlari yordamida ifodalanadigan harakatlar tizimidir. (tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kundalik muloqot jarayonida so'zlar 7% ni, tovushlar va intonatsiya 38% ni, nutqsiz muloqot 55% ni tashkil qiladi) **Publisiy** aytganidek, biz **“ovoz bilan gapiramiz, tana bilan suhbatlashamiz”**.

Refleksiya (lot.reflexus – aks ettirish) – odam bilimlarining o'z-o'ziga, o'zining ichki olamiga, psixik sifatlari va psixik holatlariga qaratilishi.

Empatiya (yunon. empatheia – birgalikda dardlashmoq) – boshqalarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish.

Insoniy munosabatlar psixologiyasi. Shaxs - ijtimoiy munosabatlar mahsuli deyilishining eng asosiy sababi - uning doimo insonlar davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'lishini anglatadi. Bu shaxsning eng yetakchi va nufuzli faoliyatlaridan biri muloqot ekanligiga ishora qiladi.

Muloqotning turi va shakllari turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita “yuzma - yuz” bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, telegraf va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'yekt - sub'yekt tipli (diologik, sheriklik) yoki sub'yekt - ob'yektki

(monologik) bo'lishi mumkin. Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Bunday jarayon dastlab odamlar o'rtasida ro'y beradigan fikrlar, his - kechinmalar, tashvishu - quvonchlar almashinuvini nazarda tutadi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular o'rtasida umumiylik, o'xshashlik va uyqunlik kabi sifatlar paydo bo'ladiki, ular bir - birlarini birqarashda tushunadigan yoki "yarimta jumladan" ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim xollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni - bir - biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona - bola, qaynona - kelin va x-zo). O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari - o'zaro til topishish, bir - birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, "jozibasi", betakrorligi shundaki, o'zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz . Siz undan xol - ahvol so'ratingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom - alikni bajo keltirib o'tib ketavergan bo'lardingiz. Ya'ni, muloqot faoliyati shunday shart - sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma - xilligi namoyon bo'ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o'ziga jalb etadi. Harqanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar.

XXI asr bo'sag'asida odamning eng tabiiy bo'lgan muloqotga ehtiyoji, uning sirlaridan xabardor bo'lish va o'zgalarga samarali ta'sir eta olishga bo'lgan intilishi yanada oshdi va buning qator sabablari bor.

Birinchidan, industrial jamiyatdan axborotlar jamiyatiga o'tib bormoqdamiz. Axborotlarning ko'pligi aynan inson manfaatiga aloqador ma'lumotlarni saralash, u bilan to'g'ri munosabatda bo'lishni taqozo etdi. Axborot XXI asrda eng nodir kapitalga aylanadi va bu o'z navbatida insonlarga zarur axborotlar uzatilishi tezligi va tempini o'zgartiradi.

Ikkinchidan, turli kasb - faoliyat sohasida ishlayotgan odamlar guruhining ko'payishi, ular o'rtasida munosabatlar va aloqaninng dolzarbligi axborotlar tig'iz sharoitda oddiygina muloqotni emas, balki professional, bilimdonlik asosidagi muloqotni talab qiladi. Umuman, XXI asrning korporasiyalar asri bo'ladi, deb bashorat qilayotgan iqtisodchilar ham bu korporasiya insonlarning o'zaro til topishlariga qaratilgan malakalarning rivojlangan, mukammal bo'lishi haqida gapirmoqdalar. Undan tashqari, bu kabi korporativ aloqa ko'p xollarda bevosita yuzma - yuz emas, balki zamonaviy texnik vositalar - uyali aloqa, fakslar, elektron pochta, Internet kabilar yordamida aniq va lo'nda fikrlarni uzatishni nazarda tutadi. Bu ham o'ziga xos muloqot malakalarining ataylab shakllantirilishini taqozo etadi.

Uchinchidan, oxirgi paytlarda shunday kasb - hunarlar soni ortdiki, ular sotsionomik guruh kasblar deb atalib, ularda “odam - odam” dialogi faoliyatning samarasini belgilaydi. Masalan, pedagogik faoliyat, boshqaruv tizimi, turli xil xizmatlar (servis), marketing va boshqalar shular jumlasidandir. Bunday sharoitlarda odamlarning ataylab muloqot bilimdonligining oshirilishi mehnat mahsulini belgilaydi. Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o'rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug'ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o'rni va saloqiyyati keskin oshdi.

Shaxslararo muomalaning shaxs taraqqiyotidagi o'rni. Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan, muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini taxlil qilamiz. Harqanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o'zaro bir - birini tushunishlarini ta'minlashdir. Bu o'zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O'zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko'rishadi, so'rashadi, xol - ahvol so'raydi. Shunisi xarakterliki, ta'ziyaga borgan chog'da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz. Bu kabi birlamchi kontakt usullari boshqa millat va xalqlarda ham bor, ya'ni bu jihat milliy o'ziga xoslikka ega.

Uning ikkinchi muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o'ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o'g'rilanib ketilishi, so'ng ma'lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo'lishi faktarlari shuni ko'rsatganki, “mauglilar” biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko'plab psixologik eksperimentlarda o'z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlandıradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo'li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o'zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, ko'plab tadqiqotlarda izolyasiya, ya'ni odamni yolg'izlatib qo'yishning uning ruhiyatiga ta'siri o'rganilgan. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo'lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg'izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o'zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o'zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o'rganishgan. Lekin baribir harqanday yolg'izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, xadiksirash, xavotirlanish, o'ziga ishonchsizlik, qayg'u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqki, yolg'izlikka mahkum bo'lganlar ma'lum vaqt o'tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko'rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo'lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo'lar ekan. Masalan, bir **M.Sifr** degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g'or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o'tgach, u turgan yerda bir o'rgimchakni ushlab

oladi va u bilan dialog boshlanadi. **“Biz, deb yozadi u , shu hayotsiz g’or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o’rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg’ura boshladim...”**

Shaxsning muloqotga bo’lgan ehtiyojining to’la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta’sir ko’rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o’zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko’pincha odamni ishlash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o’tirib qilinadigan ishlar, birgalikda yonma - yon turib bajariladigan operasiyalarda odamlar o’z oldida turgan hamkasbiga qarab ko’proq, tezroq ishlashga kuch va qo’shimcha iroda topadi. To’g’ri, bu hamkorlikda o’sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o’rtasida o’zaro simpatiya hissi bo’lsa, unda odam ishga “bayramga kelganday” keladigan bo’lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdorlikka bevosita ta’sirini o’rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya’ni so’rovnoma asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o’zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo’lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi va samaradorlikning muhim omillaridandir. Insoniy muomala va muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir - birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko’zlagan maqsadlaridan biri - o’zaro bir - birlariga ta’sir ko’rsatish, ya’ni fikr - g’oyalariga ko’ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o’zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Psixologik ta’sir - bu turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti - harakatlariga ta’sir ko’rsata olishdir.

Ijtimoiy psixologiyada psixologik ta’sirning asosan uch vositasi farqlanadi.

1. Verbal ta’sir - bu so’z va nutqimiz orqali ko’rsatadigan ta’sirimizdir. Bundagi asosiy vositalar so’zlardir. Ma’lumki, **nutq** - bu so’zlashuv, o’zaro muomala jarayoni bo’lib, uning vositasi - so’zlar hisoblanadi. **Monologik nutqda** ham, dialogik nutqda ham odam o’zidagi barcha so’zlar zahirasidan foydalanib, eng ta’sirchan so’zlarni topib, sherigiga ta’sir ko’rsatishni qo’xlaydi.

Paralingvistik ta’sir - bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to’xtashlar, duduqlanish, yo’tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi. Shunga qarab, masalan, do’stimiz bizga biror narsani va’da berayotgan bo’lsa, biz uning qay darajada samimiyligini bilib olamiz. Kuyib - pishib, ochiq yuz va dadil ovoz bilan “Albatta bajaraman!”, desa ishonamiz, albatta.

Noverbal ta’sirning ma’nosi “nutqsiz”dir. Bunga suhbatdoshlarning fazoda bir - birlariga nisbatan tutgan o’rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir - birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir - birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi. Masalan, agar uchrashuvning dastlabki daqiqalarida

o'rtog'ingiz sizga qaramay, atrofga alanglab, "Ko'rganimdan biram xursandman", desa, ishonasizmi? Muloqot jarayonidagi xarakterli narsa shundaki, suhbatdoshlar bir - birlariga ta'sir ko'rsatmoqchi bo'lishganda, dastavval nima deyish, qanday so'zlar vositasida ta'sir etishni o'ylar ekan. Aslida esa, o'sha so'zlar va ular atrofidagi harakatlar muhim rol o'ynarkan. Masalan, mashhur amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7%, paralingvistik omillar 38%, va noverbal harakatlar 55% gacha ta'sir qilarkan. Keyinchalik bu munosabat o'zgarishi mumkin albatta, lekin xalq ichida yurgan bir maqol to'g'ri : **"Ust – boshga qarab kutib olishadi, aqlga qarab kuzatishadi"**.

Muloqotning qanday kechishi va kimning ko'proq ta'sirga ega bo'lishi sheriklarning rollariga ham bog'liq. Ta'sirning tashabbuskori - bu shunday sherikki, unda ataylab ta'sir ko'rsatish maqsadi bo'ladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun barcha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydaladi. Agar boshliq ishi tushib, biror xodimni xonasiga taklif etsa, u o'rnidan turib kutib oladi, iltifot ko'rsatadi, xol - ahvolni ham quyuqroq so'raydi va so'ngra gapning asosiy qismiga o'tadi.

Ta'sirning adresati - ta'sir yo'naltirilgan shaxs. Lekin tashabbuskorning suhbatga tayyorgarligi yaxshi bo'lmasa, yoki adresat tajribaliroq sherik bo'lsa, u tashabbusni o'z qo'lga olishi va ta'sir kuchini qayta egasiga qaytarishi mumkin bo'ladi.

Muloqot va o'rganish muammolari. Oxirgi yillarda **"professionalizm"** tushunchasi tez - tez ishaltiladigan bo'lib qoldi. Chunki jamiyatda tub islohotlarni amalga oshirish, mehnat unumdorligini "inson omili"ni takomillashtirish hisobiga oshirish davr talabi bo'lib qoldi. Ayniqsa, odamlarni boshqarish sohasidagi professionalizmga katta e'tibor qaratilmoqda. Juda ko'pchilik mutaxassislar barcha bajaradigan funksiyalari orasida odamlar bilan til topishish, ularga ta'sir ko'rsatish, ular faoliyatini to'g'ri tashkil qilish va boshqarish eng murakkablaridan ekanligini e'tirof etmoqdalar. Odamlar bilan normal munosabatlarni o'rnatish, ayniqsa, biznes sohasida amaliy sheriklarning holatlari, kutishlarini aniqlay olmaslik, o'z nuqtai nazariga o'zgalarni professional tarzda ko'ndira olmaslik, "birov"ni, uning ichki kechinmalari va o'ziga bo'lgan munosabatini aniq tasavvur qila olmaslik amaliy psixologiyada kommunikativ uquvsizlik, yoki diskommunikatsiya holatini keltirib chiqaradi. Bunda odamlar oddiy til bilan aytganda, bir - birlarini tushunolmay qoladilar, shuning oqibatida pishib turgan loyiha yoki yaxshi reja amalga oshmasligi, bir necha oylarga cho'zilib ketishi mumkin. Shuning uchun ham hozirgi zamon ijtimoiy psixologiyasining tadbqiqiy yo'nalishida, boshqaruv psixologiyasida katta yoshli odamlarni kommunikativ bilimdonlikka o'rgatish, ularda zarur kommunikativ malakalarni hosil qilishga katta ahamiyat berilmoqda. har bir korxona, xususiy firma yoki davlat muassasasini boshqaruvchi menedjer, rahbar tayyorlash muammosi ana shu rahbarlarni, boshqaruvchilarni psixologik jihatdan odamlar bilan ishlashga o'rgatish muammosini chetlab o'tolmaydi. Umuman, hozirgi davrda har qanday mutaxassis - vrach, muxandis, o'qituvchi, iqtisodchi, agronom, quruvchi, jurnalist, madaniyatshunos yoki boshqalar ham kommunikativ malakalarga ega bo'lmaguncha, bozor munosabatlari sharoitida tezda jamoaga kirishib, ko'pchilik bilan til topishib, o'z professoinal mahoratini ko'rsata olmaydi. har bir ziyoli inson boshqalar bilan hamkorlik qilish mahorati va san'atiga ega bo'lishi kerak.

Bu vazifa odamlarni muomala va muloqot etikasiga o'rgatishni harqachongidan ham dolzarb qilib qo'ymoqda. To'g'ri, muloqotga kirishish - ijtimoiylashuv jarayonida barcha sifatlardan oldinroq shakllanadigan qobiliyatlardan, u tabiiy va hayotiy narsa. Bola tili juda yaxshi chiqib ulgurmay, atrofida gilar bilan aktiv muloqotga kirisha boshlaydi. Lekin masalaning paradoksal tomoni ham shundaki, yillar o'tgan sari ongli, aqlli odam har bir gapini o'ylab gapiradigan, har bir qadamini o'ylab bosadigan bo'lib qoladi, bu uning jamiyatdagi mavqesini belgilovchi vositadir. Bu muloqotga kirishishga ruhan tayyorlanishning ahamiyatini ham odam anglashini taqozo etadi. Shunday qilib, ana shu eng tabiiy va bir qarashda oddiy inson faoliyati shu qadar murakkab va serqirradi, uning mexanizmlarini o'rganish, guruhlarda to'g'ri munosabatlarni tashkil etish va odamlarni samarali muloqotga o'rgatish muammosi bugungi ijtimoiy psixologiyaning muhim masalalaridandir.

Ma'lumki, gaplashayotgan odamlar biri gapiradi, ikkinchisi tinglaydi, eshitadi. Muloqotning samaradorligi ana shu ikki qirraning qanchalik o'zaro mosligi, bir - birini to'ldirishiga bog'liq ekan. Noto'g'ri tasavvurlardan biri shuki, odamni muomala yoki muloqotga o'rgatganda, uni faqat gapirishga, mantiqan asoslangan so'zlardan foydalanib, ta'sirchan gapirishga o'rgatishadi. Uning ikkinchi tomoni – tinglash qobiliyatiga deyarli e'tibor berilmaydi. Mashhur amerikalik notiq, psixolog Deyl Karnegi **“Yaxshi suhbatdosh - yaxshi gapirishni biladigan emas, balki yaxshi tinglashni biladigan suhbatdoshdir”** deganda aynan shu qobiliyatlarning insonlarda rivojlangan bo'lishini nazarda tutgan edi.

Mutaxassislarning aniqlashlaricha, ishlayotgan odamlar vaqtining 45%i tinglash jarayoniga ketar ekan, odamlar bilan doimiy muloqotda bo'ladiganlar 35 - 40 % oylik maoshlarini odamlarni “tinglaganlari” uchun olarkanlar. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, kommunikatsiyaning eng qiyin sohalaridan hisoblangan tinglash qobiliyati odamga ko'proq foyda keltirarkan.

Shuning uchun bo'lsa kerak, nemis faylasufi A. Shopengauer **“Odamlarni o'zingiz to'g'ringizda yaxshi fikrga ega bo'lishlarini xohlasangiz, ularni tinglang”** deb yozgan ekan. Darxaqiqat, agar siz kuyunib gapirsangizu, suhbatdoshingiz sizni tinglamasa, boshqa narsa bilan ovora bo'laversa, undan ranjiysiz, nafaqat ranjiysiz, balki u bilan aloqani ham uzasiz. O'qituvchi gapirayotgan paytda uni tinglamaslik odobsizlikning eng keng tarqalgan ko'rinishi deb baholanishini bilasizmi?

Nima uchun biz ko'pincha yaxshi gapiruvchi, so'zlovchi bo'la olamiz-u, yaxshi tinglovchi bo'la olmaymiz? Psixologlarning fikricha, asosiy xalaqit beruvchi narsa - bu bizning o'z fikr - o'ylarimiz va xohishlarimiz og'ushida bo'lib qolishimizdir. Shuning uchun ham ba'zan rasman sherigimizni tinglayotganday bo'lamiz, lekin aslida hayolimiz boshqa yerda bo'ladi. Tinglashning ham xuddi gapirishga o'xshash texnikasi, usullari mavjud. Ularning turi ham ko'p, lekin asosan biz kundalik hayotda uning ikki usulini qo'llaymiz: so'zma - so'z qaytarish va boshqacha talqin etish. Birinchisi, suhbatdosh so'zlarining birqismini yoki yaxliticha qaytarish orqali, sherikni qo'llab-quvvatlashni bildiradi. Ikkinchi usul esa - sherigimiz so'zlarini tinglab, undagi asosiy g'oyani muxtasar, o'zimizning talqinimizda ifoda etish. Ikkala usul ham sherik uchun muhim, chunki u sizning tinglayotganingizni, xattoki, undagi g'oyalarga qarshi emasligingizni bildiradi. Bunday tashqari, biz yaxshi tinglayotgan bo'lib, “Yo'q-eh”,

“Nahotki?”, “qara-ya?”, “Yasha!” luqmalari bilan ham suhbatdoshimizni gapirishga, yana ham o’z fikrlarini oydinlashtirishga chaqirib turamiz.

Demak, aslida bizdagi gapirayotgan shaxs yetakchi, u suhbatning mutloq xokimi, degan tasavvur unchalik to’g’ri emas. Yaxshi tinglashda ham shunday kuch borki, u suhbatdoshni Sizga juda yaqinlashtiradi, ishonchni tug’diradi. Chunki muloqot jarayonidagi eng qimmatli narsa - bu axborotning o’zi. Tinglayotgan odam ma’noli, yaxshi dialogdan faqat yaxshi, foydali ma’lumot oladi. Gapirgan esa aksincha, o’zidagi borini berib, gapirmaydigan suhbatdoshdan “teskari aloqani” olib ulgurmay, hech narsasiz qolishi ham mumkin. Shuning uchun muloqotga o’rgatishning muhim yo’nalishlaridan biri - odamlarni faol tinglashga, bunda barcha paralingvistik va noverbal omillardan o’rinli foydalanishga o’rgatishdir.

Professional tinglash texnikasiga quyidagilar kiradi: **aktiv holat**. Bu - agar kreslo yoki divan kabi mebel bo’lsa, unga bemalol yastanib yoki yotib olmaslik, suhbatdoshning yuzidan tashqari joylariga qaramaslik, mimika, bosh chayqash kabi harakatlar bilan uning har bir so’ziga qiziqayotganligingizni bildirishni nazarda tutadi;

Suhbatdoshga samimiy qiziqish bildirish. Bu nafaqat suhbatdoshni o’ziga jalb qilib, balki keyin navbat kelganda o’zining har bir so’ziga uni ham ko’ndirishning samarali yo’lidir. o’ychan jimlik. Bu suhbatdosh gapirayotgan paytda yuzda mas’uliyat bilan tinglayotganday tasavvur qoldirish orqali o’zingizning suhbatdan manfaatdorligingizni bildirish yo’li.

Agar biz suhbatdoshimizni yaxshi, diqqat bilan tinglasak, bu bilan biz unda o’z - o’ziga xurmatni ham tarbiyalaymiz. Demak, tinglash jarayoni ko’pchilik tasavvur qilgani kabi unchalik passiv jarayon emas ekan. Uning muloqotning samarali bo’lishidagi ahamiyati nihoyatda katta. Chunki tinglash qobiliyati gapiruvchini ilhomlantiradi, uni ruhlantiradi, yangi fikrlar, g’oyalarning shakllanishiga sharoit yaratadi. Shuning uchun ma’ruzachi professorning har bir chiqishi va ma’ruzasi agar talabalar tomonidan diqqat bilan tinglansa, bu pedagogik muloqotdan ikkala tomon ham teng yutadi. Agar muloqot jarayonida ishtirok etuvchi ikki jarayon - gapirish va tinglashning faol o’zaro ta’sir uchun teng ahamiyatini nazarda tutsak, bu jarayon qatnashchilarining psixologik savodxonligi va muloqot texnikasini egallashining ahamiyatini anglash qiyin bo’lmaydi. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiyada odamlarni samarali muloqotga ataylab o’rgatishga juda katta e’tibor beriladi. Bu boradagi fanning o’z uslubi bo’lib, uning nomi ijtimoiy psixologik trening (IPT) deb ataladi. IPT - muloqot jarayoniga odamlarni psixologik jihatdan hozirlash, ularda zarur kommunikativ malakalarni maxsus dasturlar doirasida qisqa fursatda shakllantirishdir. Eng muhimi IPT mobaynida odamlarning muloqot borasidagi bilimdonligi ortadi.

Amaliy muloqot treningi - IPTning bir ko’rinishi bo’lib, u yoki bu professional faoliyatni amalga oshirish jarayonida zarur bo’ladigan kommunikativ malaka, ko’nikma va bilimlarni hosil qilishga qaratilgan tadbirdir. Guruh va jamoalarda muloqot treningi vositasida muzokaralar olib borish, ish yuzasidan hamkorlik qilish yo’l - yo’riqlarini birgalikda topish, katta auditoriya oldida so’zlashga o’rgatish, majlislar o’tkazish, janjalli, konfliktli holatlarda o’zini to’g’ri tutish malakalari hosil qilinadi. Bunday asosiy narsa – trening qatnashchilari ongiga birovlarini tushunish, o’zini o’zga o’rniga g’o’ya olish, boshqalar manfaatlari bilan o’zinikini uyg’unlashtira

olish g'oyasini singdirishdir. Treninglar mobaynida guruhliy munozaralar, rolli o'yinlarning eng optimal variantlari sinab, mashq qilinadi.

Mavzu yuzasidan test savollari:

1. Quyidagilardan qaysi biri noverbal kommunikatsiya vositasi hisoblanadi?
a) til; b) nutq; v) mimika va pantomimika; g) xatti – harakat.
2. Pedagogik muloqot qanday munosabat turi hisoblanadi?
a) shaxslararo munosabat; b) maishiy; v) ish yuzasidan; g) ishlab chiqarish
3. Shaxslararo ziddiyatlar qaysi sabablar ta'sirida vujudga keladi?
a) qiziqishlarning mos kelmasligi; b) mazmunli to'siqlar; v) e'tiqodlarning mos kelmasligi; g) muloqotdan qoniqmaslik.
4. Refleksiya bu:
a) muloqotdagi aks ta'sir; b) suhbatdosh qanday tushunayotganligini to'g'ri idrok qilish; v) kishini kishi tomonidan idrok qilish; g) muloqotdagi o'zaro baholash.
5. Muloqot treningining vazifasi nima?
a) muomalaning umumiy qonuniyatlari va texnologiyasini o'rgatish;
b) takrorlash orqali shartli reflekslar hosil qilish;
v) muomala jarayonida mashq qildirish; g) pedagogik muloqotga tayyorlash.

Mavzu yuzasidan nazorat savollari:

1. Muomala, muloqot, aloqa, munosabat tushunchalari o'rtasidagi aloqa qanday?
2. Muloqotning asosiy vazifasini ayting?
3. Hayvonot olamidagi munosabat qanday tabiatga ega?
4. Tilning vazifalari qanday?
5. Nutq turlariga misollar keltiring?
6. Noverbal vositalar muloqotda qanday ahamiyatga ega?

Muloqotga kirishuvchanlikni aniqlash metodikasi:

Berilgan savollarga “ha”, “yo'q”, “ba'zan” deb javob bering.

1. Ish yuzasidan uchrashuv o'tkazish kerak. Uni kutish sizni hayajonlantiradimi?
2. Vrach huzuriga borishni oxirgi vaqtgacha qoldirasizmi?
3. Anjuman, simpozium va yig'ilishlarda ma'ruza, axborot va xabarlar bilan qatnashish sizda noxush holatni vujudga keltiradimi?
4. Sizga hech qachon bo'lmagan shahringizga xizmat safariga borish taklif qilindi. Bu safardan voz kechish uchun imkoniyatni ishga solasizmi?
5. O'z kechinmalaringizni boshqalar bilan o'rtoqlashishni yoqtirasizmi?
6. Ko'chada notanish kishi sizga iltimos bilan (vaqtni aytish, yo'lni ko'rsatib yuborish va boshqalar) murojaat qilsa achchiqlanasizmi?
7. “Ota va bola” muammosining mavjudligi, turli avlod vakillari bir - birini tushunishi qiyin ekanligiga ishonasizmi?
8. Tanishingizga sizdan bir necha oy avval olgan qarzini berishni unutib qo'yganini eslatishga uyalasizmi?
9. Restoran yoki oshxonada sizga sifatsiz taom berishdi. Asabiylashmay jimgina tarelkani surib qo'yasizmi?
10. Notanish kishi bilan yolg'iz qolganda siz birinchi bo'lib suhbat boshlaysizmi?
11. Turli uzundan - uzoq navbatlardan cho'chiysizmi? (magazin, kutubxona, kino - teatr). O'z xohishingizdan voz kechasizmi yoki navbatda turib, kutasizmi?
12. Janjalli vaziyatlarni hal qiladigan komissiyalarda ishtirok etishdan qo'rqasizmi?

13. Adabiyot, san`at, madaniyat asarlarini baholashda o`z bahongiz mavjud? Boshqalar fikrini e`tiborga olasizmi?

14. Sizga yaxshi tanish bo`lgan masala yuzasidan xato fikrni eshitib, jim tura olasizmi?

15. Biror kishi u yoki bu xizmat yuzasidan muammoni hal qilish uchun yordam so`rsa norozilik tug`iladimi?

16. O`z nuqtai nazarinigizni (fikringizni) og`zakiga qaraganda yozma holda to`la bayon eta olasizmi?

Har bir **“ha”** javob uchun — 2 ball, **“ba`zan”** javobi uchun — 1 ball, **“yo`q”** javob uchun — 0 ball beriladi. Umumiy ball qo`shib hisoblanadi.

30 - 32 ball — Siz muloqotga kirishishga qiynalasiz. Lekin sizning tanishlaringizga ham qiyin. Chunki guruhliy bajariladigan vazifalarda sizga ishonish qiyin.

25 - 29 ball — Siz kamgap, yolg`izlikni yoqtiradigan kishisiz. Yangi ishdagi aloqalar sizni anchagacha muvozanatdan chetga chiqaradi.

19 - 24 ball — Siz ancha muloqotga tez kirishuvchisiz, notanish vaziyatda o`zingizni yaxshi tutasiz. Yangi muammolar sizni cho`chitmaydi. Yangi tanishlar bilan silliq munosabatda bo`lasiz.

14 - 18 ball — Sizda muomalaga kirishish normada. Ko`p narsani bilishga qiziqasiz, suhbatdoshingizni yaxshi tinglaysiz, boshqalar bilan suhbatda o`zingizni bosiq tutasiz, o`z fikringizda qat`iy turasiz. Lekin turli shovqinli, ko`p gaplar bo`ladigan vaziyatlar sizda qo`zg`alishni vujudga keltiradi.

9 - 13 ball — Siz normada yuqori darajada muloqotga kirishuvchansiz. Ko`p narsani bilishga, ko`p gapirishga, turli mavzularda fikrlashni bayon etishga harakat qilasiz. Odamlar bilan tez tanishasiz, barchani e`tiborida bo`lishga, qo`lingizdan kelmasa ham boshqalar iltimosini bajarishga harakat qilasiz.

4 - 8 ball — Haddan tashqari muomalaga kirishuvchansiz. Barcha sohalar bo`yicha ma`lumotga egasiz. Turli bahs va tortishuvlarda ishtiroq etishga harakat qilasiz. Har qanday mavzuda, u sizga judayam yuzaki tanish bo`lsa ham so`z olishingiz mumkin. Har qanday ishni uddasidan chiqa olmasangiz ham harakat qilib ko`rasiz.

3 - va undan kam ball bo`lsa juda ko`p gapirasiz, o`zingizga aloqador bo`lmagan narsalarga ham aralashaverasiz. Boshqalar uchun siz bilan, uyda, ishda va boshqa joyda muomalada bo`lish juda qiyin.

Adabiyotlar ro`yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O`zbekiston kelajagining poydevori. –T., 1997.
2. Davletshin M.G, To`ychieva M. Umumiy psixologiya. –T., 2002.
3. Karimova V.M. Psixologiya. –T., 2000.
4. Klimov E.A. Psixologiya professionala. –M., 1997.
5. Komilov N. Tasavvur va komil inson axloqi. –T.,1996.
6. Krijanskaya Yu.S. , Tretyakov V.P. Grammatika obsheniya.- L., 1990
7. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya. –M., 1997.
8. Nemov R.S. Psixologiya. –M., Prosveshenie. 2004.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Qonun hujjatlari:

1. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. – T., 1997. 29 avgust. – 7 b.
2. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. – T., 1997. 29 avgust. 9-10 b.
3. «O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun darsliklar va o'quv adabiyotining yangi avlodini yaratish to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgustdagi 341-sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "Ijtimoiy gumanitar fanlar bo'yicha ma'ruza matnlarini tayyorlash va nashr etish to'g'risida"gi 2000 yil 19 iyun 176 sonli buyrug'i.

Asosiy adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod- O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.1997.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T., 1998. 64 b.
3. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida. T. 1998.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. T. 1999.
5. Karimov I.A. O'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan qurmoqdamiz. – T.: O'zbekiston, 1999.– 351 b.
6. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999.
7. Karimov I.A. Barkamol avlod orzusi. – T.: Sharq, 1999. –241 b.
8. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – T.: O'zbekiston, 2000.– 323 b.
9. Karimov I.A. 8-tom. "Ozod va obod Vatan erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz".T."O'zbekiston".2000.
10. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekiston, 2005. –96 b.
11. Karimov I. A. Donishmand xalqimning irodasiga ishonaman. "Fidokor" gazetası muxbiri savollariga javoblari. "Fidokor" 8 iyun. 2005
12. Karimov I.A. Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim. «Xalq so'zi» gazetası, 2006 yil 10 fevral.
13. Badmayev YE. L. Psixologiya: kak yeyo izuchat i usvoit. M.1998
14. Gippenreyter Yu.B. Vvedenie v obshuyu psixologiyu : kurs leksiy. M., 2002.
15. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDU, 2002 (o'quv qo'llanma).
16. Davletshin M.G., To'ychieva M. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
17. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya . T.2002.
18. Dormashev Yu.B., Romanov V.Ya. Psixologiya vnimaniya. M., 2003.
19. Deyl Kornegi. Muomala sirlari. Toshkent, 1992.
20. Ivanov P.I. Zufarova M.E Umumiy psixologiya, (darslik) Toshkent – 2008
21. Karimova V.M. Psixologiya. o'quv qo'llanma. Toshkent, 2002.
22. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent, 1999.

- 23.Karimova V.M. Psixologiya. Toshkent, 2002.
- 24.Karimova V.M. Akramova F.A. Psixologiya. T.2002.
- 25.Mahsudova M. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma, Namangan, 2007
- 26.Nemov R.S. Prakticheskaya psixologiya. M.I 998.
- 27.Nemov R.S. Psixologiya. Toshkent, 2003.
- 28.Petrovskiy A.V., Yaroshevskiy M.G. Osnovi teoriticheskoy psixologii.M., 1998.
- 29.Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii. M., 2003.
- 30.Sunnatova R.I., Karimova V.M., Tojiboeva R.N. Mustaqil fikrlash. Toshkent, 2000.
- 31.Umumiy psixologiya. A.V.Petrovskiy tahririda. Toshkent, 1992.
- Haydarov F. Jo'rayev N. Tojiyeva S. Psixologiya tarixi, (ma'ruzalar matni) T-2003
- 32.Xaydarov F.I., Xalilova N.I., Umumiy psixologiya, (darslik) Toshkent, 2010.
- 33.Xodiev V., Golish L. Mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uslub va vositalari. Toshkent, 2006.
- 34.G'oziev E.G', Toshimov R.Yu. Psixologiya o'qitish metodikasi. Toshkent, 2005.
- 35.G'oziev E.G'. Psixologiya. Toshkent, O'zMU, "Universitet", 2003.
- 36.G'oziev E.G'. Muomala psixologiyasi. Toshkent, 2001.
- 37.G'oziev E.G'. Xotira psixologiyasi. Toshkent, 1994.
- 38.G'oziev E.G'. Tafakkur psixologiyasi. Toshkent, 1990.
- 39.G'oziev E.G'.Umumiy psixologiya. I-II kitob, Toshkent, 2004.
- 40.G'oziev E.G', Tursunov S.L. Psixologiyada mukammal Lug'at tuzish xususiyatlari. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2005.
- 41.G'oziev E.G.,Jabborov A. Faoliyat va xulq-atvor motivatsiyasi (qo'llanma). Toshkent, 2003.
- 42..G'oziyeva N.Sh. Xojimatova N "Psixologiya tarixi" fanidan ma'ruzalar matni Angren – 2005

MUNDARIJA

1-mavzu: Psixologiya fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Fanning ilmiy-tadqiqot metodlari _____	5 – 26
2-mavzu: Psixologiya tarixi _____	26 – 47
3-mavzu: Faoliyatning psixologik tahlili _____	47 – 57
4-mavzu: Shaxs psixologiyasi _____	57 – 69
5-mavzu: Shaxs taraqqiyotining davrlarga bo'linishi _____	69 – 80
6-mavzu: Bilish jarayonlari. Diqqat _____	80 – 86
7-mavzu: Sezgi va Idrok _____	81 – 99
8-mavzu: Xotira _____	99 – 111
9-mavzu: Xayol _____	111 – 117
10-mavzu: Tafakkur _____	117 – 130
11-mavzu: Hissiyot va Iroda _____	131 – 141
12-mavzu: Temperament _____	141 – 149
13-mavzu: Xarakter _____	149 – 157
14-mavzu: Qobiliyat _____	158 – 167
15-mavzu: Nutq va Muloqot _____	168 – 175
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati _____	176 – 177